

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

## **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**3.2023**

**научно-теоретический, методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2023**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ravshanbek**, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),  
**ABDULLAYEV O'tkir**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DAVLETOV Sanjarbek**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**DO'SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYAZOV Maqsud**, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Otaboy**, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**PRIMOV Azamat**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zMU),  
**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SALAYEVA Muxabbat Soburovna**, pedagogika fanlari doktori (UrDU),  
**SATIPOV G'oiptazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori (UrDU),  
**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 3 (189)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

**Kamolov Xursandbek Qurolboyevich (Urganch davlat universiteti  
tayanch doktoranti; xkamolov@mail.ru)**

**ANALITIK SIRTLARDA XARTOGS LEMMASINING BIR UMUMLASHMASI**

**Annotatsiya.** Ushbu ishda bo‘sh bo‘lmagan maxsusliklarga ega analitik to‘plamda potentsiallar nazariyasining asosiy obyekti bo‘lgan plurisubgarmonik funksiyalar sinfini o‘rganishning yangi metodlari keltirilib, analitik sirtlar ustida Xartogs lemmasining bir umumlashmasi isbotlanadi.

**Аннотация.** В работе представлены новые методы исследования класса плюрисубгармонических функций, являющихся основным объектом теории потенциалов в аналитическом множестве с непустыми особенностями, и доказано обобщение леммы Гартогса об аналитических по-верхностях.

**Annotation.** In this work, new methods of studying the class of plurisubharmonic functions, which are the main object of the theory of potentials in an analytic set with non-empty singularities, are presented and a generalization of Hartogs' lemma on analytic surfaces is proved.

**Kalit so‘zlar:** analitik to‘plam, plurisubgarmonik funksiya, kompleks ko‘pxillik, analitik qoplama.

**Ключевые слова:** аналитическое множество, плюрисубгармоническая функция, комплексное многообразие, аналитическое накрытие.

**Key words:** analytic set, plurisubharmonic function, complex manifold, analytic covering.

Analitik to‘plamlar ustidagi plurisubgarmonik funksiyalarni birinchilardan 1982-yilda A.Sadullaev<sup>1</sup> tomonidan kiritilgan bo‘lib, analitik to‘plam bo‘lagining algebraikligining lokal mezonini aniqlash maqsadida o‘rganilgan. Keyinchalik, 1991-yilda A.Zeriahi<sup>2</sup> tomonidan analitik to‘plamlarning xususiy holi bo‘lgan algebraik to‘plamlar ustida plurisubgarmonik funksiyalar sinfining ba‘zi potensial xossalari o‘rganilgan. Ushbu ishda biz maxsusliklarga ega bo‘lgan analitik to‘plamda A.Sadullaev ta‘rifi asosida aniqlangan plurisubgarmonik funksiyalar sinfining ba‘zi muhim xossalari o‘rganamiz.

Dastlab, analitik sirt tushunchasiga to‘xtalib o‘tamiz.

**1-ta‘rif.** Agar  $X \subset \mathbb{C}^N$ ,  $\dim X = n$ , keltirilmaydigan analitik to‘plam bo‘lib,  $\mathbb{C}^N$  kompleks fazoda-gi har qanday shar  $B(0, r) \subset \mathbb{C}^N$  uchun  $X \cap B(0, r)$  kesishma  $X$  da kompakt yotsa, ya‘ni  $X \cap B(0, r) \subset\subset X$  bo‘lsa, u holda  $X$  ga analitik sirt deyiladi.

$X$  analitik sirtida plurisubgarmonik funksiyalarni aniqlash uchun,  $X$  to‘plamning oddiy (regular) nuqtalari to‘plamini  $X^0 \subset X$  bilan belgilaymiz.  $X \setminus X^0$  esa kritik (singular) nuqtalar to‘plami,  $\dim X \setminus X^0 < n$  kichik o‘lchamli analitik to‘plam bo‘lib,  $X$  analitik to‘plamni bo‘lmaydi.  $X^0$  regular nuqtalar to‘plami  $\mathbb{C}^N$  kompleks fazoda  $n$  o‘lchamli qism kompleks ko‘pxillik bo‘ladi.<sup>3,4</sup>

**2-ta‘rif** (Sadullaev<sup>5</sup>). Agar  $X$  – analitik to‘plamning qismi bo‘lgan  $D$  sohada aniqlangan  $u(z)$  funksiya  $D$  da yuqoridan lokal chegaralangan va  $D \cap X^0$  ko‘pxillikda  $u(z) \in psh(D \cap X^0)$  plurisubgarmonik funksiya bo‘lsa, u holda  $u(z)$  funksiya  $D$  sohada plurisubgarmonik deyiladi.

$D$  sohada plurisubgarmonik funksiyalar sinfini  $psh(D)$  belgilaymiz. Qulaylik uchun  $u(z) \equiv -\infty$  funksiyani ham  $psh(D)$  sinfga kiritamiz. Tabiiy savol tug‘iladi, ya‘ni kritik nuqtalarda plurisubgarmonik funksiyaning qiymati qanday aniqlanadi? Agar  $z \in X \setminus X^0$  nuqta bo‘lsa,  $u(z)$  funksiyani  $u^*(z) = \overline{\lim}_{w \rightarrow z} u(w)$ ,  $z \in D$  limit bilan

aniqlaymiz va plurisubgarmonik funksiyalarni o‘rganishda  $D$  ning ham-ma yerida aniqlangan  $u^*(z)$  funksiya o‘rganiladi.  $u^*(z)$  funksiya  $D$  da yuqoridan yarim uzluksiz bo‘lib, barcha  $C \in \mathbb{R}$  uchun  $\{z \in D: u^*(z) < C\}$  – to‘plam ochiq va  $\forall z \in X^0 \cap D$  uchun  $u^*(z) = u(z)$  bo‘la-di.

$X$  analitik sirtida plurisubgarmonik funksiyalarning ba‘zi muhim xossalari keltiramiz.

1)  $D \subset X$  da plurisubgarmonik funksiyalarning nomanfiy sonlarga ko‘paytmasining chiziqli kombi-natsiyasi ham plurisubgarmonik bo‘ladi, ya‘ni agar  $u_j^*(z) \in psh(D)$ ,  $\alpha_j \geq 0, j = 1, 2, \dots, s$  bo‘lsa, u holda

$$\alpha_1 u_1^*(z) + \dots + \alpha_s u_s^*(z) \in psh(D);$$

2) monoton kamayuvchi plurisubgarmonik funksiyalar ketma-ketligining limiti plurisubgarmonik funksiya bo‘ladi. Ya‘ni,

$$u_j^*(z) \in psh(D) (j = 1, 2, \dots), \quad u_j^*(z) \searrow u^*(z) \Rightarrow u^*(z) \in psh(D);$$

3) tekis yaqinlashuvchi plurisubgarmonik funksiyalar ketma-ketligi plurisubgarmonik funksiyaga yaqinlashadi. Ya‘ni

<sup>1</sup> Sadullaev A. An estimate for polynomials on analytic sets, Math. USSR Izv. 20 (1983), p. 493 – 502.

<sup>2</sup> Zeriahi A. Pluricomplex Green function with pole at infinity on a parabolic Stein space and applications, Math. Scand. 69 (1991), 1, 89–126 (French). <https://doi.org/10.7146/math.scand.a-12371>

<sup>3</sup> Chirka E.M. Complex analytic sets, Math. Appl. (Soviet Ser.). Vol. 46, Kluwer Acad. Publ., Dordrecht, 1989.

<sup>4</sup> Hervé M. Several complex variables. Local theory, L., Oxford University Press, 1963.

<sup>5</sup> Sadullaev A. An estimate for polynomials on analytic sets, Math. USSR Izv. 20 (1983), p. 493 – 502.

$$u_j^*(z) \in psh(D) \quad (j = 1, 2, \dots), \quad u_j^*(z) \xrightarrow{u} u^*(z) \Rightarrow u^*(z) \in psh(D);$$

1) – 3) xossalarning isboti plurisubgarmonik funksiyalarning yuqorida keltirilgan ta'rifdan bevo-sita kelib chiqadi.

$X$  sirt kritik nuqtalarga bo'lgani sababli, maksimum prinsipini isbotlash metodi klassik holatdagi-dan farqli qiladi. Shunday bo'lsa ham, biz keyingi qismda beradigan Xartogs lemmasini isbotlashda bu metodga to'xtalamiz. Shuning uchun bu xossani isbotsiz keltirib o'tamiz;

4) maksimum prinsipi.  $u^*(z) \in psh(D)$  funksiya uchun  $D \subset X$  da maksimum prinsipi bajariladi, ya'ni, agar  $u^*(z) \in psh(D)$  funksiya biror ichki  $z^0 \in D$  nuqtada  $u^*(z^0) = \sup_D u^*(z)$  bo'lsa, u holda  $u^* \equiv const$  bo'ladi.

Ma'lumki, plurisubgarmonik (subgarmonik) funksiyalar nazariyasida yuqoridan lokal tekis chegaralangan funksiyalar sinfi muhim ahamiyatga ega. Biz qarayotgan analitik sirtlarda berilgan plurisubgarmonik funksiyalar sinfi uchun ham bu sinf muhim. Agar har bir  $z^0 \in D \subset X$  nuqta uchun shunday atrof  $B(z^0, r) \subset \subset \mathbb{C}^N$ ,  $D \cap B(z^0, r) \subset \subset D$  va shunday  $M$  o'zgarimas son topilsaki,  $\{u_\alpha^*(z)\} \subset psh(D)$ ,  $\alpha \in \Lambda$  sinfdan olingan har bir  $u_\alpha^*(z)$  funksiya uchun ushbu

$$u_\alpha^*(z) \leq M, \quad \forall z \in D \cap B(z^0, r)$$

tengsizlik bajarilsa,  $\{u_\alpha^*(z)\}$  sinfga  $D$  da yuqoridan lokal tekis chegaralangan plurisubgarmonik funksiyalar sinfi deyiladi;

5) agar  $\{u_\alpha^*(z)\}$ ,  $\alpha \in \Lambda$  yuqoridan lokal tekis chegaralangan plurisubgarmonik funksiyalarning ixti-yoriy oilasi va  $u(z) = \sup_\alpha \{u_\alpha^*(z)\}$  bo'lsin, u holda regularlangan  $u^*(z) = \overline{\lim}_{w \rightarrow z} u(w)$ ,  $w \in D \cap X^0$  funksiya  $D$  da plurisubgarmonik bo'ladi;

6) agar  $\{u_j^*(z)\}$  lokal tekis yuqoridan chegaralangan plurisubgarmonik funksiyalar ketma-ketligi bo'lib,  $u(z) = \overline{\lim}_{j \rightarrow \infty} u_j^*(z)$  bo'lsin, u holda  $u^*(z)$  funksiya plurisubgarmonik bo'ladi;

5) va 6) xossalar klassik holatga o'xshash tarzda isbotlanadi.

$X$  analitik sirtning kritik nuqtalari mavjudligi sababli, bu holatdagi Xartogs lemmasiga klassik vari-antdagi isbotlash metodi to'g'ridan to'g'ri o'tmaydi, ammo sirtning kritik nuqtalari bo'lmasa, ko'p xillik-lardagi Xartogs lemmasi bo'ladi.<sup>1</sup>

**Teorema (Xartogs lemmasi).** Faraz qilaylik,  $n$ -o'lchamli  $X$  analitik sirtning  $D$  ochiq qism to'p-lamida aniqlangan  $\{u_j\}$  – yuqoridan lokal tekis chegaralangan plurisubgarmonik funksiyalar ketma-ketligi berilgan bo'lib,  $g(z) \in C(D)$  funksiya uchun

$$\overline{\lim}_{j \rightarrow \infty} u_j^*(z) \leq g(z), \quad \forall z \in D \quad (1)$$

bo'lsin.  $U$  holda, har qanday  $\varepsilon > 0$  va  $K \subset \subset D$  kompakt uchun shunday  $j_0 = j_0(\varepsilon, K) \in \mathbb{N}$  topiladiki,  $\forall j \geq j_0, \forall z \in K$  da

$$u_j^*(z) \leq g(z) + \varepsilon \quad (2)$$

tengsizlik bajariladi.

**Isbot.** Avval,  $g(z)$  funksiyani o'zgarimas deb faraz qilib, shu holat uchun teorema tasdig'i o'rinli bo'lishini ko'rsatamiz. Ya'ni  $g(z) = A$ ,  $A = const$ . Masala lokal bo'lgani uchun,  $D$  ga tegishli nuqta-ning yetarlicha kichik atrofida berilgan analitik to'plam bo'lagi uchun isbotlash yetarli. Umumiylikni buz-masdan  $A = 0$  deb olamiz. Aytaylik, bizga biror  $z^0 \in D$  nuqta berilgan bo'lib, uning  $U = U(z^0, r) \subset \subset \mathbb{C}^N$  ochiq polidoiraviy atrofi bo'lsin.

1-hol. Agar  $z^0 \in D \cap X^0$  regular nuqta bo'lsin, u holda  $U$  polidoirani yetarlicha kichik tanlash mumkinki, natijada  $D \cap U$  analitik qism to'plam biror  $\mathbb{C}^n \subset \mathbb{C}^N$  qism fazoga o'zaro bir qiymatli proyeksiyalandi, ya'ni, o'zaro bir qiymatli  $\pi: D \cap U \rightarrow U' \subset \mathbb{C}^n$  akslantirish mavjud va ushbu  $u_j^* \circ \pi^{-1}$  funksiyalar ketma-ketligi  $U' \subset \mathbb{C}^n$  ustida plurisubgarmonik.  $u_j^* \circ \pi^{-1}$  plurisubgarmonik funksiyalar ketma-ketligi uchun  $U' \subset \mathbb{C}^n$  ochiq to'plamda klassik Xartogs lemmasi o'rinli bo'ladi, ya'ni har bir regular nuq-taning biror atrofida lemma tasdig'i bajariladi.

2-hol. Agar  $z^0$  irregulyar nuqtasi bo'lsa, u holda shunday kompleks tekislik mavjudki  $z^0 \in \Pi \subset \mathbb{C}^N$ :  $\dim \Pi = N - n$ ,  $X \cap \Pi$  – diskret bo'ladi. Demak, shunday  $B(z^0, r) \subset \Pi$ ,  $r > 0$  shar mavjud bo'lib,

$$X \cap B(z^0, r) = \{z^0\}, \quad X \cap \partial B(z^0, r) = \emptyset \quad (3)$$

bo'ladi.

Quyidagi  $z = (z', z)$ ,  $z' = (z_1, \dots, z_n)$ ,  $z = (z_{n+1}, \dots, z_N)$  belgilashlarni olaylik. Umumiylikni buzmaganda, tekislik  $\Pi = \{z' = (z_1, \dots, z_n) = 0\}$  ko'rinishda bo'lsin.  $X$  yopiq bo'lganidan va (3) dan shunday  $'U \ni z^0$  atrofi mavjud bo'lib,  $X \cap \partial B(z', r) = \emptyset$ ,  $\forall z' \in 'U$  bo'ladi. U holda  $\pi: X \cap ['U \times "U] \rightarrow 'U$  akslantirish  $k$  – karrali ( $1 \leq k < \infty$ ) analitik qoplama bo'ladi.

$J \subset 'U$  – bu qoplamaning kritik nuqtalari to'plami bo'lsin. U holda

$$\pi: \{X \cap ['U \times "U] \setminus \pi^{-1}(J)\} \rightarrow 'U \setminus J$$

regular  $k$  – karrali qoplama bo'ladi.

<sup>1</sup> Садуллаев А.С. Голоморфные функции многих переменных. Ургенч, 2005, 168 с.

$$\pi^{-1}(z) \cap \{X \cap [U \times U]\} \setminus \pi^{-1}(J) = \{\alpha_1(z), \dots, \alpha_k(z)\}, \forall z \in U \setminus J \quad (4)$$

va har bir  $z^0 \in U \setminus J$  uchun biror lokal  $W \ni z^0$  atrofida,  $\pi^{-1}(W) \cap \{X \cap [U \times U]\}$  proobrazi  $k$  ta kesishmaydigan  $M_1, M_2, \dots, M_k$  kompleks ko'pxilliklarga ajraladi.  $u_j^*(z) = u_j(z)$  funksiyalar ketma-ketligi har bir  $M_s, s = 1, 2, \dots, k$  ko'pxilliklarda plurisubgarmonikdir.

$$v_j(z) = \max\{u_j^*(z) : z \in \pi^{-1}(z) \cap X \cap [U \times U]\} \quad (5)$$

funksiyalar ketma-ketligi  $U \setminus J$  da plurisubgarmonik va  $U$  da lokal tekis chegaralangan.  $J \subset U$  analitik to'plam, u holda  $v_j^*(z)$  funksiyalar ketma-ketligi  $U$  ga plurisubgarmonik davom qiladi. (1) ga ko'ra  $v_j^*(z)$  plurisubgarmonik funksiyalar ketma-ketligi uchun

$$\overline{\lim}_{j \rightarrow \infty} v_j^*(z) \leq 0, \forall z \in U \quad (6)$$

bo'ladi.

Natijada, klassik Xartogs lemmasiga ko'ra,  $\forall \varepsilon > 0$  va ixtiyoriy kompakt  $E \subset\subset D$ ,  $\pi(E) \subset\subset U$  uchun, shunday  $j_0 \in \mathbb{N}$  topiladiki  $\forall j \geq j_0$  va  $\forall z \in \pi(E)$

$$v_j^*(z) \leq \varepsilon \quad (7)$$

bo'ladi.

(5) va (2) munosabatlardan,  $\forall z \in E$ ,  $\forall j \geq j_0$  uchun  $u_j^*(z) \leq \varepsilon$  o'rinli bo'ladi.

Shunday qilib,  $K$  kompaktga tegishli har bir  $z^0$  nuqta olinganda ham, bu  $z^0$  nuqtani o'z ichiga olgan  $U(z^0, r(z^0)) \subset D$  ochiq to'plam va  $z^0$  ga bog'liq shunday  $j(z^0)$  son topiladiki,  $\forall j \geq j(z^0)$ ,  $z \in U(z^0, r(z^0))$  uchun

$$u_j^*(z) \leq \varepsilon$$

bo'ladi.  $K$  kompakt bo'lishidan, ixtiyoriy ochiq qoplamasidan

$$K \subset \bigcup_{z^0 \in K} U(z^0, r(z^0))$$

chekli sondagi  $U(z^l, r(z^l))$ ,  $l = 1, 2, 3, \dots, m$  qoplamasi ham  $K$  kompaktni qoplaydi. Bundan  $j_0 = \max\{j_0(z^1), j_0(z^2), \dots, j_0(z^m)\}$  belgilash olsak,  $\forall j \geq j_0$ ,  $\forall z \in K$  da

$$u_j^*(z) \leq \varepsilon$$

bo'lishi kelib chiqadi. Bundan,  $g(z)$  o'zgarmas bo'lganda teorema tasdig'i o'rinli bo'ladi.

Endi umumiy holatni, ya'ni,  $g(z) \in C(D)$  funksiya uchun teorema tasdig'i o'rinli bo'lishini ko'rsatamiz.  $g(z) \in C(D)$  funksiya uzluksiz va  $K$  kompakt to'plam bo'lganidan,  $K$  kompaktni chekli sondagi  $K_1, \dots, K_\nu$  kompaktlar birlashmasi deb va har bir  $K_\mu$ ,  $\mu = 1, \dots, \nu$  kompaktlarga mos shunday  $A_\mu = \text{const}$ ,  $\mu = 1, \dots, \nu$  o'zgarmaslar mavjudki, barcha  $z \in K_\mu$  uchun  $g(z) < A_\mu < g(z) + \frac{\varepsilon}{2}$  bo'ladi. Natijada o'zgarmas funksiya uchun o'rinli bo'lgan holatdan,  $j_\mu \in \mathbb{N}$  soni mavjud bo'lib,  $\mu > j_\mu$ ,  $z \in \bar{K}_\mu$  larda  $u_j^*(z) < A_\mu + \frac{\varepsilon}{2}$  bo'ladi. Bundan  $j \geq \max\{j_1, \dots, j_\nu\}$  lar va  $\forall z \in K$  uchun

$$u_j^*(z) < g(z) + \varepsilon$$

o'rinli bo'ladi. Teorema isbot bo'ldi.

Yarim uzluksiz  $g(z)$  funksiyalar uchun Xartogs lemmasi o'rinli bo'lmashligiga misollar qurib ko'rsatilgan.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Садуллаев А.С. Голоморфные функции многих переменных. Ургенч, 2005, 168 с.

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich (SamDCHTI Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, falsafa fanlari doktori, professor)

### JAMIYATDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ESTETIK MADANIYATNING MOHIYATI

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistondagi islohotlar tizimida milliy qadriyatlarga jamiyatning e'tiborini kuchaytirish, fuqarolar va yosh avlod ongida innovatsiyalar bilan ishlash jarayonini yangilab borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada jamiyatning estetik madaniyatini rivojlantirishda yurtimizda milliy qadriyatlarni e'zozlash, fuqarolarning ongiga zamonaviy bilimlar negizida singdirib borish masalalari yoritilgan.

**Аннотация.** В системе реформ в новом Узбекистане актуальное значение приобретает повышение внимания общества к национальным ценностям, обновление процесса работы с инновациями в сознании граждан и молодого поколения. В статье рассматриваются вопросы уважения национальных ценностей в развитии эстетической культуры общества, привития их в сознании граждан на основе современных знаний.

**Annotation.** In the system of reforms in the new Uzbekistan, increasing the attention of society to national values, renewing the process of working with innovations in the minds of citizens and the young generation is gaining urgent importance. The article covers the issues of respecting national values in the development of society's aesthetic culture, inculcating them in the minds of citizens on the basis of modern knowledge.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, milliy qadriyatlar, estetik madaniyat, inson, jamiyat, axloq, ma'naviy kamolot, millat, fuqaro, jamoatchilik, til, ijtimoiy ong.

**Ключевые слова:** духовность, национальные ценности, эстетическая культура, человек, общество, нравственность, духовная зрелость, нация, гражданин, общность, язык, общественное сознание.

**Key words:** spirituality, national values, aesthetic culture, human, society, morality, spiritual maturity, nation, citizen, community, language, social consciousness.

Yangi O'zbekistonda inson qadrining ulug'lanishi bevosita ajdodlarimiz yaratgan milliy qadriyatlarning avlodlar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq holda namoyon bo'lib boraveradi. Bu tarixiy taraqqiyot jarayonida xilma-xil qarashlar, mafkuralar, milliy g'oyalarning asl mohiyatini o'zida aks ettiradi. Vaqt o'tishi bilan, uning o'rniga zamona zayliga qarab yangicha tafakkur va dunyoqarashga ega bo'lgan mafkura va g'oyalar shakllanib boradi. Lekin mafkura va g'oyalar o'zgarib borgani bilan uning asl mohiyati milliy qadriyatlarda saqlanib qoladi. Ana shu mafkura va g'oyalarning qaysi millat yoki xalqqa tegishli ekanligini ko'rsatib, har bir xalqning uzoq asrlar mobaynida shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-psixologik, axloqiy-estetik xususiyatlar, odatlar, ko'nikmalar va an'analarning birligidan milliy qadriyatlari tashkil topadi. "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi. Ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalari dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur" [1.3]. Ana shu tariqa, muayyan xalqning turmush tarzi, hayot haqidagi tushunchalari, madaniyati va tabiat va jamiyat to'g'risidagi dunyoqarashi vujudga keladi.

Xalqlarni tarixan tarkib topgan milliy qadriyatlaridan chetlashtirish, zamonaviy turmush tarzini an'ana va qadimiy qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish jamiyatda ijobiy natija bermaydi. Ijtimoiy erkinlik va milliy o'ziga xoslik, umumiy birlik jamoaviylik hamisha insonlar ezgu g'oyalarga chorlagan. Birinchidan, har bir fuqaroning muayyan millat vakili sifatida hayotda o'z o'rnini va mavqega ega ekanligini belgilash; ikkinchidan, o'zini uzoq asrlar davomida shakllangan millat vakili sifatida ajdodlar milliy qadriyatlari va merosiga voris ekanligini his qilish, uchinchidan, milliy qadriyatlarga ega bo'lish insonning kamsitilishi yoki qoloqligi emas, balki umuminsoniy qadriyatlar sari yo'l ochuvchi fazilat ekanligini tushunib yetish.

Bu jarayonlar mamlakat istiqbolini belgilashda juda katta ahamiyatga egadir. Sh.Mirziyoyev aytganidek, "Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan o'dob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'ri-

fatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir" [2. 276–277].

Shaxs milliy mentalitetini, milliy turmush va istiqbol haqidagi tasavvurlarini shakllantirish, fuqarolarning estetik madaniyatini mustaqillik manfaatlari va maqsadlari yo'lida birlashtirish davlatimiz va jamiyatimiz rivojida ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbaiga aylandi. Iqtisodiy hayotimizda, balki odamlar ongu tafakkurida yangilanish, o'zgarish jarayonlari yangi O'zbekiston islohotlari bilan uyg'unlashmoqda. Bu jarayonda shaxs, xususan, yosh avlodni tarbiyalash masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Shuning uchun bizning milliy qadriyatlarimizga xos bo'lgan ayrim jihatlarni yaxshi bilgan xavfli kuchlar bundan foydalanishga harakat qiladilar. Ana shunday xalqimiz va shaxs tabiatidagi fazilatlaridan o'z g'arazli manfaatlari amalga oshirishda foydalanishga harakat qiluvchilar topiladi. Ularga qarshi turish uchun butun xalqimiz, jamoatchiligimizni estetik madaniyat, ma'rifat, ma'naviyat, axloq-odob va milliy mafkura ruhida tarbiyalamoq zarur. Xalqimizga xos bo'lgan andisha, muruvvat, mehr-oqibat, oriyat, ibo va hay, mulozamat, pokdomonlik va vatanparvarlik singari rang-barang estetik-axloqiy qadriyatlarimiz milliy mentalitetimiz asosini tashkil etar ekan, ularni shaxs qalbi va ongiga singdirish tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil etishi kerak.

Shavkat Mirziyoyev bu jarayonni amalga oshirishda jamiyatda milliy g'oyani kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlaydi. "Milliy g'oyani farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog'chadan va maktabdan boshlashimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o'rganish kerak.

Shu ma'noda, "Besh tashabbus", "Obod qishloq", "Obod mahalla" singari yangi ijtimoiy harakatlar zamirida ham ta'lim-tarbiya, yuksak ma'naviyat kabi ezgu g'oyalarimiz mujassam" [3.149]. Milliy g'oya qanchalik shaxsni yot va g'arazli g'oyalardan himoya qilsa, jamiyatda mustahkam g'oyaviy qurol vazifasini bajarsa, milliy qadriyatlar shunchalik taraqqiy etib, shaxsning estetik ongi, estetik immuniteti va tafakkurini tarbiyalash ham shunchalik ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda shaxsning mafkuraviy va estetik immuniteti faqat bir narsaga ozod, obod Vatandan ravnaqi uchun kurashishga, yurtning yuksak taraqqiyoti uchun qaratilgan. Chunki mafkuraviy immunitet qanchalik jamiyat va millat hayotining eng nozik tomonlari, odamlarning his-tuyg'ulari, orzu umidlari, ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-ma'rifiy va estetik saviyalari bilan bog'liq bo'lsa, bularning barchasi, o'z navbatida, inson estetik immunitetini ham belgilaydi. Eestetik immunitet, estetik ong va tafakkur insonni faqat ijobiy va ijodiy jarayonlar sari yo'naltiruvchi ma'naviy kuch-qudratdir.

Jamiyatda fuqarolar ongi va tafakkuriga salbiy ta'sir etishning oldini olishning eng samarali yo'li milliy qadriyatlarni ularning estetik madaniyati, sog'lom estetik didi va tafakkuri bilan bog'lab rivojlantirishdir. Bugun odamlar ongi va tafakkuri zamon bilan hamnafas o'zgarib, shaxs qalbi, ongi va tafakkurida innovatsion g'oyalarga intilish kuchayib bormoqda. Fuqarolarda o'tmish, hozirgi kun va kelajak haqidagi tasavvur, tushunchalar o'zgarib, shaxsda yangicha dunyoqarash, yangicha tafakkur shakllanishiga, shu yo'l bilan shaxsni ma'rifatli, barkamol qilib tarbiyalash imkoniyatlar paydo bo'ldi.

Fuqarolar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy tomonlarini estetik madaniyat bilan bog'liq bo'lishi bevosita yangi O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir, kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiqko'ngilchanlik, millatidan qat'iy nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgaralar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. Bu yurtida o'z Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom – fuqarolarga xos fazilatdir. Shu urf-odatlar, adabiyot va san'at, qarindosh-urug'chilik, qo'ni-qo'shnichilik, tinchlik va mehnatga muhabbat, estetik madaniyat singari fazilatlar shaxs ongi va qalbini egallab, milliy qadriyatlardan oziqlagan taqdiridagina shaxsda o'zining yorqin ifodasini topadi. Shuningdek, mazkur omillar shunchaki bilim yoki xotira doirasida qolib ketmasdan u ma'naviy mulkka, shaxsning hayotga va ijodkorlik faoliyatiga undovchi estetik ong, estetik tafakkur hamda estetik madaniyat belgisiga ham aylanib boradi.

Estetik ong shaxsni boqimandalik, beg'amlik, befarqlik va loqaydlik kayfiyatidan xalos etib, ularni ijtimoiy faol shaxs darajasiga ko'taradi.

Milliy qadriyatlar haqida gap ketganda, maqsad tarixan shakllangan va hozirgi kunda ham amal qilayotgan ma'naviy-ruhiy omillarni sanab o'tish bilan chegaralanib qolish mumkin emas. O'tmishdan kelayotgan milliy qadriyatlar stixiyali ravishda millat ongi va tasavvurida, qalbida saqlanib qoladi. Biz uchun ana shu millatni millat tarzida ajratib turuvchi, unga muayyan qadriyatlarining vorisi sifatidagi tarixiy hodisa tarzida ko'rsatuvchi xususiyat, belgi, fazilatlarining yangi ijtimoiy munosabatlar sharoitida, yangi milliy manfaat va mafkura asosida yangicha tus olishi va taraqqiy etishi ahamiyatlidir. Jamiyatda

shaxsning milliy mentalitetini shakllantirish va rivojlantirishda birinchi vazifa bo'lib, ularning o'zligini anglash salohiyatini tarbiyalash zarur. Bunda har kim o'zini anglashi uchun u qaysi muhit va qaysi oilada dunyoga kelgani va qoldirgani, qisqasi, ularning estetik madaniyat va merosini chuqur anglash zarur. Agar tarixiy meros va ma'naviy qadriyatlar milliy mentalitetning uyg'onish, yangicha shakllanish omillari hisoblansa, ma'naviyat esa uning taraqqiyot istiqbolini belgilaydi.

Xalqning tarixan shakllangan moddiy-ma'naviy merosini bilish, tiklash va rivojlantirish orqali shaxs o'z tafakkuri va madaniyatini ham boyitadi, islohotlar mohiyati, yangicha islohotlar mazmunini ham chuqurroq anglab yetadi, natijada shaxs o'zini, o'zligini anglaydi, bu jarayon asnosida jamiyatni ham isloh qilib, yangi ideallar, milliy g'oya asosida o'zgartirishga harakat qiladi. Milliy qadriyatlar anglangan taqdirdagina shaxs ruhiyatidan munosib o'rin oladi, kelajak uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi.

Har bir ijtimoiy tizimda shaxslar katta ijtimoiy kuch sifatida umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishga intiladi va o'z orzu-istiklarini ruyobga chiqarish uchun faoliyat olib boradi. Shaxsda paydo bo'layotgan estetik ong va madaniyat, fikrlash qobiliyatlari asta-sekinlik bilan rivojlanib, kamol topib borishi natijasida ularning aqli, idroki, zakovati shakllanadi. Aql-idrok, zakovat, did-farosat, go'zallik va ijodkorlikka intilish, milliy g'urur va faxrlanish estetik ong, estetik tafakkurning asosiy negizini tashkil etadi.

Har bir ijtimoiy tizimda shaxsning milliy mentalitetini ifodalovchi estetik madaniyat xususiyatlarini tadqiq etganda ularning tarixan boy yoki cheklangan, ma'naviy-madaniy yuksak yoki pastligiga qarab emas, balki ularning aql-idrok, insoniylik, odobiylik, farosat, zakovat kabi umummilliy va umuminsoniy xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan tomonlariga, diqqat-e'tibor bersak, to'g'ri bo'ladi. Chunki jamiyatimizda har bir inson, shu jumladan, shaxs ham milliy qadriyatlar asosida faoliyat ko'rsatar ekan, bu davrda o'ziga xos bo'lgan intellektual qobiliyat, urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlar, diniy e'tiqodlarni e'tiborga olinishi shart. Bunday ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik jihatlari e'tiborga olinmasa, har bir millat yoki xalqning mentalitetini mensimay, uni ikkinchi darajali hodisa sifatida tushunish alomati paydo bo'ladi. Istibdod, totalitar sovet davrida milliy qadriyatlar masalalari e'tibordan chetda qoldi, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmadi. Chunki "o'sha davrda ma'lum millatni o'ta ilg'or va salohiyatli, boshqa millat va elatlarni esa qaloq va noraso qilib ko'rsatish siyosatiga mentalitet nazariyasi mohiyatan zid edi" [4. 118].

Bugun yangi O'zbekiston muhitida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda tub islohotlar bo'lgani kabi shaxsning milliy estetik madaniyatini, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini belgilashda ham adolat o'lchovi asosida yondashish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi. Buning natijasida estetik madaniyatni ko'pfikrlilik, hurfikrlilik asosida o'rganish va uning adolatli ijtimoiy hayotni barpo etishdagi roli, xalqning, millatning orzu-istaklarini tasavvur qilishlarini chuqur o'rganib chiqish uchun zamin yaratildi.

Har bir hududda, jug'rofiy muhitda yashab o'troqlashib qolgan elat, urug', aymaq, xalq va millatga mansub bo'lgan ruhiy-aqliy holat, turmush tarzi, badiiy-estetik tasavvurlar birligi muayyan ijtimoiy hayotni vujudga keltirgan. Bu ijtimoiy hayot esa, o'z navbatida, unda yashovchi va uning istiqbolini belgilovchi shaxsni voyaga yetkazish, tarbiyalash vazifalarini ham taqozo etadi. Buning yorqin misoli yangi O'zbekistonning shu bugungi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-estetik hayot tajribasidir. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlar insonning aql-zakovati va ruhiy-ma'naviy yuksalishiga qaratilgan. Demak, har bir ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatadigan shaxsning milliy mentaliteti ularning aql-idroki bilan o'lchanadi. Chunki oiladan boshlab rivojlanib baradigan shaxs aql-idroki bilan ijtimoiy hayotdan o'z o'rnini egallashi, milliy mentalitetini shakllantirishi bilan doimiy ravishda intellektual saviyalarini takomillashtirib boradi va bu, o'z navbatida, adolatli ijtimoiy-ma'naviy hayotni, turmush tarzini barpo etish uchun zamin yaratadi. Shu ma'noda olib qaraganda, boshqa millatlar qatori o'zbek millatining milliy qadriyatlarini ham ilmiy-nazariy va amaliy jihatidan tadqiq etish va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasini belgilab chiqish quriladigan adolatli jamiyatining eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda fuqaroning yangi estetik madaniyati shakllanayotgan bir paytda, ota-bobolarimizdan meros bo'lib o'tgan bebaho go'zal madaniy durdonalardan unumli foydalanish va ular asosida yangi-mazmun kasb etadigan dunyoqarashni, ma'naviyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tmish merosimiz va qadriyatlarimizni qaytadan tiklash shaxsning milliy qadriyatlarini kamol toptirishda, hozirgi jahon ma'rifati tizimidan munosib o'rinni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda shaxsning bugungi axloqiy qiyofasi estetik madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Estetik idrok, his-tuyg'u, kechinma, zavqlanish, did kabi tushunchalar, ayni chog'da, ijtimoiy ha-



yotning falsafiy-axloqiy tomonlarini, mohiyatini, magʻzini, maʼno-mazmunini ham ifodalaydi. Shaxsning estetik tafakkuri qotib qolgan va maʼlum maʼnaviy meros bilan chegaralangan emas. Ijtimoiy hayotda sodir boʻlayotgan barcha oʻzgarishlar, barcha islohotlar va ularning natijalari shaxsning axloqiy qiyofalari, estetik ongi va madaniyatida ham oʻzgarish yasaydi. Badiiy-estetik jarayonlarda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarni idrok etmoq uchun shaxs madaniyati, maʼnaviyati, estetik tafakkuri va badiiy didida ham oʻzgarishlar sodir boʻlishi kerak.

Jamiyatdagi zamonaviy islohotlar negizida madaniy hayotda ham juda katta islohotlar amalga oshirildi. Buning natijasida milliy qadriyatlar qayta uygʻondi, jonlandi va oʻzining butun mavjud boʻy-bastini koʻrsata bildi. Jamiyatda shaxsni yuksak maʼnaviyatli komil inson, oʻz oldiga qoʻygan maqsad va vazifalarini har tomonlama uygʻunlikda, amalga oshirishga, intellektual yetuk hamda milliy mentaliteti taraqqiy etgan qilib tarbiyalashga qaratildi. Bularning barchasi yurtimizda shaxsni tabiat goʻzalligi, jamiyat ehtiyoji va millat orzu umidlarini estetik idrok etishga daʼvat etib boraveradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Тараққиётга – фақат машаққатли ва жасоратли меҳнат орқали эришилади. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2022 йил 21 декабрь.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T., 4-jild, “Oʻzbekiston”, 2020.
4. Мустақиллик: изохли илмий-оммабоп луғат. “Шарқ”, Тошкент, 1998.

**Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD); e-mail:toshmetovtuxtasin@gmail.com)**

### **GLOBALLASHUV DAVRIDA BARKAMOL YOSHLARNI RIVOJLANTIRISHNING GʻOYAVIY MEXANIZMLARI**

**Аннотация.** *Xalqni buyuk kelajak va ulugʻvor maqsadlar sari birlashtirish, yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazish, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hozirda dolzarb vazifalardan biriga aylangan lozim. Shundagina biz istiqbolda maʼnaviy barkamol insonni, sogʻlom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.*

**Аннотация.** *Объединение народа во имя великого будущего и славных целей, воспитания качественного, гармоничного поколения, всесторонне зрелого человека должны стать одной из актуальных задач настоящего времени. Только тогда мы сможем в перспективе добиться воспитания духовно совершенного человека, здорового поколения. Одной из приоритетных задач нашего общества является воспитание гармоничного поколения.*

**Annotation.** *The unification of the people towards a great future and glorious goals, the upbringing of a high-quality, harmonious generation, the upbringing of a fully mature person should become one of the urgent tasks at the present time. Only then will we be able to bring up a spiritually perfect person, a healthy generation in the future. One of the priorities of our society is the upbringing of a harmonious generation.*

**Kalit soʻzlari:** *jamiyat, barkamol, komil inson, tarbiya, maʼnaviyat, madaniyat, mafkura, global, immunitet, strategiya, axborot, texnologiya, maʼrifat, axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, qadriyat, madaniy meros, urf-odat, anʼana, targʻibot, transformatsiya, hushyorlik.*

**Ключевые слова:** *общество, гармония, совершенный человек, воспитание, духовность, культура, идеология, глобальность, иммунитет, стратегия, информация, технологии, просвещение, мораль, патриотизм, гуманизм, ценность, культурное наследие, традиция, традиция, пропаганда, преобразование, бдительность.*

**Key words:** *society, harmony, perfect man, upbringing, spirituality, culture, ideology, globality, immunity, strategy, information, technology, education, morality, patriotism, humanism, value, cultural heritage, tradition, propaganda, transformation, vigilance.*

Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida eng katta masshtabdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan biri, shubhasiz, globallashuv jarayonlari deyishimiz mumkin. Globallashuv jarayonlari jamiyatning siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy-maʼnaviy jabhalariga ham oʻz taʼsirini oʻtkazib kelmoqda, ijtimoiy ongning turli koʻrinishlari yangicha mohiyat kasb etib, mutlaqo boshqacha koʻrinishda namoyon boʻlmoqda. Bugungi kunda sodir boʻlayotgan barcha oʻzgarishlar, jadallashuv jarayonlari bir soʻz bilan “globallashuv” deb nomlanmoqda.

Globallashuv haqida olimlarimiz tomonidan turli qarashlar bayon etilgan. Xususan, professor S. Otamurodov, “globallashuv” jarayon bo‘lib, ayni paytda, uning “mavhum” tushuncha ekanligi, fan, texnika, texnologiyaning jadal ommalashib ketishi bilan moddiy borliqqa aylanib boradi, deb xulosa qiladi. Olimning fikricha, bu jarayoni milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning susayib borishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi”, deb ta’kidlaydi.<sup>1</sup> Shuningdek, “globallashuv, bir tomondan, insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lishi bilan ijobiy jarayon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog‘lanib qolishiga olib keladigan salbiy jarayondir”, deb globallashuv tushunchasiga ko‘p qirrali jarayon sifatida tavsif beradi.<sup>2</sup>

Bizning fikrimizcha, S.Otamurodovning qarashlarida globallashuv natijasida milliy mentalitetimizdagi akseologik va gnoseologik tafakkur tarzini turli salbiy ta’sirlardan saqlash davrimizning muhim mu-ammolardan biriga aylanayotganligiga nisbatan ishorani ko‘rish mumkin.

Shuni aytib o‘tish zarurki, global o‘zgarishlar ma’naviyatga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy yoki ma’naviyat sohasidagi siyosiy qarorlar ham ilmiy asosga ega bo‘lsagina, muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutadigan bo‘lsak, mavjud mamlakatlar yoki muayyan mamlakat miqyosidagi masalalar ham olimlarimiz, siyosatchilarimizga muammolarga nisbatan globallashuv nuqtayi nazardan qarab xulosa chiqarish kerakligini eslatadi. Mamlakatimizning jahon geosiyosiy maydonida olib borayotgan siyosati yanada muvaffaqiyatliroq bo‘lishi globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlarini atroflicha tadqiq va tahlil qilishga bog‘liq. Aynan shu jarayonni tahlil qilish orqali siyosatchilar eng to‘g‘ri yo‘l tanlashi va qarorlar qabul qilishi mumkinligi oydinlashmoqda. Binobarin, globallashuv turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, milliy va mafkuraviy g‘oyasi, ma’naviyati, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi bilan sodir bo‘ladigan hodisadir.

Aytish kerakki, dunyoda yoshlar tarbiyasidek muhim va murakkab muammo bo‘lmasa kerak. Ayniqsa, hozirgi mustaqillik sharoitida “barkamol avlod”ni tarbiyalash masalasi kelajak taqdirimiz bilan bog‘liq masaladir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha fikr bildiradi: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq”, deb ta’kidlaydi.<sup>3</sup> Darhaqiqat, tarbiya inson ongi mahsulidir. Shuning uchun ham ongni o‘zgartirmasdan turib, yangi jamiyat barpo etish va oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimiz juda murakkab kechadi. Shu bois yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yangi davlatchiligimizning asosi hisoblanib, ular ongidagi transformatsiyalashuv jarayonlarini ta’minlab boradi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonlari milliy ma’naviyat, urf-odat, ta’lim-tarbiya va an’analarga bo‘lgan munosabat va yondashuvlarni taqozo etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida inson kamolotiga ko‘mak beradigan urf-odat va an’analarni yoshlar ongiga singdirishni taqozo etadi. Bu masalalar ham yoshlarimiz diqqat markazida bo‘lishi zarur, chunki bugungi yoshlarimiz ertangi oilaning asoschilaridir.

Ma’lumki, ma’naviy tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oila mustahkam, tinch va farovon bo‘lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Bu borada, ma’naviy va ruhiy muhitning sog‘lomligiga ham, mamlakatimizda oilani mustahkamlashga ham alohida e’tibor berilmoqda. Ayni paytda, insonni ulug‘lash, uning yashash huquqini kafolatlash kabi ezgu ishlar va niyatlar amalda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bugun hammamizga ayondir. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida “Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik asosida amalga oshiradi” deb belgilangan.<sup>4</sup> Ulug‘ bobomiz Abu Nasr Forobiy: “Agar inson ezgulikka intilib yashasa, uning umri quvonchli va go‘zal kechadi, go‘zal hayot esa xalq nazarida ham, xudo nazarida ham yuksakdir”, degan edi.<sup>5</sup> Aziz, mu’tabar, ozod va obod yurtimizda yangi davlatchilikka poydevor qo‘yilayotgan ilk kunlardanoq davlatimiz va hukumatimiz ana shunday hikmatlarga alohida e’tibor bilan qarab kelmoqda. Shu boisdan bizda islohotlar xalq, ruhiyati, uning ma’naviy ehtiyojlari, kundalik turmush tarzi talabalaridan kelib chiqib, amalga oshirilmoqda. Bu esa xalq bilan hokimiyat, fuqaro bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, xalq o‘z taqdirini, farzandlari istiqbolini davlat istiqboli bilan uyg‘un holda ko‘rmoqda. Davlat siyosati-

<sup>1</sup> Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2018, 70-bet.

<sup>2</sup> Shu manba. 73-bet.

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 257-bet.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 7-bet.

<sup>5</sup> Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Toshkent, “Yozuvchi”, 2001, 32-bet.

mizning juda katta ma'naviy qudrati mana shundadir. Xuddi shunday mas'uliyatli davrlarda iqtisodiy islohotlarga ma'naviy tus bermasdan maqsadga erishish mushkuldir.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ma'naviyatni yanada yuksaltirish, uni zamon talablariga javob bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko'tarish davr talabi bo'lib qoldi. Zero, kelajak avlodni ma'naviy-axloqiy barkamol qilib tarbiyalash o'ta muhim vazifalardandir. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolardan o'zlikni chuqur anglashni va mas'uliyatli bo'lishni taqozo etadi. Bugun ana shu ish ma'naviyatning eng asosiy qon tomirini tashkil etmoqda. Ma'naviy barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosidir. Shunday ekan, bizning e'tiborimiz markazida ham barkamol insonni tarbiyalash masalasi muhim vazifalardan biridir.

Nazarimizda, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasini paysalga solish yoki bunga panja ortidan qarash, buni qandaydir mavhum, yoki o'z-o'zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash mantiqsizlikdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo'ladi", deb fikr bildirgan.<sup>1</sup> Haqiqatan ham, yuksak ma'naviyatli barkamol avlod tarbiyasi umr davomida oladigan bilim va tajriba, shakllanadigan aql-idrok, axloqiy fazilatlarining bir-birini to'ldirib boradigan bir necha bosqichdan iborat tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Zero, loqaydlik va beparvolik barkamol avlod tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy illatlardan biridir.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, ma'naviy yangilanish bu ma'naviyatning tarixan shakllangan milliy ma'naviy qadriyatlar va globallashtirish natijasida tarqalayotgan ma'naviyat asosida dialektik taraqqiyotini anglatuvchi obyektiv jarayon bo'lib, u globallashtirish imkoniyatlaridan foydalanish, unga moslashish va salbiy jihatlarga qarshi kurashish hisobiga ma'naviyatni yemirilishidan saqlaydi va jamiyatda ma'naviy barqarorlikni shakllantiradi.

Milliy va global ma'naviyatni quyidagicha tavsiflash mumkin:

–global ma'naviyat uchun tarixiy xotira, avlodlar ma'naviy merosi, an'analar, milliy qadriyatlar emas, iqtisodiy taraqqiyot, investitsiyalar, texnologik va ilmiy qadriyatlar muhim, globallashtirishning iqtisodiy potentsiali va jadal sur'atlariga milliy ma'naviyat mos kelmaydi;

–milliy va global ma'naviyat imkoniyatlari nuqtayi nazaridan farq qiladi. Milliy ma'naviyatning o'ziga xosligi uni global ma'naviyatning ulkan axborot makoniga kirishini murakkablashtiradi;

–global ma'naviyat iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosga hamda agressiv mexanizmga ega, milliy ma'naviyat milliy qadriyatlarga va tarixiy evolyutsion mexanizmga ega;

–milliy ma'naviyatga nisbatan konservativlik (din), izchillik va barqarorlik xos bo'lib, u an'anaviy tartib-qoidalarga amal qilishni talab etadi. Global ma'naviyatga kuchli dinamika, o'zgaruvchanlik, o'ta tolerantlik va gedonistik xususiyatlar xos. U shaxsdan mobillikni talab etadi;

–milliy va global ma'naviyat turlicha funksiyalarni bajaradi: birinchisi, subyektlarni iqtisodiy va ilmiy-texnologik asosda; ikkinchisi, milliy ma'naviy qadriyatlar asosida birlashtiradi. Ma'naviyatning dinamikasi va mohiyati turlicha bo'lgan ikkala shakli ham insonning o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan;

–milliy ma'naviyat qisman yopiq, barqaror tizimga ega, global ma'naviyat ochiq, sinergetik va integratsion tizimga ega bo'lib, u turli-tumanlik asosidagi bir xillikdan tashkil topgan.

Zero, A.Gorelovning fikricha, "Ma'naviy evolyutsiya jannatga chaqiradi. Ammo, uning mazmunini almashtirish esa do'zaxga olib keladi".<sup>2</sup> Jahonda barcha xalqlar singari Markaziy Osiyo xalqlari ham o'zining ko'hna boy madaniy merosi, yuksak ma'naviyati, rang-barang urf-odat va an'analari bilan alohida ajralib turadi. Yaqin o'tmishimizga nazar solsak, xalqimizni o'z ma'naviyati va madaniyatidan mosuvo qilib, xotirasiz manqurtlarga aylantirish so'nggi qariyb bir yarim asr mobaynida chorizm va bolshevizm mustamlakachilarining bosh siyosatiga aylandi.

Shuni aytib o'tish zarurki, mustaqilligimiz tufayli bularning barchasiga barham berildi, ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi, buyuk bobolarimizning o'lmas merosi bo'lmish asriy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va ular xalqimiz, vatandoshlarimiz ma'naviy dunyosini yanada boyitib, mustaqilligimizni mustahkamlashga xizmat qilayotir. Xalqimizning ko'p ming yillik tajribasidan shu narsa ma'lumki, dav-

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 299-bet.

<sup>2</sup> Горелов А.А. Эволюция культуры и экология Москва, 2002, с. 184.

latning rivojlanishi va har bir jihatdan ravnaq topishi uchun ana shu davlat yoshlari ruhan pok, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lmog'i, Vatan, xalq manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'ra bilmog'i, qalbida o'z xalqining o'lmas qadriyatlariga chuqur hurmat-ehtirom hislarini yarata olmog'i lozim.

Aslida, barkamol shaxs komil inson mohiyati birday tushunchalardir. Yoshlarni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo'yingki, yuksak axloqlilikka yo'llash bevosita bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi iymoni, e'tiqodi va axloqiy fazilatlarini – qo'yingchi, ma'naviyati kuchli, milliy mas'uliyat to'yg'usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma'naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangan-dagina yaratiladi, qad ko'taradi. Boshqacha aytganda, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, Sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan yoshlar yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni, aslo, istamaydilar.

Shunday ekan, ma'naviy barkamol insonlar hech zamonda shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi, ba'zan uyushtirilgan tuhmat-u fitnalarning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma'naviy barkamol inson ma'naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, rivojlantiradi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi oliyjanob fazilatlarini bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, quyidagilarni kiritish mumkin: otasonasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-ko'yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'urish, tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo'lganligi singari, o'zi ham ularga kerakli bo'lishga intilishi, odob-axloqi, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo'lib qolgan madaniy merosni qadrlash, milliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sodiq bo'lib qolish, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi, o'zaro muomala-munosabatda o'rnak bo'lishga moyillik, birovning og'irini yengil qilishni odat qilish, umumxalq ma'qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalari amalda ko'rsatish, Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yashash, diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish, va'daga vafoli bo'lish shu kabi boshqa fazilat va hislatlar ham kiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, har qanday davlatning kelajagi ma'naviy barkamol yoshlar qo'lida bo'lganligi bois himoyalani chorasini ham, avvalo, yosh avlod ongini milliylik ruhida tarbiyalashdan boshlash zarur. Milliy qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga singdirish orqali ularda ma'naviy, axloqiy, tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Bizning milliy qadriyatlarimiz urf-odat, an'analar va marosim ustunlariga qurilgan bino kabidir. Umumbashariy ma'naviyat hamisha milliy ma'naviyatimiz negizida shakllanib, har safar milliy ma'naviyatimizdan milliy qadriyatlarimiz oziqlanib borajak.

**Ravshanova Gulchera Maxammatovna (Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)**  
**GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA**  
**TA'LIMNING O'RNI**

***Annotatsiya.** Maqolada axborot xurujlari shaxsga muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, asl maqsadi normal ta'sir bo'lishini nazarda tutgan siyosiy-ijtimoiy guruhlarning g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi, shu bois xavfsizlik choralari ko'rish ham turli sohalarida va turli jabhalarda amalga oshirilmoqda. Yoshlarni jamiyat manfaati uchun qilinadigan mehnatga ilhomlantirish, milliy birlik, faxr va iftixor, birdamlik va hamkorlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurmat hissini tarbiyalashga undash maktab kutubxonasining muhim vazifalaridan biri hisoblanishi tahlil etilgan.*

***Аннотация.** В статье говорится о том, что информационные атаки направлены на человека, конкретную организацию и государство. Их реальная цель проистекает из злонамеренных намерений различных негативных политических и социальных групп. Меры безопасности осуществляются в разных районах и на разных фронтах. Анализируется, что одной из важных задач*

школьной библиотеки является воодушевление молодежи на труд на благо общества, побуждение к воспитанию в ней чувства национального единства, гордости, солидарности и сотрудничества, уважения к разным народам.

**Annotation.** In this article, information attacks are an influence directed at a person, a specific organization and the state, and originate from the malicious intentions of political and social groups, whose original goal is normal influence, therefore, security measures are being implemented in different areas and on different fronts. It is analyzed that one of the important tasks of the school library is to inspire young people to work for the benefit of the society, to encourage them to develop feelings of national unity, pride, solidarity and cooperation, respect for different peoples.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot xurujlarining yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri, ta'lim-tarbiya muassasalarida kutubxona tizimi, axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi, "Ezgulik va muqaddas kitoblar", ma'naviy-axloqiy tarbiya-kasbiy barkamollik asosi.

**Ключевые слова:** информация, влияние информационных атак на воспитание молодежи, библиотечная система в образовательных учреждениях, нравственные категории и воспитание совершенного поколения, «Добродетель и священные книги», Духовно-нравственное воспитание – основа профессионального образования. совершенство.

**Key words:** information, the impact of information attacks on the education of young people, the library system in educational institutions, moral categories and the education of a perfect generation, "Virtue and holy books", Spiritual and moral education is the basis of professional perfection.

Jamiyatni axborotlashtirish ishlab chiqarishning yuqori darajasidagi jarayon bo'lib, axborotdan jamoat resursi sifatida foydalaniladi.

Axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo'lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o'sishi va milliy xavfsizligini ta'minlaydi. Ma'lumki, globallashuv jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo'lib, o'ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik olib borishga hamda o'z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta'minlashga keng imkoniyatlar beradi.<sup>1</sup>

Shuni aytish kerakki, vaqt o'tishi bilan globallashuv jarayonining o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo'la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada o'sgan bog'liqligi shuni ko'rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea-hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning oqibatida mintaq xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya'ni, an'anaviy tahdidlar bilan o'zaro qo'shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o'zaro bog'liqligi o'sishi kuzatilmogda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda jahon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o'zgarishi, ko'p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan ochiq da'volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi davrlarga kelib, geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi hamda raqobat kuchayishi natijasida yuqorida ko'rsatilgan omillardan tashqari, ilgari kuzatilmagan tahdidlar yuzaga kela boshladi. Ayrim g'arb davlatlari tomonidan o'z milliy manfaatlarini kengaytirishda "demokratiya eksporti", "ikkilamchi me'yor" siyosiy va "axborot huruji" kabi asosiy vositaga aylanmogda. Globallashuv jarayonini bevosita axborot bilan bog'liq ekanligini tushinish qiyin emas, albatta.

Mutaxassislarning fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbayiga aylanib bormogda.

Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o'zaro bog'liqligini anglashga e'tibor ortib bormogda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati "Xavfsizlik"ka bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamogda.

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar. 2-jild, Toshkent, «O'zbekiston», 2018, 248-bet.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab har qachongidan ko'ra kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, teleradiokanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg'or g'oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e'tibor beriladigan vositadir. Aslida, ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo'layotgan olamshumul o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum bo'lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda.

Mutaxassislarning xulosalariga qaraganda, rahbarlar, boshqaruv xodimlari axborotlar bilan ishlashga o'z vaqtlarining 30 foizdan 80–95 foizgachasini sarflashar ekan. Bu tabiiy holat. Chunki o'z vaqtida va ishonchli axborotlarga ega bo'lish hamda ularni o'z vaqtida yetkazish va amaliyotda unumli foydalanish samarali boshqarishni ta'minlashning sharti hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, endilikda axborot davlat faoliyatida boshqaruvchilik kuchini sezilarli darajada namoyon qiladi. O'zbekistonning mustaqil bo'lishi uni ayrim davlatlarning bizning mintaqamizga intilishlari mohiyatida ikki muhim jihat-mintaqada geosiyosiy ta'sirga va bu yerdagi tabiiy hamda notabiiy resurslarni tasarruf etishda o'z ulushiga ega bo'lish alohida ko'zga tashlanadi. Boshqa ayrim davlatlardan farqli o'laroq, buning O'zbekiston hukumati tomonidan anglab yetilgani va mazkur masala uning tashqi siyosatida aks etib turishi "katta o'yin" qatnashchilarining o'z manfaatlarini yo'lida har qanday usul hamda vositalardan foydalanishga majbur etadi.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xatarlar paydo bo'layotgan bugunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir",<sup>1</sup> deb ta'kidlagan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli – axborot xurujlari bo'lsa, eng samarali vosita – axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi.

Axborot xurujlarining tez-tez uyushtirilayotgani, aslida, "urush"ga munosabatni o'zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Axborot bilan qurollangan bunday xurujlar davlatlar tomonidan o'z manfaatlarini doirasini kengaytirish maqsadida uyushtirilgan ekan, bunday vaziyat mavjud bo'lmaydi. Hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotlarning asl maqsadi inson qalbi va ongi uchun kurashga qaratilgan.

Bu kurash natijasiga ko'ra, uchta asosiy bosqichdan iborat:

Birinchisi – muayyan axborot inson tomonidan qabul qilinmaydi.

Ikkinchisi – axborot inson ongida ma'lumot sifatida saqlanib qolishi va u bundan boshqa bir masala yuzasidan qarorlar qabul qilishda solishtiruvchi manba sifatida foydalanish mumkin.

Uchinchisi – axborot fikr yoki g'oya sifatida inson qalbini egallashi, ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylanishi hamda bu uning amaliy faoliyati asosini tashkil qiluvchi omil bo'lib qolishi mumkin.

Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi, ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo'ravonlik va urushni targ'ib etuvchi, pornografiya, maishiy buzuqlik, shaxslar mavqeyiga, obro'siga va sha'niga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlari vujudga keladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, axborot xurujlarining maqsadlari, eng avvalo, o'z axborot funksiyalari va resurslarini himoyalagan holda, axborot muhitini nazoratga olish va axborot xujumlarini olib borish uchun nazorat qilinayotgan axborotlardan foydalanishdan iborat.

---

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. 1-jild, T., "O'zbekiston", 2018, 27-bet.

**Saloxov Akmal Qamariddinovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti)**  
**AHMAD DONISHNING “NAVODIR UL-VAQOE” ASARIDA BAG‘RIKENGLIK**  
**G‘OYALARINING YOSHLARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” nomli asarni yozib, barcha muammolarni yechish yo‘lida shu asarini asosiy qonun sifatida ko‘rsatishga uringani, “Navodir ul-vaqoe” Ahmad Donishning eng yirik asari bo‘lib, unda mutafakkirning turli masalalar to‘g‘risidagi fikrlari bayon etilgani hamda Donish ijodidagi ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi qoida-sharhlar ushbu kitobda o‘z aksini topgani bayon qilingan.*

***Аннотация.** В статье Ахмед Дониш написал произведение под названием «Наводир уль-Ваке» и попытался представить это произведение как основной закон для решения всех проблем, а также указано, что внутренние конфликты и противоречивые интерпретации творчества Дониша отражены в этой книге*

***Annotation.** In the article, Ahmed Donish wrote a work called “Navodir ul-Waqe” and tried to present this work as the main law in order to solve all problems. and it is stated that the internal conflicts and conflicting interpretations of Donish’s work are reflected in this book.*

***Kalit so‘zlar:** Ahmad Donish, “Navodir ul-vaqoe”, ta‘lim-tarbiya, bag‘rikenglik, yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash.*

***Ключевые слова:** Ахмад Дониш, «Навадир уль-Вакоеъ», воспитание, толерантность, воспитание молодежи в духе толерантности.*

***Key words:** Ahmad Donish, “Nawadir ul-Waqoe”, education, tolerance, educating young people in the spirit of tolerance.*

Ahmad Donish – Buxoro amirligida yashab ijod etgan mashhur shoir, mutafakkir, ma‘rifatparvar olim. Uning ajdodlari asli Pirmast tumani So‘g‘d qishlog‘i dehqonzodalaridan bo‘lib, o‘zi Buxoro shahrininng Sangin dahasida mahalla imomi oilasida 1827-yilda dunyoga kelgan.

Ahmad Donish madrasadagi diniy ta‘limlar bilan birga matematika, astronomiya, me‘morchilik, musiqa, tarix va falsafa kabi sohalar bilan tinimsiz mashg‘ul bo‘ladi. U musulmon Sharqi shoir va mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Fuzuliy, Navoiy, Bedil singari allomalarning asarlari bilan yaqindan tanishib, ulardan ilhomlanadi.

Bag‘rikenglik – bu serqirra fazilat. Uning umumiy bir atama kasb etishi uchun o‘nlab ijobiy xislatlarni izohlash lozim. Jumladan, kechirimlilik, sabr-toqat, mardlik, ochiqko‘ngillik, oliyjanoblik va boshqalar. Ahmad Donish shu masala atrofida o‘z qarashlari orqali bag‘rikenglikning ijobiy sifatlarini yoritib bergan. Ma‘rifatparvar olim inson fazilatlarining barchasi zamirida ilm, donolik, aql yotadi; himmatliliy, ezigulik, bag‘rikenglik, komillik ham ilm-ma‘rifat negizida shakllanadi, deb biladi.

Ahmad Donish “Navodir ul-vaqoe” nomli asarni yozib, barcha muammolarni yechish yo‘lida shu asarini asosiy qonun sifatida ko‘rsatishga uringan. “Navodir ul-vaqoe” Ahmad Donishning eng yirik asari bo‘lib, unda mutafakkirning turli masalalar to‘g‘risidagi fikrlari bayon etilgan. Donish ijodidagi ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi qoida-sharhlar ushbu kitobda o‘z aksini topgan. Ahmad Donish “Navodir ul-vaqoe”da goh hayotni kuylaydi, goh umidsizlik, darvishlik ohangida so‘zlaydi. “Navodir ul-vaqoe” yirik falsafiy asardir. Mutafakkir o‘zining bu shoh asarini butun umri davomida yozdi. Unga kiritilgan risola va hikoyalar Darvish ijodining turli davrlarida yozilgan bo‘lib, yozuvchi, keyinchalik, o‘tgan asrning 70-yillarida bu risola va hikoyalarini mukammal shaklga keltirishga hamda ularni ma‘lum bir tartibga solishga kirishdi. 80-yillarda esa ularni to‘plab, qo‘lda yozib, kitob shakliga keltirdi.

Ahmad Donishning bag‘rikenglik g‘oyasi butun insoniyat taraqqiyotida ezgu g‘oyalarning eng afzali deb hisoblaydi. Mutafakkir bag‘rikenglik g‘oyasini siyosat darajasiga ko‘tarib, adolatli boshqaruvning asosiy mezonini sifatida baholaydi. Bag‘rikenglik g‘oyasi insoniyat jamoa bo‘lib yashagan davrdan boshlab vujudga kelgan va rivojlangan. Bag‘rikenglik haqidagi g‘oyani Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asarida falsafiy jihatdan tahlil qilib berilgan. Asarning “Mamlakatni boshqarish va xalqni ma‘rifatli qilish” haqidagi risolasi uchinchi faslida hukmdorlarning yurtni idora qilish usullari, xalqparvar, bag‘rikeng, adolatli bo‘lishlari haqida gap boradi. “Podshoh sababsiz hech kimning diliga ozor beruvchi bo‘lmasin. Chunki uni xalq o‘z tinchligi va erkin yashashi uchun bu darajaga ko‘targan. Podshoh ularga ozor berar ekan, ish teskariga aylanadi”.<sup>1</sup> Albatta, bu holda mamlakatda tinchlik, totuvlik bo‘lmaydi, tinchlik va barqarorlik bo‘lmagan joyda esa xalq farovon hayot kechira olmaydi. “Podshohlar yetimlarning otala-

<sup>1</sup> Дониш А. Путешествие из Бухары в Петербург-Сталинабад. Таджикиздат, 1960, с. 163.

ridir. Shunday bo'lgach, podshohlar yetimlarga o'z otalaridan ham ko'proq g'amxo'rlik qilishlari lozimdir; toki podshoh ota bilan faqir otaning farqi bo'lsin. Imkoniyat boricha, ehson eshigini ochib tursin",<sup>1</sup> degan fikrlari amaldorlarni bag'rikeng, mehr-oqibatli, mehribon bo'lishga chorlaydi. Donish fikricha, davlat bir guruh kishilarga emas, balki xalq manfaatlariga uchun xizmat qilishi kerak. Mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurdir. Davlatning vazifasi xalq mafaatini himoya qilishdir. Hukumdor mamlakatni idora qilishda atrofdegilari bilan maslahatlashib hal qilish kerak. Demak, odil hukmdor mamlakatni kengash bilan boshqarsa, jamiyatda tartib-intizom o'rnatilib, davlat taraqqiy qiladi.

Ahmad Donish o'z qarashlarida jamiyatning asosi hisoblangan oilaviy munosabatlar mas'uliyatli vazifa ekanligini tahlil qilib beradi.

Oilaning birdamligi va hamjihatligi, farzandlarining kamoloti ularga bog'liq. Inson sabr-bardoshli bo'lsa va yaxshi xulq-atvorli bo'lmasa, mehnat qilib halol rizq topib va kasb-hunar qilmasa, bunday insonlarning nikoh qurmasligi afzaldir. Unday inson turmush qursa, davlat va jamiyatga zarar yetadi, deb ta'kidlaydi.

Ahmad Donish ko'rsatib o'tadiki, ota-onalar farzandlarini komil inson qilib tarbiyalab bilsalar, taqdirilariga shukrona qiladilar, lekin ular farzandlariga ezgulikni va yaxshilikni ravo ko'rmasalar, o'z g'azazlariga botib qoladilar. Ahmad Donish bilim xususida ham to'xtalib, yo'lni yorituvchi mash'al, shu mash'alga ega bo'lmagan odam esa hayot yo'llarida, albatta, qoqiladi, o'z o'rnini topa olmaydi, degan xulosasini beradi. Ahmad Donishning "Nodir voqealar" asari nafaqat o'z davri, balki biz yashab turgan hozirgi kunda ham ma'nau komil insonlarni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash borasida ham nodir ma'naviy meros hisoblanadi.

Ahmad Donishning farzandlariga bergan maslahatlari:

1. Sidqidildan o'qib, o'qing. Foydali ilmlarni egallang.
2. Insonlarga kerakli bo'ling, foydali kasb, hunar, mashg'ulot egasi bo'ling.
3. Jamiyat va oila manfaatlariga himoyachisi bo'ling.
4. Shukr va sabr qiluvchi bo'ling, kechirimli bo'ling.
5. Kechirimli bo'ling.
6. Mustaqil fikrga ega bo'ling.
7. Ajdodlar merosini o'rganing.
8. E'tiqodli bo'ling.

Ahmad Donishning falsafiy asarlarida davlatni boshqarish haqidagi o'zining ijtimoiy-falsafiy fikrlarini bayon etadi. Uning fikricha, davlatni adolatli shaxslar boshqarsin va hukumat xazinasini hisobidan ularga haq berilsin. Ahmad Donish bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishni ta'kidlaydi. Jumladan, davlat boshqarishini yagona sulolaga boshqaruviga berib bo'lmaydi, degan xulosaga kelib, Ovroq davlatlaridagi parlament deb ataladigan davlat boshqaruvini tavsiya qiladi. Mutafakkir fikricha, davlat boshqaruvining muhim vazifasi – o'z xalqi haqida g'amxo'rlik qilish. Amaldorlar davlat iqtisodiyotining taraqqiy qilishi uchun jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, jumladan, uchun, suv omborlarni qurish, ilm-fanni taraqqiy ettirish, xalqni ma'rifatli qilishga majburdilar, deb ko'rsatib o'tadi. Uning bu g'oyalari hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas hamohangligini ko'rishimiz mumkin.

Inson haq-huquqlarining buzilishi, ijtimoiy-siyosiy tengsizlik alloma fikricha, ko'pgina nizolarga olib keladi. Mintaqada osoyishtalikni mustahkamlash uchun odamlarga yerlarni teng bo'lib berish kerak, buning mohiyati "ota merosida hamma teng va shuning uchun qon to'kish odatini yo'q qilish kerak, shundaydagina insonlar tinch va osuda hayot kechiradi".<sup>2</sup>

Donish saxovat va oliyhimmatlikni hokimiyat boshqaruvining asosiy vositasi deb hisoblaydi.

O'zbekiston – katta va boy madaniy merosga ega bo'lgan, turli etnik va diniy hamjamiyatlar tinchtotuv yashab kelayotgan davlat. Bu yerda tarixan ikki ming yildan ortiqroq vaqt mobaynida turli xalqlarning an'analari va madaniyatlari o'zaro boyib va bir-birisiga o'tib, singib kelgan. Ahmad Donishning asarlarida bayon qilingan falsafiy g'oyalar ham yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrdagi ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni takomillashtirishda Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asaridagi axloqiy-falsafiy g'oyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Millatning o'z-o'zini

<sup>1</sup> O'sarov F.X. XIX asr oxiri – XX asr ma'rifatparvarlari hamda jadidlar ijodida tinchlik va bag'rikenglik falsafasi madaniyati. Buyuk allomalar ijodida ahllik va bag'rikenglik g'oyalari. YJIDU, 2005, 59 – 64-betlar.

<sup>2</sup> Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe (Nodir voqealar). "Fan", Toshkent, 1964, 63-bet.



anglashi, millatning his-tuyg'ulari, irodasi, ruhiyati, kayfiyatlarini o'zgartiradi, turmush tarziga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash kerakki, o'z-o'zini anglash millatining faqat o'z maqsadi va manfaatini himoya qilish bilangina chegaralanmaydi. Balki, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy taraqqiyoti rivojigi ham ijobiy ta'sir etadi. "Navodir ul-vaqoe" asarida ilgari surgan falsafiy g'oyalar bugungi davr jamiyat milliy tarbiyasi masalalari bilan mushtaraklik hosil qilib, ma'naviy-ma'rifiy dastur bo'lib xizmat qilgan.

Tolerantlik me'yorlari va an'analari asosiga shakllangan, yosh avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashni shakllantirish, ularni ma'naviy barkamol inson qilib ta'lim-tarbiya berishning mustahkam asosidir. Buxoro jadid mutafakkirlarining inson erki, haq-huquqlari, shaxsning hayoti, sog'lig'i, vijdon erkinligi, qadr-qimmatini kabi umuminsoniy qadriyatlar borasida qoldirgan falsafiy merosi, g'oyalari, demokratik jamiyatni barpo etishda yoshlarda bag'rikenlik g'oyalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **Sultonova Latofat Saydullayevna (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti)** **INSONNING KAMOLOTGA YETISHIDA FUQAROLIK MADANIYATINING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish va tarbiyalash, barcha fuqarolar hamma qonunlarni bilishlari shartligi bayon qilingan.*

***Аннотация.** В статье рассказывается о формировании и воспитании гражданской культуры у молодежи, необходимости знания всех законов всеми гражданами.*

***Annotation.** The article describes the formation and education of civil culture among young people, and the necessity for all citizens to know all laws.*

***Kalit so'zlar:** yoshlar, fuqarolik madaniyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash.*

***Ключевые слова:** молодежь, гражданская культура, правосознание, правовая культура, правовое воспитание, воспитание молодежи в духе толерантности.*

***Key words:** youth, civil culture, legal awareness, legal culture, legal education, educating young people in the spirit of tolerance.*

Fuqarolik madaniyatini tarbiyalash, huquqiy ongli bo'lish barcha fuqarolar uchun zaruratdir. Lekin bu barcha fuqarolar hamma qonunlarni bilishlari shart, degan so'z emas. Huquqiy bilimdonlik, asosan, ikki guruhga bo'linadi: umumiy va maxsus. Barcha fuqarolar umumiy qonun-qoidalarni bilishlari zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni olib borish va ular asosida rivojlangan fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligi shaklidagi barqaror institutlarning shakllanishi ijtimoiy adolat tamoyillarini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish zarurati bilan bevosita bog'liq.

Umumiy-huquqiy tarbiya manbai bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga xizmat qiladi. Chunki unda fuqarolikka aloqador qoidalar, fuqarolarning huquqlari erkinliklari va burchlari, ular hokimiyatning qonuniylik prinsiplari, davlat hokimiyati va fuqarolar tashkilotlarining tashkil topishi va ular faoliyatining huquqiy asoslari o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyani yaxshi o'qiganlar o'zlarining haq-huquqlarini talab qilish, fuqarolik burchlarini turtkisiz ado etish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Davlat vakolatini amalga oshiruvchi, yuridik xizmatga aloqador fuqarolar esa qo'shimcha ravishda maxsus huquqiy tarbiya oladilar. Lekin, ular fuqarolik madaniyatiga erishmagan holda, unga sodiq bo'lmasalar, qo'shimcha ilmga amal qilmaydilar. Ma'lumki, huquqiy bilimdonning ilmga amal qilishi uning axloqiy odobiga bog'liq. Biz buni istaymizmi, yo'qmi, axloqiy tarbiya bilan huquqiy tarbiya birgalikda, yonma-yon olib borilishi lozim ko'rinadi. Demoqchimizki, axloqiy tarbiya berilayotganida uning huquqiy oqibatini, huquqiy tarbiya berilayotganida esa uning qanday axloqiy fazilatlariga tayanishi lozimligini tushuntirib borish fuqarolik madaniyatini to'la shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy adolat g'oyasi jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarini qamrab oladi. U davlat va jamiyat erkinlashtirilishining muhim omili, zero, biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki odil demokratik jamiyat qurmoqdamiz. "Yangi O'zbekiston – demokratik qonunlar, yuksak huquqiy madaniyatga ega fuqarolar mamlakatidir".<sup>1</sup>

Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston", 2021, 464-bet.

chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak. O'zbekistonning kelajagi yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy, siyosiy, huquqiy yetuklik darajasiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olish kabi masalalarga bevosita bog'liq. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ilgari surilgani jaholatga qarshi-ma'rifat tamoyili asosida olib borayotgan keng ko'lamli ishlarimizning uzviy bir qismi bo'lib, u yer yuzidagi ikki milliarddan ziyod yoshlarning haq-huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" PF-5106-sonli farmonida yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish muhimligi qayd etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martda "Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro fizika va matematika maktab-internatini tashkil etish to'g'risida" 171-sonli qarorini ham alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bizga ma'lumki, mamlakatimiz aholisining 30 foizi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni tashkil etadi. Yurtimizda yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlarning oliy ta'limga qamrovini kengaytirish maqsadida ta'lim muassasalari soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda respublika bo'yicha oliy ta'lim muassasalari jami 129 ta, ulardan 25 ta chet el oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamiyat manfaatini ko'zlovchi axloq-odob qoidalariga rioya qilishga odatlanishning o'zi fuqarolik burchlariga sadoqatni tarbiyalaydi. Odamiylik axloqiy fazilatiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shunday huquqiy tushuncha berilgan: "Fuqarolar o'z huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart".

Huquqiy xarakterga ega bo'lgan axloq-odob qoidalari tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy huquqbuzarliklar haqidagi kodeksida keltirilgan. Ana shu qoidalar axloqiy-huquqiy tarbiya asoslaridan biri (inson) deb qabul qilinsa, axloq-odob qoidalari bilan turmushning huquqiy qoidalarini qo'shib tarbiyalash imkoniyati vujudga kelar edi.

Fuqarolik madaniyati kamol topayotgan inson fazilati sifatida, maxsus huquqiy madaniyatning poydevori sifatida mustaqil hayotga tayyorgarlikdan dalolat beruvchi belgi sifatida fuqaro to'la balog'atga yetguncha qadar shakllangan bo'lishi, ayni muddaodir.

Qadimiy va betakror diyorumizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Azal-azaldan yoshlar tarbiyasi ota-ona, qo'ni-qo'shnilar, mahalla va keng jamoatchilik tomonidan doimo nazoratda bo'lib kelgan. "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlar naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglashimiz lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qadimdan yosh avlodni sog'lom, komil inson qilib voyaga yetkazish, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishiga erishish, xalq va millat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan ruhda tarbiyalash yurtimizda azaldan ustuvor masala bo'lib kelgan. Tabiatan va qonuniy fuqarolik madaniyati tarbiyalash markazi azaldan oila bo'lib kelgan. Bolalar bog'chalari, maktab, tarbiya muassasalari esa oilalarga bolada bor qobiliyati, ma'naviyatini takomillashtirishga yordam ko'rsatuvchilardir.

Buni biz din va so'z erkinligi, gender tenglik, barchaning ta'lim va tibbiy xizmatlarni olishida tenglik, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiya, bolalar, yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar va migrantlarning huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlardan ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy adolat mamlakatimizning tadrijiy rivojlanishida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchadir.

Shu sababli davlatimiz tomonidan yoshlarga barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ana shu imkoniyatlardan oqilona foydalanib, kelajakda to'g'ri yo'lni tanlab, o'z oldimizga aniq maqsad qo'ysak va dadil harakat qilsak, taraqqiyotning yangi marralarini kashf eta olamiz.

**Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti)**  
**INSON QADRI VA UNING HUQUQLARI ENG OLIY QADRIYAT: TARIXIY-HUQUQIY**  
**MEROS**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson qadri va huquqlari umumbashariy, milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtirishi hamda O'zbekiston o'zining boy va ko'p ming yillik ma'naviy-huquqiy merosiga asoslanib, inson qadri va huquqlarining umuminsoniy qadriyatlari va hamma e'tirof etgan xalqaro huquq talablarini ta'minlash borasida muntazam ish olib borayotganligi haqida bayon qilingan.*

***Аннотация.** В данной статье отмечается, что достоинство и права человека воплощают в себе понятия всеобщности, национального государства и права, и что Узбекистан, опираясь на свое богатое и многотысячелетнее духовно-правовое наследие, регулярно работает над обеспечением общепризнанной ценности человеческого достоинства, прав и требований международного права.*

***Annotation.** In this article, it is written that human dignity and rights embody the concepts of universality, national state and law and that Uzbekistan, based on its rich and multi-thousand-year spiritual and legal heritage, is regularly working to ensure the universal values of human dignity and rights and the requirements of international law recognized by all. stated.*

***Kalit so'zlar:** inson qadri, ta'lim, fan, ma'naviy-huquqiy meros, inson huquqlari, barqaror taraqqiyot, ma'naviy yetuklik.*

***Ключевые слова:** достоинство человека, образование, наука, духовно-правовое наследие, права человека, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

***Key words:** human dignity, education, science, spiritual and legal heritage, human rights, sustainable development, spiritual maturity.*

O'zbekiston inson qadri va huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish borasida butun dunyoda ish boshlagan va ish olib borayotgan barcha kishilarni va barcha davlatlarni e'zozlaydi. O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida ma'rifatparvar demokratik adolatli davlat bo'lishga harakat qiladi, inson huquqlarini himoya qilish va mustahkamlashga qat'iy kafolat beradi.

Inson qadri va huquqlari umumbashariy, milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtiradi. O'zbekiston o'zining boy va ko'p ming yillik ma'naviy-huquqiy merosiga asoslanib, inson qadri va huquqlarining umuminsoniy qadriyatlari va hamma e'tirof etgan xalqaro huquq talablarini ta'minlash borasida muntazam ish olib bormoqda.

Inson qadri va huquqlari aniq tarixiy va milliy o'ziga xos sharoitda tabiiy ravishda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham o'zbek ma'naviy-huquqiy merosining ildizlarini chuqur bilish va idrok etish, O'zbekistonda inson huquqlarini o'ziga xos tushunishni va holatini talqin qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek ma'naviy-huquqiy merosining ildizlari qanday? Bizning ko'hna zaminimizda davlatchilik va inson huquqlari o'zining chuqur ildizlariga ega bo'lib, qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. O'zbek milliy davlatchiligi va huquqi paydo bo'lishi va taraqqiy etishi tarixiy solnomasi quyidagicha.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda hozirgi Markaziy Osiyo hududida yigirmaga yaqin qabilalar bo'lib, ular bir necha qabilalar ittifoqiga birlashgan edi. Bular orasida bir necha qabilalarni birlashtiruvchi massagetlar alohida mavqeyi bilan boshqalardan ajralib turgan. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining chuqur ildizlari ana shu massagetlarga borib taqaladi.

Eramizdan avvalgi XV–XII asrlarda Markaziy Osiyo hududining asosiy qismi Ossuriya davlati tarkibida bo'lgan, shu bilan birga, bu davrda mustaqil Xorazm davlati ham mavjud edi. Eramizdan avvalgi VI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoda Ahmoniy podshohlarning hukmronligi o'rnatilgan. Eramizdan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida xorazmliklar, keyinchalik, sak qabilalari mustaqillikka erishgan. Eramizdan avvalgi IV asrning oxirgi choragida Xorazm davlatidan tashqari butun Markaziy Osiyo makedoniyaliklar tomonidan bosib olingan. Iskandar Zulqarnayn vafotidan so'ng, Markaziy Osiyo hududi Salavkiylar davlati tarkibiga kiritilgan. Eramizdan avvalgi III asr o'rtalariga kelib, Grekbaqtriya podsholigi tashkil topib, uning tarkibiga Baqtriya, Marg'iyona va Parkana (Farg'ona) kirgan. Keyinchalik, Markaziy Osiyo hududida Xorazm davlati bilan chegaradosh bo'lgan Toxariston davlati tashkil topgan. Ko'p o'tmay u kichik-kichik davlatlarga bo'linib ketgan. Eramizning I–IV asrlarida Markaziy Osiyo hududi Kushon podsholigi tarkibida bo'lgan. IV asrning oxirgi choragida Markaziy Osiyoda kichik-kichik davlatlar tashkil topgan.

V asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo Eftalitlar tomonidan bosib olingan. VI asrning oxirgi chora-gida arablar bosib olgunga qadar Markaziy Osiyo G'arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. VIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda arablar hukmronligi o'rnatilgan. Arablar o'lkamizni Movarounnahr deb ataganlar. IX asr oxiri–X asr boshlaridan ikkinchi yarmigacha O'zbekiston hududida Somoniylar, X asrning ikkinchi yarmidan Qoraxoniylar, XI asr boshlaridan Saljuqiylar saltanatlari mavjud bo'lgan. XII asrning o'rtalarida Movarounnahrni qoraxitoylar o'ziga bo'ysundirgan. XII asrda Xorazm yana mustaqillikka erishgan. XIII asr boshlaridan XIV asrning 60-yillari o'rtalarigacha Movarounnahrda mo'g'ullar, XV asr oxirlarigacha Amir Temur va temuriylar, XVI asrdan Shayboniylar hukmronlik qilgan. XVI asr oxirida O'zbekiston hududida Buxoro, Xiva, XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligi tashkil topgan.<sup>1</sup>

Markaziy Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olingan. Qo'qon xonligi tugatilgan. Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilingan. Buxoro va Xiva xonliklari ustidan Rossiya protektorati o'rnatilgan. Hududimiz Turkiston o'lkasi deb atala boshlagan.

1917-yilda Qizil imperiya hukmronligi o'rnatilib, O'zbek Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganidan boshlab, O'rta Osiyo iborasi qo'llanila boshladi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan.

Demak, bizning yosh mustaqil o'zbek davlatimiz o'zida ko'hna So'g'diyona va Xorazmdan boshlab Somoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar davlatlarining davlat boshqaruv yutuqlarini, xalqimizning butun davlat huquqiy tarixi tajribasini hamda uning o'z milliy davlatiga va huquqiga ega bo'lish kabi asriy orzularini mujassamlashtirgan. Ya'ni, hozirgi o'zbek davlati umumjahon va milliy davlatchilik va huquqiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'zida uzviy ravishda uyg'unlashtiradi. O'zbek davlati va huquqi o'zining salkam uch ming yillik tarixiga ega.

O'zbekiston Ovrupa va Osiyo ma'rifatparvarlar dunyosini, sivilizatsiyalarini birlashtiruvchi buyuk xalqaro yo'llar kesishgan zaminda joylashgan. Ma'rifatparvarchilik davridagi ma'naviyatimiz shakllana boshlanganiga kamida 2,5 ming yil bo'lgan.

Yigirma asrdan ko'proq davrlardan beri Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda bizning avlod-ajdodlarimiz bilan birga, yahudiylar ham yashagan va yashab kelmoqda. X asrdan XV asrgacha Movarounnahr shaharlarida talaygina nosarolar ham yashagan, boz ustiga, mo'g'ul hukmdorlari islom dinini qabul qilgunga qadar ommaviy ravishda ularga homiylik qilganlar.

XX asr oxirlaridan e'tiboran, Turkiston xalqlari orasiga ruslar va rus madaniyatidagi kishilar qo'shildi. Ularning hammasi aniq tarixiy va milliy o'ziga xoslik sharoitida milliy davlatchilikni va huquqiy tizimning tabiiy bo'lishi va rivojlanishi guvohidir.

O'lkamizning mug'ullargacha bo'lgan va Temuriylar davridagi nomi–Movarounnahr uyg'onishi haqida alohida to'xtalib o'tish darkor. Islom sivilizatsiyasi xalqimizning dunyoqarashini to'ldirdi va boyitdi, bu xalq jahonga taniqli va umumbashariyat tomonidan tan olingan buyuk mutafakkirlarni yetkazib berdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston o'z taraqqiyotining butun asosi bo'lmish milliy davlatchiligi, huquqiy tizimini qayta yaratmoqda. Xalqimizning ma'naviyati kamol topmoqda, inson qadri oshmoqda.<sup>2</sup>

Inson huquqlari aniq tarixiy va milliy o'ziga xos sharoitda tabiiy ravishda paydo bo'ladi va rivojlanaadi. Shuning uchun ham o'zbek ma'naviy-huquqiy merosining ildizlarini chuqur bilish va idrok etish, O'zbekistonda inson huquqlarini o'ziga xos tushunish va holatini talqin qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Inson baxti va kelajagining asosi mehnatda ekanligini ta'kidlab, agar inson taqdirga ishonib ishlamasa, u yanglishadi, bunday odam aqlsizdir, deydi. Shu bilan birga, u odam o'z g'ayrati va harakati bilan maqsadiga erisha oladi, deb aytgan edi. Agar inson o'z hayoti uchun zarur bo'lgan narsalarni topishga yalqovlik qilsa, taqdirda menga kerakli narsalar, jumladan, uy-joy, kiyim-kechak va oziq-ovqat yozilgan bo'lsa, men mehnat qilmasam ham, o'z-o'zidan davlat kelaveradi, degan fikrda bo'lsa, "bunday odam o'z yo'lini bilmagan dunyodagi eng tuban darajadagi ahmoqlardan hisoblanadi", chunki tiriklik uchun zarur bo'lgan bu narsalarni topish o'z-o'zidan ro'yobga chiqmaydi. Buning uchun, avval, uning sabablarini aniqlash zarurdir.<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurishga azm-u qaror qilgan ekan, yuksak huquqiy madaniyat, Konstitutsiya va qonunga hurmat, itoatgo'ylik, milliy istiqloq mafkurasida, muhim o'rin egallamoqda. U o'zida xalqimizning eng ardoqli fazilatlarini – iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, hayo, uyat va andisha, or-nomus, eliga va yurtiga sodiqlik va vatanparvarlik kabi qadriyatlar

<sup>1</sup> Baxtiyor Hamidov. Insonnoma: Hayot, Hayrat, Hikmat. Esselar. T., 2014, 8-bet.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

<sup>3</sup> Инсани камил//Исламский энциклопедический словарь. Авт.: А.Ализаде. Москва, 2007.

va g'oyalarni mujassamlashtirishga qaratilgan. O'zbek xalqi asrlar mobayinida avaylab saqlab, sayqallab kelgan o'z milliy urf-odatlarini, rasm-rusumlari, udum va an'analari, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi va madaniyati, e'tiqodi, bir so'z bilan aytganda, madaniy va ma'naviy dunyosi bilan ajralib turadi. Buyuk allomalarimiz umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda bevosita ishtirok etganlar, ular jahon huquqiy sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar. Ularning boy madaniy-huquqiy merosi hozirgi mustaqil huquqiy taraqqiyotimizning mustaqil poydevori bo'lib xizmat qiladi.

**Djurayev Axmadjon Eshboyevich (SamDCHTI tadqiqotchisi)**  
**YOSHLARDA YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI MADANIYATIGA DOIR QARASHLARNI**  
**RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI**

***Annatsiya.** Maqolada jamiyatning istiqboli uchun xizmat qiladigan yo'llar bilani bog'liq harakat xavfsizligi madaniyatiga doir qarashlarni yoshlar ongiga singdirishning ijtimoiy ahamiyati va rivojlanish jarayonlari falsafiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Unda bugun yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash masalasidagi mavjud muammolarni hal etishga doir qarashlar, ularning yechimini topishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy mulohazalar o'rganilgan.*

***Аннотация.** В статье в качестве объекта философского исследования исследуется социальная значимость и процессы развития внедрения в сознание молодежи представлений о культуре безопасности дорожного движения, связанных с путями, служащими будущему общества. В ней изучались взгляды на решение существующих сегодня проблем по обеспечению безопасности движения на дорогах, а также социально-философские соображения, направленные на поиск их решения.*

***Annotation.** In the article, the social importance and development processes of inculcating the views on the culture of traffic safety related to the ways that serve the future of the society into the minds of young people are studied as an object of philosophical research. In it, the views on solving the existing problems of ensuring traffic safety on the roads today, the socio-philosophical considerations aimed at finding their solution were studied.*

***Kalit so'zlar:** jamiyat, yo'l harakati xavfsizligi madaniyati, yoshlar, ijtimoiy hayot, piyodalar yo'lagi, maktab, davlat, falsafiy qarashlar, jamoat, qonun, haydovchi.*

***Ключевые слова:** общество, культура безопасности дорожного движения, молодежь, общественная жизнь, тротуар, школа, государство, философские взгляды, общество, право, водитель.*

***Key words:** society, traffic safety culture, youth, social life, sidewalk, school, state, philosophical views, community, law, driver.*

Kishilik jamiyati tarixida XXI asr insoniyatning mislsiz darajada yuksak ongga ega bo'lishiga, zamonaviy bilimlar negizida borliqning eng mayda zarrachasidan tortib, koinotgacha bo'lgan hududlarni tahlil etishiga keng yo'l ochdi. Buning natijasida har bir soha o'zining rivojlanish jarayonida obyektiv shart-sharoitlarni o'zgartirib, subyektiv omillarga insonlarni buysunishiga olib keldi. Mana shunday voqeliklardan biri XX asrning ajoyib mu'jizasi sifatida ijtimoiy hayotda keng quloch yoygan texnika inqilobining mahsuli yo'llarda harakatlanish tizimining butun jahonda amal qilishi bo'ldi. Bunday jaaryoning globallashuv oqibatida jadallashishi bevosita insoniyat uchun barcha davlatlarning iqtisodiyoti rivojlanishiga olib kelishi bilan bir qatorda, hayot uchun xavf-xatarlarning vujudga kelishiga, yo'llarda turli-tuman baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishiga imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayonlardan ogoh bo'lib yashash har bir shaxsning kundalik turmush tarziga aylanib ketishi esa fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish davr talabi ekanligini ko'rsatib berdi.

Albatta, bugun aholining barcha qatlamlari uchun yo'llarda qulay shart-sharoitlarni yaratish, xavfsiz yo'llarni tashkil etish jamiyatdagi islohotlarning bosh maqsadi bo'lib, bu jarayonning faol ishtirokchisi sifatida yoshlarning ongida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish barchamizning vazifamizdir.

Jamiyatda odamlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari kengayib borishi jahonda insonlarning turmush tarzi, yashashi, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Shunday bir sharoitda xalqning shart-sharoitlarini yaxshilash, joylarda yo'llarning infratuzilmasini zamonaviylashtirib borish davrining talabiga aylandi. Bu boradagi islohotlar negizida inson manfaatlarining barcha narsadan ustun turishi o'zining mohiyatini aks ettirmoqda. Bugun davlatimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan yo'llar va infrastruktura bilan bog'liq masalalar katta-yu kichikning turmush tarzini yangilashga, xalqning

farovon hayotini ta'minlashga qaratilmoqda. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda qishloq va shaharlarining obod bo'lishi, yo'llardan aholining foydalanish imkoniyatlarining kengayishi barchaning quvonchiga olib kelmoqda. Lekin joylarda yaratilgan keng shart-sharoit va imkoniyatlarning qulayligi ayrim yoshlarimiz uchun ko'ngilxushlik yoki qonunlarga itoat etmaslik kayfiyatlarini ham paydo qilayotganligi namoyon bo'lmoqda. Mana shunday noxush holatlarning oldini olish uchun yoshlarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ularning ongida vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish o'zining alohida o'rniga egadir. Mana shu jarayonlarni ilmiy tadqiq etish barcha uchun foydali, inson umri uchun kurashish mexanizmini yaratish muhim ijtimoiy masalaga aylanib ulgardi.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni bevosita yoshlarning ertangi kelajagi uchun qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" deb nomlangan birinchi bobining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish" nomli 16-maqsadining o'ziyoq joylarda jamoatchilik nazoratiga tayanish muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Bu maqsadda "Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan, harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash"ning aks etishi barchamiz uchun huquqiy asos vazifasini bajaradi.<sup>1</sup> Uning mohiyatini chuqur ilmiy tadqiq etish esa bar bir fuqaroning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga rioya etishi naqadar muhimligini ko'rsatib beradi. Keyingi yillarda yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq qaror va farmonlarning chiqishi bevosita har bir fuqarodan ogohlik bilan jamoat transportidan foydalanishni, joylardan belgilarga amal qilish orqali yo'llardan o'tish zarurligini ko'rsatib beradi. Yoshlarning ongida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, uning falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Bugun yo'llarda sodir bo'layotgan ayrim salbiy hodisalarning oldini olishda mazkur axloqiy munosabatlar farzandlarning kamol topishida ijobiy bo'lishi bilan birga, ularning ongida yo'lda harakatlanish bo'yicha yangi tushunchalar va qarashlarning shakllanishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, baxtsiz hodisalar sonining kamayishiga, jamiyatda yo'l harakati xavfsizligi madaniyatining o'sishiga xizmat qiladi. Bugun Yangi O'zbekistonning barcha hududlarida yo'llarda harakatlanish yuzasidan, avvalo, ota-onalarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish, ularning axloqiy ongida milliy ruhda rivojlanishi uchun islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha izchil ishlar qilinmoqda. Har bir ota-ona o'z farzandining hayotini barcha narsalardan ustun ekanligini anglagan holda, ularga axloqiy tarbiyani milliy qadriyatlarimiz ruhida singdirib borishi maqsadga muvofiqdir. Yoshlar oila muhitida faoliyat olib borar ekanlar, ularning ongida yo'llardagi harakatlanishga doir axloqiy tushunchalarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki biz yoshlarning ongida shakllanadigan axloqiy tushunchalarning jamiyat uchun ijobiy samara berishiga e'tibor qaratishimiz, ularning ongida ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. Barcha ota-onalar o'z farzandlarining yo'llarda turli axloqsiz illatlar orqali haydovchilarning ongini chalg'itadigan qiliqlarni qilishlari yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga to'g'ri kelmaydigan holatlar ekanligini tushuntirib borishi, bu boradagi targ'ibotlarning uzluksizligini ta'minlash muhimligini o'rgatib borishimiz darkor.

Zamonaviylashib borayotgan dunyoda yoshlarning huquqiy ong va madaniyatini uzluksiz rivojlantirib borish davrning ehtiyojlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda yoshlar ongida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga doir tushunchalarni kengaytirish, milliy qadriyatlarga parallel ravishda hushyorlikka o'rgatish, texnikaning tilsiz yov ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslash o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bunday ijtimoiy-falsafiy tafakkurni yoshlarda yangilab borishda jamoatchilik nazoratining o'rnini alohida hisoblanadi. Bunda har bir ta'lim muassasi yoki mahallalardagi fuqarolarning ainq reja asosida faoliyat olib borishi yaxshi samara beradi. Har bir shahar va qishloqning yo'llarini zamonaviy ko'rinishga olib kelish, bu boradagi ishlarni yanada yaxshilash uchun ishlar olib borilmoqda. Toshkent shahrida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydigan kompyuterlashtirilgan videonazorat tizimini ishga tushirish ta'minlanmagan. Holbuki, bunga qancha mablag' sarflangan edi".<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, "O'zbekiston", 2021, 184-бет.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т., 1-жилд, "Ўзбекистон", 2018, 334-бет.

Bundan ko‘rinadiki, ayni paytda barcha viloyatlarimizda, avvalo, yo‘llarning ravonligini ta‘minlashimiz, shunga monand ravishda piyodalarning yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini doimiy oshirib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarning ma‘naviy ongini uzluksiz rivojlantirish, ularda o‘zining hushyorligi orqali baxtsiz hodisalarga nisbatan ogoh bo‘lib yashashlarini shakllantirish davrning talabiga xizmat qiladi. Bugun yoshlarning yo‘l qoidalariga rioya qilishini har bir yoshi katta fuqaro ta‘minlashi, o‘zining faol fuqarolik pozitsiyasi deb bilish lozim. Chunki yoshlar qatlami hamisha intiluvchan, chaqqon, qiziqqon bo‘lib, yo‘llarda turli salbiy holatlarning kelib chiqishiga ayrim paytlarda sababchi bo‘lib qolmoqdalar. Ularning yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish uchun joylarda tegishli targ‘ibot va tashviqot ishlarini tizimli amalga oshirish, har bir hududdagi infrastrukturani yaxshilash o‘zining ijobiy jihatlari egadir. Ayni paytda, yoshlarning faoliyatini maqsadli, aniq ijtimoiy muammo-larni hal etish orqali yechish o‘zining samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Yoshlarda yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatiga doir qarashlarni shakllantirishda, avvalo, jamoatchilik vakillari faolligini oshirish, mahallalardagi yo‘llarning tartibli faoliyatini amalga oshirish o‘ziga xos ijtimoiy masalalarning yechimiga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlarning yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini oshirish bugungi kunning dolzarb ijtimoiy maummolaridan biri sanaladi. Bu faoliyatni har bir rahbar o‘zining tashkilot va muassasasida tizimli ravishda amalga oshirib, xodimlar va xizmatchilarning bexatar yo‘llarda xavfsizlik qoidalariga amal qilishini ta‘minlashi zarur. Ayni paytda, shahar va qishloqlarda aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarda yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini o‘stirish, ularning voqea-hodisalarga nisbatan tushunchalarini oshirish, yo‘llarda baxtsiz hodisalarning ishtirokchilariga aylanmaslik choralari ko‘rish lozim. Buning uchun esa barchaning birgalikdagi jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Bu borada davlatimiz tomonidan keng ko‘lamdagi islohotlarning tashkil etilishi, joylardagi ijtimoiy ahamiyatga molik infrastrukturaning yaratilishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekistonda “keyingi yillarda 70 dan ziyod jismoniy tarbiya va sport muassasasini bunyod etish, barcha bog‘cha va maktablarni sport jihozlari bilan ta‘minlash, tuman markazlari va shaharlarda maxsus piyodalar va velosiped yo‘laklari barpo etish rejalashtirilmogda”.<sup>1</sup>Bulardan ko‘rinadiki, jadal amalga oshirilayotgan izlohotlar negizida xalqning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, fuqarolarning o‘z yashash hududlarida barcha qulayliklarga ega bo‘lgan ijtimoiy makonda mehnat qilishlari uchun “obod mahalla”, “obod qishloq” dasturlari asosida ravon yo‘llarning barpo etilishi xalqning maishiy ahvolini yaxshilaga qaratilgandir. Bu dastur negizida yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar orasida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash ham dolzarb masala sanaladi.

Farzandlarimizning yo‘llardan to‘g‘ri foydalanishi, maxsus belgilangan yo‘laklar yoki svetaforlardan o‘tishini ta‘minlash ishlari barchamizning vazifamiz sanaladi. Bugun deyarli barcha hududlarimizda yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilish davrning talabiga aylandi. Chunki oliy qishloq va ovullargacha kirib borgan turli texnikalardan samarali foydalanish jarayonida insonlarning, qolaversa, yoshlarning yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatiga amal qilishi muhim jarayon sifatida barchamizdan ogohlikni talab qilmoqda. Shuning uchun maktabgacha ta‘lim muassasasidan boshlab farzandlarimizning ongida yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ulardan har bir baxtsiz yo‘l hodisasiz kelib chiqishining oldini olishga doir tushuntirish ishlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Chunki yoshgina murg‘ak qalblarga singdiriladigan dastlabki yo‘l bilan bog‘liq tushunchalar ularning ongida bir umrga muhrlanadigan, butun umri davomida yodida turadigan ilk saboqlar sifatida aks etadi. maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbarlarining o‘z hududlaridagi yo‘l harakati xavfsizligi inspektorlari bilan doimiy aloqada bo‘lishi, bog‘cha tarbiyalanuvchilariga yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini o‘rgatib borishda hamkorlik qilishi o‘zining ijobiy natijasini beradi. Bugun respublikamizdagi har bir qishloq va ovulning ham o‘zining infratuzilmasiga kirgan maktabgacha ta‘lim muassasasi mavjud. Ularda tarbiyalanayotgan farzandlarimizning yo‘llarda harakatlanishi bilan bog‘liq qarashlarini uzluksiz yangilab borish, yo‘llardagi har bir belgining mohiyati sodda va xalqchil tarzda yoshlar oniga singdirib borish o‘zining samarasini beradi. Yoshlarga ta‘lim berishdagi ilk maskan bo‘lgan maktabgachsa ta‘lim tizimida farzandlarimizning yoshini inobatga oladigan bo‘lsak, ularning murg‘akkina qalblariga singdiriladigan yo‘l harakati xavfsizligi madaniyat o‘zining nafaqat ijobiy natijasini, balki bolaning xotirasida bir umrga muhrlanadigan axborotlarni beradi.

Yoshlarning yo‘l harakati xavfsizligi madaniyatini rivojlantirishda maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning ham ongini o‘stirish muhim ahamiyatga egadir. Maktab ta‘limiga uyg‘un holda yo‘l hara-

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2021, 220-бет.

kati qoidalarini o'quvchilarga o'rgatib borish orqali ularning ham huquqiy ongi o'sib boradigan, ham jamiyatdagi texnika bilan bog'liq jarayonlarga moslashuvchanlik ruhiyati mustahkamlanib boradi. Shuning uchun maktab va oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalarining yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini oshirishda yo'llardagi harakatlanish qoidalarini bilish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning jamiyatda o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi asosida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga doir bilimlarini boyitish borishlarida joylardagi targ'ibot ishlarining natijasi katta bo'ladi. Ularning ongida Vatanga sadoqat ruhini yuksaltirishda bag'rikenglikka e'tibor qaratish lozim. Chunki o'zbek xalqi ko'p millatli bo'lib, bu yurtda yashayotgan fuqarolarning barchasi uchun bir xil amalda bo'lgan yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini ta'minlash asosiy masala hisoblanadi. Biz yoshlarga ta'lim-tarbiya berar ekanmiz, ularning yo'llarda bilan bog'liq bo'lgan bag'rikenglik madaniyatini oshirib borishimiz, jamiyatdagi islohotlarda faol targ'ibotchiligi mustahkamlashimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini jamiyatda har bir inson bilishi davrning bosh mezoniga aylandi. Chunki respublikamizning barcha hududlarida har kuni ming-minglab yoshlarning ta'lim muassasalariga yetib borishi uchun qanchadan qancha yo'llarda piyodalar va transport harakatlari amalga oshiriladi. Bunda yoshi katta-yu kichikning birdek ishtirokchiligi ba'zida goh piyodaning, goh transport boshqarayotgan haydovchining e'tiborsizligi tufayli noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun biz yoshlarimizni tarbiyalashda ularning jamiyatda mavjud qonun-qoidalarga rioya qilgani singari, yo'l harakati qoidalariga o'ta hushyorlik bilan amal qilishlarini kamol toptirishimiz lozim.

**Zoyirov Erkin Xalilovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi)  
YA'QUBI CHARXIY TA'LIMOTINING XORIJ TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN  
O'RGANILISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ya'qubi Charxiyning hayot va faoliyati hamda tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni haqida turli davrlarda mutasavvif hamda olimlar tomonidan ta'lumotlar keltirilgan bo'lib, uning falsafa tarixidagi o'rnini, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansning ildizlaridan biri ekanligini asoslab berishdan iborat.*

***Аннотация.** В данной статье даны сведения учеными о жизни и творчестве Якуби Чархи и его месте в учении суфизма, исходя из его места в истории философии и того, что он является одним из истоков Третьего Ренессанса в Новом Узбекистане.*

***Annotation.** In this article, information about the life and work of Yakubi Charkhi, as well as his place in the teachings of Sufism, is presented by mystics and scientists in different periods, and it is to justify his place in the history of philosophy that he is one of the roots of the Third Renaissance in New Uzbekistan.*

***Kalit so'zlar:** Ya'qubi Charxiy, naqshbandiya, tadqiqotlar, risolalar, falsafiy tahlil, Tafsiri Ya'qubi Charxiy, silsila.*

***Ключевые слова:** Якуби Чархи, Накибандия, исследования, трактаты, философский анализ, Тафсир Якуби Чархи, серия.*

***Key words:** Yakubi Charkhi, Naqshbandiya, studies, treatises, philosophical analysis, Tafsir Yakubi Charkhi, series.*

Tasavvuf falsafasidagi vorisiylik an'analari davom etishida Ya'qubi Charxiy ilmiy merosining o'rni yuqori hisoblanadi. Naqshbandiya tariqatining pirlaridan bo'lgan Ya'qubi Charxiyning katta orifiy ilm sohibi bo'lganligini faqat uning shogirdlari va farzandlari to'plagan manoqiblar tasdiqlab qolmasdan, balki o'zi yozgan ilmning turli sohalari, ayniqsa, naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan risolalari ham tasdiqlab turibdi.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda, Germaniya, Turkiya, Eron, Pokiston, Rossiya, Tojikistonda Ya'qubi Charxiy A'zam hayoti va ilmiy merosiga oid ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Maqolada tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalarni yoritishda ushbu tadqiqotlardan u yoki bu darajada foydalanildi. Ammo ushbu tadqiqotlar tarix, sharqshunoslik, manbashunoslik fanlari predmeti va talablari nuqtayi nazaridan yozilgan bo'lib, ularda Ya'qubi Charxiy tasavvufiy qarashlarining falsafiy tahliliga e'tibor berilmagan.

Pokistonlik olim Muhammad-Nazir Randja Ya'qubi Charxiy ijodining ixlosmandi bo'lgan. Olim mutasavvifning "Sharhi Asmo ul-husna", "Huroiyya", "Risolayi abdoliya", "Risolayi unsiya" asarlarini o'rganib, "Rasoili Ya'qubi Charxiy" nomlab to'plamni ikki marta nashrdan chiqaradi. Tadqiqotchi 2009-



yilda nashr etgan to'plamida "Risolayi abdoliya", "Risolayi unsiya" risolalarga ko'proq e'tibor berganligi va shu asarlari orqali mutasavvif ijodining ixlosmandi bo'lganligini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Eronlik tadqiqotchi Muhammad Amin Riyohi Kubroviya va Naqshbandiya tariqatlarini o'rganib, mutasavvifning "Tafsiri Ya'qubi Charxiy" hamda Kubroviya tariqati yirik vakili Najmiddin Roziyning "Mirsad al-ibod" risolalarini qiyosi tahlil qilgan.<sup>2</sup>

Ya'qubi Charxiyning hayoti va ilmiy merosi turkiyalik olimlar tomonidan ham ba'zi tadqiqotlar olib borilgan. Topbosh Osman Nuri "Tasavvuf. Iymondan ehsongacha"<sup>3</sup> asarida tasavvuf tushunchasi, mohiyati, tariqatlar, naqshbandiya ta'limoti va namoyandalari haqida ma'lumot berib, Ya'qubi Charxiyning risolalarida iymon, insonning ruhiy pokligi, yuksak axloqiy fazilatlarini egallash orqali Allohni ang-lashi mumkinligini irfoniy tahlil etgan.

Turkiyalik ilohiyotchi olim Najdat To'sun "Oltin xalqa. Naqshbandiya tariqatining oltin silsilasi"<sup>4</sup> kitobida Ya'qubi Charxiy "zanjir az-zaxabning" o'n yettinchi halqasida ekanligini ta'kidlab, Misr, Hirot va Buxoro madrasalarida ilm olganligi, Hirotida yashagan davrida ijtimoiy muhitning yomonligi hamda Abdulla Ansoriy xonadonida bo'lganligini keltiradi. Jumladan, mutasavvifning Buxoroda ilm olib, Bahouddin Naqshband bilan ilk uchrashuvi tugagach, Dashti Kulakka Mavloni Tojiddinning suhbatida qat-nashganligi haqida ma'lumotni beradi. Olim fikricha, Ya'qubi Charxiyning tushlarida yoki kashfida Buxoro qal'asining yorilganini, qal'a devorlaridagi kovaklardan o'ziga qarab nur taralganini, nurlarning bir uchi uning boshida, qolgani esa uchi arqon kabi uzayib, Ka'baga ulanganini, bu nur iplarining ustida tugin bo'lib, har bir tugunda mevali daraxtlar hosil qilgani, insonlar va maxluqotlar shu mevalardan bahramand bo'lganini ko'radi. Bu tushini ustoz Bahouddin Naqshbandga aytgandan so'ng, piri Ya'qubi Charxiyga xalqni irshod qilishga ijozat beradi.<sup>5</sup>

Hasan Komil Yilmaz ham o'zining "Oltin silsila. Naqshbandiya tariqati shayxlarining vorisiylik zanjiri"<sup>6</sup> kitobida mutasavvifning to'liq ismi Ya'qub ibn Usmon ibn Mahmud ibn Muhammad ibn Mahmud al-Charxiy ekanligi hamda Xurosonning G'azni yaqinidagi Charx qishlog'ida (hozirgi Afg'oniston Islom Respublikasining Log'ar viloyatidagi qishloq) ilohiyotchi oilasida tug'ilganligini batafsil ma'lumot berib, Ya'qubi Charxiyning silsiladagi o'rnini Muhammad Porsodan keyin o'n sakkizinchi halqada ekanligini ta'kidlaydi.

Turk tasavvif olimi Haziniy "Javohir ul-abror" asarida Ya'qubi Charxiy haqida o'n baytdan iborat she'r yozgan. She'rda Bahouddin Naqshband, shuningdek Charxiyning naqshbandiya tariqatida tutgan o'rni, vafoti va qabri Halg'atuda ekani to'g'risida yozadi.<sup>7</sup>

Rossiyalik olimlar tomonidan ham Ya'qubi Charxiyning ilmiy merosiga oid tadqiqotlar olib borilgan. Aleksey Xismatullin mutasavvifning hayoti va ilmiy merosiga bag'ishlangan "O'rta asr chizmalarini chizish usuli. Ya'qubi Charxiyning "Risolayi abdoliya" asari misolida"<sup>8</sup> deb nomlangan maqolasida ilk ilohiyot ilmini Xurosonning chekkasidagi qishloqda o'rganganligini, keyinchalik, Hirot, Misr va Buxorodagi sayohati to'g'risidagi ma'lumotni keltiradi. Olim Ya'qubi Charxiyni Buxoroda piri Bahouddin Naqshbanddan xufiya zikrini o'rganib, Alouddin Attorga murid bo'lganligini keltiradi. Tadqiqotchining fikricha, mutasavvifning "Risolayi abdoliya" asarining ilk nusxasi asrgacha Misrda saqlangan bo'lib, keyinchalik, eronlik hamda pokistonlik olimlar shu manba asosida tadqiqot olib borganlar.

"Markaziy Osiyoda sufiylik" Fritsa Mayer xotirasiga bag'ishlangan xalqaro to'plamda Ya'qubi Charxiyning "Risolayi abdoliya" asarida Xizrning kelib chiqishini Markaziy Osiyo bilan bog'laganligini

<sup>1</sup> Расабил-и хазрат-и Мавлана Яъқуб-и Чархи. Под ред. Мухаммад-Назира Ранджха. Ханаках Сираджия Накшбандия-Муджаддия, 1430 л.х. 2009 (1-е изд.), опубликовано пять посланий, Шарх-и асма ал-хусна, Хурая, Тарика-йи хатм-и ахзаб, Абдалия, Унсия; Мавлана Яъқуб Чархи. Рисала-йи абдалия. Под ред. Мухаммад Назира Ранджха. Исламабад: Марказ-и тахикат-и фарси-йи Иран ва Пакистан, 1398 л.х. 1978.

<sup>2</sup> Topbosh O.N. Sufizm from Iman to Ikhsan. Translation from Turkic. M., SAD, 2008, 488 p.

<sup>3</sup> Najdat To'sun. Oltin Silsila. Naqshbandiylik tariqatining oltin silsilasi. T., "Qamar-media", 2022, 224-bet.

<sup>4</sup> Хасан Камилъ Йылмаз. Золотая Сильсиля. Цепь Преемственности шейхов тариката Накшибандийя-Халидийя. 1-е изд., М., издательская группа «Сад», 2009, 248 с.

<sup>5</sup> Haziniy. Javohir ul-abror min anvojil bihor. Turkiya, "Kayzeri", 1995, 135-bet.

<sup>6</sup> Хисматуллин А. Метод компиляции средневековой рисалы на примере «Рисала-йи абдалия» Якуба Чархи. "ИРАН-НАМЕ", № 4, 2009, с. 64 – 82.

<sup>7</sup> Knish Aleksandr. Musulmon tasavvuf. Tarj. Qodirqul Ro'zimatzoda. T., "Fan", 2022, 275-bet.

<sup>8</sup> Эскарханов Г.Л. Суфизм на Северо-Восточном Кавказе: возникновение, идеология, практика. Диссертация ... кандидата философских наук, Грозный, 2011, 185 с.

hamda birinchi kunyasini Abul Abbos to'g'risida ma'lumotni beradi.<sup>1</sup> Jumladan, Xo'jagon-Naqshbandiya mutasavviflarining risolalarini tahlil qilib, Koshifiy, Jomiy va Xoja Ahrorning ko'p sonli asarlari borligi bilan bir qatorda, Muhammad Porso hamda Ya'qubiy Charxiyning risolalari alohida o'ringa ega ekanligi ta'kidlangan.

Aleksandr Knish "Musulmon tasavvufi"<sup>2</sup> kitobida Bahouddin Naqshbandning muridlari haqida to'xtalib, Alouddin Attor (vaf. 802–1393) kuyovi bo'lish sharafi bilan taqdirlanganligi, Xoja Muhammad Porso (vaf. 882–1419) ko'plab asarlar muallifi bo'lib, naqshbandiya tariqatining adabiy merosini yaratganligi, Ya'qubi Charxiy (vaf. 851–1447) va Xoja Ubaydullo Ahror (vaf.896–1490) esa tariqatning jahonga tarqalishida muhim ahamiyatga ega bo'lganligini keltiradi.

Chechenistonlik olim Eskarxanov Gelani Lyomovich "Shimoli-Sharqiy Kavkazda so'fiylik: paydo bo'lishi, mafkurası, amaliyoti"<sup>3</sup> deb nomlangan tadqiqotida naqshbandiya ta'limotining Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Hindiston va Sharqiy Turkistonda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tafakkuri rivojida katta ta'sir ko'rsatishida Alouddin Attor, Muhammad Porso, Ya'qubi Charxiy hamda Xoja Ahrori Valiylarning oilasi, muridlarining sayohatlari, ko'chishlari natijasida keng tarqalganini alohida ta'kidlab o'tadi.

Tojikistonlik olimlar S.Mahmadullayev, Z.Nabotov, Yusuf Jolandan Mansur va boshqalar tomonidan ham Ya'qubi Charxiy hayoti va ilmiy merosi haqida tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchi Saidbek Mahmadullayev "Ya'qubi Charxiyning ayrim axloqiy qarashlar"<sup>4</sup> maqolasida naqshbandiya tariqatining yirik vakili Ya'qubi Charxiyning inson axloqi, fano, qalb pokligiga erishish vositalari, fahsh ishlardan xalos bo'lish kabi masalalarga alohida e'tibor bergan. Tadqiqotchi mutasavvifning "Risolayi unsiya" hamda "Tafsiri ya'qubi Charxiy" risolalaridan unumli foydalangan.

Zayniddin Nabotov "Naqshbandiya ta'limotida inson muammosi"<sup>5</sup> tadqiqotida naqshbandiya ta'limotining hozirgi kungacha aholi orasida keng tarqalganligi, bunda Xoja Muhammad Porso, Mavlono Ya'qubi Charxiy, Xoja Ahrori Valiy, Faxriddin Ali Safiy, Abdurahmon Jomiy kabi mutasavviflarning insoniy fazilatlarini yuksaltirish, umuminsoniy qadriyatlarini keng yoyishga qaratilgan ilmiy meroslarining o'rni muhim ekanligiga e'tibor qaratgan.

Yusuf Jalondan Mansur "Temuriylar davridagi Movarounnahr va Xurosondagi mozorlar: XIV–XV asrlar"<sup>6</sup> bo'yicha olib borilgan tadqiqotida Mavlono Ya'qubi Charxiyning mozori Dushanbe shahar chekkasidagi Halg'atu qishlog'ida joylashgan. Tadqiqotchi mutasavvifni 2-aprel 1477-yilda vafot etganligini keltiradi. Jumladan, Ya'qubi Charxiyning "Risolayi abdoliya" asari haqida ma'lumotni beradi.

Ibrohimi Naqqosh tomonidan 456 betdan iborat "Risolahoyi Piron va payravoni tariqati Naqshbandiya" ("Naqshbandiya tariqati pirlari va izdoshlarining risolalari") asari nashrdan chiqdi. Asarda Mavlono Ya'qubi Charxiyning "Risolayi unsiya" asarining tojik tilidagi tarjimai keltirilgan. Tadqiqotchi tomonidan yana "Mavlono Ya'qubi Charxiy va haft piri naqshbandiya" ("Mavlono Ya'qubi Charxiy va Naqshbandiyaning yetti piri") risolasi ham chop etildi. Bu risolaning 78–91-betlari Ya'qubi Charxiyga bag'ishlangan.

Germaniyaning Gamburg universiteti qo'lyozmalarni o'rganish markazi professori Yurgen Paul 2019-yilda chiqarilgan 3 tom lug'atida Ya'qubi Charxiyning hayoti, ilmiy merosi hamda Bahouddin Naqshband bilan uchrashganlari, ustoz-shogirdlik munosobatlari haqidagi ma'lumotlarni keltiradi. Jumladan, "Bahouddin Naqshbanddan keyingi xojagon-naqshbandiya ta'limoti va tashkilotlari" nomli monografiyasida naqshbandiya tariqati namoyandalari haqida to'xtalib, Ya'qubi Charxiyning tariqatdagi o'rni hamda ilmiy merosi bo'yicha ma'lumotlar beradi. Olim Ya'qubi Charxiyning zikrni ustozı Bahouddin Naqshbanddan o'rganib, muridi Xoja Ahror Valiyga bu masalada e'tiborli bo'lishini keltirib o'tilgan. Yurgen Paul fikricha, Ya'qubi Charxiy hozirgi Dushanbe yaqinidagi Halg'atu qishlog'iga borgunga qadar bir-ikki yil Alouddin bilan yonma-yon yashab, o'sha yerda dafn etilgan.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, o'z tadqiqot ishimizni tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, Ya'qubi Charxiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari masalasiga bag'ishlashga qaror qildik. Ushbu muammoni muayyan metodologik asoslarga tayangan holda tahlil qilamiz, zamon ruhiyatiga moslashtir-

<sup>1</sup> Махмадулаев С.О. Некоторые этических точек зрения Якуба Чархи. Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук, Душанбе, 2015, 34 с.

<sup>2</sup> Наботов З. Проблема человека в Накшбандизме. Диссертации по философии, Душанбе, 2002, 125 с.

<sup>3</sup> Юсефи Джонландан Мансур. Мазары Хорасана и Мавераннахра эпохи Тимуридов. Автореферат дисс. на соискание ученой степени канд. ис.наук, Душанбе, 2009, 26 с.

<sup>4</sup> Мухаммадходжаев А. Идеология накшбандизма. Душанбе, "Дониш", 1991, 234 с.

<sup>5</sup> Махмадулаев С. О некоторых этических точках зрения Якуба Чархи. Душанбе, 2015, 34 с.

<sup>6</sup> Juergen Paul. Yencyclopedia of Islam-Three.Academia, 2019, p. 18.

gan holatda, transformatsiyaga (qayta o'zgarish, qayta hosil qilish) uchrab borgani va hozirgi vaqtda ushbu masala o'z dolzarbligini yo'qotmay, aksincha, javob topishga qiziqish kuchayganini ko'rsatamiz. Demak, Ya'qubi Charxiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari masalasini tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan o'rta asrdan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan mutasavviflar, olimlarning tadqiqotlarini o'rganib, unga teologik yondashuv va falsafiy komparativistik (ya'ni, qiyosiy falsafa) usullardan foydalangan holda izchil tahlildan o'tkazildi.

**Amridinova Dilrabo Tursunovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
Tarix kafedrası professori, falsafa fanlari doktori; e-mail: dilrabo@1971mail.ru)  
MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA ABDUQODIR SHAKURIY MA'NAVIY MEROSINING  
IJTIMOIY AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand jadidlari namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shakuriyning ma'naviy merosi, ijtimoiy-axloqiy qarashlari tahlil qilingan. Ularning milliy uyg'onish va ma'naviy yuksalish konsepsiyasi, jamiyatni ijtimoiy yuksaltirish uchun yoshlarga zamonaviy ilm-fanni o'rgatish, konseptual ahamiyatini yoritib berish asosiy o'rin egallaydi. Muallif ma'rifatparvar jadidlarning Vatan, mehnatsevarlik, bag'rikenglik g'oyalarini milliy taraqqiyot uchun samarali foydalanish haqidagi qarashlari, mamlakatni innovatsion tafakkur orqali rivojlantiruvchi omillar haqidagi fikrlarining futurologik jihatlari tadqiq etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются духовное наследие, социальные и нравственные взгляды Махмудходжи Бехбуди и Абдукадира Шакури, представителей самаркандского джадидизма. Основное место занимают их концепции национального пробуждения и духовного роста, обучения молодежи современным наукам для социального подъема общества, разъяснения их концептуального значения. Автор исследовал футурологические аспекты представлений просветителей джадидов об эффективном использовании идей Родины, трудолюбии и терпимости к национальному развитию, а также факторы, развивающие страну через новаторское мышление.*

***Annotation.** In this article, the spiritual heritage, social and moral views of Mahmudhoja Behbudi and Abduqadir Shakuri, representatives of Samarkand Jadids, are analyzed. Their concept of national awakening and spiritual growth, teaching modern science to young people for the social development of the society, and elucidating the conceptual importance of them occupy the main place. The author has researched the futurological aspects of the ideas of the enlightened moderns about the effective use of the ideas of the Motherland, hard work, and tolerance for national development, and the factors that develop the country through innovative thinking.*

***Kalit so'zlar:** Turkiston, jadid-ma'rifatparvarlar, ma'naviy-ijtimoiy qarashlar, yoshlar, ilm-fan, hunarmand maktablar, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy.*

***Ключевые слова:** Туркестан, современные просвещенные люди, духовно-общественные взгляды, молодежь, наука, ремесленные школы, Махмудходжа Бехбуди, Абдукадир Шакури.*

***Key words:** Turkistan, modern-enlightened people, spiritual and social views, youth, science, craft schools, Mahmudhoja Behbudi, Abduqadir Shakuri.*

Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini qurish, har bir vatandoshimizning azm-u qarori, hayotiy maqsadlarining asosiga aylanmoqda. Ajdodlarimiz, ma'rifatparvar jadidlariimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy ta'limotlaridan foydalanish ming yillar davomida ijtimoiy hayotni tanazzulga uchrashidan, turli ma'naviy tahdidlardan himoyalab kelgan. "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab etadi".<sup>1</sup> Shu ma'noda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida millatni ma'rifatli qilish, jamiyatni yangilash va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ma'rifatparvarlar qarashlari, ayniqsa, Buxoro jadid ma'rifatparvarlari pozitiv g'oyalarining yoshlarni tolerantligini shakllantirishdagi konstruktiv ahamiyatini har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, mutafakkirlarning ma'naviy merosi ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol avlodning falsafiy tafakkurini shakllantirishda asosiy manbalardan hisoblanadi.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи", 2020, 25 январь, 19 (7521)-сони.

“Yangilanayotgan O‘zbekistonda yangicha dunyoqarash” ezgu g‘oyasi asosida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ajdodlarimiz merosini o‘rganish, ularning g‘oya va qarashlarining tarbiyaviy ahamiyatini hozirgi davr yoshlarining ong-u shuuriga yetkazish, egallangan bilimlardan maqsadli faoliyatni tashkil etishda foydalanishga o‘rgatish ko‘zda tutilmoqda.

Millat ravnaqi, mamlakat rivoji, barkamol avlod tarbiyasi uchun qayg‘urgan shaxslardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Uning islohotchilik, o‘zbek milliy teatri, yangi maktab va maorifning shakllanishidagi salmoqli faoliyati, ayniqsa, diqqatga sazovor. M.Behbudiy o‘zining qisqa hayoti davomida millat uchun zarur bo‘lgan anchagina ma‘naviy meros qoldirdi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaydiki, “Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy-Ajziy, Hoji Muin, Abdulhamid Majidiy singari o‘nlab ma‘rifatparvar fidoyilarning qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma‘naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba”dir.<sup>1</sup>

Mamlakatimiz rahbarining bunday strategik ahamiyat kasb etadigan fikri jadidchilarning jamiyat taraqqiyoti, mamlakat rivoji, mintaqadagi davlatlar orasida o‘zining munosib o‘rnini topishi, ilm fani, madaniyati tarixidagi roliga, jamiyatshunoslik rivojidagi o‘rniga berilgan metodologik bahodir.

Demak, jadidchilik harakati namoyandalarining innovatsion ruhdagi g‘oyalari xalqni, yosh avlod vakillarini yuqori ma‘naviyatli, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirishda, mustaqil hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lgan, keyingi bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, milliy mustaqillik g‘oyalarning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Jadidlarning ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalari va konseptual fikrlari ifodalangan merosini o‘rganish xususan, xorijiy olimlar amerikaliklar Adib Xolid, E.Olvort, germaniyalik I.Baldauf, Stefan A.Dyuduanon<sup>2</sup> kabi sharqshunos, tarixchi, faylasuf olimlar tomonidan olib borilgan. Jadidchilik harakatining namoyandalari ijodi, ularning ilmiy merosiga mansub asarlarning tadqiqi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida R.Hodizoda, N.Gafarov<sup>3</sup> kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, o‘zbekistonlik jamiyatshunos olimlaridan Sh.Radjabov, I.Mo‘minov, M.Fattoyev, B.Qosimov, G.Mahmudova, B.Ergashev, D.Alimova, Sh.Rizayev, Q.Nazarov, Sh.O.Madayeva, Bahodir Karim, D.T.Amriddinova<sup>4</sup> ilmiy tadqiqot ishlarida jadidlarning ijtimoiy, ma‘naviy hayot masallariga bag‘ishlangan tadqiqotlari, o‘zbek jamiyatining rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tanqidiy qarashlari, jamiyat taraqqiyotiga yo‘naltirilgan konseptual fikrlari mazmuni mustaqil yondoshuv asosida o‘rganilgan.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Т., “Ўзбекистон”, 2017, 178-бет.

<sup>2</sup> Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. Berkeley: University of California Press. 1998. <http://ark.cdlib.org/ark:/13030/ft8g5008rv/>; Edward A. Allworth. *Evading Reality: The Devices of ‘Abdalrauf Fitrat, Modern Central Asian Reformist*. Boston.: Brill Leiden. 367 pages; Baldauf Ingeborg. *Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World*. Die Welt des Islams, New Ser. Vol. 41, Issue 1 (Mar., 2001); Стефан А. Дюдуаньон. Кадымизм: элементы социологии мусульманского традиционализма в татарском мире и в Мавераннахре (конец XVIII – нач XX вв.). Казань, Институт истории АН Татарстана, 1997.

<sup>3</sup> Расул Ходизода. К не звезды падают. Ист. роман. Душанбе, “Адиб”, 1991, с. 431; Гафаров Н.У. Книготорговые товарищества джадидов в Средней Азии. Вестник РТСУ.

<sup>4</sup> Раджабов Ш. Джадидизм и Туркестане (1905–1917 гг.). Тезисы на диссертации на соис. уч. ст. канд. ист. наук, Ленинград, 1937; Муминов И.М. Из истории развития общественно-политической мысли в Узбекистане конца XIX – начало XX вв. Ташкент, 1957; Фаттоев М. Атоқли педагогларимиз. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1988, 456-бет; Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов Д., Ризаев Ш., Ахмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Тошкент, “Маънавият”, 2004; Махмудова Г.Т. Туркистонда жадидчилик харакати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр таракқиётига таъсири. Фал.фан. номзоди... дисс., Т., 1996, 158-бет; Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология молодобухарцев: дисс. на соис.уч.ст.док. фил.наук, Бухара, 1993, с. 314; Алимова Д. Туркистон жадидларининг мусулмон маданиятига оид қарашлари. Имом Ал-Бухорий сабоқлари. 2001, №3, 206–208-бетлар; Ризаев Ш.Т. Ўзбек жадид драматургиясининг шаклланиши манбалари. Фил.фан. номзоди... дисс. автореф., Т., 1995, 28-бет; Назаров Қ. Ўзбек фалсафаси. Тошкент, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2013, 212-бет; Мадаева Ш.О. Абдурауф Фитратнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. Фал.фан. номзоди... дисс., Т., 1995, 158-бет; Баҳодир Карим. Жадид мунаққиди Вадуд Махмуд. Т., 2000, 99-бет; Амридинова Д.Т. Махмудхўжа Беҳбудий фалсафий меросининг комил инсонни шакллантириш жараёнидаги роли. “НамДУ илмий ахборотномаси”, Наманган, 2022, 6-сон, 308 – 313-бетлар.

Turkiston jadidlarining birlashishi va harakatining keng quloch yoyishida o'zbek jadidchiligining otasi Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmatlari beqiyosdir. M.Behbudiyning ijodi va amaliy faoliyati keng qamrovli va serqirra bo'lib, u maktab-maorifni isloh qilishdan tortib, Turkistonni ozod va obod Vatanga aylantirish masalasigacha borib taqaladi.

Turkistonda maktab-maorifni rivojlantirish g'oyasi M.Behbudiy ijodiy faoliyatining asosini tashkil etadi. Turkiston o'lkasidagi nodonlik, johillik va zabunlikning asosiy sababini, M.Behbudiy fikricha, ilmsizlikdan izlash kerak. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z ma'rifiy faoliyatida ta'lim-tarbiyaning ahvoli va uning ahamiyati to'g'risidagi tahliliy maqolalar chop etish bilan cheklanib qolmadi, balki maktabga amaliy yordam berish uchun o'quv qo'llanmalar yozdi. Uning quyidagi o'quv qo'llanmalari: 1) «Alifbo maktabi islomiya» (fors tilida); 2) «Madhali jug'rofiyayi umroniy» ("Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi" (fors tilida); 3) «Kitob ul-atfol» (turk va fors tillarida); 4) «Amaliyoti islomiya» (turk tilida); 5) «Muxtasari tarixi islom»; 6) «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» (Umumiy jug'rofiyadan tanlangan ma'lumotlar). Mahmudxo'ja Behbudiy bu darslik va qo'llanmalarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid muhim masalalarni ko'targan, o'qish va o'qitish tizimini takomillashtirish uslublarini ko'rsatib, diniy va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirishning zarurligini ta'kidlagan. Spunirgdek, Behbudiy nafaqat ma'rifatni yoyish, xalqni jaholat botqog'idan xalos qilish, unga adolat, erk, haqiqat yo'lini ko'rsatishga intildi, ularni jahon talablariga javob beradigan milliy kadrlarni tayyorlash, tarbiyalash masalalarini ham ilgari surdi.

M.Behbudiy Falastinga qilgan sayohati to'g'risidagi xotiralarida, «Kitobat ul-aftol», «Kitobi muntahabi jug'rofiyai umumiy», «Bizni kemirguvchi illatlar» kabi asar hamda maqolalarida turli dinlar to'g'risida fikr bildiradi va diniy bag'rikenglik g'oyasini targ'ib qiladi. M.Behbudiy o'z asarlarida musulmon xalqlari orasida diniy bilimlarni chuqurlashtirish zarurligiga alohida e'tibor berdi. Ayniqsa, Quddusi Sharifga qilgan sayohati chog'ida har bir mamlakat, shaharlardagi muqaddas qadamjolar to'g'risida yozadi. Behbudiyning asosiy maqsadi qadamjolarini ta'rif-tasnif etishdan iborat bo'lmaganligi uchun bu haqda u kamroq ma'lumot beradi. Olmoniyalik olim Ingeborg Baldaufning fikricha, Mahmudxo'ja Behbudiy «Falastinda yashovchi musulmon arablar hayoti bilan Markaziy Osiyoda yashovchi musulmon yurtdoshlarinig hayotini bir-biriga taqqoslab ko'radi. Ayon bo'lishicha, har ikkala xalq ajnabiylar istibdodi ostida yashaydilar...».<sup>1</sup>

Behbudiyning ta'kidlashicha, Falastin va Turkistondagi musulmonlar ijtimoiy tabaqalanishning eng quyi pog'onasidan joy olganlar. Ana shu bois bunday nochor ahvolga tushib qolishga musulmonlarning o'zlari ham sababchi, degan xulosaga keladi. Bunday illatlardan qutulish uchun ilm-fanni egallash, diniy bag'rikenglikka erishish zarurligini ta'kidlaydi.

M.Behbudiyning millatni ma'rifatlashtirish konsepsiyasi, birinchidan, yangi usul maktablarini ochish, ikkinchidan, bu maktablarda dunyoviy fanlarning ustuvorligiga erishish, uchinchidan, ularni zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari va qurollari bilan ta'minlash, to'rtinchidan, ota-onalarning to'y va ma'rakalarga sarflaydigan mablag'laridan bir qismini mahalliy maktabni bitirgan bolalarining xorijiy mamlakatlardagi dunyoviy va diniy oliy o'quv yurtlariga yuborish, beshinchidan, ularning turkiy, fors va arab tillaridan tashqari, rus va nemis yoki fransuz tillarini ham o'zlashtirishiga erishish, oltinchidan, zamonaviy sudya, huquqshunos, injener kabi Turkiston uchun noyob bo'lgan ixtisosliklar bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalarini o'z ichiga olgan.

M.Behbudiy o'z davridagi kishilarni ilm va hunar egallashga, taraqqiy etishga ahvoli millat uchun qayg'irishga chorlaydi: "Ilmsiz millatning oxiri voydur. Fazl-u hunar bilan millat dunyoda boqiydur, deya bir umr millat va xalq manfaatini himoya qilmoqqa harakat qildi. M.Behbudiyning xulosasi bitta: millat taraqqiy etmog'i uchun "...hamiyyati xayriya, nashri maorif, qiroatxonalar, fondlar, kurujoklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar kerakdur..."<sup>2</sup>.

Behbudiy qoldirgan ma'naviy meros hamma zamonlar uchun ham birday xizmat qiladi. Chunki ilm-u maorifdan yiroq kishi jamiyatda o'z o'rnini topolmaydi, rohat ko'rmaydi. Shu o'rinda ulug' ma'rifatparvarning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim topdik: "Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. Muborayi hayot maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur..."<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Махмудова Г.Т. Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири. Фал.фан. номзоди... дисс., Т., 1996, 30-бет.

<sup>2</sup> Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология молодобухарцев. Дисс. на соис.уч.ст.док. фил.наук, Бухара, 1993, с. 203.

<sup>3</sup> Махмудова Г.Т. 169-бет.

Samarqandlik jadid namoyandalardan Abduqodir Shakuriy Samarqand shahrida yangi usuldagi birinchi maktabni tashkil qilgan ma'rifatparvar muallimdir. U o'zining tarjimai holida madrasada o'qib yurgan yillaridayoq, har yoz ta'til vaqtlarida o'z uyida eski usul maktabida o'qituvchilik qilganligi, ammo ta'lim-tarbiya usulining qiyinligi, shuning uchun zamonaviy maktablar qurib, musulmon bolalarini yangicha usulda o'qitish zarurligi, lekin orzu-istagini amalga oshirish nihoyatda mushkulligini ta'kidlaydi.

A.Shakuriy o'z maqsadiga erishish uchun kuch-g'ayratini ayamadi, shu sa'y-harakat mevasi o'laroq, XX asrning dastlabki yillaridayoq Samarqandning Rajabamin qishlog'ida yangi usuldagi maktab paydo bo'ldi. Bu davrning taniqli olimlaridan biri Tursunqul (Otajon Hoshim) o'zining «25 yillik pedagog» maqolasida Abduqodir Shakuriyning 1901-yilda «uch parta, bir lavha, bir ustol, bir ustuli» bo'lgan yangi usuldagi maktab ochib, muallimlik qilganligini ta'kidlagan edi.<sup>1</sup>

Abduqodir Shakuriy maktabi eski usuldagi maktablardan o'qitish uslublari bilan tubdan farq qilgan. Maktabda diniy va dunyoviy ilmlar birga o'qitilib, juda qisqa vaqt ichida savod chiqarish yo'li tanlangan edi. Chor hukumati bu maktabning faoliyat ko'rsatishiga rasman monelik qilmasada, ammo uning mahalliy amaldorlari tomonidan o'qitiladigan fanlarning dasturi qattiq nazorat qilinar edi. Ularni maktabda o'qitiladigan diniy darslar emas, dunyoviy fanlar tashvishga solgan. Bunga sabab, M.Fattoyevning e'tirof etishicha, yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik kabi fanlarning o'qitilishi edi. Hukumatning mahalliy ma'murlari Shakuriyning maktabini tez-tez tekshirishar, o'quvchilarning kitob va daftarlarini ko'zdan kechirishardi.<sup>2</sup>

A.Shakuriy nafaqat maktab ochib, dars berdi, tashkiliy ishlar bilan ham shug'ullandi, balki o'quvchilarga mos ravishda kitoblar yaratdi va shular asosida bolalarni o'qitdi. Muallim tomonidan yozilgan kitoblar o'z mablag'i hisobidan nashr qilindi. Bu esa yangi usulda o'qish-o'qitish ishlarining samaradorligini oshirishga olib keldi. Shakuriyning ana shunday darsliklaridan biri alifbo kitobi bo'lib, «Rahnomoyi savod» («Savod chiqarish rahbari») deb ataladi. Bu kitob so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qish uchun mo'ljallangan kichik xrestomatiya hisoblanadi.

Abduqodir Shakuriy yangi maktab tajribasini o'rganish maqsadida nafaqat Qo'qon shahriga borib, birinchi ochilgan maktab bilan tanishgan, balki qo'shni Turkiyadagi ta'lim-tarbiya sohasidagi yangiliklardan xabar topgach, 1912-yilda bu mamlakatga safar qiladi. Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lib, qo'qonlik, toshkentlik, buxorolik talabalar bilan tanishadi. Talabalardan biri A.Fitrat bo'lib, shu davrda u o'z asarlari bilan ziyoli va talabalar orasida ancha mashhur edi. A.Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi bayonati» asarlari hamda «Sayha» deb atalgan birinchi she'rlar to'plami keng tarqalgan bo'lib, qo'ldan-qo'lga o'tib o'qilar, kitobxonlar ommasiga anchagina manzur bo'lgan edi. Ayniqsa, «Sayha» asarida bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan xalqni Vatan erki, ozodligi uchun kurashga chorlovchi g'oyalar bisyor edi. Shuning uchun chor Rossiyasi bu asarning Turkiston o'lkasida tarqalishini taqiqlab qo'ydi. O'sha davrda «Sayha» asarini tarqatish, uni targ'ib qilish jasoratni talab qilardi. A.Shakuriy Turkiyadan qaytayotib A.Fitrat asaridan ellik nusxasini chegaradan yashirin ravishda olib o'tadi va Buxoro, Samarqand ziyolilari orasida tarqatadi.

Yangi usuldagi maktab tashkil etish, uni doska, partalar bilan ta'minlash, ona tilida yozilgan, ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalar, tarjima qilingan kitoblardan matnlarning o'quv dasturiga kiritilishi A.Shakuriydan fidoyilikni talab qildi. A.Shakuriy tomonidan Samarqandda birinchi maktabning ochilishi, yangi uslubga asoslangan maktablarning ko'payishi va ma'rifatparvarlik g'oyalarining keng qanot yoyishi uchun turtki bo'ldi.

Xulosa o'rinda, Samarqand jadid namoyandalarining ijtimoiy-ma'naviy merosi, Yangi O'zbekiston yoshlarining zamonaviy dunyoqarashini rivojlantirish va innavatsion bilimlarni egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Samarqand jadidlarining Vatanimizning ravnaqi yo'lida, ilm-u fan taraqqiyotidagi ilmiy merosi, qarashlari aks etgan maqolalarini o'rganish har doim dolzarb ahamiyatga egadir. Ma'rifatparvarlarning ilmiy merosidan milliy ta'limda, darsliklarni yaratishda unumli foydalanish, farzandlarimizni ularning mardona hayotlari va ijodlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Эргашев Б.Х. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма. Идеология молодобухарцев. Дисс. на соис.уч.ст.док. фил.наук, Бухара, 1993.

<sup>2</sup> Ўша манба. 10–11-бетлар.

**Isakova Go‘zalxon Ne‘matovna (filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
O‘zbekiston davlat San‘at va madaniyat instituti; e-mail: [isakova-guzal@mail.ru](mailto:isakova-guzal@mail.ru))  
SALBIY XUSUSIYATLARNI IFODALOVCHI QANOTLI SO‘ZLAR XUSUSIDA**

***Annotatsiya.** Qanotli so‘zlar milliy va dunyo madaniyatida alohida o‘ringa ega bo‘lib, ular mashhur faylasuflar, olimlar, yozuvchilar va davlat arboblarning sayqallangan shakldagi fikrlaridir. Ular nutqda lo‘nda shaklda chuqur fikrlarni aniq va obrazli yetkazib beradigan, murakkab holat va xarakterlarning ma‘nosini qisqa qilib aniqlab beradigan iboralardir. Quyidagi maqolada erkak va ayol munosabatlarida kuzatiladigan salbiy xususiyatlarni ifodalovchi qanotli iboralar haqida fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** Крылатые слова занимают особое место в национальной и мировой культуре, отражая мысли великих философов, ученых, писателей и государственных деятелей в отшлифованном виде. Это фразы, которые в речи ясно и образно передают глубокие мысли в лаконичной форме, кратко очерчивают смысл сложных ситуаций и персонажей. В следующей статье дается представление о крылатых фразах, характеризующих негативные черты, которые наблюдаются в мужских и женских отношениях.*

***Annotation.** Winged words occupy a special place in national and world culture, reflecting the thoughts of great philosophers, scientists, writers and statesmen in a polished form. These are phrases that clearly and figuratively convey deep thoughts in a laconic form, briefly outline the meaning of complex situations and characters. The following article is about an idea of the winged phrases that characterize the negative traits that are observed in male and female relationships.*

***Kalit so‘zlar:** qanotli so‘z, ibora, obrazli, ma‘nodor, lo‘nda, sema, salbiy, xususiyat, ma‘no.*

***Ключевые слова:** крылатое слово, выражение, образный, значимый, лаконично, sema, отрицательный, особенность, значение.*

***Key words:** winged word, phrase, figurative, meaningful, laconic, sema, negative, feature, meaning.*

**Kirish.** Qanotli so‘zlar milliy va dunyo madaniyatida alohida o‘ringa ega bo‘lib, ular mashhur faylasuflar, olimlar, yozuvchilar va davlat arboblarning sayqallangan shakldagi fikrlaridir. Qanotli so‘zlar nutqda obrazli iqtibos sifatida foydalanilayotgan alohida iboralardir. Ular turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning nutqlarida keng qo‘llaniladi. Qanotli so‘zlar aforistik, keng qamrovlilik, ma‘nodorlik, qo‘llanuvchanlik va aniq manbaga egalik jihatlari bilan farqlanadi. Ular nutqda chuqur fikrlarni lo‘nda shaklda aniq va murakkab holat va xarakterlarning ma‘nosini obrazli ochib beradigan iboralar sanaladi.

Qanotli so‘zlar bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lishiga qaramay, ularning semantik jihatlari to‘liq oydinlashmagan. Qanotli so‘zlar tadqiqining ilk davridan boshlab e‘tibor berilsa, ko‘proq ularning manbalari, mualliflarini aniqlash masalalari ko‘tarilgan. Qanotli so‘zlarning semantik masalalarini yoritishga bag‘ishlangan ilk ishlarda (M.I.Mixelson, S.V.Maksimov) asosan, qanotli iboralarning ko‘chma ma‘nolarini yoritish masalalari va ulardagi ma‘lum semantik belgilarni aniqlash kuzatiladi.<sup>1</sup>

Tilshunos S.G.Zaymovskiy qanotli so‘zlarning mohiyati borasida: “Qanotli so‘zlar kelib chiqishi-ning isbotlana olinishi, ya‘ni, uning haqiqiy ilk manbasigacha kuzata olish imkoniyati akademik nuqtayi nazardan muhim bo‘lmasada, amaliy ahamiyatga ega, bizningcha, o‘zicha emas, balki muhimi o‘sha ibora vujudga kelgan ilk manbani, lahzani va holatni bilish, ko‘pincha, iqtibosning to‘g‘ri tushunilishi uchun muhimdir”, deb fikr bildiradi.<sup>2</sup>

V.P.Berkov ham qanotli so‘zlarning semantik xususiyatlari bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon qilgan. Muallif: “Qanotli so‘zlar insonga o‘z fikrini qisqa va yorqin ifodalash imkonini beradi, ular qiyin, hatto boshqa so‘zlar bilan erishish imkonsiz bo‘lgan chuqur ma‘noli fikrlarni yetkaza oladi, ular aforistik xarakterga ega chuqur falsafiy haqiqatlarni ifodalaydi”, deb izoh beradi.<sup>3</sup>

Qanotli iboralarni semantik tasvirlashda ko‘plab tadqiqotchilar ularning obrazlilik, aforistiklik, ifodalanayotgan fikrning chuqurligi va lo‘ndalik xususiyatlarini bayon etish bilan chegaralanishgan bo‘lsa,

<sup>1</sup> Михельсон М.И. Меткие и ходячие слова. Сборник русских и иностранных пословиц, изречений и выражений. СПб, 1894; Максимов С.В. Крылатые слова. Москва, изд-во худож. лит., 1955.

<sup>2</sup> Займовский С.Г. Крылатые слова. Справочник цитаты и афоризма. Москва – Ленинград, Госиздат, 1930, с. 15–16.

<sup>3</sup> Уолш И.А., Берков В.П. Русско-английский словарь крылатых слов. Москва, “Русский язык”, 1984, с. 6.

ko'plab tadqiqotchilar (Y.N.Afonkin, N.T.Babichev, A.M.Jigulev, T.G.Kazachenok, A.P.Koval, S.G. Shulejkova) qanotli iboralar ma'nosining muhim xususiyati uning manba haqidagi "genetik xotira"ga ega ekanligida deb bilishadi.

So'nggi yillardagi qanotli so'zlarning tadqiqiga oid ishlarda ularning semantik xususiyatlari borasida ma'lum darajada ishlar amalga oshirilgan. Masalan, S.G.Shulejkova qanotli so'zlar komponentlarining asl ma'nosi va uning birikma shaklidagi ma'nosi o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda, ikki turga ajratadi: 1) komponentlarning ma'nolaridan kelib chiquvchi shaffof analitik semantikali qanotli frazalar; 2) semantik va emotsional-ekspressiv plandagi turli ko'chishlarga yuz tutgan qanotli iboralar.<sup>1</sup> Muallif birinchi turda o'z asl ma'nosida qo'llanuvchi qanotli so'zlarni nazarda tutgan bo'lsa, ikkinchi turda ko'chma ma'noda qo'llanuvchi qanotli iboralarni nazarda tutgan.

**Asosiy qism.** Bilamizki, qanotli ibora qaysi turga kirishidan, qanday ma'noga ega bo'lishidan qat'iy nazar, u semantik turg'unligi bilan xarakterlanadi. Uning komponentlari birlashuvidan doimiy ma'nosi anglanadi va qanotli ibora biror predmet, hodisa, munosabat, belgi, jarayon yoki holat bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Qanotli iboralarga tegishli bo'lgan belgilar doimiy, turg'un ma'noli birlik sifatida, komponent tarkibining va grammatik strukturasi in'ikos etuvchanligi va barqarorligi barcha qanotli iboralarni birday xarakterlaydi. Shunga ko'ra, qanotli so'zlar semantikasini o'zgacha bir ko'rinishda, ya'ni, ulardan anglanayotgan semalarning mazmun va mohiyatiga qarab, tahlillar asosida turkumlarga ajratishni maqsad qildik. Quyida fransuz tilida qo'llanib kelinayotgan, erkak va ayol munosabatlarida kuzatilib turiladigan salbiy xususiyatlarni ifodalovchi qanotli iboralar haqida fikr yuritiladi. Tahlillar asosida ularning mazmunidan anglanayotgan turli semalari aniqlanadi.

Avvalo, ushbu turkumga oid erkaklarga nisbatan qo'llanadigan salbiy mazmundagi qanotli iboralarga e'tibor qarataylik. Masalan, qadimgi afsonalardan qolgan *Être amoureux des onze mille vierges* (fr.), ya'ni, *O'n bir ming bokiralarga oshiq bo'lmoq* iborasini fransuzlar ayollarga xushomad qilib charchamaydigan, ayollarga suyagi yo'q erkaklarga nisbatan qo'llashadi. Bu kabi his-tuyg'usini aql bilan boshqara olmaydigan erkaklarda o'zgaruvchanlik, yengiltaklik va xiyonatkorlik xususiyatlari ustundir. Iboraning mazmunidan "beqarorlik", "yengiltaklik", "suyuqoyoqlik", "buzuqlik", "xiyonatkorlik" semalari anglanmoqda.

*Don Juan* (fr.). Molyerning "Don Juan"<sup>2</sup> satirik komediyasining bosh qahramoni o'z zamonasining aristokrat yigiti qiyofasida tasvirlanib, asar davomida uning butun nuqsonlari fosh etilgan. Asar qahramoni Don Juan har qanaqa ayolga uylanishga tayyor, barcha xotin yoki qizlarga muhabbat izhor qilaveradigan, beqaror va bema'ni hayot kechiradigan, har qadamda uylanib, so'ng xotinini tashlab ketaveradigan shaxs. Shunga ko'ra, hozirda ham qiz va ayollarni yo'ldan urishga usta, ishqiy sarguzashtlarni yaxshi ko'radigan shaxslarga nisbatan *Don Juan* nomi qo'llanadi. Ushbu qanotli so'z "beqarorlik", "xotinbozlik", "makkorlik" semalarini anglatmoqda.

*Cherchez la femme!* (fr.) iborasi ilk bora 1816–1827-yillarda Fransiyada yashagan amerikalik Djeyms Gollatin kundaligida qayd etilgan. Bu Beriyskiyning o'limi bilan bog'liq bo'lib, Gollatin *Ayolni qidirib* iborasini "ushbu jinoyatga ayol kishi aralashgan" degan ma'noda qo'llagan. Lekin ifodaning ommalashib ketishi A.Dyuma (ota)ning "Les Mohicans de Paris"<sup>3</sup> (1854) asari bilan bog'liq. Asarda ushbu ibora ko'p marta takrorlanadi va bu personajlardan birining, ya'ni politsiya xodimining sevimli ifodasi edi. U jinoyatlarning deyarli yarmi erkaklarning ayollarga munosabati orqali ro'y berishiga ishonadi va jinoyat markazida ayol turishini uqdiradi. Hozirda ushbu ibora majoziy ma'noda "ayollarga xushomad qilib yuradigan erkak"ka nisbatan qo'llanadi. Iboradan "beqarorlik", "xushomadgo'ylik", "suyuqoyoqlik", "buzuqlik" semalarini anglash mumkin.

*Alphonse* (fr.) A.Dyuma (o'g'il)ning "Monsieur Alphonse" (1873) pyesasi qahramoni. Alfons mulkka ega, badavlat ayollarni o'ziga oshiq qilib olib, keyin ularning hisobidan yashaydigan erkak. Uning xarakteridan kelib chiqib, Alfons qanotli so'zi ma'shuqalari hisobiga kun ko'radigan shaxsni anglatadi. Unda "g'urursizlik", "nopoklik", "ayyorlik" semalari mavjud.

Yaxshilik doimo g'alaba qozongan ertaklari bilan mashhur Sh.Perroga mansub *Barbe Bleu* (fr.) qanotli so'zi uning "Les Contes de ma mère l'Oye" to'plamiga kiritilgan "La Barbe Bleu"<sup>4</sup> (1697) erta-

<sup>1</sup> Шулежкова С.Г. Крылатые выражения русского языка, их источники и развитие. Москва, "Азбуковник", 2002, с. 211.

<sup>2</sup> Oeuvres complètes de Molière. Paris, Arvensa éditions, 2013, 3529 p.

<sup>3</sup> Dumas (père) A. Mohicans de Paris. Paris, Hachette, 2018, 316 p.

<sup>4</sup> Perrault Ch. Les Contes de ma mère l'Oye. La Barbe Bleu (55–67 pp.) La Bibliothèque électronique du Québec. Éditions Rencontre, 1968, 135 p.



gidan olingan. Ertakda ko'k soqolli, o'zining oltita xotinini o'ldirgan qonxo'r, zolim er haqida gap boradi. Faqatgina uning yettinchi xotini akalari yordamida qutqarib qolinadi. Shunga ko'ra, *Ko'k soqol* iborasi "rashkchi", "zolim", "qonxo'r", "xudbin" semalarini anglatib, "rashkchi va zolim shaxs"ning sinonimiga aylangan.

Qanotli so'zlarning orasida ayollarga nisbatan qo'llanadigan salbiy ma'nodagi iboralar ham kuzatiladi. Bunga misol qilib *Femme de Loth* (fr.), *Dalila* (fr.), *Dame aux Camélias* (fr.) kabi qanotli iboralarni keltirish mumkin.

*Femme de Loth* (fr.). Bibliya afsonalariga ko'ra, Xudo Sodom va Gomorre shaharlarini axloqsiz odatlari uchun yoqib yuborayotganda farishtalarga mehmondo'stlik ko'rsatgan yolg'iz Lot oilasiga, shaharga nima bo'lganligini qaytib kelib ko'rmaslik sharti bilan shahardan chiqib ketish huquqini beradi. Lotning xotini erining tushuntirishiga quloq solmasdan, bu taqiqlashni suiiste'mol qiladi va tuzdan qilingan haykalga aylanib qoladi. Shunga ko'ra, *Lotning xotini* qanotli iborasi "qiziquvchanligi tufayli jazolangan ayol"ga nisbatan qo'llanadi va unda "bo'ysunmaslik", "kaltafahmlik" semalari namoyon bo'lmoqda.

*Dalila* (fr.). Dalila Bibliyadagi personajlardan biri, Samsonning ayolidir. Dalila Samsonning g'ayritabiiy kuchi uning sochlarida ekanligini bilib, u uxlab yotganida sochlarini qirqib tashlaydi va uni vatandoshlariga topshirib, eriga xiyonat qiladi. Shunga ko'ra, *Dalila* qanotli so'zi nomi "sotqin, xoin" ramziga aylangan.

*Dame aux Camélias* (fr.). A.Dyuma (o'g'il)ning "La Dame aux Camélias" (1848) nomli asari qahramoni kameliya gulini juda yaxshi ko'radigan bir yengiltak ayol bo'lgan. Asar qahramonining xarakteridan kelib chiqib, *Kameliyali ayol* iborasini fransuzlar "yengiltak ayol" ma'nosida qo'llashadi. Ibora mazmunidan "yengiltaklik", "suyuqoyoqlik", "buzuqlik" semalari anglanmoqda.

**Xulosa.** Tahlil natijalari asosida aytish mumkinki, qanotli so'zlar erkak va ayol munosabatlarida kuzatiladigan salbiy xususiyatlarni obrazli, ixcham, lo'nda, ma'nodor va shuning bilan biror voqea yoki hodisa bilan bog'liq holda ifodalab bermoqda. Yuqorida keltirilgan misollar mazmunidan yuzaga kelayotgan *xotinbozlik, beqarorlik, yengiltaklik, suyuqoyoqlik, buzuqlik, xiyonatkorlik, makkorlik, g'urursizlik, nopoklik, ayyorlik, rashkchilik, zolimlik, qonxo'rlik, xudbinlik, bo'ysunmaslik, kaltafahmlik, sotqinlik, xoinlik* kabi xususiy semalari qanotli so'zlarning ma'nolarini keng yoritib beradi va ularni o'rinli qo'llash uchun tanlash imkoniyatini beradi.

**Narmurodova Gulnoza Ilhom qizi (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti**

**Umumiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi; e-mail: [G.IIhomovna@gmail.com](mailto:G.IIhomovna@gmail.com))**

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'ZIYA NUTQINING LEKSIK-SEMANTIK JIHATDAN TAVSIFI**

**Annotatsiya.** *Ingliz va o'zbek tillarida ta'ziya nutqiga xos leksik-semantik va funksional xususiyatlar mavjudki, bunday xususiyatlar chog'ishtirilayotgan tillarda turli jihatlar asosida tavsiflash va tasniflash imkonini beradi. Ilmiy matnda ingliz va o'zbek tillarida ta'ziya kategoriyasiga mansub leksemalar va frazemalar tahlili yoritilgan. Shuningdek, marhumning fazilatlarini xususida aytiladigan nutq semantikasi ikki til misolida dalillangan.*

**Аннотация.** *Английский и узбекский языки имеют лексико-семантические и функциональные особенности, характерные для речи соболезнования, которые позволяют описывать и классифицировать их по разным аспектам в сравниваемых языках. В научном тексте проводится анализ лексем и словосочетаний, относящихся к категории соболезнования, в английском и узбекском языках. Также на примере двух языков доказывается семантика речи о качествах умершего.*

**Annotation.** *English and Uzbek languages have lexical-semantic and functional features specific to condolence speech, which make it possible to describe and classify them based on different aspects in the languages being compared. In the scientific text, the analysis of lexemes and phrases belonging to the category of condolence in English and Uzbek languages are covered. Also, the semantics of the speech about the qualities of the deceased is proved by the example of two languages.*

**Kalit so'zlar:** *ta'ziya nutqi, leksema, frazema, semantik tahlil, komponent tahlil, millat, madaniyat, din.*

**Ключевые слова:** *соболезнующая речь, лексема, словосочетание, семантический анализ, компонентный анализ, нация, культура, религия.*

**Key words:** *condolence speech, lexeme, phrase, semantic analysis, component analysis, nation, culture, religion.*

Ingliz va o'zbek tillarida ta'ziya nutqining leksik-semantik jihatdan tahlili jarayonida ta'ziya kategoriyasiga mansub bo'lgan ichki va mustaqil ma'no kasb etuvchi leksemalar hamda frazemalar tahlilini amalga oshirish kerak bo'ladi. Uning leksik-semantik tahlili komponent tahlil metodiga asoslangan holda "Macmillian ingliz tili lug'ati" va A.Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tili izohli lug'ati" materialida olib borildi va chog'ishtirilayotgan tillarda quyidagi leksik-semantik guruhlarni ajratish mumkinligi aniqlandi:

**1. Sabrlilik** – ushbu leksik-semantik guruh ingliz tilida *patience, be patience, stoic, stamina, endurance* kabi so'z va iboralarni o'z ichiga olsa, o'zbek tilida *bardosh, chidam, iroda, qati'iyat, toqat, bardosh bermoq, sabr, sabrlilik, chidamoq, sabr-toqat qilmoq, sabr-bardosh, sabr-u bardosh* kabi so'z va iboralarni qamrab oladi.

**2. Tasalli** – bu leksik-semantik guruh ingliz tilida *touch sb's heart (to make someone feel sympathy), sympathy, life goes on, pity, pitiful, a ray of hope/light/comfort (something that makes you feel slightly happier or more hopeful in a difficult situation), sorry to hear (that) (I am sorry to hear that your father died), feel sorry for sb (to feel sympathy for someone because they are in a difficult or unpleasant situation), bless his/her soul or God rest his/her soul (ruhi shod bo'lsin), sympathy, have /feel sympathy (for), extend/offer your sympathy/sympathies (to tell someone that you are sorry when someone close to them has died), empathy, commiseration, consolation, compassion, condolence, deepest sympathy, hereby condole* kabi so'z va iboralaridan tashkil topadi.

O'zbek tilida ushbu guruh ichiga *hamdardlik bildirish, tinchlantirish, yupatish, yupatmoq, yupanch, tasalli, taskin, ovutish, yumshatish, tasalli bermoq, taskin bermoq, taskin topmoq, tinchlantirmoq, ovutmoq, yupatmoq, dalda bermoq* kabi so'z va iboralar kiradi.

**3. Tushkunlik** – ushbu leksik-semantik guruh o'z ichiga ingliz tilida *depress, depressed, depression, dismal, dismayed, distress, distressing, elegiac, elegy, gloomy, glum, with a heavy heart (feeling sad), heartache, heartbreak, heartbreaking, heartbroken, heartsick, heavy hearted, inconsolable, in a bad mood, sad, sadden, sadly, sadness, great/deep sadness, stress, unhappy, upset, lose hope* kabi so'z va iboralarni qamrab olsa, o'zbek tilida *ruhsizlanmoq, ruhi tushmoq, tushkunlikka tushmoq, umidsiz, noumid, umidini uzib, umidsizlanmaq, umidsiz holatga tushmoq, umidini yo'qotmoq* kabi so'z va iboralardan iboratdir.

**4. Faryod** – bu leksik-semantik guruh ingliz tilida *cry, cry out, shout, yell, dirge, keen, weeping, iztirob, wail, lamentation, sob, sobbing* kabi so'zlarda o'z ifodasini topsa, o'zbek tilida *g'alayon, voy sho'rim, fig'on, dod-voy, faryod, faryod qilmoq, yig'i, alam chekish, fig'on chekmoq, dod-faryod qilmoq, kuymoq, qon yig'lamoq, bag'ri kuymoq* kabi so'z va iboralarni qamrab oladi.

**5. G'azablanish** – bu leksik-semantik guruh ingliz tilida *annoyance, anger, vexation* so'zlarini qamrab olsa, o'zbek tilida *achchiqlanish, baqir-chaqir qilish* kabi so'z va iboralarni qamrab oladi.

**6. Aybdorlik** – bu leksik-semantik guruh ingliz tilida *regret (noun a feeling of sadness about something that has happened: with great/ deep regret), regretful, penitence, contrition* kabi so'z va iboralarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida *siqilmoq, o'zini yemoq, aybdor sanamoq, ich etini yemoq, afsus-lanmoq, g'am anduhga botmoq, iztirob chekmoq, ruhan azoblanmoq* kabi so'z va iboralarda o'z aksini topadi.

**7. Nola qilish** – bu leksik-semantik guruh o'z ichiga ingliz tilida: *lamentation (nola), lament, lamented, bemoan, moan* kabi so'zlarni, o'zbek tilida esa *uvvos, uvvos solmoq, oh-nola, oh-u nola, oh-afhon, ohnola qilmoq, oh-u voh, dard-hasrat qilmoq, dard-alam* kabi so'z va iboralarni qamrab oladi.

**8. Zorlanish** – bu leksik-semantik guruh ingliz tilida *God help sb, pray to God, supplication*, o'zbek tilida esa *yo xudo, yo rabbim, yo parvardigorim, iltijo qilmoq, yolvorish, panoh so'rash, Xudoga yolvorish, duo qilmoq, duoda bo'lmoq, beajal ketdi* kabi so'z va iboralardan tashkil topadi.

**9. Qayg'u** – bu leksik-semantik guruh tarkibiga ingliz tilida *grieve, grieved, joyless, mournful, sorrow, sorrowful, woe*, o'zbek tilida *g'am, g'am-alam, hasrat, g'amxona, g'am chekmoq, g'am-hasratda qolmoq, qayg'urmoq, qayg'u ichida qolmoq, ruhiy musibat, og'ir qayg'u, motamsaro, mayus, zor, g'amgin, tushkin, dilafgor, dili vayron bo'lgan, dilpora, ko'ngli vayron bo'lgan* kabi so'z va iboralar kiradi.

**10. Vidolashish** – bu leksik-semantik guruh ingliz tilida *farewell, last words, to lose, say goodbye* kabi, o'zbek tilida *vido, so'nggi xayrlashuv, ayrilish, vidolashmoq, bag'ri kuymoq, judolikka giriftor bo'lib qiynalmoq, bag'ri kuymoq, ayriliq, ayrilmoq, judo bo'lmoq, judolik holati, ayrilish* kabi so'z va iboralarni o'z ichiga oladi.

**Marhumning fazilatlari xususida aytiladigan nutq semantikasi.** Ta'ziya bildirishda xoh ingliz tilida bo'lsin, xoh o'zbek tilida, dastlab, marhumning ijobiy fazilatlariga alohida urg'u beriladi. Bu bilan marhumning yaqinlarining dardini biroz bo'lsa-da, yengillatgan bo'lamiz. Marhumning fazilatlari xususida aytiladigan nutq semantikasida ingliz va o'zbek tillarida ham marhumning qanday fazilat egasi ekanligi, uning jamiyatda tutgan o'rni, amalga oshirgan ezgu ishlari, oilasi va yaqinlari hayotida qanday inson sifatida xotirlanishi haqida gap boradi. Qaysi millat va din vakili bo'lishidan qat'iy nazar, motam marosimida, imkon qadar, marhumning yaxshi fazilatlari yodga olinadi va uning ruhini shod qilish uchun samimiy tilaklar bildiriladi. Masalan,

Ing. t:

*Since last Sunday's dreadful news, we have seen, throughout Britain and around the world, an overwhelming expression of sadness at Diana's death.*

*I want to pay tribute to Diana myself. She was an exceptional and gifted human being. In good times and bad, she never lost her capacity to smile and laugh, nor to inspire others with her warmth and kindness. I admired and respected her – for her energy and commitment to others, and especially for her devotion to her two boys. This week at Balmoral, we have all been trying to help William and Harry come to terms with the devastating loss that they and the rest of us have suffered.*

*May those who died rest in peace and may we, each and every one of us, thank God for someone who made many, many people happy* [The Queen spoke to the nation live at 6.00 pm on Friday 5 September 1997, from the Chinese Dining Room at Buckingham Palace].

Berilgan ushbu misol asosida ingliz tilida marhumning yaxshi fazilatlari haqida ta'kidlangan: *She was an exceptional and gifted human being. In good times and bad, she never lost her capacity to smile and laugh, nor to inspire others with her warmth and kindness.* Angliya malikasi Diananing vafoti yuzasidan qirolichaning xabarida, uning aqlli ayol ekanligi, qiyin vaziyatlarda ham tabassum va kulish qobiliyatini yo'qotmasligini, iqtidorli va mehribon ekanligi e'tirof etilgan. Inson vafot etganida qaysi millat va din vakili bo'lishidan qat'iy nazar, uning yaxshi va ijobiy fazilatlari xotirlanadi.

O'zbek madaniyatida ham bu holatga nisbatan alohida munosabat bildiriladi:

*Hazratimiz Usmonxon Alimov rahimahulloh muftiylik lavozimida boshqalardan ko'ra eng uzoq muddat faoliyat yuritdilar, desak, xato bo'lmaydi. U kishi 15 yil davomida O'zbekiston Musulmonlari idorasida din yo'lida xizmat qildilar.*

*Biz ko'p safarlarda birga bo'ldik. Hazrat kim bilan qanday muomala qilishni bilardilar, zamonaviy til bilan aytganda, aqlli diplomat edilar. Dunyo sahnalaridagi nutqlari ham go'yat tushunarli, chiroyli edi. Bir so'z bilan aytganda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning munosib avlodlari edilar. U kishining xatti-harakatlarida go'zal payg'ambarona xulqni ko'radingiz* [Rustam hoji Jamilov Usmonxon. "Kun. Uz". 22.08.2021, 21:09].

Keltirilgan misol marhumning insonlar bilan tez chiqisha olishi, so'z sa'natidan to'g'ri foydalanish qobiliyatiga ega ekanligi, din yo'lida ezgu ishlarni amalga oshirgan inson ekanligi ta'kidlangan.

*Juda qayg'udaman. Qo'limizdan kelganini qildik. Xudoning irodasi ekan. Vatanga sadoqatli, fidoyi, aqlli, millatimizning ziyolilaridan birini yo'qotdik. Biz juda ko'p yillar birga ishlaganmiz, og'ir kunlarimiz ham bo'lgan. Hozir ham menga eng katta yordamchi, maslahatgo'y edi. Ilohim, joylari jannatda bo'lsin. Ishlarini farzandlari davom ettirsin, – dedi Shavkat Mirziyoyev* [Shavkat Mirziyoyevning og'ir kasallikdan vafot etgan maslahatchisi Rustam Qosimov xonadoniga ta'ziya bildirish uchun tashrifi. 18:34, 07.05.2021."Daryo"].

Berilgan misolda ham marhumning yuksak fazilatlari a'lohida yodga olingan. Hayratga tushasan kishi. Inson olamdan o'tganidan so'ng, uning yaxshi fazilatlari ko'proq xotirlanadi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): "O'liklaringizning yaxshiliklarini zikr qilinglar, yomonliklarini aytishdan tiyilinglar" dedilar.<sup>1</sup> Ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson olamdan o'tganidan keyin, uning fazilatlari, ezgu amallarining yaxshi jihatlari yodga olinadi, yomon fazilatlari unutiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anvar Ahmad. Al-Azkor kitobi. Toshkent, "Movarounnahr", 2017, 299-bet.
2. Butayev Sh., Irisqulov A. Inglizcha-o'zbekcha lug'at. Toshkent, "Fan", 2019, 107-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.A.Madaliyev tahr. ost., 4-jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020, 676-bet.
4. Macmillian English dictionary. Printed and bound Malaysia, 2012, 1747 p.

<sup>1</sup> Anvar Ahmad. Al-Azkor kitobi. Toshkent, "Movarounnahr", 2017, 299-bet.

5. Oxford dictionary. Published in the United States by Oxford University Press Inc, New York, 1999, 403 p.
6. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. Т., “Турон замин зиё”, 2015, 162 б.

**Matyakubov Hakimboy (UrDU mustaqil tadqiqotchisi)**  
**MIKROTOPONIM VA MAKROTOPONIM TUSHUNCHALARINING O‘ZBEK VA INGLIZ**  
**TILLARI MATERIALLARI MISOLIDAGI TALQINI**

**Annotatsiya.** *Maqolada mikrotoponim va makrotoponim tushunchasining o‘zbek va ingliz tillari materiallari misolidagi talqini tahlil qilingan. Unda muallif aksar hollarda bu tushunchalarning nomlanayotgan obyekt hajmiga bog‘liq holatda tushunish sabablarini ham izohlaydi.*

**Аннотация.** *В статье анализируется трактовка понятий «микротопоним» и «макротопоним» на примере материалов узбекского и английского языков. В ней автор также объясняет причины понимания этих понятий в зависимости от размера названного объекта.*

**Annotation.** *The article analyzes the interpretation of the concept of microtoponym and macrotoponym on the example of materials of the Uzbek and English languages. In it, the author also explains the reasons for understanding these concepts depending on the size of the named object.*

**Kalit so‘zlar:** *toponim, mikrotonim, makrotoponim, qardosh bo‘lmagan tillar, noqardosh tillar onomastikasi.*

**Ключевые слова:** *топоним, микротоним, макротопоним, неродственные языки, ономастика неродственных языков.*

**Key words:** *toponym, microtonym, macrotoponym, unrelated languages, onomastics of unrelated languages.*

Топонимиклада mikrotoponimiya tushunchasiga munosabat turlicha. Masalan, J.J.Varbortning fikricha, mikrotoponim (yunoncha mikrōs kichik va toponim so‘zlaridan) kichik geografik obyektning o‘ziga xos nomi bo‘lib, odatda, uning yaqinida yashovchi nisbatan kichik doiradagi odamlarga ma‘lum bo‘lgan tepalik, soy, ochiq joy, adir. tosh, yo‘l, bog‘, maydon, yo‘lak, alohida binolarni anglatadi.<sup>1</sup> V.N.Nikonov fikricha, mikrotoponimiya toponimikaning eng katta va o‘ziga xos bo‘limidir. Mikrotoponimiyaga mayda predmetlarning nomlari kiradi: soy, dala, to‘qay, jar, o‘tloq, ko‘prik, yo‘l va hokazo.<sup>2</sup> Ba‘zi olimlar, xususan, Basik mikrotoponimiya va toponimiyani to‘g‘ri farqlash kerak deb hisoblaydi. Basikning so‘zlariga ko‘ra, toponimiya jug‘rofiy xaritalarda ko‘rinadigan narsalarni anglatadi. Aslida, toponimika va mikrotoponimiya ikki darajani ifodalaydi va ieyrарxik munosabatda bo‘ladi, mikrotoponimiya oddiyroq va shuning uchun pastki qatlam, chunki uning tarkibiy qismlari toponimiyaga qaraganda mahalliy doirada qolib ketadi.

Mana shu o‘rinda, masalaga o‘z munosabatimizni bildirish o‘rinli deb hisoblaymiz. Chunki aksar ishlarda mikrotonim obyekt hajmiga ko‘ra baholanadi. Misol uchun, ko‘cha, ko‘prik, tepalik va hokazo. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: katta va kichik obyektlar nomi o‘rtasida tilshunoslik uchun ahamiyatli biror nima bormi? Masalan, Qo‘shko‘pir degan biror joydagi kichik ko‘prik nomi bilan Qo‘shko‘pir tumani nomida tilshunoslik nigohi bilan qaraganda, qanday o‘zgachalik bor? Tabiiyki, yo‘q. Ana shu jihatdan qaraganda, tilshunoslik uchun mikro va makrotoponim tushunchalari zaruratsiz ko‘rinadi. Lekin mikro va makrotoponim tushunchasi mohiyatini anglab yetsakgina, ularning, haqiqatan, lingvistika uchun o‘rni borligiga iqror bo‘lamiz. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mikro va makrotoponim obyektning hajmiga emas, til sohiblari tomonidan anglanish ko‘lamiga qarab belgilanadi. Masalan, biror-bir qishloqda joylashgan devorlari oqqa bo‘yalgani sababli Oq uy deb nomlangan bino til sohiblarining katta qismi (mana shu obyektни biladigan kam sonli aholidan boshqa) uchun joy nomi sifatida idrok qilinmagani uchun mikrotoponim sanaladi. Oq uy (aslida, to‘g‘ri shakli Oquy) esa, garchi kalka natijasi bo‘lsa ham, til sohiblari tomonidan birdek muayyan joy nomi sifatida anglangani uchun makrotoponim hisoblanadi. Aslida, The White House<sup>3</sup> hajman (5100<sup>2</sup>) dunyodagi qanchadan qancha mikroponim sanaluvchi obyektlardan kichik. Shunga muqobil ravishda Toshkentdagi White House mikrotoponim sanaladi. Fikrlarimiz isbotini

<sup>1</sup> Варбот Ж.Ж. Краткий понятийно-терминологический справочник по этимологии и исторической лексикологии. Российская Академия наук, Институт русского языка им. В.В.Виноградова РАН, 1998, с. 27.

<sup>2</sup> Никонов В.Н. Введение в топонимику. Изд. 2-е, М., изд-во ЛКИ, 2011, с. 46.

<sup>3</sup> <https://www.google.com/search?q=white+house+usa&rlz>

*Ka'ba, Hiro g'ori, Kalta minor, Statue of Liberty (Ozodlik haykali)* kabi qator misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

V.I.Nikonov mikrotoponimlarning xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatadi: 1. Mikroponimlar (makro) toponimlarga qaraganda turdosh otlarga ko'proq yaqinroq turadi. Mikrotoponimlar, ko'pincha, faqat atoqli otga aylanish jarayonida bo'ladi. Masalan, *uch qarag'ayda, tegirmon orqasida* kabi. 2. Ularning toponim sifatida tan olinishi (asliyatdagi *топонимическая формализация* birikmasini shunday talqin qildik – H.M.) hali oldinda. 3. Toponimlardan ko'ra ko'proq nomlarning o'zgaruvchanligi (“Obyekt qanchalik katta bo'lsa, uning nomi shunchalik barqaror”). 4. Mikrotoponimlarning ko'pligi (bitta aholi punktida juda ko'p sonli soylar, dalalar, o'rmonlar dala uchastkalari, o'tloqlar va boshqalar bo'lishi mumkin.<sup>1</sup>

Mana shu mulohazalarni o'zbek va ingliz toponimlari misolida ko'radigan bo'lsak, haqiqatan, makro va mikrotoponimlar farqi til materillari bilan bog'liq bo'lmagan, ya'ni umumiy qonuniyatlar tizimi ekanini ko'ramiz. Masalan, biror qishloqda uchta gujum daraxti o'sib, boshqalardan ajralib turgan joyni qishloq ahli *uch gujumda yig'ilamiz* deyishi bilan muayyan joy nazarda tutilgani uning toponimga xos belgisi sanaladi. Uni shu qishloq ahlidan boshqa bir jamoa shu til sohibi bo'la turib ham anglamasligi uning hali toponim sifatida to'la shakllanmagani, hali shu jarayonda ekani bilan izohlanadi. Mikrotoponimlar shu tarzda toponimik iboralarda kuzatiladi. Masalan, *ko'pirda ko'rishgan* iborasi yaxshi tanish bo'lmagan, tanish bo'lib tanish tanishmas, begona bo'lib begonamas bir toifaga nisbatan ishlatiladi. Xuddi shu ibora tarkibida *ko'pir*: 1) turdosh otdan atoqli otga aylanib ulgurmagan; 2) toponimga aylanishi hali oldinda ekani; 3) vaziyat taqozosiga toponimga aylanmay qolishi ham mumkinligi sabab mikroponim sanaladi.

Xuddi shu fikrni *katta ko'cha* ma'nosini beruvchi *High Street* toponimi misolida ham ko'ramiz. Nom toponimga xuddi tahlil qilingan yo'sinda aylangan. Ingliz tilidan tarjima qilinganda *High Street* – bu shahar, shahar yoki qishloqning asosiy savdo-sotiq ko'chasining umumiy nomi, ayniqsa, Buyuk Britaniya va Hamdo'stlik Mamlakatlarida. Bu uning biznes uchun, ayniqsa, xarid qilish uchun markaz ekanini anglatadi. Bu, shuningdek, chakana savdo sektorining metonimidir.<sup>2</sup>

Yana bir misol keltiramiz. O'zbek tilida tog'li bir qishloqda oq rangli tosh (qoya ham bo'lishi mumkin) *Oqtosh* deb nomlanishi, birinchidan, barcha uchun ma'lum hududni anglatmaydi, ya'ni, boshqa bir muhit vakili *Oqtoshdagi yaylov* deyish bilan nazarda tutilgan hududni tushunmaydi, lekin joy ekani oq toshga qandaydir aloqasi bordirki, shunday atalishini o'ylaydi. Demak, qishloq ahli uchun *Oqtosh* bo'lgan so'z boshqalar uchun *oq tosh*. Demak, shu o'rinda makrotoponim va mikrotoponimning boshqa bir jihati ko'zga tashlanadi: mikrotoponimda nomning appelyati va nom o'rtasidagi aloqa to'la uzilmagan bo'ladi. Ana shu aloqa uzilganda mikrotoponim makrotoponimga aylanadi. Masalan, *Toshkent* deyish bilan hech kim toshdan qurilgan qal'ani tushunmaydi. Shu yo'sinda O'zbekistonning bir necha viloyatlari (*Toshkent, Namangan, Samarqand*)dagi *Oqtosh* shahri yoki shaharchalari nomi mikrotoponimdan makrotoponimga aylangan. *Oqtosh* shahri qaysidir ma'noda oq tosh bilan aloqasi bo'lishi mumkin. Lekin nom makrotoponim maqomiga yetganda, buning ahamiyati qolmaydi. Shu o'rinda mikrotoponimlarning makrotoponimlarga qaraganda beqarorligi masalasi ham oydinlashadi. Mikrotonim sifatidagi *oq tosh* o'sha oq toshning maydalab xo'jalik ehtiyoji uchun ishlatilishi bilan umri yakuniga yetadi. Lekin shahar yoki shaharcha, qishloq nomi sifatidagi *Oqtosh* oq toshsiz ham toponim tarzida yashab ketaveradi. Shuning uchun ham ko'pchilikda mikrotoponim kichik obyekt nomi degan unchalik to'g'ri bo'lmagan tasavvur uyg'ongan. Buni ingliz tilida aynan *oq tosh* ma'nosini beruvchi *White stone* shahri nomi misolida ham ko'rishimiz mumkin. *White stone* ingliz tilidan tarjima qilinganda, *oq tosh* ma'nosini beradi. *White stone* AQSHning Virjiniya shtatining Lancaster okrugida joylashgan shahardir. *White stone* nomi hudud suv yo'llarida oq toshlarning to'p-to'p uchrashiga ishora qiladi.<sup>3</sup>

Shuning uchun mikrotoponim tushunchasi ostida muayyanlashmagan makon ifodalovchi otlar nazarda tutib talqin qilingan ishlar ham bor. Shulardan biri turkologiyada tatar tilshunoslari I.G.Axmetzyanov, A.K.Garayevlar tomonidan yozilgan “Ingliz va tatar paremlaridagi mikrotoponimlar o'ziga xosliklari” maqolasida aks etgan.<sup>4</sup> Olimlar tatar va ingliz paremlarida qo'llanilgan mikrotoponimlari guruhlariga ajratar ekan, birinchi guruh sifatida tatar tilida ham, ingliz tilida ham mavjud toponimlarga ajratib,

<sup>1</sup> Никонов В.Н. Введение в топонимику. Изд. 2-е, М., издательство ЛКИ, 2011, с. 46 – 49.

<sup>2</sup> <https://www.google.com/search?q=high+stree>

<sup>3</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/White\\_Stone,\\_Virginia](https://en.wikipedia.org/wiki/White_Stone,_Virginia)

<sup>4</sup> Ахметзянов И.Г., Гараева А.К. Особенности микротопонимов в английских и татарских паремиях. Вестник Чувашского университета. 2015, № 2, с. 135 – 138.

*With a tongue in one's head one can find the way to Rome* (aynan “Boshdagi til bilan Rimni topish mumkin”, ruscha ekvivalenti *Язык до Киева доведет*) hamda “*Тел Мәккәгә илтәр*” maqollarini keltiradilar. Bu o‘rinda ikki jihatga e‘tibor qarataylik: birinchidan, *Rim* va *Makka* toponimlarini mikrotoponimlar sirasida qayd etishga qanday asos bor? Ikkinchidan, ushbu misollar sirasiga o‘zbek tilidagi “So‘rab-so‘rab *Ka‘bani* topibdi” maqolini bemalol kiritish mumkin. Nazarimizda, bu misollar paremalarda mikrotoponimlarning qo‘llanishi emas, toponim tarkibli paremalar mavzusining misolidir. Shuningdek, maqolada keltirilgan *East or West – home is best* (aynan: *G‘arbdami Sharqdami – yaxshi*, ruscha ekvivalenti *В гостях хорошо, а дома лучше*, tatarchada *Кунакта яхшы, өйдә бик битәр; Читне макта, өеңдә тор*); *There is no place like home* (aynan: uyga o‘xshagan joy yo‘q, *Үз өеңдә үз көең*); *Every country has its customs* (aynan: har bir mamlakatning o‘z odatlari bor) yoki *So many countries, so many customs* (aynan: qancha ko‘p mamlakatlar, shuncha ko‘p odatlar, ruscha ekvivalentlari *Во всяком подворье свое поверье. Что город – то норы, что деревня – то обычай*, tatarcha *Нәр халыкның үз холкы бар; Нәр илнең үз йоласы; Төрле авылда төрле әттәхият* va boshqa juda ko‘plab maqollari (ingliz, rus, tatar tillari materiallari misolida yana 41 ta parema) *home, country, mountains, house, well* so‘zlariga, asosan, mikrotoponim tarkibli paremalar sifatida talqin qilingan. Bizningcha, bu yerda mikrotoponim va makon otlari tushunchalari farqlanmagan. Aks holda, yuqoridagi paremalarning o‘zbekcha muqobillari bo‘lgan. *O‘z uying o‘lan to‘shaging, O‘z uying – oltin beshiging, Har joyni qilma orzu, har joyda bor toshu tarozu* (Xorazm shevasida *palan yerda altin bar əmish, barsang baqira do‘nəmiş*) maqollaridagi *uy, joy, palan yer* kabi birliklar ham mikrotoponim sanalishi lozim bo‘lar edi.

Ingliz mikrotoponimlari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlardan biri A.V.Pravdikova tomonidan bajarilgan.<sup>1</sup> Olima fikricha, mikrotoponimiya obyekt kattalik belgisi, semantikasida lokativning qiymat komponenti mavjudligi asosida ajratilgan, obyektning mashhurlik darajasi xalqaro miqyosdan individual ahamiyatga tomon tavofutga ega bo‘lgan hamda mikrotoponimning yadrosida joylashishi yoki onomastik maydonning periferiyasi, uning til va nutq miqyosidagi o‘rniga qarab farq qiladigan onomastikaning alohida kategoriyasidir.<sup>2</sup> Shu bilan birga, “mikrotoponimlar dunyoning milliy manzarasini, bir tomondan, anonimlashtirishga tobe bo‘lgan obyektlar to‘plami milliy xususiyatga ega bo‘lishi, ikkinchi tomondan, ushbu jarayonning asosini tashkil etuvchi tamoyillar va motivatsion modellar orqali ikki tomonlama aks ettiradi”. Bizning yuqorida mikrotoponim obyektning hajmiga ko‘ra emas, mashhurlik darajasiga bog‘liqligi haqida fikrlarimizni A.V.Pravdikova xalqaro miqyosdagi, milliy miqyosdagi, mahalliy miqyosdagi va shaxslararo miqyosdagi mikrotoponimlarga bo‘lish orqali ifoda etadi. Masalan, *White House* xalqaro miqyosda tanilgan nomlar guruhida qayd etiladi. Bizningcha, biror nom toponim ekani anglanishi bilan birga, qayer nazarda tutilishi bilan mikrotoponim doirasidan chiqadi. Masalan, yuqorida keltirilgan *White Stone* deganda Virjiniya shtatidagi shahar tushunilgani uchun makrotoponim, ayni shu nomning qayerdagidir chakana savdo markazini bildirishi mikrotoponim sanaladi.<sup>3</sup>

Ko‘rinadiki, mikrotoponim va makrotoponim tushunchasining o‘zbek va ingliz tillari materiallari misolidagi talqini, aksar hollarda, bu tushunchalarning nomlanayotgan obyekt hajmiga bog‘liq holatda tushunish sabablarini ham izohlaydi.

<sup>1</sup> Правдикова А.В. Микропонимия как отражение картины мира. На материале английской литературы XIX – XX вв. Дис. кандидат филологических наук, Волгоград, 2009, 187 с.

<sup>2</sup> Правдикова А.В. Микропонимия как отражение картины мира. На материале английской литературы XIX–XX вв. Автореф. дис. кандидат филологических наук, Волгоград, 2009, с. 4.

<sup>3</sup> Shu manba.

Rustamova Xosiyat (O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi)  
ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ANNA AXMATOVA SHE'RIYATINING  
AVTOBIOGRAFIK TASNIFI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslikda Anna Akmatova she'riyatining o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan avtobiografik xususiyati haqida so'z boradi. Shu jumladan, mazkur maqola mavzusi doirasida rasmiy va ilmiy adabiyotlar o'rganilib, shoira she'riyatining avtobiografik xususiyatlari ochib berildi. Xususan, ijodkor tabiatidagi davr muammolariga nisbatan ichki isyon she'rlari misolida tahlil qilindi. Maqolaning xulosa qismida shoira ijodiga doir fikrlar umumlashtirilib, she'riyatini o'rganishda tegishli taklif va tavsiyalar keltirildi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос автобиографичности поэзии Анны Ахматовой, которая сегодня является специфическим направлением в современном литературоведении. В том числе в рамках данной статьи была изучена официальная и научная литература и выявлены автобиографические черты поэзии поэта. В частности, анализируется на примере внутреннего бунта поэта против проблем времени в характере творца. В заключительной части статьи были обобщены мысли о творчестве поэтессы и даны соответствующие предложения и рекомендации по изучению ее поэзии.

**Annotation.** This article talks about the autobiographical feature of Anna Akhmatova's poetry, which is a specific direction in modern literary studies today. Including, within the scope of this article, official and scientific literature was studied and the autobiographical features of the poet's poetry were revealed. In particular, it was analyzed on the example of the poet's internal rebellion against the problems of the time in the nature of the creator. In the concluding part of the article, thoughts on the work of the poetess were summarized and relevant suggestions and recommendations were given for the study of her poetry.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy adabiyot, avtobiografik xususiyat, she'riyat, ijod olami.

**Ключевые слова:** современная литература, автобиографичность, поэзия, творческий мир.

**Key words:** Modern literature, autobiographical feature, poetry, creative world.

**Kirish.** Zamonaviy adabiyotshunoslik bugungi kunda tadqiqotchilardan har bir davrni chuqur va batafsil o'rganishni talab qiladi. Jahon adabiyotida katta rol o'ynagan ruslarning Kumush asr adabiyotining tahlili uchun ana shunday chuqur yondashuv zarur. Ammo bu davr ko'pgina yozuvchi va shoirlarni tanishtirish bilan birga, ularni ko'pgina sinovlarga duchor qilgan. Ular hayotidagi fojialar ijodkorlarga o'zi yashayotgan davr, voqealar, jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar va ustuvor tuzumga qarshi isyon ko'tarib, jamiyat tartiblarini o'zgartirish kerakligiga jur'at qilganlar. Adabiyotda modernizmning kirib kelishi har jihatdan badiiy adabiyotga doir haqiqiy kashfiyotlarning ahamiyatini anglash imkonini yaratdi.

Y.Ayxenvald, I.Annenskiy, V.Bryusov, V.Jirmunskiy, V.Ivanov, S.Makovskiy, O.Mandelshtam, N.Osup, I.Severyanin, B.Eykenbaum singari ijodkorlar qatorida modernizmning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan sanaladilar. Axmatovaning og'ir va iztirobli kechinmalardan iborat ijodi shoir shaxsiyatining o'ziga xosligi, betakrorligi va jozibadorligini ko'rsatib turadi. Erkak va ayol ruhiyatidagi mushtarakligu nomutanosibliklar ijodining asosini tashkil qiladi. "Men ayollarni so'zlashga o'rgatdim", deydi shoirning o'zi bir murojaatida. Bunday demoqlikka shoirning yetarlicha asosi bor edi. Chunki uning adabiyotini o'z davrida tuzum tomonidan toptaldi va uning adabiyotida zo'ravonlikka qarshi kuchli isyon o'z aksini topdi. Anna Axmatova hayoti ayol bardoshi va matonatining inson idrok eta olmaydigan asrorlaridan biriga o'xshaydi. Shoira chekiga o'ta og'ir, ziddiyatli va dolg'ali zamonda yashash mas'uliyati tushdi. Ikki-ta jahon urushi... inqilob ko'plab taqdir qatorida uning ham hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. Yaqinlarining o'limi, qamoq, yo'qotish, ta'qib va tazyiqlar shoira qalbida o'chmas jarohatlarni soldi. Shu o'rinda bu ijodkor hayotida ro'y bergan bir fojiani keltirishni lozim, deb topdik.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Anna Axmatova 20-asr rus she'riyatining yorqin vakillaridan biridir. U 1889-yilning 11-iyunida Odessada tug'ildi. Anna yoshiga yetay deb qolganida, uning oilasi shimolga – bizga Pushkin she'rlari orqali tanish bo'lgan mashhur Sarskoye Seloga ko'chib keladi. Bo'lg'usi shoira bolalik va o'smirlilik yillari shu makon bilan bog'liq. Anna Axmatovaning ilk she'rlarida Sarskoye Selo manzaralari bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lgan.

Anna Axmatova she'riyatini o'ziga xos xususiyatlarini bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, Kudrikova A., Kochetkova N., Basinskiy P., Fedyakin S., Pankeyev I., Gumilev N., Smirnova L. singari tadqiqotchilar o'zlarining maqolalarida shoira ijodini atroflicha tahlil etib, gendir xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tadi.

**Natijalar.** Anna Andreyevna Axmatova tarixiy fojialarni aks ettirgan she'rlaridan birida: «Erim go'rda, o'g'lim turmada – meni duo qiling», deb odamlardan iltijoli so'ragan. Chunki shoironing faqat go'zal his-tuyg'ulari emas, balki nozik vujudi ham zo'ravon zamon poshnalari ostida ayovsiz toptaladi: eri Nikolay Gumilyovni 1921-yilda bolsheviklar otib tashlaydi [1].

Urushdan keyingi yillarda ham shoiraga oson kechgani yo'q. «Znamya» jurnalida e'lon qilingan turkum she'rlari uchun 1946-yili kommunistik partiya Markaziy Qo'mitasining qarori bilan siyosiy jihatdan qoralanib, Yozuvchilar uyushmasi a'zoligidan o'chirildi. She'rlari, kitoblari ta'qiqlandi [2].

Tuzum uning o'g'li Lev Gumilyovni ham ayamadi, taqdir hazilini qarangi, yosh yigit bolsheviklar tomonidan avaxtaga tashlandi... 1949-yilning 6-noyabr kuni (ataylab bayramdan bir kun avval) tergovchi mayin kekirib, Anna Axmatovaning xonadoniga tashrif buyurdi va: «Xonim, uyingizni tintuv qilamiz va o'g'lingizni qamoqqa olib ketamiz», deydi, so'ng charm papkasidan orderni chiqarib ko'rsatdi. Tintuv boshlandi. «Grajdanka Axmatova»ning shaxsiy buyumlari, latta-puttalari obdan titkilab ko'riladi. Xo'rlangan, haqoratlangan Anna Axmatovaning asab torlari chirs-chirs uzildi. Ular tilab-tilab olgan yolg'izgina o'g'lini oldiga solib haydab ketgach, shoira jamiki qo'lyozmalarini, hali e'lon qilinmagan she'rlarini, dostonlarini bitta qoldirmasdan yoqib yubordi! [3].

Lev Gumilyov bu gal o'n yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi. «Dohiy»ning 70 yillik yubileyi yaqinlasha boshlaydi. To'kilibgina, abgorgina bo'lib qolgan Anna Axmatovaga «ba'zi bir o'rtoqlar do'stona» maslahat beradi: «Iltimos, madhiya yozing! Axir, o'tmishda ham shoirlar podsholar nomiga qasidalar yozgan!» deyishib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi... Axmatova umrida ilk bora ijodiy prinsipidan chekinib, Stalinni madh etib, ikkita she'r yozdi (o'sha she'rlari zudlik bilan «Ogonyok» jurnalida e'lon qilingan turkumiga ilakishib dunyo yuzini ko'radi). O'n-o'n besh yil mobaynida bitta ham she'ri sho'ro matbuotida e'lon qilinmagan Axmatovaning turkumlari «Ogonyok» jurnalida ketma-ket potirlab chiqib ketganining boisi, albatta, «ijtimoiy zakaz» juda yuqoridan tushganini anglatadi. Biroq Stalin, baribir, shoironing o'g'li, taqdirning shuncha azoblariga qaramay, atoqli turkiyshunos olim Lev Gumilyov ozodlikka chiqarmaydi... Mag'rur shoirni bu ham sindirolmadi. 1951-yili uyushma a'zoligiga tiklandi. Hali-hanuz darbadar shoirga, nihoyat, 1955-yili Komarovo shaharchasidan dala-uy berildi.

Shu tariqa, shoir qalbida ayolni xo'rlaydigan jamiyatga isyon uyg'ondi. Anna Axmatova o'zini shoira emas, aksincha, shoir deb atashlarini istagan, deya ishontiradi biograflar. Ayol shoirlarning ana shu talablari tufayli talantning buyukligi, vazifasining masshtabi va o'zidan kechib yashashning naqadar muhimligi o'rganila boshlangan [4]. Bunday prinsipiiallik qayerdan keldi? XX asr ayollar she'riyati jiddiy qabul qilinmagani 1910-yillarda ayollar asarlariga quyidagicha tanqidiy fikrlar bilan yondashganlar: «Ayollar qalamiga mansub», «Muhabbat va gumon» va ularga eldan «tugal emas» degan tamg'a yopishtirilardi. Shu bois «poetessa» (shoira) so'zi go'yo masxaraomuz so'zday eshitilardi. Zinaida Gippius, masalan, o'z asarlarini erkaklar nomidan yozardi, birdan-bir maqsadi – uni jiddiy qabul qilishlarini istardi. Ko'pgina ayollar erkakcha taxallus bilan she'rlarini chop qilishgan. Aslida, shu muammo tufayli adabiyot, tilshunoslik, san'at, falsafada jamiyatda erkak va ayolning rollari o'rganila boshlandi. Ijodiy tajriba yangi uslublarni yuzaga keltirdi, ayniqsa, haqiqatni ifoda etish uchun modernistik yondashuvlar paydo bo'ldi. Keyingi yillarda tadqiqotchilar uchun ayol va erkak mualliflarning asarlaridagi o'ziga xos stillarni o'rganish ishlari keyingi yillarda ko'zga tashlanib qoldi [5]. Aytish joizki, adabiyot rivojiga psixoanalitik metodlar o'zining hissasini qo'shdi. Gender masalasini o'rgangani tadqiq qiluvchilarning ta'kidlashicha, bu masalaning vakillari shaxsiy hayotga katta ahamiyat qaratisharkan. Bunday misollar rus adabiyotida ham uchraydi.

**Muhokamalar.** Feministik qarashlar mohiyatini o'rganayotganda, gender farqlar, muallif biografiyasi, uning ijodiga ta'sir ko'rsatgan boshqa yozuvchilar, shuningdek, ijodkor yashagan davrning ijtimoiy-madaniy vaziyatni o'rganishni ham esdan chiqarmaslik kerak [6]. Masalan, Anna Axmatova davrida temir siyosat, ko'plarni tazyiq ostiga olgandi, sir emaski, Stalin davrida, asosan, ziyolilar qatlami ta'qib etildi, ular bundan azob chekardilar va adolatsizliklar bilan ro'para keldilar. Nima qilganda ham, tuzumning qaqshatqich zarbalari shoir va adiblar ijodida katta rol o'ynagan va ijodiy shaxsni tarbiyalagan. Ayni shu shu ayovsiz zulm yulduzni tundan ajratib oldi desak, yanglishmaymiz. Quyidagi satrlarda shoironing iztiroblarini qanchalar quyuq ekanligini sezish qiyin emas.

*От странной лирики,*



*Где каждый шаг – секрет,  
Где пропасти налево и направо,  
Где под ногой, как лист увядший, слава,  
По-видимому, мне спасенья нет. [7]*

(G‘ayritabiiy lirikadan, har bir qadam yashirin, chapda ham, o‘ngda ham shuhratni olib ketguvchi bargday, jarliklar bor. Aftidan, menga omonlik yo‘qqa o‘xshaydi). Shoirning bir muddat tushkunlik ichra yozgan she‘rdan ham zamon uni nechog‘li azoblarga giriftor etganini ko‘rish mumkin, u ayol edi, shu bo‘is jamiyatda qanchalik azob tortdi. Istasa, istamasa, bu vaziyatda hayotining qora sahifalari asarlarining satrlarida ko‘rinish beradi. Uning she‘rlaridagi dard ko‘p hollarda biografik faktorlar bilan asoslangan.

Axmatova butun ijodida “shoir bo‘lish ayol kishi uchun ahmoqlik” degan fikr noto‘g‘riligini isbotlashga urindi [8]. Shoir bu urinishida haq edi, chunki uch asrni hisobga olsa, rus adabiyotida ayollarining ismi qo‘l bilan sanoqli, ularning birortasi Anna Axmatova fikrlarining quyuqligi, poetik talanti, tuyg‘ularining kuchi bilan solishtirganda, unga tenglasholmaydi ham. Ammo shoir degan haq-huquqini qo‘lga kiritish uchun uning uzoq kurashishiga to‘g‘ri keldi [9]:

*Нет, царевич, я не та,  
Кем меня ты видеть хочешь,  
И давно мои уста  
Не целуют, а пророчат.  
(Yo‘q, shahzodam, men emas,  
Ko‘rishni istaganingiz,  
Lablarim anchadan buyon  
Bo‘sa hadya etmaydi, balki bashorat qiladi).*

Bu satrlar orqali Anna Axmatova oddiy ayollik baxtidan kechib, umrini shoirlikka bag‘ishlaganini sezdirishga harakat qilayotganini bildirmoqda. Marinadan farqli o‘laroq, Axmatova o‘z ilhomini ayol qiyofasida tasavvur qila oladi, Muza xabar olmay qo‘yganida, undan baxtiqaro odam dunyoda yo‘q edi:

*И – я не могу взлететь,  
А с детства была крылатой.*

(Bolalikdan qanotli bo‘lib tug‘ilganimga qaramay, uchib ketolmayapman). Bu zamonasining zo‘ravonliklaridan toliqqan, qafasga tiqib qo‘yishganidan siqilib ketgan, tutqun shoirning nolasi, aslida.

Bir xil hayot, bir xil dard iskanjasidagi o‘ylovlarga boy hayotdan toliqqan shoirni ilhomsizlik dardi tamoman xarob qilardi. U bir satrida “Muza ushla po doroge”, deb yozadi, Axmatova: Ilhom parisi ketib qolganida shoir uchun yer yuzi haddan ortiq tor, go‘yo nafas olib bo‘lmas qabrga o‘xshab tuyuladi va “jizn, kajetsya, visit na voloske” (hayot go‘yo soch tolasiga osilib turganday tuyuladi), samolardan yog‘ilishi kutilgan marhamatga intiq holda Anna Axmatova hamma shuhratni, ozodlikni, yoshligini, zavqini unutadi, hayotning har bir kuni zahar-zaqqum edi, buni shoir shu tariqa e‘lon qiladi:

*Как и жить мне с этой обузой,  
А еще называют Музой,  
Говорят: “Ты с ней на лугу...”  
Говорят: “Божественный лепет...”  
Жестче, чем лихорадка, оттреплет,  
И опять весь год ни гу-гу.*

(Bu yuk bilan qanday yashasam ekan, aytadilar: sen u bilan adirdasan, aytadilar: bu ilohiy shivirlar, Isitmadan og‘irdir azobi va yana bir yil jimjitlik).

She‘riyat odamlar qalbida ezguligu haqiqat urug‘ini qadash uchun xizmat qilishi kerak, Anna Axmatova buni yaxshi anglagan va o‘zining g‘oyalari bilan “Hayot va muhabbat qisqa, she‘riyat – abadiydir”, degan Pushkin-u Nekrasovga rosa yaqin bo‘lgan. Buni quyidagi satrlari isbotlaydi:

*Позволь мне миру подарить  
То, что любви нетленней.*

(Imkon ber dunyoga, abadiy muhabbatni taqdim qilayin).

Uning dunyoga muhabbati she‘r tarzida edi. Axmatovaning “Vecher” (Oqshom), “Chetki” (Tasbeh) singari bir qator she‘riy to‘plamlardagi she‘rlardan ular naqadar avtobiografik xarakterga egaligi seziladi. Bir qancha she‘rlar o‘zlari haqda o‘zlari so‘zlaydi. Bu saylanmalar Anna Axmatovaning shoir Gumilyov bilan turmush qurgan vaqtlarida yozilgan [10], u kunlab rafiqasini tashlab, Sarskoye Selodan ketar, yarim kechgacha qorasini ko‘rsatmasdi, hatto Annadan o‘zining “g‘alaba”larini yashirmasdi. Gar-

chand shoir bo'lsa-da, ich-ichidan, baribir, ayol edi. Anna Axmatova chuqur iztirob chekardi, ularda tashlab ketilganlik, yolg'izlik va rashk seziladi:

*Жгу до зари на окошке свечу  
И ни о ком не тоскую,  
Но не хочу, не хочу, не хочу,  
Знать как целуют другую.  
(Tongga qadar sham yoqib chiqaman,  
Hech kimni sog'inmayman,  
Istamayman, istamayman, istamayman  
Boshqani o'pishlarini bilishni ham).*

Bunday iztirobni xiyonat ta'mini totganlar biladi. Anna Andreyevna chindanam erini jonidan ortiq ko'rardi, lekin u-chi? Ehtimol, sevgandir... Biroq she'rlarining shuhrati va omadidan mast bo'lgan Gumi-lyov Annani qafasga tiqib qo'ydi va hamisha jamiyatda erning ustunligini pesh qilib, uning iste'dodini tan olishni istamasdi. Bundan shoir qalbi zada bo'lgan edi. Quyidagi satrlardan u ayol sifatida qanchalar sabrli bo'lishga to'g'ri kelganini ko'rish mumkin. Bunday holatlar ko'pgina ayollarga begona emas. Chunki ayol tabiati, jamiyat shakllantirgan qarashlar, ba'zan o'zimiz beixtiyor amal qilamiz va bu yetarli darajada azobli tugaydi. Anna hayotidagi fojialar zulmdan azob chekkan hech bir qalbni befarq qoldirmaydi:

*Мне не надо счастья малого,  
Мужа к милой провожу  
И довольного, усталого,  
Спать ребенка уложу.*

(Menga yarim baxt kerak emas, erimni ma'shuqasinikiga jo'natyapman va charchagan bolamni uxlatmoqqa kirishaman).

*Но вдруг последняя сила  
В синих глазах ожила:  
“Хорошо, что ты отпустила,  
Не всегда ты доброй была”.*

(Biroq so'nggi kuch, ko'zlarda yaltiradi: “Yaxshiyam uni yubording, axir har doim ham mehribon bo'lmagansan) deya o'ziga-o'zi taskin beradi va butun dardi satrlarga ko'chadi.

Xorlig-u haqorat Annani zulmga qarshi chiqarishga majburladi, axir zulm bor joyda hamisha isyon ko'tarilishini erkak zoti unutilib qo'yadi negadir. Ikki shoirning zamondoshlaridan biri S.Makovskiy o'z xotiralarida shunday fikrlarni bitgan ekan: Muhabbatni Gumilev mutlaq hokimlik deb tushunardi, Axmatovaga she'rlarini chop qilishga ijozat etmasdi. Uning ijodiga bepisand nazar tashlar, lekin rafiqasini yo'qotganidan keyin uni eng iste'dodli shogirdi, deb sanadi, ammo shunisi aniq ediki, Annaning she'riyati, aslo, ustozga muhtoj emasdi”.

Xullas, “Erkak – jangchi, ayol – jangchiga ruh baxshida etuvchi ne'mat”, singari Nisshega xos qarashlarga ergashgan Gumelov, jamiyat, tuzum Anna Axmatovada haqiqiy jangchi ruhini tarbiyaladi.

Anna Axmatova urush yillari Toshkentda yashagan. Jurnalist Svetlana Somova o'z xotiralarida mashhur shoir haqida quyidagi fikrlarni bitib qo'ygan ekan: “Bu voqea yoz boshida, ehtimol, 1944-yil mayida bo'lgan edi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi binosi koridoridan bo'zrang kostyum, past poshnali tuflida Axmatova yurib kelardi. Shoira qarshisidan G'afur G'ulom chiqib, Axmatovaga murojaat qildi: “Sizning nomingiz Anna, o'zbekchada bu Ena – Ona degani. Men bilan qishloqqa, Yangiyerga yuring”, dedi. Axmatova bu iltimosni rad etdi. Lekin G'afur Anna Andreyevnaning tirsagidan ushladi-da: “Ona sifatida, siz, albatta, borishingiz kerak”, dedi. O'sha vaqtlarda Anna Axmatova, garchand siyosiy tazyiqlarga uchragan bo'lsa-da, uni ona deya e'zozlashardi. Biroq Anna Axmatova o'zini bunday hisoblamasdi.

*Буду тихо на погосте  
Под доской дубовой спать,  
Будешь, милый, к маме в гости  
В воскресенье прибежать –  
Через речку и по горке,  
Так что взрослым не догнать,  
Издалека, мальчик зоркий,  
Будешь крест мой узнавать.  
Знаю, милый, можешь мало*

*Обо мне припоминать:  
Не бранила, не ласкала,  
Не водила причащать. (1915)*

O'g'lining qamoqqa tushishi bilan bog'liq iztiroblar uning ijodida qandaydir fazoviy mantiq baxsh etardi, bu uning yuqoridagi "Iltijo" she'rida aks etgan edi.

Ma'lumki, mamlakatimizda shoir ijodiga qiziqish hamisha kuchli bo'lgan. Uning she'rlarini Oybek, Zulfiya, Aziz Abdurazzoq kabi katta avlod vakillari hamda zamondoshlarimiz Gulchehra Nurulayeva, Abdulla Sher, Xurshid Davron, Mirpo'lat Mirzo, Zebo Mirzo, Gulnoz Mo'minova o'zbek tiliga o'g'irgan. 2000-yili O'zbekistondagi Rus madaniyat markazi va Rossiya ilm-fan va madaniyat markazi hamkorligida Toshkentda Anna Axmatovaning "Manqalli hovli" klub-muzeyi ochildi. O'tgan yili "O'zbekiston" NMIUda "Rus adabiyoti durdonalari" turkumida chop etilgan 100 jildlik to'plamdan shoirning ham kitobi o'rin oldi [11].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentga ko'chirilgan rus adabiyoti va san'atining atoqli arboblari – Aleksey Tolstoy, Konstantin Simonov, Korney Chukovskiy, Faina Ranevskayalar orasida Anna Axmatova ham bor edi. U qamalda qolgan Leningraddan 1941-yil noyabrda Toshkentga keldi. Dastlab, Karl Marks ko'chasi (hozirgi Maxtumquli) 3-uyga joylashdi. Keyinchalik, Jukovskiy (hozirgi Sodiq Azimov) ko'chasi 54-uyga ko'chdi. Abdulla Qahhor, Temur Fattoh, Vladimir Lugovskoy, Kseniya Nekrasova kabi ijodkorlar bilan baqamti yashadi.. Manqalli hovliga qaragan ikkita derazadan ulkan tut va o'rik daraxti, tunlari "kumush oy" ko'rinib turardi. Umr bo'yi NKVD josuslari ta'qibida, ochlik va xor-zorlikda yashagan shoirga Toshkent bir muddat halovat va xotirjamlik topgan.

Anna Axmatovaning mana bu she'ri orqali Sharqni boshqatdan, boshqa nigohda seva boshlaydi odam. Bu Axmatova qalami va yuragiga xosdir:

*Я не была здесь лет семьсот,  
Но ничего не изменилось...  
Всё так же льётся Божья милость  
С непрекаемых высот,  
Всё те же хоры звёзд и вод,  
Все так же своды неба чёрны,  
И так же ветер носит зёрна,  
И ту же песню мать поёт.  
Он прочен, мой азийский дом,  
И беспокоиться не надо...  
Ещё приду. Цвети, ограда,  
Будь полон, чистый водоём.*

**Xulosa.** Anna Axmatova adabiyot uchun tug'ildi. Eng og'ir vaziyatlarda she'rdan yupanch topdi. Shu yupanch tufayli umrining so'nggi yillarida ushbu so'zlarni qog'ozga tushira oldi: "Men hech qachon she'r yozishdan to'xtamadim. Nazarimda, she'rlarim mustahkam rishtalar kabi meni vaqt bilan, xalqim bilan bog'lab turadi". Anna Axmatova ijodi har jihatdan zulm, zo'rvonlikka qarshi ko'tarilgan qaynoq tuyg'yonlardan iborat isyon, zulmatdan otilib chiqqan nur, tundan ayrilgan yorqin yulduz kabi edi, u taratayotgan ziyo hanuz adabiyotdan o'chgan emas. Bugungi kunda shoira ijodini o'rganishda avtobiografik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, she'r qurilishidagi pragmatik, kompozitsiyon detallar bevosita gendr masalalariga ishora qiladi. Bu esa, o'z navbatida, shoira nuqtayi nazarida zamonlar osha dolzarb ahamiyat kasb etgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdumajid Azimov. Umr bo'yi NKVD josuslari ta'qibida, ochlik va xor-zorlikda yashagan Axmatovaning Toshkentdagi halovatli yillari. <https://oyina.uz/kiril/article/880>.
2. Nidolardan yaralgan tarix. <https://e-tarix.uz/maqolalar/435-nidolar-yaralgan-tarix.html>.
3. Наталья Кочеткова. Поэтессы объявляют войну «поэтессам». <https://iz.ru/news/334609>.
4. Басинский П., Федякин С. (Издательство центра «Академия»).
5. Кон И.С. Психология половых различий. "Вопросы психологии", 1981, №2.
6. Ахматова А. Избранное. М., "Просвещение", 1993, Русская литература конца XIX начала-XX ве-ка и первой эмиграции.
7. Кудрикова А.Н. Гендерные различия в поэзии А.Ахматовой и Н.Гумилева. Первое сентября. 2011, № 6.
8. Панкеев И.А., Гумилев Н. Поэзия XX века. М., "Профиздат", 1982.

9. Смирнова Л.А. Русская литература конца XIX начала –XX века. М., “Просвещение”, 1993.

10. Abdumajid Azimov. Umr bo‘yi NKVD josuslari ta‘qibida, ochlik va xor-zorlikda yashagan Axmatovaning Toshkentdagi halovatli yillari. <https://oyina.uz/kiril/article/880>.

11. М.В.Михайлова “Писательницы Серебрянного века в литературном контексте эпохи” мақоласи “Вестник Московского университета”, серия 9, “Филология”, 2011, №1, с. 49.

**Musayeva Dilso‘z To‘ychiyevna (Qarshi DU Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini tayanch doktoranti;**

**e-mail: [dilsuz.musaveva@gmail.com](mailto:dilsuz.musaveva@gmail.com))**

## **“GO‘R O‘G‘LI YOXUD HAYOT SUVI” ROMANIDA ANTIUTOPIK XUSUSIYATLAR**

**Аннотация.** Мақоллада антиутопик адабиётга хос хусусиятлар, o‘zbek adabiyoti antiutopiyasi va uning antiutopik belgilari, qahramon ruhiy holati talqin qilinadi. O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos yo‘nalishda ijod qilayotgan adib Nazar Eshonqulning “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi” romani antiutopik asar namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi hamda ushbu asar qahramoni hayoti misolida antiutopik xususiyatlar, uning inson ruhiyatiga ta‘siri va oqibatlarini o‘rganiladi.

**Аннотация.** В статье описываются характеристики литературы-антиутопии, антиутопии узбекской литературы и ее антиутопических признаков, душевного состояния героя. Роман Назара Эшанкула «Сын могилы или вода жизни» анализируется как образец антиутопического произведения. При этом антиутопические черты, их влияние и последствия на психику человека изучаются на примере жизни главного героя данного произведения.

**Annotation.** The article describes the characteristics of dystopian literature, the anti-utopia of Uzbek literature and its anti-utopian signs and the mental state of the main character. The novel “Son of the grave or the water of life” by Nazar Eshankul is analyzed as an example of dystopian work. At the same time, dystopian features, their influence, and their consequences on the human psyche are studied in the example of the life of the protagonist of this work.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek antiutopiyasi, totalitar tuzum, shaxsga sig‘inish, nazorat, qahramon ruhiyati.

**Ключевые слова:** узбекская антиутопия, тоталитарная система, культ личности, контроль, характер, психика.

**Key words:** Uzbek dystopia, totalitarian system, a cult of personality, control, character, psyche.

Odatda, adabiy va tarixiy nuqtayi nazardan, antiutopiya 20-asr totalitarizmining “muvaffaqiyatsiz utopiyasi” bilan belgilanadi. Bu, odatda, haddan tashqari majburlash, tengsizlik, qamoq va qullik bilan belgilangan rejimni anglatadi. Ko‘pincha, bu kollektivizmning yirtqich tushunchasi sifatida tasvirlanadi, ammo ba‘zilari liberal jamiyatlarda tenglik repressiyasi va murosasizlikni rag‘batlantiradigan konformistik tendensiyalarni o‘z ichiga oladi. Biroq ko‘plab mualliflar amalga oshirib bo‘lmaydigan ideal tizimlarni qurishga urinishlar natijasida yuzaga kelgan do‘zaxiy holat, ya‘ni “totalitarizm”ni “antiutopiya” bilan tenglashtiradilar [1,5].

Bu tushunchaning uchta asosiy, ko‘pincha, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shakllarini ko‘rishimiz mumkin – siyosiy antiutopiya, ekologik antiutopiya, nihoyat, texnologik antiutopiya, bunda fan va texnologiya oxir-oqibatda hukmronlik qilish yoki insoniyatni yo‘q qilish bilan tahdid qiladi. Ushbu turlar orasida yozuvchilar tomonidan eng ko‘p murojaat qilingani utopik intilishlarning barbod bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan va eng katta tarixiy e‘tiborga sazovor bo‘lgan totalitar siyosiy antiutopiyadir.

O‘zbek adabiyotida ham antiutopik janr yo‘nalishida yaratilgan asarlar mavjud. Ularga misol qilib Nazar Eshonqulning “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi”, Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga sayohat”<sup>1</sup> romanlarini keltirishimiz mumkin. A.A‘zamning ushbu asarida bosh qahramonning G‘uliston nomli o‘lkaga safari, u yerda ko‘rgan-kechirganlari tasvirlanadi. Asarda yengil satira bilan g‘uliyalarning o‘ziga xos odatlari, mafkurasi keltirilib, g‘alati jamiyatning ikir-chikirlari ochib beriladi.

Ushbu tadqiqotning obyekti bo‘lgan “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi” romanida esa yozuvchi Nazar Eshonqul asar bosh qahramoni N. hayotida sodir bo‘lgan voqealar orqali no‘malum joydagi o‘ziga xos byurokatiya, davlat idoralariidagi salbiy ishlash mexanizmini batafsil yoritgan. Bu no‘malum jamiyat qo‘g‘ozbozlikka shunchalik berilganki, insondan ham ko‘ra hujjatga ko‘proq ishonch bildiriladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ushbu romanda ham, barcha antiutopik asarlarga xos elementlarni ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni, markazlashtirilgan davlat, inson qadrsizligi, fuqarolarni psixologik manipulatsiya yordamida doimo qo‘rquvda yoki nazoratda ushlash, yagona shaxsga sig‘inish (Tergovchi) kabilar.

<sup>1</sup> [http://ahmadazam.uz/wp-content/uploads/2011/02/Royo-yoxud-Gulistonga-safar\\_lat1.pdf](http://ahmadazam.uz/wp-content/uploads/2011/02/Royo-yoxud-Gulistonga-safar_lat1.pdf)

“N. ni dastlabki taassurotlar tark eta boshlagandi: hayotini mavhumlik tomon burib yuborgan anglashilmovchilikning boshida o‘z ishiga sovuqqonlik bilan qaragan ikki-uch kishi yoki marhumlar haqidagi xabarlar bilan kun ko‘radigan muxbir emas, tushuniksiz, ulkan va boshi-yu oxiri qayerdaligini bilib bo‘lmaydigan, shafqatsiz, bir-biriga zanjirday bog‘lanib ketgan va charxpalakday aylanib turgan butun boshli tizim turganini seza boshlagandi” [2, 61].

Ushbu parchadan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi totalitar tuzumga asoslangan mustabid sovet ittifoqidagi byurakratiya, davlat organlari uchun inson qadri, umuman, ahamiyatga molik bo‘lmagan davrni tasvirlaydi. Keyingi jumlada bir parcha qog‘oz inson qadridan ham baland ekanligi, shu qog‘ozlar bo‘lmasa, inson mavjudligini isbotlay olmasligining guvohi bo‘lamiz. “Siz hujjatni yo‘qotdim deb asos qo‘yyapsiz, biroq qonun bo‘yicha hujjatingizni yo‘qotganingiz haqida hujjat kerak bo‘ladi. Qayerga borsangiz, hujjat so‘rashadi, yo‘qotdim desangiz, yo‘qolgani haqida hujjat so‘rashadi, yo‘qolgani haqida hujjat olish uchun yana sizdan hujjat talab qilishadi. Bu masalada hech bir ishni hujjatsiz bitirib bo‘lmaydi” [2, 112].

Yozuvchi N.Eshonqul o‘tgan asrning 1988–89-yillarida “Urush odamlari”, “Momo qo‘shiq” qissalari bilan o‘zbek adabiyotiga kirib keldi. Uning ilk ijodiy faoliyati qulash arafasida turgan mustabid tuzumning so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, adib bu chirkin tizimning kirdikorlarini, salbiy oqibatlarining nafaqat guvohi bo‘lgan, balki bu tuzumning asl ko‘rinishini o‘z qalami ila ifodalab, kitobxonga yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. Barchaga ma‘lumki, sobiq sho‘ro davrida qanchadan qancha insonlar bu tuzumning aybsiz aybdori, begunoh qurboni bo‘lganlar. Davlat boshqaruvi inson qadri, manfaatlari uchun emas, yakkaxon boshqaruv, totalitar tuzum manfaatlari asosiga qurilgan edi. Bunday jamiyat esa real hayotdagi antiutopik jamiyatga misol bo‘la oladi.

Asar bosh qahramoni N. uning o‘limi haqidagi xabar anglashilmovchilik ekanligi, aslida, u tirik ekanligini isbotlash uchun murojaat qilmagan mas‘ul lavozimdagi shaxslar, bormagan idorasi qolmaydi. Barchasida bir xil javob, ko‘zlari bilan ko‘rib turgan bo‘lsalar-da, N. ning tirikligini tasdiqlay olmaydilar. Bu esa totalitar tuzumning buyruqbozlikka asoslangan, yuqoridan buyruq bo‘lmasa, ayni haqiqatni ham tasdiqlay olmaydigan chirkin belgilaridan biridir. Bu kabi jamiyatlarda barcha masalalar yakkaxon hokimga bog‘liq bo‘lib, jamiyat a‘zolari unga xudo kabi sig‘inishadi. Bu kabi illatlarni “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi” romanida ham uchratamiz: N. ning shoir do‘sti tasodifan ko‘rishib qolganlarida unga hasrat qilayotib, Tergovchining nazariga tushish uchun unga atab she‘rlar yozgani, kitoblarini unga bag‘ishlagani, bir bora ko‘rish maqsadida tilanchi qiyofasida har kuni xiyobonga kelishi, Tergovchining birgina dastxati uning hayotini tubdan o‘zgartirishi haqida hasrat qiladi. Aslida esa, “Tergovchi” xuddi ingliz yozuvchisi Jorj Oruellning “1984” romanidagi “Katta Og‘a” obrazi kabi uydirma bo‘lib, bu odamlarni doimo qo‘rquvda ushlab, hukumatning asl maqsadini yashirib, fuqarolar psixologiyasiga ushbu ideologiya yordamida ta‘sir o‘tqazish uchun mohirona foydalaniladi. Yozuvchi esa Tergovchi obrazi orqali sobiq sovet fuqarolari Stalinga xudo kabi sig‘inishgani, uning siyosatini to‘g‘ri deb bilib, butun umr unga madhlar aytib, alaloqibat esa bularning barchasi sarob ekani, bu jamiyat odamlarni o‘z manfaatlari yo‘lida qurbon qilgani, ularning bor-budini tortib olib, ularning erkinligi, ko‘pgina insoniy haq-huquqlaridan mahrum qilganligini, aslida, sodir bo‘lgan davrning achchiq haqiqatini Tergovchi obrazi nazoratidagi nomi noma‘lum shahar fuqarolari hayoti misolida batafsil yoritib beradi.

Antiutopik romanga xos belgilardan yana biri ekologik muhitning yomonlashuvi, atrof-muhitga xavf solayotgan ekologik xavf-xatardir, shaharlarning vayron bo‘lishidir. “Go‘r o‘g‘li yoxud hayot suvi” romani voqealari tasvirlangan shahar ko‘rinishi, tabiati ham kundan kunga yomonlashib boradi “...Shahar o‘tmishiga neki daxldor bo‘lsa, hammasini yoqishar, vayron qilishar, buzishar, o‘rniga o‘z didlariga va ta‘blariga mos qilib qurishar edi. Shahar keyingi ikki-uch oyda kuchuk katagiga o‘xshash avaxta nusxa binolar bilan to‘lgan ko‘rimsiz manzilga aylandi” [2, 154].

Bu bilan yozuvchi shaharning kundan kunga xarob bo‘layotgani, bu esa, o‘z navbatida, N.ning umidlarini yanada so‘ndirib, zulmat sari yetaklayotganiga ishora qiladi. Biz Nazar Eshonqul qalamiga mansub qissa, hikoyalarni o‘qib chiqarkanmiz, uning zulmat, qora rang, badbo‘y hidlar tavsifidan qahramon ruhiyatini, hayotiga xavf solayotgan xatarlarni, rutubatlarni tasvirlash uchun mohirona foydalanganining guvohi bo‘lamiz. Ushbu romanda ham yozuvchi qora tun, zulmat, badbo‘y hidlar asnosida, N. duch kelgan muammoning qanchalik jiddiy ekanligi, o‘z yozig‘idan qochib qutulolmasligi, zulmat va badbo‘y hid orqali chirkin tuzum illatlarini tanqid qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, modern yo‘nalishida ijod qilayotgan yozuvchi Nazar Eshonqul ushbu antiutopik romani orqali o‘zbek xalqining sobiq ittifoq davrida totalitar tuzum qurboni bo‘lganlari, yakkaxon hukumat illatlarini va uning ayanchli oqibatlarini badiiy aks ettirgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Claeys Gregory. Dystopia: A Natural History. A Study of Modern Despotism, Its Antecedents, and Its Literary Diffractions. Oxford University Press; 1st edition, 2017, p. 576.
2. Eshonqul Nazar. Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi. Roman, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, 304-bet.
3. To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. T., «Universitet», 2001, 166-bet.
4. Umurov Hotam. Badiiy ijod asoslari. T., “O‘zbekiston”, 2001, 120-bet.
5. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Toshkent, 2013, 373-bet.

**Tuxtasinova Nigina Bashirovna (O‘zbekiston Milliy universiteti fransuz filologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi (Phd), falsafa fanlari doktori; [nigina.tuxtasinova@gmail.com](mailto:nigina.tuxtasinova@gmail.com))**

### **AGIOMATNLAR TARJIMASINING QIYOSIY-KONTEKSTUAL TAHLILI VA BAHOLASH PARADIGMASI**

**Annotatsiya.** So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida shakl va mazmun jihatidan yangilanish tamoyillari rivojlanib ketdi. Tadqiqot doirasida mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan ishlar o‘rganildi va shu narsaga amin bo‘lindiki, milliy adabiyotimizning yorqin namunalari bevosita va bilvosita chet tillari-ga, aksincha, dunyo adabiyotining nodir asarlari o‘zbek tiliga mohir tarjimonlarimiz tomonidan tarjima qilinib, keng kitobxonlar e‘tiboriga havola etildi. Asosan, tarjimaning asliyatga muvofiqlik darajasi, ya‘-ni, shakl va mazmun mutanosibli, kontekstual ma‘no ifodasi, badiiy-lisoniy, milliy-madaniy xususiyatla-ri qiyosiy tahlil qilindi.

**Аннотация.** В последние годы в узбекском литературоведении были разработаны принципы обновления формы и содержания. В рамках исследования были изучены работы, проведенные в этих направлениях, и было подтверждено, что яркие образцы нашей национальной литературы прямо и через язык посредник переводились на иностранные языки, и наоборот редкие произведения мировой литературы переводились на узбекский язык нашими искусными переводчиками. В основном сравнительно анализировалась степень соответствия перевода оригиналу, то есть соотношение формы и содержания, выраженность контекстуального смысла, художественно-языковые, национально-культурные особенности.

**Annotation.** In recent years, the principles of renewal of form and content have been developed in Uzbek literary criticism. As part of the study, the works carried out in these areas were studied, and it was confirmed that bright examples of our national literature were directly and through the language of an intermediary translated into foreign languages, and vice versa, rare works of world literature were translated into Uzbek by our skilled translators. Basically, the degree of compliance of the translation with the original was analyzed comparatively, that is, the ratio of form and content, the severity of the contextual meaning, artistic, linguistic, national and cultural characteristics.

**Kalit so‘zlar:** assesment, retrospektiv, prospektiv, lateral, introspektiv, paradigma.

**Ключевые слова:** ассесмент, ретроспективный, проспективный, латеральный, интроспективный, парадигма.

**Key words:** assessment, retrospective, prospective, introspective, lateral.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida shakl va mazmun jihatidan yangilanish tamoyillari rivojlanib ketdi. Ayniqsa, milliy adabiyotimizning yorqin namunalari bevosita va bilvosita chet tillariga, aksincha, dunyo adabiyotining nodir asarlari o‘zbek tiliga mohir tarjimonlarimiz tomonidan tarjima qilinib, keng kitobxonlar e‘tiboriga havola etildi.

Hadis ilmining sultoni – buyuk vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy o‘zining ishonchli hadis jamlanmasi bilan butun musulmon olamiga mashhur. Uning “Sahihi Buxoriy” hadislar to‘plami bir nechta tillarga turli nom ostida tarjima qilingan. Xususan, Z.Ismoil,<sup>1</sup> O.Ouda va V. Marsening arabchadan fransuz tiliga hamda taniqli ulamo Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rahbarligida qator din ilmi bilimdonlari tomonidan arab tilidan o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilingan “Oltin silsilasi” kitoblari jamlanmasida islom dinidagi ezgu amallar, urf-odat va an‘analarni aks ettiruvchi agiografik terminlarni qamrab olgan agiomatnlarni juda ko‘p uchratamiz. Jumladan,

Asliyatda: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odamlarning eng saxiyi edilar. U zotning eng saxiy bo‘lgan paytlari Ramazonda – Jabroil u zot bilan uchrashganda bo‘lar edi. Jabroil Ramazonning har tunida u zot bilan uchrashib, Qur‘onni dars qilishardi”.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Ismoil Z. Al-jome‘ as-Sahih. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent, 1991.

<sup>2</sup> Oltin silsila. Sahih ul-Buxoriy. Toshkent, “Hilol-nashr”, 2016.

Tarjimada: “Nul n’était généreux à l’égal de l’*Envoyé de Dieu* et cette générosité atteignait à son paroxysme durant le mois de *Ramaḍân*, à la suite de ses entrevues avec *Gabriel* qui venait chaque nuit enseigner *le Coran*”.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan matnda Ramazon oyida payg‘ambarimizning sahiy va oliyjanoblighi doimgidanda ortishi haqida hikoya qilinadi. Mazkur matnda eortonim, teonim, agioantroponim berilgan. Ko‘rinadiki, har bir termini qo‘llagandan so‘ng kitobxonning hazm qilishi oson bo‘lishi uchun uning, albatta, kelib chiqish sababi, qanday o‘rinlarda ishlatilishi hamda lug‘aviy ma‘nosini kiritishga zarurat tug‘diradi. Asliyatda berilgan barcha agiografik terminlar tarjimada to‘la o‘z aksini topgan.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kim *qadr kechasini* iymon bilan, savob umidida bedor o‘tkazsa, o‘tgan gunohlari *mag‘firat* qilinadi», dedilar».<sup>2</sup>

D’après Abû Hurayra, l’*Envoyé de Dieu* a dit: “quiconque se tiendra *en prières* durant la *Nuit du destin*, avec un foi sincère et en vue de Dieu seul, obtiendra *le pardon* de ses fautes passées”.<sup>3</sup>

Tarjimon o‘zbek tilidagi “savob umidida tunni bedor o‘tkazmoq” jumlasini fransuz tilida mazkur matnni to‘liqroq ochib berish uchun “quiconque se tiendra *en prières*”, ya‘ni, “namoz o‘qib, duolar o‘qib o‘tkazmoq” tarzida ifoda etib, kontekst mazmunini fransuz o‘quvchisiga aniqroq yetkazib berishga erishgan.

Qadr kechasi fransuz diniy adabiyotlarida, xususan, “Le Sahih d’Al-Bukhari” da yuqorida keltirganimizdek, *Nuit du destin* tarzida qo‘llangan. *Nuit du destin* birikmasining frantsuz tilida “*Nuit de la puissance*” yoki aynan asliyatdagi varianti “*Laylat al-Qadr*” iborasini ham qo‘llash o‘rinli. Negaki, har ucha-la tushuncha ham Ramazon oyidagi ushbu ming oylik ibodatdan afzalroq Qadr kechasini ifodalaydi.

Unga qarshi janglaringiz qanday bo‘ldi?” dedi. “U bilan bizning oramizdagi urush «*sijol*»dir. U bizni yengadi, biz uni yengamiz”, dedim. “U sizni nimalarga buyuradi?” dedi. “*Yolg‘iz Allohga ibodat qilinglar*, Unga biron narsani sherik qilmanglar, *otalar*ingiz aytayotgan narsalarni tark qilinglar, deydi. Bizni namozga, rostgo‘ylikka, iffatga va *silai rahmga* buyuradi”, dedim.

Avez-vous été en guerre contre lui? – Oui, répondis-je. – Quelle a été l’issue de combats livrés? – La guerre entre nous a eu *des alternatives*; tantôt c’est lui qui l’a emporté sur nous, tantôt c’est nous qui l’avons emporté sur lui. – Et que vous ordonne-t-il donc? – Il nous dit de *d’adorer que Dieu seul*; de ne lui associer aucune chose; de renoncer aux croyances de *nos pères*. Il nous ordonne de prier; *d’être de bonne foi*; *d’avoir des mœurs pures*; de rester unis avec nos proches”.<sup>4</sup>

Diniy asarlar, hadis va oyatlarni arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan o‘zbek olimlarining xizmatlari beqiyos, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, bunday kitoblar arab tilidan o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girilgan va o‘zbek o‘quvchilarini qimmatli ma‘lumotlardan boxabar qilishdek sharaflari ishni amalga oshirishgan. Ularning mahoratini, o‘z ishining ustasi ekanliklarini ushbu asarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Xorij olimlaridan V.V.Sdobnikov, O.A.Ivanov, V.V.Kotlyarova, Y.V.Shilov, A.G.Minchenkov tarjimaning aksiologik jihatlari o‘rganib, tarjimani baholash bo‘yicha bir qancha mezonlar ishlab chiqqanlar.<sup>5</sup>

V.N.Komissarov badiiy matnlar tarjimasini baholashda 4 ta asosiy ko‘rsatkichni keltirib o‘tadi.<sup>6</sup> Bular quyidagilar:

1) tarjima umumiy holda adekvat hisoblanadi va matnning barcha alohida segmentlari darajasida ekvivalent hisoblanadi;

2) tarjima adekvat hisoblanadi, lekin alohida matn segmentlari darajasida ekvivalent emas;

<sup>1</sup> O.Houdas et W.Marçais. le Sahih d’al-Bukhari., maison d’Enno, Paris, 2016.

<sup>2</sup> Oltin silsila. Sahih ul-Buxoriy. Toshkent, “Hilol-nashr”, 2016.

<sup>3</sup> O.Houdas et W.Marçais. Le Sahih d’Al-Bukhari. Maison d’Ennour, Paris, 2016.

<sup>4</sup> Oltin silsila. Sahih ul-Buxoriy. Toshkent, “Hilol-nashr”, 2016.

<sup>5</sup> Сдобников В.В. Оценка лингвоаксилгической концепции речевой коммуникации. Автореф.дисс... канд. филол. наук, Москва, 2011, с. 59; Иванов О.А. Аксиологическая парадигма перевода: к вопросу о субъективных и объективных критериях качества перевода. Пермь, 2012; Котлярова В.В. Парадигмы аксиологического познания: философическо-методологический анализ. Автореф.дисс...канд.филол.наук, Растов на-Дону, 2015; Шилов Е.В. Аксиологическая парадигма «странный» в функционально-семантическом аспекте. Автореф. дисс... канд.филол.наук, Москва, 2017; Минченков А.Г. Функции оценки качества перевода и типк переводческих ошибок. Вестник Санкт-Петербургского университета, № 3, 2008, с. 166.

<sup>6</sup> Комиссаров В.Н. Теория перевода. М., 1990, с. 51 – 93.

3) tarjima ekvivalent, ammo adekvat emas (tarjimonning alohida segmentlarini aniq yetkazish istagi tufayli muallifning kommunikativ niyati tushunarsiz);

4) tarjima na ekvivalent, na adekvat.

V.N.Krupnov tarjima sifatini aniqlashda mavjud tamoyillarni tahlil qilib, tarjima asarini quyidagi 4 asosiy tamoyilga asosan, baholash mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Bular:

1) so'z va iboralar tarjimasini baholash;

2) jumlar, to'liq matnlar tarjimasini baholash;

3) asl nusxaning ifoda elementlari va stilistik xususiyatlari uzatilishini baholash;

4) tarjima qilingan asarning "joziba"sini baholash.<sup>1</sup> O.V.Albukova esa tarjima sifatini leksik-semantik va kommunikativ-pragmatik darajalarini baholash modellarini ishlab chiqadi.

A.Toytler 1970-yillardayoq tarjima matnini quyidagi mezonlar orqali baholash lozimligini ko'rsatib o'tadi, ya'ni:

1) tarjima to'liq asliyatdagi g'oyani aks ettirishi;

2) asliyat uslubi va ifodasi tarjima bilan mutanosib bo'lishi zarur;

3) tarjima xuddi asliyatdagidek o'qilishi lozim.<sup>2</sup>

O'zbek tarjimashunos olimlari ham tarjimaning asliyatga muvofiqliq darajasi va tarjima sifatini aniqlash borasida bir qancha tarjima tamoyillarini ilgari surganlar. G'.Salomov har qanday tarjima turi ya'ni, hoh og'zaki, goh yozma va xoh badiiy asar, xoh ilmiy asar bo'lsin, eng avvalo, tarjimonning ekstralingvistik bilimlari keng bo'lishi kerakligini tarjima sifatining eng asosiy omilidir, deb ta'kidlaganlar.<sup>3</sup>

I.To'xtasinov o'z ilmiy tadqiqotida "o'quv darslarida tarjimonning lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirish orqali tarjimonning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini" o'rinli ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, mazkur mezonlar ham tarjimonning mahorati va kasbiy malakasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sh.Safarovning "Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari" mavzuidagi risolasida tarjima jarayoni-ning lingvokognitiv tamoyillari, tarjimonning lisoniy faoliyati va tarjima kompetensiyasi va uni shakllantiruvchi omillarga keng to'xtalib bu borada xorij olimlari tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga keng va atroflicha to'xtalib o'tadi.<sup>4</sup> Ayniqsa, mazkur ishda D.Kelli, G.Shriv, A.Noybert, B.Harris, M.Orozko kabi bir qator olimlar tomonidan bildirilgan tarjima va tarjimon kompetensiyasi to'g'risidagi ilmiy fikrlar keng tahlilga tortilgan.

Shuningdek, Shahriyor Safarov tarjima kompetensiyasi majmuaviy ko'rinishga ega bo'lishi, uning tarkibidagi qismlar, albatta, tarjima faoliyatining istiqboli va samarasini belgilashini ta'kidlab uni quyidagi chizma orqali ifodalab beradilar.

R.Shirinova tomonidan diniy matnlar tarjimasida muallif va tarjimon kontsepsiyasi, tarjimada kognitiv dissonansni bartaraf etishda yozuvchi-asar-tarjimon triadasining muhimligi tarjima sifatini ta'minlovchi vositalar ekanligini ta'kidlaydi.<sup>5</sup>

1) tarjimada aniqlik mezonlari;

2) tarjimaning maqbullik darajasi;

3) tarjimaning o'qilish darajasi.<sup>6</sup>

Tarjimaning bunday baholash assismentlarida tarjimaning maqbullik darajasini "ma'qul", "o'rtacha ma'qul", "ma'qul emas" tarzida baholash mumkinligini ko'rsatsa, tarjimaning aniqlik mezonlarini "aniq va to'g'ri" "o'rtacha aniq", "aniq emas" tarzida baholash mumkinligini namoyon etadi. A.T.Alimov tarjimaning o'qilish darajasini esa "yuqori", "o'rtacha", "past" deb baholash mumkinligini taklif etadi.

Tarjimashunos olimlar tomonidan ishlab chiqilgan turli xil tamoyil, mezon va modellarni tahlil qilib, quyidagi aksiologik paradigmani agiomatnlar tarjimasini baholashda qo'llashni afzal ko'rdik:

1) tarjima matnini retrospektiv baholash; 2) tarjima matnini prospektiv baholash; 3) tarjimini lateral baholash; 4) tarjimini introspektiv baholash.

<sup>1</sup> Крупнов В.В. В творческой лаборатории переводчика. Москва, 1976, с. 190.

<sup>2</sup> Tytler A.F. Essay on the Principles of Translation. Benjamins publishing, 1978.

<sup>3</sup> Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, 1978, 55-bet.

<sup>4</sup> Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Toshkent, "Navro'z", 2019.

<sup>5</sup> Shirinova R.X. Olam milly manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Avtoref.diss...fan doktori (DSc), T., 2017.

<sup>6</sup> Alimov T.A. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari tarjimasini baholash mezonlari. Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2021, № 6 (41), 180–190. <https://journal.fledu.uz>



*Retrospektiv* lotin tilidan *retro-orqaga*, o'tmishga va *spectare* – qaramoq, qaytmoq degan ma'noni anglatadi. Biz mazkur lingvistik atamaga tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashib, tarjima qilingan matnning asliyatga muvofiqlik darajasini aniqlash va tarjimon mahoratiga baho berishda ma'qul model deb hisoblaymiz. Tarjima matnining o'girish kompetensiyasini aniqlashda orqaga, ya'ni, asliyatga qaytib original matndagi har bir lisoniy, madaniy, uslubiy elementlarni qay darajada tarjima matnida aks etganligini kontekstual, kross madaniy, qiyosiy chog'ishtirma metodi orqali tahlil qilib, uning adekvatlik darajasini aniqlash va tarjimaga baho berish lozimligini ilgari surmoqdamiz.

*Prospektiv* lotin tilidan *prospectus – oldinga*, kelajakka qarash ma'nolarini ifoda etadi. Biz mazkur baholash mezoni orqali tarjima istiqboli va samarasiga baho berish mumkinligini taklif qilmoqchimiz. Aniqroq qilib aytganda, tarjima qilingan asar ko'p nusxada va qayta-qayta nashr qilinishi, bir asarning ikki va ko'p tarjimon tomonidan tarjima qilinishi hamda tarjima qilingan asarlarning boshqa madaniyat vakillari uchun sahnalashtirilish kabilar ham tarjimaning prospektiv bahosini aniqlash omillaridan biri bo'la oladi deb hisoblaymiz, ya'ni, prospektiv baholash tarjimaning "umri boqiyliigi"ni aniqlash mezoni bo'la oladi. Zero, Alesher Navoiy g'azallarining uch tarjimon tomonidan tarjima qilinishi, yoki bo'lmasa, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarining fransuzcha teatrlashtirilgan sahnasi bunga misol bo'la oladi.

Kengroq ma'noda har bir tarjima qilingan matnning kelajakdagi umri, bahosi, o'quvchilarining ko'pligi bilan belgilanadi. Tarjima manining kelajagini baholashda uning kitobxonlar tomonidan ko'p o'qilishi va o'quvchining kitobdan, asardan, aniqrog'i, matndan qoniqish va kognitiv dissonans holati sodir bo'lmasligi nazarda tutiladi. Agiomatnlarni baholashda ko'rish, kelajakdagi har qanday vaziyat bilan bog'liq hodisa, kelajakka yo'naltirilgan. Mazkur baholash turi retrospektiv baholashdan farqli o'laroq, aksincha

*Interospektiv* lotin tilidan *introspecto ichkariga qarash, o'zini kuzatish* (hech qanday vositalar yoki standartlardan foydalanmasdan, o'z aqliy jarayonlarini kuzatishdan iborat bo'lgan psixologik tadqiqot usuli).

*Lateral* terminining lingvistik talqini lotin tilidan *latus, lateris tomon, ko'ndalang, yon tomonga* yo'naltirilgan degan ma'noni anglatsa-da, biroq bu termin g'ayrioddiy mantiqiy tafakkuri orqali muammoni hal qilishdagi qobiliyatdir.

Matnni retrospektiv baholashda asliyatda berilgan barcha lisoniy va madaniy elementlarning qay darajada tarjima matniga ko'chganligi tahlil qilish orqali baholash nazarda tutiladi. Tarjima matnini prospektiv baholashda retsipyentning asliyat va tarjima matnidan bir xil qoniqish holatining darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Agar asliyatni o'qigan o'quvchi bilan tarjima matnini o'qigan retsipyentning qoniqish quvvati bir xil bo'lsa, demak, tarjimaning asliyatga muvofiqlik darajasi yuqori baholanadi.

*Lateral* baholash modelida esa, aksincha, asliyatga emas tarjima qilingan matni qabul qiluvchining madaniy normalariga qay darajada mos kelishiga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, tarjima tilida mavjud boshqa bir autentik matn bilan ham qiyoslash nazarda tutiladi. Tarjima matnini *introspektiv* baholash boshqa modellardan farqli o'laroq, tarjimonning tarjima jarayonida ichki qaror qabul qilish malakasidan kelib chiqib yaratilgan tarjimani baholash modeli. Bir so'z bilan aytganda, mutarjim tarjima jarayonida qandaydir qarorni qabul qilishdan oldin uning sababini aniqlab, faktlarga va tarixiy ma'lumotlarga asoslanib tarjima qilishi nazarda tutiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agiografik terminlar tarjimada berilishi aksiologik, kognitiv va pragmatik ahamiyatga ega bo'lib, diniy alluziyalar orqali badiiy matnda o'z aksini topadi;

–agiografik terminlar antroponim, toponim, frazeologik birlik va diniy markerlangan alluziv voqealar orqali ifodalanadi;

–agiografik terminlar badiiy matnda personajning xarakteri, uning ichki tuyg'ularini ifodalash uchun ham qo'llaniladi;

–agiografik terminlar tarjimasi, asosan, implitsit xarakterga ega bo'lib, konseptual xarakterga ega bo'lgan axborotni o'zida mujassam etadi.

Fransuz adiblari asarlarini vosita tili orqali qilingan tarjimalarida katolik cherkov unsurlari musulmon masjidi unsurlari bilan tarjima qilingan holatlar kuzatiladi. Shuningdek, qator tarjimalarda nasroniylik dinining muqaddas kitobi Injilga xos terminlar o'zbek tilida Qur'oni karimga xos so'zlar bilan qorish-tirib yubirilgan.

**Azamov Jasurbek Murodovich (Qo'qon davlat Pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası v.b., dotsenti, yuridika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);  
e-mail: jasurbekazamov@mail.ru**

**OLIV TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIGA AKADEMIK VA MOLIVAVIV  
AVTONOMIYA PRINSIPLARINI JORIV ETISHGA DOIR LIBERAL MODELIV  
IMKONIVATLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalariv boshqaruvi jarayoniga keng ko'lamdagi avtonomiyani taklif qiluvchi amerikanча liberal modeli samrador va ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsataishi, uni demokratik jamiyatda va qonunlar ustuvor bo'lgan, so'z erkinligi yuksak qadrlanadigan muhitda shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risida xulosalar berilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются особенности американской либеральной модели, предлагающей большую степень автономии процессу управления высшим учебным заведением, выявляется эффективность и специфика оказания существенного влияния на качество образования, делаются выводы о целесообразности его формирования в окружающей среде.*

***Annotation.** In the article, the American liberal model, which offers a large degree of autonomy to the management process of higher education institutions, is effective and has a significant impact on the quality of education. conclusions are given on the appropriateness of its formation in the environment.*

***Калим сўзлар:** либерал, центристик, маъмурий автономия, педагогик автономия, бозор модели, процессуал тартиб, маъмурий мослашувчанлик.*

***Ключевые слова:** либеральный, центристский, административная автономия, педагогическая автономия, рыночная модель, процессуальный порядок, административная гибкость.*

***Key words:** liberal, centrist, administrative autonomy, pedagogical autonomy, market model, procedural order, administrative flexibility.*

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga amerikanча liberal modeli keng joriy etilmoqda. Bu modelning keng ko'lamdagi avtonomiyani anglatishi nuqtayi nazardan, aksar rivojlangan mamlakatlar tomonidan ma'qullanmoqda. Amerika va Kanada mamlakatlari oliy ta'lim muassasalari yagona markazlashgan boshqaruv tizimiga ega emas. OTMlar boshqaruvida erkinlik va moliyaviy mustaqillik an'analari aniq namoyon bo'lsa-da, bir-biridan farqli va o'ziga xos jihatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarining aksariyat oliy ta'lim muassasalarida akademik masalalarga nisbatan keng avtonomiya yaratilgan. Jumladan, bu akademik dasturlarni ochish va yopish, ularning mazmunini aniqlash va ichki mexanizmlar orqali ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish bilan bog'liq. Shuningdek, OTMlarning moliyaviy avtonomiyasi institutsional avtonomiya va akademik erkinlikka nisbatan ancha sust rivojlanishini ko'rish mumkin. Faqatgina institutsional avtonomiya sharoitida OTMlarning moliyaviy avtonomiyasi uning ajralmas elementi sifatida qaralishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Taqqoslash uchun olimlar tomonidan turli yillarda taklif etilgan oliy o'quv yurtlari moliyaviy avtonomiyasi ko'rsatkichlarining asosiy guruhlari berilgan

Mazkur paragrifda OTMlarning turli boshqaruv tizimlari va ularning akademik avtonomiya sohasi-dagi xususiyatlarini namoyish etuvchi ikki shtat misolida qiyosiy tahlil qilingan.

OTM kengashi Kanada oliy ta'lim muassasalarining asosiy tuzilmalaridan biri hisoblanadi. Kengash majlislari bir necha sabablarga ko'ra chaqirilishi mumkin: oliy ta'lim muassasasida, diplom va sertifikatlarni (faxriy daraja) berish uchun va OTM senati tomonidan favqulodda masalalar yuzasidan ham chaqirilishi mumkin.<sup>1</sup>

Kengash a'zolari va u bilan bog'liq boshqa hujjatlar OTM registratori tomonidan saqlanadi va yangilanadi. Kengashning majlis o'tkazish qoidalari OTM senati tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi. Kvorumga erishish uchun qaror qabul qilishda kengashning 20 nafar a'zosining bo'lishi talab qilinadi.<sup>2</sup>

Kanada OTMlarida rektorni tayinlash tartibi va vakolatlari ham mamlakat qonunchiligi bilan mustahkamlangan. Rektor OTMlarda ilmiy darajalarni berish uchun mas'ul bo'lgan asosiy mansabdor shaxs

<sup>1</sup> Jones G.A., Shanahan Th., Goyan P. Traditional Governance Structures – Current Policy Pressures. The Academic Senate and Canadian Universities. Библиотека Йоркского университета, 2012, с. 2 [электронный ресурс <http://pi.library.yorku.ca/dspace/bitstream/handle/10315/2811/Traditional%20Governance%20Structures%20Current%20Policy%20Pressures.pdf?sequence=1> (11 апреля 2012). Статья 5.

<sup>2</sup> Shu manba.

hisoblanadi. Rektor vasiylik kengashi tomonidan OTMning bitiruvchilar assotsiatsiyasi tavsiyasiga binoan va senat bilan maslahatlashgandan so'ng tayinlanadi.<sup>1</sup> Rektor o'z lavozimini uch yil davomida yoki voris tayinlangunga qadar egallaydi. Amaldagi rektor ikkinchi muddatga qayta saylanishi mumkin, ammo u bu lavozimni ketma-ket olti yildan ortiq egallab tura olmaydi.

Kanada oliy ta'lim muassasalarida vasiylik kengashlariga keng vakolatlar berilgan. Aynan vasiylik kengashlari OTM prezidenti, barcha fakultet dekanlari, kutubxonachini, registratorni, g'aznachi, professorlar, dotsentlar, katta o'qituvchilar, lektorlar, instruktorlarni va professor-o'qituvchilar tarkibining boshqa a'zolarini tayinlaydi va ularning vazifalarini aniqlaydi. Shuningdek, kengash oliy o'quv yurtida yangi fakultetlar, kafedralarni ochish va mavjudlarini yopish, universitet o'quv dasturini o'zgartirish masalalari bo'yicha ham mas'uldir.

Kanada oliy ta'lim muassasalari senati tarkibiga rektor, prezident, akademik vitse-prezident, fakultetlar dekanlari, bosh kutubxonachi, professor-o'qituvchilar tarkibi, talabalar hamjamiyati vakillari va boshqa a'zolar kiradi. Senat keng vakolatlarga ham ega bo'lib, ular orasida talabalar uchun akademik va boshqa malaka mezonlarini belgilash, grantlar, nomdor stipendiyalar, ijtimoiy stipendiyalar va mukofotlar tayinlashlar ham bor.

Vasiylik kengashi tomonidan tayinlanuvchi OTM prezidenti, quyidagi vakolatlarga ega: professor-o'qituvchilar va ilmiy tarkibdan tashqari, OTMning boshqa xodimlarini tayinlash, mansab pog'onalaridan ko'tarish yoki lavozimdan olib tashlashni tavsiya qilish, faoliyati zarur va maqsadga muvofiq bo'lgan qo'mitalari tashkil etish, oliygo'ha faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotni nashr qilish, senatning tegishli doimiy qo'mitasi bilan maslahatlashib, OTMning yillik budjetini tayyorlash va uning loyihasini ko'rib chiqish uchun kengashga taqdim etish.

Kanada OTM kengashi rektor, prezident, senat a'zolari, professor-o'qituvchilar tarkibi, OTM bitiruvchilari va boshqa a'zolarini o'z ichiga oladi, u oliy ta'lim muassasasida ilmiy daraja (shu jumladan, faxriy daraja) berish uchun, mukofot, diplom topshirish va malaka sertifikatlari bilan taqdirlash, boshqa qo'shimcha maqsadlar uchun to'planishi mumkin. Demak, OTMlar faoliyati bilan bog'liq qarorlarning mutlaq ko'pchiligi Kanada oliy ta'lim muhitida umumiy va tenglik asosida amalga oshiriladi, bu ularning avtonomiyasining darajasi muhim ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, vasiylik kengashining tuzilishi, har holda, OTMning bevosita vakillari va provinsiya hukumati tomonidan tayinlangan kengash a'zolari o'rtasida ma'lum darajada muvozanatni saqlashni nazarda tutadi.

Kanada OTMlarining akademik avtonomiyasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. U, asosan, talabalarni qabul qilish mezonlarini belgilash, o'quv dasturlarini rejalashtirish, ta'lim jarayonining sifatini nazorat qilish mexanizmlarini va boshqa akademik jihatlarni belgilash qobiliyati bilan belgilanadi. Mamlakatda ta'lim sohasi uchun javobgarlik, asosan, provinsiya hukumatlariga yuklatiladi va shunga muvofiq provinsiya qonunchiligi tasarrufida bo'ladi.<sup>2</sup> Provinciylar ta'lim tizimini tashkil etishda bir-biridan ancha farq qiladi.

Kanadada OTMlar tanlash mezonlarini va o'qishga kiruvchi talabalar sonini belgilashda katta mustaqillikka ega. Bu vazifalar oliy o'quv yurtlari vasiylik kengashlariga yuklatilgan. Masalan, Britaniya Kolumbiyasi universitetlarida vasiylik kengashlari universitet resurslarini hisobga olgan holda universitetda yoki alohida fakultetda o'qishga qabul qilinishi mumkin bo'lgan talabalar sonini belgilaydi.<sup>3</sup> Ta'kidlash kerakki, vasiylik kengashining kiruvchi talabalar sonining ko'payishi yoki kamayishi bilan bog'liq har qanday qarori universitet senatining roziligi bilan amalga oshiriladi. Talabalikka saralash mezonlarini aniqlash OTM darajasida amalga oshiriladi. Senat talabgorlarni tanlash sifati va boshqa mezonlarga tegishli barcha masalalarni hal etishga mas'uldir.<sup>4</sup>

Yangi fakultet ochish yoki mavjudlarini yopish masalalari OTM darajasida hal etiladi, bu sohada Kanada OTMlariga keng avtonomiya berilganini ko'rsatadi. OTM senati fakultetlar, kafedralar, o'quv dasturlarini shakllantirish va yopish, shuningdek, grantlar, shaxsiy va ijtimoiy stipendiyalar, mukofotlar ta'sis etish bo'yicha vasiylik kengashi tavsiyalarini ishlab chiqish huquqiga ega.<sup>5</sup> Fakultet, kafedra yoki

<sup>1</sup> Shu manba

<sup>2</sup> Fisher D., Rubenson K. Canadian Federal Policy and Postsecondary Education. The University of British Columbia, c.1//[http://chet.educ.ubc.ca/pdf\\_files/Canadian\\_Federal\\_Policy.pdf](http://chet.educ.ubc.ca/pdf_files/Canadian_Federal_Policy.pdf) (11 апреля 2012).

<sup>3</sup> University Act, British Columbia Laws, Статья 19 [электронный ресурс] [http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws\\_new/document/ID/freeside/00\\_96468\\_01](http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws_new/document/ID/freeside/00_96468_01) (11 апреля 2012).

<sup>4</sup> University and University Colleges Act 1971, Статья 37. First Schedule.

<sup>5</sup> University Act, British Columbia Laws, Статья 19 [Электронный ресурс] [http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws\\_new/document/ID/freeside/00\\_96468\\_01](http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws_new/document/ID/freeside/00_96468_01) (11 апреля 2012).

o'quv dasturini ochish yoki yopish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng senat uni 10 kun ichida vasiylik kengashiga yuborishi shart. Senatning qarori vasiylik kengashi tomonidan ma'qullanib, tasdiqlangandan keyingina kuchga kiradi. Shunday qilib, umuman, Kanada OTMlari akademik masalalar sohasida keng avtonomiyaga ega va davlat organlarining oliy o'quv yurtlari faoliyatiga ta'siri minimal bo'lib qolmoqda. Kanadada oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasining rasmiy davlat mexanizmi yo'q. Biroq, barcha Kanada oliy o'quv yurtlari Kanada OTMlar assotsiatsiyasiga a'zo bo'ladilar va unga a'zo bo'lishning o'zi, aslida, ta'lim muassasasining akkreditatsiyani bildiradi.

Kanadada o'quv dasturlari mazmuni haqidagi masalalar OTM darajasida hal etiladi. OTM fakultetlar tomonidan taqdim etilgan fanlar ro'yxatini ko'rib chiqish va aniqlash bo'yicha tashabbus ko'rsatishi mumkin. Fakultetlar o'z tavsiyalarini OTM senatiga yo'llaydi. Shundan so'ng senatning doimiy qo'mitasi o'quv dasturi bo'yicha fakultetlar takliflarini ko'rib chiqadi va ko'rib chiqish uchun senatga taqdim etadi.<sup>1</sup> Bundan tashqari, senat mustaqil ravishda OTMning barcha fakultet va bo'limlarida ilmiy dasturlarni qayta ko'rib chiqish tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Senat tomonidan fanlar mazmunini yoki o'quv dasturini o'zgartirish to'g'risidagi loyiha tasdiqlangandan so'ng, loyiha tavsiyalar shaklida vasiylik kengashiga taqdim etiladi.<sup>2</sup> Dasturlarning mazmuni va o'qitish tilini takomillashtirish bo'yicha yakuniy qarorni vasiylik kengashi qabul qiladi.

Kanada oliy ta'lim tizimida moliyaviy avtonomiya o'z ichiga OTMning zaxirasini shakllantirish qobiliyatini, davlat moliyalashtirish profitsiti saqlab, ta'lim to'lovlarini mustaqil aniqlash, mablag'larini amalga oshirish, moliyaviy bozorlarda oliy o'quv yurtining mavjud mablag'larini investitsiya qilish, ko'chmas mulkka egalik qilishni oladi.

Bu Kanadada oliy ta'lim masalalari bo'yicha qaror, asosan, viloyat organlarining alohida huquqi ekanligini ta'kidlash lozim. Federal darajada ta'lim sohasi uchun mas'ul organ va bu sohadagi masalalarni tartibga soluvchi qonun mavjud emas. OTMlar faoliyati va butun oliy ta'lim tizimi Kanada provinsiyalari yurisdiksiya bilan tartibga solinadi.

Moliyalashtirishning qisqartirilishi Kanada OTMlarining tadqiqot va boshqa tadbirlarni moliyalashtirishning muqobil manbalarini izlay boshlashiga sabab bo'ldi. Umuman, Kanadada amalga oshirilayotgan islohotlarning global trendi bo'lgan «akademik kapitalizm»ning bir qismiga aylandi, unga ko'ra, OTMlar bozor ehtiyojlari va ustuvor yo'nalishlarni qondirish uchun ta'lim tuzilishini o'zgartira boshlashdi. Moliyalashtirishning yangi davlat siyosatiga javoban, OTMlar Kanadaning xususiy sanoat sektori bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish boshladi va u oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning asosiy homiyi va buyurtmachisiga aylandi. Shunday qilib, tadqiqotlarni bosqichma-bosqich tijoratlashtirish boshlandi.

Kanadaning oliy ta'lim muassasalari, odatda, mustaqil kreditlar olish imkoniga ega, lekin provinsiya qonunchiligiga muvofiq kreditni quyidagi maqsadlar uchun jalb qilish mumkin:

–OTM tomonidan ko'chmas mulkni olish yoki sotib olish;

–OTM binolari yoki boshqa inshootlar uchun jihozlar foydalanish uchun qurish, ta'mirlash, sotib olish.<sup>3</sup> Bunday kreditlar oldindan Xalq ta'limi vazirligi va provinsiya Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Kreditlarni jalb qilish masalalari OTM nomidan barcha zarur shartnomalarni imzolashga vakolatli bo'lgan vasiylik kengashining alohida huquqidir. Vasiylik kengashlari OTM xarajatlarini qoplashga qisqa muddatli kreditni jalb qilish uchun oddiy ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilishi mumkin. Bu ta'lim muassasasining joriy moliya yili uchun rejalashtirilgan daromadni olishi, ya'ni, kreditning tanarxini to'lay olishi sharti bilan amalga oshirilishi mumkin.<sup>4</sup> Qisqa muddatli kreditlarni jalb qilish uchun OTMlar kafolat veksellarini berishlari mumkin.

Kanada oliy ta'lim muassasalari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun sovg'a qabul qilishi yoki boshqa har qanday mulkni sotib olishi, shunga ko'ra, unga egalik qilishi mumkin. Ta'lim vazirligining ma'qullashi bilan OTM, shuningdek, grant shartlari, o'tkazish dalolatnomasiga muvofiq, hadya olishi yoki vasiyatnoma bo'yicha yerga egalik qilishi mumkin.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Terms of Reference for Senate Standing Committees, University of Victoria [http://www.uvic.ca/university\\_secretary/assets/docs/scommittees/SCAS%20-%20Terms%20of%20Ref.pdf](http://www.uvic.ca/university_secretary/assets/docs/scommittees/SCAS%20-%20Terms%20of%20Ref.pdf) (11 апреля 2012).

<sup>2</sup> Terms of Reference for Senate Standing Committees, University of Victoria [http://www.uvic.ca/university\\_secretary/assets/docs/scommittees/SCAS%20-%20Terms%20of%20Ref.pdf](http://www.uvic.ca/university_secretary/assets/docs/scommittees/SCAS%20-%20Terms%20of%20Ref.pdf) (11 апреля 2012).

<sup>3</sup> University Act, British Columbia Laws, Статья 19 [Электронный ресурс] [http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws\\_new/document/ID/freeside/00\\_96468\\_01](http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws_new/document/ID/freeside/00_96468_01) (11 апреля 2012).

<sup>4</sup> Shu manba.

<sup>5</sup> Shu manba.

–99 yildan ortiq bo‘lmagan muddatga garovga qo‘yish, sotish, o‘tkazish, ijaraga berish yoki boshqa o‘z yerlarini tasarruf etish;

–har qanday muddatga va har qanday shartlar asosida aloqador kollejlarga ijaraga yer berish.

Shunday qilib, umuman, Kanada oliy ta‘lim muassasalari, moliyaviy sohada bilan bog‘liq ba‘zi masalalarni hal qilishga keng avtonomiya berilgan bo‘lsa, moliyaviy avtonomiyaning boshqa jihatlari sezilarli darajada cheklangan. Kanadaning OTMlari budjetini ishlab chiqish va tasdiqlash OTM ichki tuzilishi doirasida bo‘lib o‘tadi. Oliy ta‘lim muassasalari budjet loyihasini ishlab chiqish masalalari prezidentning alohida huquqidir. Biroq, vasiylik kengashi OTMning budjetini uzil-kesil tasdiqlaydi. vasiylik kengashi OTMning bo‘sh mablag‘larini tasarruf etishi va o‘z xohishiga ko‘ra, investitsiya qilishi ham mumkin.

Xulosa qilganda, oliy ta‘lim muassasalarini boshqaruvi jarayoniga keng ko‘lamdagi avtonomiyani taklif qiluvchi amerikancha liberal modeli samrador va ta‘lim sifatiga kuchli ta‘sir ko‘rsataishi aniqlangan bo‘lsa-da, uni demokratik jamiyatda va qonunlar ustuvor bo‘lgan, so‘z erkinligi yuksak qadrlanadigan muhitda shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rivojlanayotgan davlatlardagi qonunchilik, adolatli sudlov va korrupsiya bilan bog‘liq muammolar ushbu model imkoniyatlarini cheklaydi va unga yangi mu-ammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois har bir mamlakat o‘zidagi imkoniyatlarni to‘g‘ri hisobga olgan holda, ta‘limdagi avtonomiyani takomillashtirilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li (Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi)**  
**“AKADEMIK ERKINLIK” TUSHUNCHASINING ILMIY JIHLARI VA TALQINLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada, akademik erkinlik muammolari bilan shug‘ullangan mutaxassislarning fikrlari, akademik erkinlik (mustaqillik) g‘oyalarini ilmiy, falsafiy va pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shu bilan birga, maqolada, rivojlangan Yevropa davlatlarida, zamonaviy onlayn ta‘lim tizimlari keng joriy etilganligi va ilg‘or universitetlarda akademik erkinlik, ayniqsa, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar olimlar tayyorlashning samarali vositasi sifatida qaralishi tadqiq etiladi. Nodavlat universitetlar o‘zining akademik erkinligini himoya qilish, professor-o‘qituvchilarga mustaqil izlanishlar olib borish uchun shart-sharoitlar yaratib berishni faoliyatining asosiy tamoyiliga aylantirishganligi hamda akademik erkinlikning sotsiopsixologik omillari ochib beriladi.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются мнения специалистов, занимающихся проблемами академической свободы, идеи академической свободы (независимости) с научной, философской и педагогической точек зрения. И, в то же время, в статье рассматривается широкое внедрение современных систем онлайн-образования в развитых европейских странах и тот факт, что академическая свобода рассматривается как эффективное средство подготовки исследователей, исследователей и ученых в передовых университетах. Основным принципом деятельности негосударственных университетов является защита их академической свободы, создание профессорско-преподавательскому составу условий для проведения самостоятельных научных исследований, раскрываются социально-психологические факторы академической свободы.*

***Annotation.** In this article, the opinions of experts dealing with the problems of academic freedom, the ideas of academic freedom (independence) are analyzed from a scientific, philosophical and pedagogical point of view. And, at the same time, the article examines the widespread introduction of modern online education systems in developed European countries and the fact that academic freedom is considered as an effective means of training researchers, researchers, and scientists in advanced universities. The main principle of non-state universities' activity is to protect their academic freedom, to create conditions for professors and teachers to conduct independent research, and the socio-psychological factors of academic freedom are revealed.*

***Kalit so‘zlar:** jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, texnologik izlanishlar, gnoseologik ehtiyoj, oliy ta‘lim, ma‘naviy ehtiyoj, akademik erkinlik, demokratik ta‘lim, erkin shaxsni shakllantirish, sotsiopsixologik maqsadlar, motivlar.*

***Ключевые слова:** развитие общества, наука, технологические исследования, гносеологическая потребность, высшее образование, духовная потребность, академическая свобода, демократическое образование, свободное формирование личности, социально-психологические цели, мотивы.*

**Key words:** *development of society, science, technological research, epistemological need, higher education, spiritual need, academic freedom, democratic education, free personality formation, socio-psychological goals, motives.*

Ilmiy adabiyotlarda tadqiqotning predmetini aniqlash, u orqali muammoning genezisi, zamonaviy qarashlardagi o'rni, kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sirini ochib berish an'anaga aylangan. Predmet shunchaki tashqi obyekt yoki uning bir qismi emas, u muammoning nimadan iboratligini, qanday jarayonlar yoki tashqi obyekt bilan bog'liqligini, tadqiqotchining asosiy diqqati nimaga qaratilishi zarurligini ifoda etib keluvchi narsa, voqea, hodisa yoki sotsiumdir. Shunday ekan, tadqiqot ana shu predmetni aniqlab olish, uning sifatlariga e'tibor qaratish va kelgusida uning qanday ko'rinishda, modelda kelishini gipotetik tasavvur etish uchun zarurdir. "Bilish uchun, deb yozgan edi R.Dekart, biz aniq va tiniq ko'ra oladigan yoki ishonchli tarzda unga yeta oladigan narsani belgilab olishimiz darkor. Bilish boshqacha bo'la olmaydi".<sup>1</sup> Demak, akademik erkinlik, avvalo, bilish, ayniqsa, ilmiy bilish bilan bog'liqdir. Uning ilmiy ahamiyati va qimmatini ham shundadir.

Akademik erkinlik muammolari bilan shug'ullangan mutaxassislarining fikricha, akademik erkinlik (mustaqillik) g'oyasi nemis faylasufi, lingvistika asoschisi K.V.fon Gumboldt (1767–1835) tomonidan ilgari surilgan. Unga I.Kant, I.G.Fixte, K.K.Yakob falsafiy va lingvistik qarashlari ta'sir etgan. Gumboldt 1809-yili Berlinda universitet tashkil qilgan. Uning universitetdagi o'quv jarayonlarini ilm-fan bilan bog'lash, ijtimoiy-pedagogik izlanishlarni keng, "ochiq" qilish fikrlari, keyinchalik, ma'lum bir pedagogik qarashlar sifatida nemis olimlari tomondan davom ettirilgan.<sup>2</sup>

XVIII asrgacha ta'lim cherkov va diniy dogmatika ta'sirida bo'lgan. Gumboldt oliy ta'limni ushbu ta'sirdan erkin, xoli qilishga, shu tarzda universitet mustaqilligini ta'minlashga intiladi. Bu o'rinda uning ma'rifatchilik davrining da'vatlariga, fransuz revolyutsiyasining tenglik, ozodlik va birodarlik g'oyalari ergashgani ham ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ma'rifatparvarlik davrining inson erki, bilim va ma'rifatning roli, dogmatik qarashlardan va ustanovkalaridan xoli, ta'lim va tarbiyadagi standartlar o'rniga tarbiyalanuvchi shaxslarning qiziqish va intilishlariga muvofiq keladigan, ularda ilm-fanga qiziqish uyg'otadigan ta'lim tizimini yaratish borasidagi qarashlar muhim rol o'ynagan,<sup>3</sup> degan konseptual g'oyalari Gumboldt ilmiy-pedagogik tajribasida o'z ifodasini topadi. Gumboldt ta'limotiga ko'ra, universitet ta'limi dunyoviy, u diniy ta'limdan farq qiladi. Universitet ta'limini dinda, ayniqsa, cherkov ta'siridan xoli, mustaqil, erkin qilish akademik erkinlik g'oyasining negizidir. Mazkur ta'rif muammoga oid barcha asarlarda u yoki bu ko'rinishda takrorlanadi, e'tirof etiladi. Shu bilan birga, uning ilmiy konseptual asoslari, insonni erkin fikrlashga undovchi sosiopsixologik va antropopedagogik omillar o'rganilishi zarur. Aynan ushbu omillarning ilmiy tadqiqot obyektlari bo'lmagani, ular haqida zarur ilmiy qarashlarning shakllanmagani uchun akademik erkinlik (mustaqillik) amaliyotda ham, nazariyada ham o'z o'rnini topmadi. Rivojlangan Yevropa davlatlarida, zamonaviy onlayn ta'lim tizimlari keng joriy etilgan ilg'or universitetlarda akademik erkinlik kadrlar, ayniqsa, tadqiqotchilar, ilmiy izlanuvchilar, olimlar tayyorlashning samarali vositasi sifatida qaraladi. Nodavlat universitetlar o'zining akademik erkinligini himoya qilish, professor-o'qituvchilarga mustaqil izlanishlar olib borish uchun shart-sharoitlar yaratib berishni faoliyatining asosiy tamoyiliga aylantirishgan.

Akademik erkinlikning sotsiopsixologik omillariga quyidagilar kiradi:

- jamiyat taraqqiyotining ilm fan, texnologik izlanishlar bilan bog'liqligining gnoseologik ehtiyoj sifatida anglanilishi;
- davlatning amaliy faoliyatini oliy ta'limni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirishni obyektiv zaruriyat sifatida qabul qilinishi;
- oliy ta'limga bo'lgan qiziqishning yoshlarning ma'naviy ehtiyojiga aylantirish;

<sup>1</sup> Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том 1, Москва, "Мысль", 1989, с. 82.

<sup>2</sup> Гумбольдт фон К.В. О внутренней и внешней организации высших научных заведений в Берлине. "Неприкосновенный запас", 2002, №2, URL: <https://magazines.gorky.media/nz/2002/2/o-vnutrentj-vneshnej-organizaczi-vyshnih-nauchnij-v-berline-1>. Html; Зуев С. Академическая свобода. От кого и чего? "Тенденции развития образования. Право и свобода в образовании", 17 марта 2022 г.

<sup>3</sup> Гуревич П., Филатов О. Философия и история образования. От античности до эпохи Просвещения. 2-е изд. Москва, "Юрайт", 2017, Елишев С.О. Эпоха просвещения и ее идеология: начало эры социального манипулирования. "Вестник Московского университета", 2022, № 28 (4), с. 116–145); И.Кантинг мавжудотлар ичида фақат инсон тарбияга муҳтож (Кант И. О педагогике. Собрание сочинения в восьми томах. Том 8, Москва, "Мысль", 1994, с. 399); "маърифатли фикр" эркинликни, эркин ҳаракатни ёқтиради (Кант И. Ответ на вопрос на Что такое просвещение? Сочинения в шести томах. Т.6, Москва, "Мысль", 1966, с. 34.

–akademik erkinlikni umumta’limni qo’llab-quvvatlash strategiyasiga muvofiqlashtirish;  
–akademik erkinlikni demokratik ta’lim va erkin shaxsni shakllantirish konsepsiyasiga yo’naltirish;  
–akademik erkinlik va shaxs erkinligi negizidagi sotsiopsixologik maqsadlar, qiziqishlar va motivlarni muvofiqlashtirish.

Jamiyat taraqqiyotining ilm-fan, texnologik izlanishlar bilan bog’liq ekanligini gnoseologik ehtiyoj sifatida anglanilishi omili solumning strategik maqsadidan kelib chiqadi. Solum rivojlanish yo’llarini ilg’or modellardan izlaydi, o’zining ichki resurslari va ehtiyojlarini ana shu modellarga muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratadi. Ichki resurslar va ehtiyojlarining tanlangan modellarga muvofiqlashtirish avvalo sopsixologik muammo sifatida keladi. Masalan, Yangi O’zbekiston oliy ta’lim tizimini ilg’or davlatlardagi ta’lim modellarini o’zlashtirish, joriy etish uchun ulardagi universitetlarning filiallarini ochmoqda. Mazkur filiallar milliy oliy ta’lim tizimida shakllangan subyekt (o’qituvchi, ustoz) va obyekt (talaba, o’quvchi) tizimidan keskin farq qiladi. Ularda ta’lim talabani erkin fikrlashga, mustaqil ilmiy izlanishga o’rgatishga qaratilgan. Dars paytida talaba kofe, choy, kola ichib o’tirishi, biror hojati bo’lsa darsdan chiqib kelishi, qiziqarli bo’lmasa, boshqa darslarga qatnashi mumkin. Mavjud milliy oliy ta’lim bu tartibni qabul qilolmaydi, natijada ustoz bilan talaba o’rtasida antipatiya paydo bo’ladi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetini bitirgan, dunyo reyatingida TOP 500 talik universitetlar qatoridan joy olgan Pusan (Janubiy Koreya) universiteti magistranti J.Saydaliyevning keltirishicha, bu o’quv dargohlarida “talabaga to’la erkinlik berilgan. Ya’ni, u har qanday ko’rinishdagi tadbir, yig’ilishlar va nazorat qilinishidan mutlaqo ozod qilingan. Ortiqcha bosim hamda yuklama ham mavjud emas. Turli davlatlardan kelgan xalqaro talabalar hech qanday ramziy ust boshlarsiz o’ziga qulay holatda darslarda qatnashadi. Ochig’ini aytaman, O’zbekistonda dars qoldirgan, bo’yinbog’i taqmagan talaba gap eshitib, tushuntirish xati yozadi, formasi yo’qligi uchun darsga qo’yilmaydi... Talabalar o’zlariga kerakli, qiziqqan fanlarni tanlashadi hamda shu fanlardan ro’yxatga yozilishadi. Hech bir mas’ul shaxslar bu jarayonga aralashmaydi va hech kimga “shu fanni o’qishing kerak yoki o’qiysan” qabilida munosabatda bo’linmaydi. Ta’lim mutlaq erkinlik prinsipi bo’yicha tashkil qilinadi. Talabalar xohlasa, 1 ta, xohlasa, 5 tagacha fan tanlab o’qishi mumkin”.<sup>1</sup>

Talabaning gnoseologik ehtiyoji ilg’or universitetlarda dars jarayonlarini tashkil etishning asosiy qoidasi hisoblanadi. Talaba qanday fanlarga qiziqadi, qaysi fan asoslari uning kelgusi hayotida ko’proq kerak bo’ladi, bunday savollarga uning o’zi javob topishi lozim. Ammo ushbu qoidada bir muhim xato mavjud. Ma’lumki, gnoseologik ehtiyoj ma’lum bir asosda, hayotiy tajribaga muvofiq shakllanadi. Talabada bunday asos, hayotiy tajriba yetarli bo’lavermaydi, u o’zining impulsiv, hatto g’ayrihayotiy tasavvurlariga ergashib ketishi mumkin. Ta’limdagi “to’la erkinlik” g’oyasi g’arb individualizmining davomidir. 16 yoshdan u o’z xatti-harakatlari uchun shaxsan javob beradigan fuqaroga aylanadi, biroq bu hali talabaning qanday qilganda, nimalarni o’rganganda va qanday fundamental tartiblarga, hayotiy tajribaga tayanganida o’zi, kelajagi uchun zarur kasb-korni egallashi mumkinligini belgilab bermaydi. Aynan ushbu savollarga javob topishda unga ota-onasining, yaqinlarining maslahatlari zarurdir.

“To’la erkinlik” gnoseologik qiziqishlarning antipodi bo’lishi mumkinligin esdan chiqarmaslik kerak. Akademik erkinlik “to’la erkinlik” yoki I.Kant va Gegel nazarda tutgan “mutlaq erkinlik” emas, u bilim olish sohasidagi erkinlikdir. Sharq pedagogikasi va ta’lim-tarbiya nazariyasi insonga har doim tarbiyaga, pand-nasihatga muhtoj obyekt sifatida qaraydi, u hayotining so’nggi damlarigacha tarbiyalanishi mumkin. Uning gnoseologik qiziqishi yoki ehtiyoji butun umri davomida o’zgarib, transformatsiyaga uchrab turishi, shakllanishda davom etishi mumkin. Solumdagi ijtimoiy tarbiyaviy institutlar, ta’lim tizimi obyektidagi gnoseologik ehtiyojlarni, qiziqishlarni, avvalo, uning ma’naviy kamoloti bog’lashi, keyin esa jamiyat taraqqiyoti muammolari bilan uyg’unlashtirish mexanizmlariga ega bo’lishi zarur. Talabalar-da ushbu gnoseologik ehtiyojlar, qiziqishlar goho betartib, anglanmagan, goho esa irratsional, psixologik omillar ta’sirida paydo bo’lishi mumkinligini unutish mumkin emas.

Davlatning oliy ta’limni qo’llab-quvvatlashini obyektiv zarurat sifatida anglash omili akademik erkinlik uchun muhimdir. Akademik erkinlik universitetga, tadqiqot markazlariga ijodiy izlanishlarda erkinlik beradi, ulardagi hurfikrlikni qo’llab-quvvatlaydi, ularni tashqi, rasmiy tazyiqlardan xoli qiladi. Mazkur omil ijodiy izlanishlarni zavqli, samarali va betakror qiladi, insonga demokratik huquqlarni ro’yobga chiqarish imkonini beradi. Akademik erkinlik ta’lim, ijod va ilm fandagi demokratiyadir. Biroq bu erkinlikni suite’mol qilish mumkin emas. U davlat homiyligida, uning qo’llab-quvvatlashi ta’sirida shakllanishi, ta’lim tizimidan joy olishi mumkin. “Oliy ta’lim muassasasining, o’zlari davlat moliyalashiga kamroq muh-

<sup>1</sup> Таълим ўринсиз тажрибаларни хушламайди. “Ўзбекистонда олий таълим”, 2022, 4-сон, 65-бет.

toj bo'layotganlari, ko'proq xususiy ishlari va texnologik ishlanmalari evaziga mablag' topshlari tufayli muxtor bo'lishga intilishlari davlat tomondan oshirib borilayotgan nazorat bilan muvozanatlanmoqda. Oliy ta'lim muassasasi faoliyati ustidan muntazam nazorat tartibi barpo etilmoqda. AQSHda, masalan, turli akkreditatsiya agentliklarining (kasbiy yoki hududiy), ishi rag'batlantirilmogda. Fransiyada esa oliy ta'limni baholash bo'yicha maxsus milliy qo'mita tuzilgan".<sup>1</sup>

AQSH va Yevropadagi universitetlar o'zining akademik erkinligini davlat bilan ijodiy hamkorlik, uning buyurtmalarini bajarish yoki davlat uchun zarur kadrlarni tayyorlab berish orqali ta'minlab, himoya qilib keladi. Demokratik taraqqiyotni maqsadi qilib qo'ygan yosh O'zbekiston davlati bu omilni unuta olmaydi. Davlatning boshqaruv va tashkilotchilik funksiyasi butun ta'lim tizimiga, shu jumladan, oliy ta'limga ham taalluqlidir.

**Bayjanov Tirkeshbay Jumadurdievich (pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD)  
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG XODIMLARINING KASBIY  
KOMPETENTLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalar, ularning bajarilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация.** В данной статье исследуются задачи нормативно-правовых документов, принятых в Республике Узбекистан, их реализации, возможностях развития профессиональной компетентности педагога в дошкольных образовательных организациях.*

***Annotation.** This article talks about the tasks in the regulatory and legal documents adopted in the Republic of Uzbekistan, their implementation, the possibilities of developing the professional competence of the pedagogue in preschool educational organizations.*

***Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, bola, tarbiyachi, kompetentlik, mahorat, malaka oshirish.*

***Ключевые слова:** организация дошкольного образования, ребенок, воспитатель, компетентность, умение, развитие умений.*

***Key words:** preschool education organization, child, educator, competence, skill, skill development.*

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan keng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-may kuni PQ-4312-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi» qabul qilindi [3]. Ushbu Konsepsiyaga muvofiq, maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlashga juda katta e'tibor berilmoqda. Spuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini maktab ta'limi bilan ingeratsiyasi orqali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini yanada yaxshilash, tarbiyachi-pedagoglarning professional tayyorgarligi va mahoratini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim xodimidan bugun yuqori darajadagi ijtimoiy yo'nalganlik, maktabgacha ta'lim sohasidagi davlat ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlarini bilishi, uning rivojlanish istiqbolari kontekstida dolzarb muammolarga yechim topish qobiliyatiga ega bo'lishi kutilmoqda. Demak, hozirgi kunda intellektual va madaniy-estetik qadriyatlariga o'zining mukammal bilimi va tajribasi nuqtayi nazaridan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifalar tarbiyachi-pedagoglar oldida turibdi. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi, avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va mak-

<sup>1</sup> Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Олий таълим менежменти ва иктисодиёти. Т., "Молия", 2002, 149-бет.



tabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Tarbiyachi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qoʻygan bolaning sogʻligʻini saqlash va mustaqamlash, aqliy qobiliyatini oʻstirish, milliy qadriyatimiz va maʼnaviyatimizning gʻoyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi eʼtiqod va qarashlarini tarkib toptirish, ona-Vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish, yosh avlodda oʻrtoqlik, doʻstlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish kabi talablarni amalga oshirishga masʼuldir. Bola shaxsini shakllantirishda, uning aqliy jihatdan kamol topishida tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, har bir tarbiyachi oʻzida kompetentlikni shakllantirgan boʻlishi zarur. Tarbiyachining kompetentligi “noanʼanaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning oʻzini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan oʻzaro munosabatlarda yangi yoʻl tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga toʻla maʼlumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi [4].

Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi davlat talablariga muvofiq ishlab, 2018-yilda ishlab chiqilgan va meʼyoriy-huquqiy hujjat hisoblangan maktabgacha taʼlim muassasasining “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturida maktabgacha taʼlim muassasasining maqsad va vazifalari, oʻquv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy gʻoyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning taʼlimning keyingi bosqichiga oʻtishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan [5].

“Ilk qadam” Maktabgacha taʼlim muassasasining davlat oʻquv dasturining 3-bobi “Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv” boʻlib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv oʻsib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur boʻlgan, axloqiy meʼyor va qadriyatlarni oʻzlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlik koʻzda tutilgan.

Bolalarda shakllantirilishi lozim boʻlgan bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, koʻnikma, malaka va qadriyatlardan oʻquv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanishni, «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari esa sanʼat va madaniyatga qiziqishi, milliy anʼanalarni qadrlashi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etishi, sanʼatning muayyan turini afzal koʻrishini musiaqil ifodalashi, olingan bilim va koʻnikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda oʻz ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanishi, insonning dunyoni oʻzgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunishi kabilarni anglatadi. “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturida bolalarning «Ijodkorlik» sohasidagi oʻquv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan soʻng 6–7 yoshli bola: sanʼat va madaniyatga qiziqish namoyon qilishi, milliy anʼanalarni qadrlab, ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadigan boʻlishi; sanʼatning muayyan turini afzal koʻrishini mustaqil ravishda ifodalay olishi; olingan bilim va koʻnikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda oʻz ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalana olishi; insonning dunyoni oʻzgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunishi kabi kompetensiyalarni egallashi koʻrsatib berilgan. Bunday kompetensiyalarni 6–7 yoshli bolalarning egallashi kun sayin taraqqiy etayotgan davr talabi hisoblanadi. Bolalarning ijodiy rivojlanishida tarbiyachining ijodkorligi muhim rol oʻynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga oid davlat talablarida turli yosh guruhlar tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini baholovchi mezonlar keltirilgan. Jumladan, bola tasavvurini rivojlantiruvchi muhit yaratish, bolaning musiqiy faolligini rivojlantiruvchi bolalar qoʻshiqlarini eshittirish, bolani taom tayyorlash, xonalarni bayramga tayyorlash jarayoniga jalb qilish, turli tabriknomalarni tomosha qilish, doʻkon va salonlarda kompozitsiya yaratayotgan ishchilar faoliyatini kuzatish kabi jihatlarni kiritilgan [4].

Shuningdek, tarbiyachining kommunikativ kompetentligida bola bilan ijobiy munosabat oʻrnatishi muhim boʻlib, muomala odobini, asosan, tarbiyachi timsolida anglab oladi. Tarbiyachining muomala munosabatlari insonparvarlik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanadi. Tarbiyachining muomala munosabati, odatda, ikki xil boʻlib, biri–rasmiy, ikkinchisi – norasmiy muomala. Tarbiyachining rasmiy muomala munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasining qonunlari, maktabgacha taʼlim tizimiga oid direktiv hujjatlariga, norasmiy muomala munosabatlari esa pedagogik etikaning qonuniyatlariga asoslanadi. Tarbiyachining muomala odobi psixologik konuniyatlar, odob meʼyorlari, qoidalari, talablari pedagoglar jamoasining fikri asosida bajariladi. Har bir tarbiyachining xatti-harakati, xulqi, muomalasi pedagoglar jamoasining maqsadi talablariga mos boʻlmogʻi kerak.

Xulosa o'rnida, maktabgacha ta'limga tegishli barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida sifatli tashkil etish, tarbiyachi-pedagoglarning faoliyati samaradorligini oshirish ishlari pedagoglarning faoliyatiga zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli qonuni (2019-yil 16-dekabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-may kungi PQ-4312-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi».
4. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi. T., 2018.
6. Sh.Sodikova. Maktabgacha pedagogika. Darslik, T., 2017.

#### Ismoilova Shaxnoza Abdurashitovna (Termiz davlat universiteti Ilmiy tadqiqot, innovatsion va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi muhandisi) TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOY PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish hozirgi kunda muhim masalardan biri ekanligi va yoshlar ongiga ta'sir eta oladigan va o'zi ibrat bo'la oladigan pedagoglarga zarurat borligi haqida fikrlar keltirib o'tilgan. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda subyektiv va obyektiv omillarni katta ahamiyati ekanligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Аннотация.** В данной статье отмечается, что развитие национальной гордости у студентов является одним из важнейших вопросов и возникает потребность в педагогах, способных влиять на умы молодежи и быть примером. Высказываются мнения о большом значении субъективных и объективных факторов в развитии чувства национальной гордости.

**Annotation.** In this article, the development of national pride in students is one of the most important issues and there is a need for pedagogues who can influence the minds of young people and be an example. Opinions were expressed about the great importance of subjective and objective factors in the development of the sense of national pride.

**Kalit so'zlar:** milliy iftixor, milliy iftixor tuyg'usi, subyektiv omillar, obyektiv omillar, shakllanish, rivojlanish.

**Ключевые слова:** национальная гордость, чувство национальной гордости, субъективные факторы, объективные факторы, становление, развитие.

**Key words:** national pride, feeling of national pride, subjective factors, objective factors, formation, development.

Ko'plab adabiyotlarda "shakllanish", "rivojlanish", "tarbiyalash", ayrim manbalarda esa "ijtimoiylashuv" tushunchalarining yagona mantiqqa egaligi qayd etiladi. "Shakllantirish" va "rivojlantirish" tushunchalarining o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham mavjud. Ularga ko'ra, shakllantirish jarayoni va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish negizida sodir bo'lishi g'oyasi ilgari suriladi.

"Rivojlanish" atamasining sof biologik, "tarbiyalash" atamasining pedagogik, "shakllanish" atamasining esa falsafiy kategoriya sifatida qabul qilinganligini inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan anglanadiki, shaxsni shakllantirish jarayoni uni rivojlantirish (aniqroq qilib aytganda, shaxsda muayyan sifatlarni tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish) negizida sodir bo'luvchi ijtimoiy hodisadir. Zero, "shakllanish" atamasi dunyoqarash va uning tarkib topishini anglatuvchi asosiy tushunchadir. Bizga yaxshi ma'lumki, shaxs dunyoqarashining tarkib topish hodisasi unda shaxsiy, irodaviy hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarning mavjudligi va yaxlitligiga tayangan holda sodir bo'ladi.<sup>1</sup>

Hozirgi zamonda yosh avlod, shu jumladan, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini, vatanga bo'lgan muhabbatini va shu Vatanda tug'ulib o'sayotganidan faxrlanish tuyg'usi qanchalik kuchli bo'lsa, Vatani-

<sup>1</sup> Д.И.Рўзиева. Олий таълим муассасалари талабаларида миллий ифтхор туйғусини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Диссертация, Тошкент, 2007, 21-бет.

miz mustaqilligi shunchalar barqaror va mustahkam bo‘ladi. Hozirgi vaqtda yurt tinchligini saqlash istiqbol sari ishonch bilan borishda yosh avlodning ma‘naviy ruhini milliylik bilan shakllantirish asosiy yo‘nalishlardan biri, desak, adashmagan bo‘lamiz.

Binobarin, bugungi kunda g‘arb mamlakatlari ta‘sirida ilgari surilayotgan yod bizning milliyligimizga aksariyat mos kelmaydigan g‘oyaviy qarashlar yetakchi o‘rin tutmoqda. Ushbu mafkuraviy ta‘sir-lar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun biz nima qilishimiz kerak?

Buning yo‘li – bugungi kunda o‘‘sib kelayotgan yosh avlodni imon e‘tiqodini mustahkamlash va irodasini baquvvat qilish, mafkuraviy g‘oyalar kurashi avj olayotgan davrda yosh avlodlarni ushbu yot g‘oyalar oqimidan saqlash va ongidagi bo‘shliqni vayronkor g‘oyalar to‘ldirmasdan o‘zining milliyli-gi bilan faxrlanish g‘ururi va ota-bobolarimiz muqaddas qadriyatlarini asrab avaylashlari va hurmat qilish fa-zilatlarini shakllantirishimiz kerak.

Bugungi kunda, fan va texnologiya ildamlab ketayotgan bir davda, talabalarda milliy iftixor tuyg‘u-sini rivojlangan va ongida sindirish ijtimoiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaral-moqda. Bu jarayon, shu bilan birgalikda, ijtimoiy hodisa sifatida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, buyuk ajdodlar tomonidan to‘plangan tajribalarni yosh avlodlar ongiga sindirish, insoniyat tomonidan ya-ratilgan bilimlarni egallash, inson salomatligi va rivojini ta‘minlash, dunyoqarashni tarkib toptirish va boshqalar. Allomalarimizning fikricha, tarbiyaning natijasi bu yaxshi komil inson bo‘lib kamol topishi unga yetishish esa bu qattiqqo‘llik, mas‘uliyatlilik orqali amalga oshirish eng ma‘qul yo‘l deb ta‘kidlaydi. Tarbiya jarayonining samarasi maqsadning aniq belgilanganligi, faoliyat asosida tashkil etilgan maqsad natijalanganligi va uning mazmunida aks etuvchi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi.

Keltirilgan fikirlarga tayangan holda shuni aytiz joizki, talabalarda milliy iftihor tuyg‘usini shakl-lantirish uzoq vaqt talab qiladigan tizimli izchil yondashuvli pedagogik faoliyatli jarayonidir. Ushbu ti-zimli jarayon orqali barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasida ijtimoiy maqsadni amalga oshirish har bir pedagogning eng muhim vazifalaridan biridir.

O‘‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy iftixor tuyg‘usining shakllantirishni uzliksiz ta‘limning quyi bosqichidan boshlashimiz lozimdir, zero, “Yoshlikda olingan bilim toshga chizilgan naqsh” kabidir.

Talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish ijtimoiy-psixologik jarayondir. Shu aytish joizki, yoshlarda ushbu tuyg‘uni shakllantirish, ularning Vatan oldidagi burchlarini anlashga va yurt obodligi, xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilishga da‘vat etadi. Shu bilan birgalikda, talabalarda o‘zi yashayotgan diyoringin tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo‘lishi yo‘lida kurashish, turli millat va elat-ga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro inoqlikning qaror topishiga o‘z ulushini qo‘shishga intilish ko‘nik-malarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o‘z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta‘minlaydi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zarurat shundan iboratki, tala-balarning axloqiy negizlarining buzulishiga olib keladigan xatti-harakatlardan, diniy ekstimizim va terro-rizm, fundamentalizm, separatizm, shafqatsizlik va zo‘ravonlik kabi g‘oyalardan himoyalaydi. Shu bilan birgalikda, talabalarni vatanparvarlik fuqorolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga milliy va umuminso-niy qadriyatlarni hurmat ruhida tarbiyalash, ularni yot g‘oya va turli oqimlarga qarshi tura oladigan, ha-yotga bo‘lgan qattiy ishonch qarashlarga ega qilib voyaga yetkazishda katta o‘rin egallaydi.

Ijtimoiylashuv esa shaxs shakllanganlik darajasining yuqori bosqichi hisoblanadi. J.Piajening ta‘ri-figa ko‘ra, ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy muhitga moslashuv jarayoni bo‘lib, u individning muayyan rivoj-lanish darajasiga erishib, boshqa insonlar bilan hamkorlik qilish layoqatiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonining mohiyatini o‘rganishda M.I.Rojkovning quyidagi mazmunni ifo-da etuvchi bu boradagi konsepsiyasi alohida ahamiyatga egadir, ijtimoiy tarkib topishda ijtimoiy ama-liyot, ya‘ni, individning ijtimoiy munosabatlarning turli sohalariga amaliy kirishishi muhim o‘rin tutadi.

Ushbu fikrlarga tayangan holda qayd etish lozimki, oliy ta‘lim muassasalari talabalarida milliy ifti-xor tuyg‘usini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoli-yat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maq-sadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

“Harakatlar strategiyasi”da O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha qator yangi muhim vazifalarni belgilab berdi. Shu jumladan, demokratik davlat qurishda yoshlarning faolligi va eng muhimi Vatanga muhabbat va uni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, istiqloq g‘oyalariga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash uning taqdirida ishtirok etish, fidoyilik, uni turli xil tahdidlardan himoya qilish vazifalari alohida ta‘kidlab o‘tilgan.

Ayniqsa, hozirgi kunda yoshlar tarbiyasida jamoatchilik roli kamayib ketayotgani barchamizga sir emas. Milliyligimizni saqlab qolish uchun eng katta xavf – bu yosh avlodlarimizni milliy iftixor tuyg‘usi

bilan faxrlanib yodga olishimiz kerak bo'lgan ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi, milliy va ma'naviy hayotimizda bo'shliq bo'lishiga sabab bo'lmoqda, desak, to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yetuk barkamol insonni tarbiyalashda talabalarga bir necha omillar ta'sir qiladi. Jumladan:

**1-jadval**

<b>Subyektiv omillar</b>	
Atrofdagi sog'lom muhitni shakllanganishi va shaxs ongida o'zligini anglashga ko'maklashuvchi g'oyalarning muhim o'rin egallaydi	Insoniy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilishi
Ajdodlarimizdan qolgan urf-odatlarimizni qayta tiklash, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi	Milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligiga erishish
Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda oilaning o'rni	Atrofdagi ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, vatanga muhabbat va demokratik g'oyalarning aks etish
Hozirgi zamon milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligiga erishish	Shaxs ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish
Yoshlar ishtirokida olib borilayotgan barcha tadbirlarda istak va xohishlarini inobatga olish, xohishiga qarama-qarshi bo'lgan majburlovlardan voz kechish	Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda ushbu tuyg'uga ega bo'lgan mustahkam e'tiqodli, hayotiy tajribaga ega, suxandon va o'zgaga ibrat bo'la oladigan pedagoglarga ehtiyojning yuzaga kelganligi
Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning hozirgi zamonga mos mukammal tizimi (zamonaviy, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi	Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish andozasining yaratilganligi va hokazolar

Ushbu omillar yosh avlodni milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o'ziga xos ahamiyatga ega. Binobarin, talabalar mikro va makromuhitda jamoaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga, munosabatlarning muhim tomonlariga jalb etilishi va unga ma'naviy qadriyatlar yuzasidan puxta bilim olish, ijodiy faollik va tashabbuskorlik ko'rsatish, ma'naviy rivojlanish uchun keng imkoniyat yaratiladi, uchinchidan, milliy g'urur asosida mustaqil hayotga tayyorlanadi, o'zining tajribasi va ma'naviy faoliyatini takomillashtiradi.<sup>1</sup>

Subyektiv omillar bilan bir qatorda, yosh avlodning ongini muhim ta'sir ko'rsatadigan omillar ham mavjud. Bular obyektiv omillardir, ular quyidagilar:

**2-jadval**

<b>Obyektiv omillar</b>	
Talabalar ruhiyatiga singdiruvchi milliy iftixor tuyg'usi aks etirilgan ma'naviy ma'rifiy ishlarning keng ko'lamda tashkil etilishi	Zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat milliy yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi
Milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi g'oyalarga boy etilgan singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi	

Vatanimizning bugungi kunda jahon ta'lim maydoniga chiqishda, yangi yuzaga kelayotgan ta'lim sharoitlari, demokratlashish jarayonlari, ijtimoiy dinamik o'zgarishlar ta'lim sohasini chetlab o'tmasligi aniq. Bu yerda yuqori darajadagi professional malaka talablari, jahon ta'lim standartlariga muvofiqligi asosida milliy madaniy yutuqlarimizni hisobga olgan holda, talabalarga ta'lim tarbiya jarayonlarini amalga oshirish eng maqbul yo'llardan biridir.

<sup>1</sup> D.K.Isbayeva. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning pedagogik asoslari. Buxora davlat universiteti, 2021.

Xasanova Xurshida (Navoiy viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD)  
**DUNYO MAMLAKATLARIDA MAKTABLARDA TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA  
STEAM TA'LIMIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada dunyo mamlakatlarida maktablarda ta'lim samaradorligini oshirishda STEAM o'qitish texnologiyasidan foydalanish, innovatsion texnologiyalar asosida turli yangi metodlar yaratish va ulardan darslarda foydalanish xususida mulohazalar yuritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается использование технологии обучения STEAM для повышения эффективности обучения в школах стран мира, создание различных новых методов на основе инновационных технологий и их использование на уроках.*

***Annotation.** This article discusses the use of STEAM learning technology to improve the effectiveness of teaching in schools around the world, the creation of various new methods based on innovative technologies and their use in the classroom.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion jarayon, tanqidiy fikrlash, metodika, maqsad, dars, o'qitish, natija, ta'lim, tarbiya.*

***Ключевые слова:** инновационный процесс, критическое мышление, методология, цель, урок, обучение, результат, образование, воспитание.*

***Key words:** innovation process, critical thinking, methodology, aim, lesson, teaching, results, education, training.*

Yer sayyorasida hayot kechirayotgan barcha jonzorlar orasida fikrlash qobiliyati, dunyoqarashini hayoti davomida yuzaga keladigan muammolarni hal qilib borishi natijasida kengaytiruvchi, o'z ehtiyojlari asosida doimiy o'qish va o'rganishga ishtiyoqi bilan inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, o'qitish va bilim olish jarayonining samarali bo'lishi juda muhimdir. Dars samaradorligi nafaqat o'qituvchining bilim darajasiga, balki bu bilimlarni qanday yo'l bilan o'quvchiga yetkaza olishiga ham bog'liqligini inobatga olib, jarayon uchun zarur bo'gan barcha ilmiy, didaktik va texnikaviy ta'minotning yetarlicha bo'lishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Kimyo darslarining sifat va samaradorligini oshirishda darslarda ilg'or pedagogik texnologiyaning qo'llanilishidagi ahamiyatli tomoni shundaki, u dars bosqichlarida jarayonning maqsadga muvofiq kechishini nazorat qilish imkoniyatini beradi, bilim berish usullari va yondashuvlarini tanlashda o'ziga xos izchillikka erishishda o'quvchilarning qiziqishlari va talablarining inobatga olinishida, berilayotgan bilimlar, usul va o'qitish vositalarining hamda bilim berish jarayonining protsessual va samarali bo'lishida ko'mak beradi. T.N.Ballo pedagogik texnologiyaga ta'rif berar ekan, uni o'qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondashuv sifatida ta'riflaydi, L.V.Zankov, T.Y.Galperin, V.I.Davidovlar bosqichli jarayon sifatida, G.K.Selevko hamda boshqa mualliflar esa mazmunli umumlashma sifatida baholaydilar. Mashhur pedagog Djon Dyuning quyidagi fikrlari zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilar faoliyati yo'nalishini belgilab bera oladi: "Agar biz o'quvchilarni xuddi kechagidek o'qitadigan bo'lsak, biz bolalardan ertangi kunini o'g'irlagan bo'lamiz".

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darslarning samaradorligi haqida xorijiy olimlardan kanadalik A. Forester va M.Reyngardlar "The Learner's Way" asarida dars jarayonining samaradorligi darsning boshidan oxirigacha sinfda qulay psixologik iqlim yarata olishda, har safar yangicha, kutilmagan va kayfiyatni yaxshilay oladigan metodlardan foydalanishda, deya ta'kidlaydilar. Bu yo'nalishda Djannet Voss, Meri Xillning fikrlari, ta'limda motivatsiyaning o'rnini I.Podlasiy o'z tadqiqotlarida o'rgangan.

Ta'lim jarayonida hozirda dunyo miqyosida eng dolzarb sanalgan STEAM texnologiyasi inson miyasining ikkala yarim sharlarini bir vaqtning o'zida ishlatishga imkon beradi. Nyu-York shtati universiteti fiziologiya fanlari bo'yicha professor Robert Rutburnshteyn 1990-yillarning boshlarida Lui Pasterdan Albert Eynshteyngacha bo'lgan turli asrlardagi yashab o'tgan 150 ta taniqli olimlarning tarjimai hollari bo'yicha tadqiqot olib bordi. U ularning chap va o'ng miya yarim sharlari qanday ishlashini o'rganib chiqdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ularning har biri ilmiy faoliyatdan tashqari, ijodkorlik bilan ham shug'ullangan, ularning har biri rassom, musiqachi yoki shoir, yozuvchi bo'lgan. Masalan, Albert Eynshteyn skripka chalishni juda yaxshi ko'rar edi, Galileo Galiley o'z davrining taniqli adabiyotshunosi, Samuel

Morse esa portret rassomi edi. Tadqiqotlari so'ngida Robert Rut-Bernshteyn ko'plab olimlar o'zlarining muvaffaqiyatlariga ijodiy fikrlash orqali erishdilar degan xulosaga keldi.<sup>1</sup>

Kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini yaxshilaydigan, nafaqat xotirada saqlash orqali, balki olingan bilimlarini tushunish, ulardan tanish, notanish vaziyatlarda va kundalik turmushda foydalana olish, turli fanlardan olgan bilimlari asosida mushohada yuritish orqali turli topshiriqlar, muammolarning eng maqbul yechimlarini topishga, tengdoshlari bilan muloqot yuritish, guruh bo'lib ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan STEAM ta'limidan foydalanish yaxshi samara beradi. STEAM ta'limiy usuli o'tiladigan darslarni funksional va tarkibiy bog'liqligining mantiqiy izchilligini ta'minlashda muhim sanaladi. STEAM ta'limi bu dars jarayonini qo'rqitish, qat'iy nazorat va majburiylik asosida emas, balki P.Y.Galpirin tomonidan ishlab chiqilgan "Ijodiy topshiriqlar konsepsiyasi", L.S.Vigotskiyning "Yaqin kelajak rivojlanish zonasi"ga to'la mos holda, kreativ topshiriqlar, amaliy mashg'ulotlar va loyihalar yordamida qiziqarli tarzda amalga oshirishga yordam beradi.

Xorijiy davlatlarda kimyo fanidan darsliklar va o'quv dasturlari o'rganilganda, ularda ta'lim jarayoni nazariya, amaliyot hamda hayot kabi uchta konstruktiv va individual yo'nalishlar asosida tashkil qilinishi aniqlandi. Jahonning bir qator taraqqiy etgan mamlakatlari, jumladan, AQSH, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Koreya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Yaponiyada barcha tabiiy fanlar qatorida kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan mukammallashtirishga yo'naltirilgan ishlarda o'z aksini topmoqda.

AQSHda 2009-yilda "STEM ta'limini muvofiqlashtirish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, "Milliy fan va texnologiya kengashi" STEM ta'limini qo'llab-quvvatlash sohasidagi federal dasturlar va tadbirlarini, shu jumladan, Energetika departamenti dasturlari, NASA STEM dasturlari, Milliy ma'muriyatning tadqiqot dasturlarini qabul qiladi. STEM ta'limi sohasidagi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, amalga oshirish va har 5 yilda yangilash kabi tadbirlar samaradorligini, shuningdek, ushbu reja va maqsadlarni amalga oshirish natijasida erishiladigan yutuqlarni baholashga ko'mak beruvchi agentliklar, Qo'shma Shtatlarda STEM ta'limi koalitsiyasi kabi STEM bilan bog'liq faoliyatni muvofiqlashtiruvchi nodavlat tashkilotlar ham mavjud. Bu uyushmalar mingdan ortiq tashkilotlarni o'z ichiga oladi, bu kichik subbirlar o'z oldiga ta'limning barcha bosqichlarida sifatli STEM ta'limini taqdim etish vazifasini qo'yadi.

Britaniyada bolalarning STEM fanlariga bo'lgan munosabati boshlang'ich maktabda shakllanadi, shuning uchun aynan boshlang'ich maktabda bolalarning qiziqishini rivojlantirish va kelajakda STEM fanlarini o'rganishga zamin yaratish zarurati tug'iladi.

So'nggi o'n yilliklarda jahon bozorida kreativ industriyada yillik daromad anchayin ortganligi kuzatilmoqda. Shimoliy Amerika bozorida kreativ industriya daromadi jami daromadning 28%ini tashkil qiladi, mehnat bozorida 16% ish bilan ta'minlanganlikni tashkil qiladi, so'nggi yillarda AQSH mehnat byurosi statistik tahlillariga asosan, AQSPda 2029-yilgacha STEM va STEAM bilan bog'liq kasblarning 8% ga ortishi bashorat qilinmoqda, holbuki, STEAM bilan bog'liq bo'lmagan kasblar esa 3,4%ga ortishi aytilgan. Eng ko'p STEAM ta'limi ko'plab oliy ta'lim muassasalarining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Oregon universitetida 169 ta STEAM mutaxassisligi, Djordj Meyson universitetida 82 ta STEAM yo'nalishi, Kolorado universitetida 50 ta STEAM yo'nalishi, Sent-Luis universitetida 47 ta STEAM yo'nalishi, Vashington shtati universitetida 41 ta STEAM yo'nalishlari mavjud.<sup>2</sup>

Xitoy maktablarida o'quvchilarning ota-onalari AQSH maktablari o'quvchilarining ota-onalaridan farqli o'laroq, STEAM ta'limida Artsning ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Xitoyda STEAM ta'limining 9% matematika va kompyuter texnologiyalariga asoslanadi, AQSHda esa bu ko'rsatkich 52%ni tashkil qiladi.

Finlyandiya ta'limi bugunda boshqa aksariyat davlatlar orasida quyidagi jihatlari bilan anchayin yuqori ta'limiy yutuqlarga erishmoqda:

1. Asosiy e'tibor ta'lim sifatiga qaratilgan.
2. Ta'limda samaradorlik hamda tenglik asosiy mezonlardan biri sanaladi.

<sup>1</sup> Sara L., Hartman, Danielle Dani. Full STEAM Ahead. Creating Interdisciplinary Informal Learning Opportunities for Early Childhood Teacher Candidates. Journal of STEM Teacher Education. 2019, Vol. 54, № 1, p. 37–57

<sup>2</sup> Ревякина О.А. Интуитивная арт-терапия как средство реализации творческих потребностей и возможностей дошкольников в условиях STEAM-центра. Сборник материалов Ежегодной международной научно-практической конференции «Воспитание и обучение детей младшего возраста». 2020, с. 424 – 425.

3. Muayyan qolipdan chiqish, nisbiy erkinlik, bola ehtiyojlari va qiziqishlarining ahamiyatini yuqori o'rinlarga qo'yish.

4. Asosiy e'tiborni kreativlik va kompetensiyaviy yondashuvga qaratish.

Bu holatlar ilm-fan sohasida xalqaro darajalarda ustuvor pozitsiyani saqlab qolish, natijada ta'limda uzoq vaqt raqobatbardoshligini saqlab kelishiga sabab bo'lmoqda. Ta'limning o'sishi bevosita iqtisodiy taraqqiyotga, bu esa, o'z navbatida, keyingi yillarda xalqning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini ta'minlashning eng yaxshi yo'nalish bo'lib qolaveradi. Finlyandiya ta'lim va fan siyosatining asosiy tamoyillari Yevropa Ittifoqining Lissabon strategiyasiga mos keladi.

Finlyandiya Konstitutsiyasida har kim ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirish eng muhim bo'limlardan biri sanalib, parlament ta'lim va ilm-fanni tartibga soluvchi va qo'llab-quvvatlovchi asosiy tamoyillarni belgilasa, hukumat va Xalq ta'limi vazirligi, uning bir qismi sifatida, ta'lim va fan siyosatini tayyorlash va amalga oshirish uchun mas'uldir. Finlyandiya ta'limning yuqori va o'rta bo'g'inlarining asosiy maqsadi har tomonlama sifatli ta'lim berish, keyingi loyihalar va tadqiqotlar uchun poydevor yaratishdir. Rivojlanishda hozirgi zamon diqqat markazida mazmuni yangilashga qaratilgan. Finlandiya maktablarida turli fanlar yuzasidan muvaffaqiyatga erishishning asosiy sabablaridan biri ular asosiy e'tiborda dars beradigan o'qituvchilarning pedagogik salohiyatiga qaratadilar. Pedagogika yo'nalishiga eng qiyin qabul joriy qilingan bo'lib, hujjat topshirganlarning bor-yo'g'i 10 foizigina sinovdan o'ta oladi. Ya'ni, umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars berish uchun tanlov anchayin qattiqqo'llik bilan tashkil qilinadi, bunda har kim taxminan, yoki shunchaki qiziqqanidan kirib ketaveradigan yo'nalish emas. Malakali, o'z-o'zini rivojlantirish uchun uzluksiz ravishda mehnat qiladigan pedagog kreativ, izlanuvchan o'quvchini tarbiyalaydi.<sup>1</sup>

Finlyandiya ta'limida zamonaviy STEAM ta'limining asosiy mezonlari quyidagilarni tashkil qiladi:

1. O'quvchining qilayotgan mehnati va erishgan natijalarini e'tirof etish. Tegishli ijobiy faoliyati uchun rag'bat olgan o'quvchi yanada yuqori natijalarga erishishni xohlab, intiladi, biroq mas'uliyatsiz yondashuv uchun albatta, tegishli ogohlantirish ham berib turilishiga e'tibor qaratish kerak. Bu oddiy maqtov so'z yoki qandaydir mukofot bo'lishi mumkin. Lekin, maqtov eshitish yoki mukofot olish o'quvchining maqsadiga aylanib qolmasligi lozim.

2. O'qishning ahamiyati va o'quvchilarning asl maqsadlarini eslatib turish. Har bir darsning, har bir kunning maqsadi va shiori bo'lishi kerak, bu shior har bir bola uchun individual bo'lmog'i va kun yakunida hisobot qilinishi lozim. Bunda hisobot kim uchundir o'zini oqlash maqsadida emas, balki shaxsan o'zi uchun qilinishi lozim. Ilm olish majburiyat emas, shaxsiy tanlov ekanligini uqtirish.

3. Bir xillikdan qochish. Vaqti-vaqti bilan o'quvchilarga bilim berish maqsadida va ularning bilimlarini baholash maqsadida beriladigan topshiriqlarning shaklini o'zgartirib turish mumkin, yoki hatto ba'zida darsga boshqa o'qituvchini, mashhur shaxslarni, ota-onalarni taklif qilib turishi ham mumkin. Bunda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi.

4. Real hayot bilan bog'lash. Darslardagi misollar, topshiriqlar o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan insonlar, hodisalar atrofida jamlansa, o'quvchilarga qiziqroq bo'lishi mumkin.<sup>2</sup>

5. O'qituvchining dars jarayonida kayfiyati doimo yaxshi bo'lishi, ishtiyoqi baland bo'lishi, dars jarayonida sinfda qulay psixologik iqlim yarata olishi juda muhimdir. Ruhiiy horg'in inson boshqalarda motivatsiya uyg'otishi qiyin. Motivatsiya samarali dars garovidir.

OECD PISA so'rovnomalari ko'ra, Finlyandiya STEAM ta'limi asosida o'qitilishi borasida matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi bo'yicha OECD mamlakatlarida eng yaxshilar qatorida turadi. Ushbu muvaffaqiyat samarali va ochiq davlat sektori va teng huquqli, yuqori sifatli ta'lim va tadqiqot tizimiga bog'liq ekanligi ko'plab xalqaro ekspertlar tomonidan tasdiqlanmoqda.

Rossiyada bu tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'limidan foydalanish 2010-yillardan qo'llab-quvvatlangan boshlandi. 2012-yili Rossiya Federatsiyasi prezidenti mahalliy va xorijiy yuqori texnologiyali kompaniyalar negizida ilk STEAM markazlarini yaratdi. Rossiya ta'lim jarayonining bir qismiga aylanib borayotgan STEAM ta'limi haqida soha mutaxassislari turlicha fikr va xulosalarni beradilar. Ularning fikricha bu yo'nalish foydali, mustaqil fikrni, dunyoqarashni rivojlantiradigan yo'nalish bo'lib, biroq ba'zi to'siqlar uning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. G.A.Psaxye nomidagi Tomskiy akademik litseyi direktori Yelena Pochinok STEAM ta'limining maktablarda keng targ'ib etilmasligi va bolalarga amaliyot ja-

<sup>1</sup> Martin Braund. a new steam age: towards one culture for learning science. The Eurasia Proceedings of Educational & Social Sciences (EPESS), 2015 Volume 2, p. 13–17.

<sup>2</sup> Учебные и методические материалы для учителя химии. <http://school-collection.edu.ru/catalog/teacher>

rayonida yetarlicha qo'llanilmasligiga sabab STEAM yo'nalishida dars o'tadigan malakali mutaxassislar-ning yetarli emasligi, yetarli darajada mukammal salohiyatli mutaxassisni esa maktabda beriladigan maosh qanoatlantirmasligini ta'kidlab o'tdi. Tomskiy 6-gimnaziyasining direktori Yelena Sorokina esa STEAM yo'nalishidagi amaliy mashg'ulotlar uchun ko'rgazmali qurollar, axborot-kommunikatsiya vositalari, multimedia qurilmalari ta'minoti uchun anchagina qo'shimcha mablag' zarurligi STEAM ta'limi tarrg'ibotini sekinlashtirishi mumkinligini ta'kidladi. "Robotlar ligasi" qo'shimcha mashg'ulotlar kompleksi muallifi Nikolay Pak esa STEAM yo'nalishidagi texnologik vositalardan foydalanish, loyihalar tayyorlash, bajarish, namoyish qilish, muhokama qilish uchun 45 minutli vaqt yetarli emasligini ta'kidlab o'tdi. 2015-yil natijalariga ko'ra, ta'lim va iqtisodiyotning real sektorida Rossiya turli ko'rsatkichlar bo'yicha 26–23-o'rinlarni egalladi. Rossiyada ilmiy va muhandislik ehtiyojlari orasida STEAM ta'limiga mo'ljallangan maktab tizimi sohadagi barcha savollarga tezda javob berish uchun yetarlidir.

STEAM XXI asrning innovatsion texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim tizimi sifatida, an'anaviy maktab ta'lim modelidan tubdan farq qiladigan va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishga asoslangan interpretatsiyasi jihatidan yangi yondashuvdir.<sup>1</sup> Darslar mobaynida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni real hayot bilan bog'lashdan tashqari, bu yondashuv o'quvchilarning ijodkorligi uchun ham imkoniyat yaratadi, amaliy faoliyatga e'tibor natijasida bolalarda turli qobiliyatlar, jumladan iroda, ijodkorlik, moslashuvchanlik rivojlanadi va ular osonlik bilan muloqotga kirishishni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadilar.

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarda STEAM o'qitish usulidan foydalanishning ilmiy asoslari tahlil qilindi va natijada ushbu ta'limiy usulning quyidagi afzallik jihatlarini ta'kidlash mumkin:

1. An'anaviy maktab ta'limining asosiy maqsadi bilim berish va olingan bilimlarni ijodiy jarayonda qo'llashdir. Bunda, asosan, muayyan o'quv dasturi asosida nazariy bilimlar beriladi, bolaning xotirasi yaxshi bo'lsa, bemalol topshiriqlarni bajara oladi. STEAM ta'limining asosiy maqsadi esa olingan bilimlarni hayotiy va real ko'nikmalar bilan birlashtirish orqali o'qitishdan iborat. O'quvchilarning g'oyalari nafaqat miyada idrok etadi, balki ularni amaliyotda va real hayotda ham tatbiq eta oladi. Aynan mustaqil amaliy faoliyat bilan mustahkamlangan bilimlarga uzoq vaqt xotirada qoladi.

2. Zamonaviy dunyoda o'quvchilar XXI asr ko'nikmalari deb ataladigan bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Ushbu konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, agar sanoat davrida yozish, o'qish va arifmetika jamiyatning savodxonlik darajasini aks ettiruvchi asosiy tushunchalar hisoblangan bo'lsa, hozirda esa inson tanqidiy fikrlay olishi, kundalik hayotga va biznesga kreativ yondashishi kerak. XXI asr o'quvchilarga qo'yadigan talabi: ijodkorlik, hamkorlik, aloqa, tanqidiy fikrlash. Biroq, ushbu ko'nikmalarni laboratoriya sharoitida yoki matematik algoritmlardan foydalanib olish mumkin emas. Bunday holatda mutaxassislarga STEAM texnologiyasi asosida olingan bilim va ko'nikmalar qo'l keladi.

3. STEAM ta'limida matematik savodxonlikning ahamiyati nihoyatda kattadir. Chunki, xuddi san'at kabi insonning atrofida uchraydi. Turli tabiiy fanlarni o'qitishda matematik savodxonlikdan foydalanish, bolaning olamni anglash qobiliyatini yaxshilaydi. Bola uchun nimalarnidir bajarish shart emas. U turli topshiriqlarni mustaqil bajarishni o'rganishi kerak. Bola o'z faollikka bo'lgan ehtiyoji tufayli olamni anglash jarayoni osonlashadi. Bu yerda o'qituvchining boshqaruvchi va o'rgatuvchilik faoliyati yordamchi va maslahatchilik faoliyatiga o'zgaradi.

**Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich (O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini mudiri, p.f.b. (PhD); email: [fazliddin.yaqubov.89@mail.ru](mailto:fazliddin.yaqubov.89@mail.ru))**  
**JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING TAFAKKURINI**  
**RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

***Annotasiya.** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning tafakkur xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, tahlil natijalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish uslubiyati yoritib berilgan.*

***Annotasiya.** В данной статье анализируются особенности мышления специалистов физической культуры и спорта с научно-теоретической точки зрения, и по результатам анализа разъясняется метод повышения их профессиональной компетентности.*

<sup>1</sup> P.Black and D.Wiliam, Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education, 5 (1998a), p. 7–74.



**Annotation.** *This article analyzes the thinking characteristics of physical education and sports experts from a scientific-theoretical point of view and based on the results of the analysis, the method of improving their professional competence is explained.*

**Kalit soʻzlar:** *tafakkur, tafakkur tarzi, sport, jismoniy tarbiya, malakali kadrlar, trener-oʻqituvchilar, taktik fikrlash qobiliyati, analitik tafakkur.*

**Ключевые слова:** *мышление, образ мышления, спорт, физическая культура, квалифицированные кадры, тренеры-преподаватели, способность к тактическому мышлению, аналитическое мышление.*

**Key words:** *thinking, way of thinking, sports, physical education, qualified personnel, trainers, tactical thinking skills, analytical thinking.*

Bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlari, amaliy koʻnikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning muhim jihati shundaki, sport mutaxassislarini tayyorlash hamda aholi orasida ommaviy sportni rivojlantirishda turli sohalar hamkorligiga eʼtibor qaratilmoqda. Natijada bir tomondan, iqtisodiy yuksalish ortmoqda, ikkinchi tarfdan, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari dunyoqarashida moddiy manfaatdorlikning asosiy motivga aylanishi, jismoniy kuchni dominant sifatida bilish kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkurini kompleks rivojlantirish bilan bogʻliq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi. Bu borada mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishda ushbu soha mutaxassislarining oʻquv jarayonlarini takomillashtirish, mashgʻulot yuklamalarini optimallashtirish, jismoniy sifatlarini oshirish masalalari tadqiq etilmoqda. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq, kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-oʻqituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda”.<sup>1</sup>

Mazkur islohotlarda har tomonlama keng dunyoqarashga ega, tafakkur tarzi rivojlangan, nazariy bilimlarini amaliyotda qoʻllay oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Bunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining taktik fikrlash qobiliyatini tezkorlik jismoniy sifatiga moslashtirish, amaliy mashgʻulot va musobaqa jarayonida taktik harakat usullarini rasional oʻzgartirish malakasini oshirishga qaratilgan uslubni ishlab chiqish, kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan uslublardan foydalanishga doir tadqiqot ishlari muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mavjud boʻlgan yoʻnalish vakillarida oʻziga xos tafakkur xususiyatlari namoyon boʻladi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarining tafakkur tarzi, uning xususiyatlari ham bundan mustasno emas. Maʼlumki, inson tomonidan bajariladigan har qanday faoliyat bu tafakkurning mahsulidir. Inson kundalik faoliyatida bajarib kelingan turli jismoniy mashqlar takomillashishi natijasida uning tafakkur tarzi ham rivojlanib boradi. Bu jarayonda aqliy va jismoniy sifatlar bir-birini toʻldiradi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari bu “tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shugʻullanadigan, doimo oʻzining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs”dir.<sup>2</sup> Bu mutaxassislarining tafakkur tarzini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va yechim sifatida ularga yangicha zamonaviy yondashuvlarni taklif qilish hamda shu asosda ushbu mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirish usullarini yanada takomillashtirish dolzarb masaladir.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida jismoniy sifatlar va tafakkur rivojlanishining aloqadorligini, jismoniy tarbiyaning oʻziga xos xususiyatlari, uning mazmuni va jarayonli asoslaridan kelib chiqib asoslanadi. Yaʼni, “aqliy va jismoniy tarbiya oʻrtasida ikki tomonlama munosabatlar mavjud. Bir tomondan, jismoniy tarbiya tafakkur rivoji uchun yaxshi sharoit yaratadi va uning rivojlanishiga yordam beradi, boshqa tomondan, tafakkur rivoji jismoniy tarbiya samaradorligini oshirib, sportchilarning hal qilinayotgan vazifalar mohiyatini tushunishlari va ularning yechimini ijodiy izlashlari uchun imkoniyatni shakl-

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 3 ноябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4877-сонли қарори.lex.uz.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 4 сентябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги (янги таҳрири) қонуни.Lex.uz

lantiradi”<sup>1</sup>. Demak, tafakkur tarzi – aqliy va jismoniy rivojlanish natijasida takomillashib, faoliyatni tashkil qiladi.

Jismoniy tarbiya va tafakkur faoliyatini takomillashtirishni jismoniy tarbiyaning muhim elementi deb hisoblash mumkin.<sup>2</sup> Bizningcha, jismoniy tarbiya inson tafakkur tarzining amaliyligini ta’minlaydi. Boshqacha aytganda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining amaliy harakatlarini asosi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda ularning aqliy tayyorgarligi muhim rol o’ynaydi. Chunki sport faoliyatining mohiyatini, bevosita u bilan bog’liq hodisa va jarayonlarni tafakkur rivojisiz tushunib qiyin. Oqibatda esa yuqori sport natijalariga erishish mumkin emas. Sport mutaxassislarining tafakkurini mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyat deb tushuntiradi. Bu yerda shuni anglaymizki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o’tkazib, hosil qilingan jismoniy faoliyat sport mutaxassisining haqiqiy tafakkur tarzini tashkil etadi.

Bugungi kunda sportchining ham jismoniy, ham aqlan rivojlanishida texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorlangan bo’lishni talab qiladi<sup>3</sup>. Bunda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari o’zlarining sport faoliyatlarini texnik, taktik, aqliy qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qiladi. Bu xususiyatlar, o’z navbatida, ularning tafakkurining qanday shakllanganligini aks ettiradi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkuri egallangan bilimlarni amaliyotda sinashda ham namoyon bo’ladi. Olingan bilimlarni amaliyotda sinash jarayonida sport mutaxassislarida o’ziga xos individuallik xususiyatlari ham namoyon bo’ladi. Mana shu jihat ham ularning tafakkurini aks ettiradi. Ya’ni, har bir jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi o’zining uslubiga ega. Bu bir qancha tafakkur uslublarining jamlanmasidan iborat bo’lgan amaliy yondashuv yoki tafakkur tarzi demakdir.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanuvchilar jismoniy mashqlarni ongli ravishda tushunib bajarsalar yoki ular sport mashg’ulotlariga qiziqib, tashabbus ko’rsatib ijodiy yondashsalar, organizmda harakat malakalarini to’g’ri shakllanishi, funksional qobiliyatlarining rivojlanishi uchun umumiy maxsus bilimlarga tayanishlari lozim bo’ladi.<sup>4</sup> Xususan, bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda, texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanish sport kurashi taktikasi hisoblanadi. Ya’ni, sportchining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini amalda kompleks qo’llashga e’tibor qaratilgan bo’lib, bunda sport mutaxassisining tafakkurini qanday bo’lishi kerakligini anglaymiz.

Barchamizga ma’lumki, inson harakatining majmuyi bosh miya orqali fikr qilinadi. Sport mashg’ulotlarida bajariladigan eng oddiy harakatlardan boshlab, to’g’ri murakkab mashqlargacha bajariladigan faoliyatlarni har bir sportchi ongli ravishda his qiladi, ya’ni barcha harakatlarni ongida, tafakkurida avval bajaradi. Bevosita mashg’ulotlar yoki musobaqalarda o’rgangan va o’zlashtirgan barcha mashqlar majmuyini takrorlaydi. Demak, mashg’ulotlardagi barcha harakatlar, faoliyatlarni nazariy jihatdan bilish, tushunish sportchilar uchun eng zarur jarayon hisoblanadi. Bu ushbu mutaxassislarning tafakkurida muhim o’rin egallaydi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining tafakkurida barcha sport turlarida muhim bo’lgan, shu bilan birga, sportdagi ixtisoslashuvining o’ziga xos jihatlariga qarab turli darajada namoyon bo’ladigan kasbiy kompetentligining ayrim komponentlari mavjud. Bular:

- sport mashg’ulotlari paytida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qonunlarini bilish;
- mashg’ulotlar jarayonida kuzatishlar va tegishli harakatlarni amalga oshirish natijasida olingan maxsus bilimlarni tezkor qayta ishlash;
- musobaqa paytida turli axborotlarni eslab qolish, yodda saqlash va kerakli holatda ishlata olish;
- qiyin vaziyatlarda tafakkur jarayonlari oqimining tezligi va moslashuvchanligi, tafakkurning mustaqilligi, aqlning kengligi hamda chuqurligi, fikrning izchilligiga tayanib, faoliyatni tashkil etish;
- kutilayotgan hodisalarni oldindan sezish bilan harakat qilish va tezkor qaror qabul qilish.

Shuningdek, bo’lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkurining mazmunini yanada yaxshiroq tushunishda “mo’ljal”ga murojaat qilishimiz kerak. “Mo’ljal” o’ziga xos psixofiziologik holat bo’lib, u jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining muayyan vaziyatdagi ma’lum ehtiyojni qondirishga

<sup>1</sup> Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений, М., издательский центр «Академия», 2000, 27 с.

<sup>2</sup> Железняк Ю.Д. Теория и методика обучения предмету «Физическая культура». Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений, М., издательский центр «Академия», 2004, 69 с.

<sup>3</sup> Саломов Р.С. Спорт машфулотининг назарий асослари. Ўқув қўлланма, Т., ЎзДЖТИ, 2005, 35-бет.

<sup>4</sup> Абдуллаев А., Ханкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Т., ЎзДЖТИ, Дарслик, 2005, 22-бет.

qaratilgan faoliyatni bajarishga tayyorligini ifodalaydi. Demak, jo'ljal – ma'lum vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligi va uning natijasida qondiriladigan ehtiyoj uchun sport mutaxassisining start holati. "Mo'ljal" faoliyat tarzidan oldin keladi va uning dastlabki bosqichi bo'lgan harakatga turtki beradi. Shuningdek, mo'ljal o'z ichiga maqsadni oladi. Aslida, har bir inson o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yishi va unga boradigan rejalarni yaratishi muhim jarayondir. Maqsad individual va ijtimoiy ko'rinish kasb etadi. G'alabaga erishish, ma'lum rekordni yangilash, moddiy mablag'ni qo'lga kiritish kabilar jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining individual maqsadini tashkil qiladi. Ijtimoiy maqsadi esa o'z jamoasini birinchilikka olib chiqish, mamlakati bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish hisoblanadi. Demak, maqsaddan kelib chiqqan holda belgilangan mo'ljal jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi tafakkurining ichki aspektini tashkil qiladi. Zero, yuzaga kelgan jismoniy faoliyat zamirida o'ziga xos bo'lgan fikrlash tarzi hamda tafakkur uslublarning majmui mujassam. Shu o'rnida tafakkurining amaliyligini ta'minlashda tafakkur uslubi va uning mazmunini bilishimiz lozim. Tafakkur uslubi – bu fikrlash jarayonidagi o'ziga xos yo'nalish. Ya'ni, muayyan muammoni hal qilish uchun fikr yuritish, oldingi xulosalar bilan qiyoslash va yangi bir qarorga kelish jarayoni.

Xulosa qilib aytganda:

– jismoniy tarbiya tafakkur rivoji uchun sharoit yaratadi va uning rivojlanishga yordam beradi, boshqa tomondan, tafakkur rivoji jismoniy tarbiya samaradorligini oshirib, bo'lajak sportchilarning hal qilinayotgan vazifalar mohiyatini tushunishlari hamda ularning yechimini ijodiy izlashlari uchun imkoniyatni shakllantiradi;

– sport mutaxassislarining tafakkuri mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyatdir. Bu shuni anglatadiki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o'tkazib hosil qilingan jismoniy faoliyat sport mutaxassisining haqiqiy tafakkurini tashkil etadi;

– jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkuri sport faoliyatida egallagan bilimlarini amaliyotda sinashida namoyon bo'ladi. Bunda sport mutaxassislarida o'ziga xos individual tafakkur uslublari shakllanib, tafakkuri rivojlanib boradi;

– jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining egallagan bilimi mustahkamlanib, ko'nikmaga aylanishi va malaka darajasiga chiqib borishi bilan uning tafakkuri ham o'sib, rivojlanib boradi.

**Yadgarov Baxodir Oumatovich (UrDU dotsenti),**

**Suvanov O'limasbek Jabbar o'g'li (UrDU 2-kurs magistranti)**

## **YILLIK TAYYORGARLIK QISMIDA 400 METR MASOFAGA YUGURUVCHILARNING FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Annatsiya.** Ushbu maqolada 400 m masofaga yuguruvchi sportchilarni tezkorligini tarbiyalash masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda tayyorgarlikning maqsad vazifalari yuklamalarni mikrosikllarda qo'llash tartibi, sportchilarni jismoniy rivojlanganlik darajasi, tayyorgarlik va funksional holati bo'yicha mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash hamda mashg'ulotlarni tashkil etishning dolzarb muammolarini ochib berishga qaratilgan.

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблеме тренировки спринтеров на 400 м, при которой целями тренировки являются порядок приложения нагрузок в микроциклах, распределение тренировочных нагрузок по уровню физического развития, подготовленности и функционального состояния спортсменов, а также организации тренировок.

**Annotation.** This article is dedicated to the issue of training the speed of athletes running 400 m, in which the goals of training are the order of applying loads in microcycles, the distribution of training loads according to the level of physical development, preparation and functional status of athletes, and the organization of training, aimed at revealing current problems.

**Kalit so'zlar:** mashg'ulot yuklamalari, jismoniy tayyorgarlikning o'sishi, yuklama hajmi, jismoniy rivojlanish, rejalashtirish, funksional tadqiqotlar, tezkorlik, saralash, mashg'ulotlarni tashkil etish, vositalar va metodlar.

**Ключевые слова:** тренировочные нагрузки, прирост физической подготовленности, объём частицы, физическое развитие, быстрота, отбор, организация занятий, методы и средства.

**Key words:** training particle, growth of physical training, particle size, physical developing, planning, functional researches, quickness, selection, organizing trainings, methods and means.

Dunyo miqyosida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish, insonning jismonan sog'lom, aq-lan yetuk, kuchli, irodali, matonatli bo'lib tarbiyalanishida sport turlarining o'rni oshib bormoqda. Shu

o'rinda, yengil atletika sport turlari dunyo miqyosida keng ommaviylashib borayotgan sport turlaridan biri hisoblanmoqda. Ayniqsa, insonlar yengil atletika turlari bilan doimiy ravishda shug'ullanib, uning texnikasini yuksak darajada egallash orqali yuqori sport natijalarini qo'lga kiritayotganligi alohida e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Ta'kidlash joizki, dunyoda yengil atletikaning qisqa masofaga yuguruvchini rivojlantirishida iqtidorli bolalarni jalb etish, ularning sport mahoratini oshirish, ular bilan o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish sohada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda jahon olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda yengil atletikaning qisqa masofaga yugurish turida natijalarning jadal o'sishi mazkur sohada zamon talablariga javob beradigan iqtidorli sportchilarni izlab topish barobarida o'quv-mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida qisqa masofaga yugurish ustivor sport turlaridan biri bo'lib, oxirgi nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari tomonidan ko'rsatilayotgan natijalar ushbu sport turining rivojlanish tendensiyasini belgilab bermoqda. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq, kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilmfanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh murabbiy-o'qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda".<sup>1</sup>

Yengil atletika sport turlarida natijalarning kundan kunga o'sib borish mashqlar jarayoni takomillashgan samarador usulini yaratishni taqozo etadi. Biz mashg'ulot jarayonini o'rganishda va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etishda, mashg'ulotlar tuzilishi, hajmi, bajarilish sur'ati va me'yorlarini shug'ullanuvchilar yoshiga, jinsiga mos ravishda ishlab chiqishga e'tibor qaratdik.

Ushbu holatlarni inobatga olib, Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida qisqa masofaga yuguruvchi tarbiyalanuvchilari misolida jismoniy tayyorgarligi va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yillik mashg'ulotlarda sportchilar tayyorlash tizimida funksional tayyorgarligini tarbiyalash hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Tadqiqotning maqsadi yillik tayyorgarlik siklida 400 m masofaga yuguruvchilarning funksional tayyorgarligini yaxshilash orqali sport natijalarni oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: oldimizga qo'ygan maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni hal etdik. Mavzuga oid barcha ishchi hujjatlar, Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi faoliyatida 400 m masofaga yuguruvchilar mashg'ulotlarini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha dasturlarni ilmiy-uslubiy tahlil etish va umumlashtirish. Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi faoliyatida 400 m masofaga yuguruvchi tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarligi va funksional holatini aniqlash. Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi 400 m masofaga yuguruvchilarini yillik tayyorgarlik sikllarida samarali tayyorlashning asoslangan dasturini ilmiy jihatdan ishlab chiqish va amaliyotda samaradorligini aniqlash.

Pedagogik tajriba 2022-yilning avgust oyida ishlab chiqilgan dastur asosida sentabr oyidan dekabr oyigacha Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o'rta masofaga yuguruvchi sportchilardan ularni jismoniy rivojlanganligi, tayyorgarlik holati, funksional tayyorgarligi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Pedagogik tajribada tajriba guruhi sinaluvchi sportchilariga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mashg'ulot uslubiyatidan foydalandik. Nazorat guruhi sinaluvchilariga amaldagi dastur asosida mashg'ulotlarda ishtirok etishdi.

O'rta masofalarga yugurish mashg'ulotlariga bag'ishlangan masalalari XX asrning 80–90-yillarida adabiyotlarda o'z aksini topa boshladi. Mamlakatimizda paydo bo'lgan dastlabki ishlar o'rta masofalarga yuguruvchilarning mashg'ulotlarini rejalashtirish va takomillashtirishga bag'ishlangan. Ularning fikricha, yuguruvchilar tayyorgarlikning yo'nalishi sust shiddatli yugurish – yurish, sekin bu me'yorda hamda kross yugurishi kabi vositalardan, kesmalardan, 300 m.dan 1200 m.gacha masofani bir marotaba musobaqa tezligida yuqori tezlikda yugurib o'tishni bajariladigan vositalar bilan amalga oshirildi. Mashg'ulotlarning asosiy vositalari sust tezlikda yugurish, lo'killab yugurish, tez yugurish, tez yugurib o'tishlar hisob-

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 3 ноябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4877-сонли қарори.lex.uz.

lanadi.<sup>1</sup> Musobaqalarga tayyorgarlik jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi: 1-umumiy, 2-dastlabki, 3-maxsus tayyorgarliklardan iborat bo'ladi.

Mashg'ulot yuklamalari kichik hajmi 3–10 kunni tashkil etadi. Kesmalarda yugurish hajmi 2–3 km. dan iborat bo'lib, u kesmalarni maksimal tezlik bilan, uzun kesmalarni o'rtacha sur'atda yugurib o'tishga asoslangan bo'lishi kerak. Mashg'ulot tarkibiga qisqa masofa bo'laklarini tez yugurib o'tish va startlarni kiritgan. Bu davrda mashg'ulot vositasi sifatida 3–5 km.ga yugurish (haftasiga 2–3 marotaba) ommalasha boshladi. XX asr o'rtalarida o'rta masofaga yugurish mashg'ulotlarida tayyorgarlikning shvedcha tizimida olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Unda muayyan darajada chidamlilik va tezlikni rivojlantirish uyg'unlashtirilgan edi. Haftalik ish hajmi 70 km.gacha ortdi, chidamlilikni rivojlantirishga uzoq muddatli 600, 1000, 2000 m.li kesmalarni uncha katta bo'lmagan tezlik bilan qayta takroriy yugurib o'tishni qo'llagan holda amalga oshirildi. Bunda tezlik sifatlarini yugurib o'tish vositalariga katta ahamiyat berilgan.<sup>2,3</sup>

Mashg'ulot qisqa masofali bo'laklarni seriyali ishlar asosida bajariladi. U seriyadagi tez sur'atligi yugurish hajmi 1000, 1200 m.gacha yetkaziladi. Bunday mashg'ulot yuklamani kislorod qarzini to'lagan holda bajarish qobiliyatini rivojlantirishgi qaratiladi.<sup>4</sup>

Bir qator yetakchi olimlarning fikrlari va xulosalaridan kelib chiqqan holda, yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, biz tomonimizdan tajriba guruhiga mansub sinaluvchi sportchilarga tayyorlov davrida maxsus chidamlilikni tarbiyalashga qaratilgan mashg'ulot usullaridan foydalangan bo'lsak, maxsus tayyorgarlik davrida tezkorchidamliligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarini mashg'ulot jarayonida qshlladik (M.S.Olimov, K.T.Shakirjanova, K.T.Rafiyev, H.T.To'xtaboyev, L.V.Smuriygina va boshqalar) aniqlashtirish zarur.

Biz yuqorida tajriba guruhi sinaluvchi sportchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotimizda aynan mashg'ulot jarayonida tayyorgarlik haftasi, rivojlantiruvchi va maxsus musobaqa oldi tayyorgarlik mikrosikllari bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok etib kelishdi.

O'tkazilgan pedagogik tajriba so'ngida tajriba guruhi va nazorat guruhidan olingan pedagogik testlar qabul qilindi. O'tkazilgan pedagogik testlar natijalari quyidagi 1-jadvalda berildi.

*1-jadval*

**Tajriba va nazorat guruhi sportchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi (n-12)**

№	Testlar	T.D	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
			Max/min	$\bar{x} \pm \sigma$	t	P	Max/min	$\bar{x} \pm \sigma$	t	P
1	100 m masofaga yugurish	T.o.	11,5/12,8	12,2±0,41	2,72	<0,01	11,8/13,9	12,7±0,74	1,56	<0,1
		T.k.	11,2/12,5	11,8±0,30			11,6/13,8	12,3±0,68		
2	200 m masofaga yugurish	T.o.	23,7/25,9	24,6±0,62	2,62	<0,01	23,3/26,2	24,8±0,78	1,40	<0,1
		T.k.	22,9/25,5	23,9±0,69			23,0/25,2	24,4±0,71		
3	400 m masofaga yugurish	T.o.	50,1/55,2	52,8±1,52	1,76	<0,05	49,5/56,1	52,5±1,68	1,40	<0,1
		T.k.	49,8/54,8	51,7±1,56			49,2/54,9	51,2±1,43		
4	Joydan turib uzunlikka sakrash	T.o.	276/250	261±8,15	2,68	<0,01	281/250	264±7,80	1,53	<0,1
		T.k.	287/260	270±8,01			384/255	269±8,42		
5	Joydan turib uzunlikka uch hatlab sakrash	T.o.	895/815	846±32,11	2,79	<0,01	900/810	837±32,08	1,68	<0,1
		T.k.	985/840	891±45,51			915/830	857±28,18		

<sup>1</sup> Qudratov R. Yengil atletika. Darslik, T., 2014, 332-bet.

<sup>2</sup> To'xtaboyev N.T., Shakirjanova K.T., Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurish uslubi. O'quv qo'llanma, T., 2017, 180-bet.

<sup>3</sup> Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg'ulotlari asoslari. O'quv qo'llanma, T., 2008, 65-bet.

<sup>4</sup> Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To'xtaboyev N.T., Smuriygina L.V. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubi. Darslik, T., 2018, 835-bet.

O'tkazilgan pedagogik tajriba jarayonida tajriba guruhi sinaluvchilari bilan o'tkazilgan pedagogik tadqiqotda qo'llanilgan tezkor-kuch va tezkor chidamlilikka qaratilgan vositalar tajriba guruhi sportchilarini mashg'ulot jarayonida qo'llab borildi. Qo'llanilgan vosita-usullar quyidagilardir:

- tezkor-kuchni rivojlantirishda sakrash mashqlari qo'llanildi;
- balandlikka zinalarga juft oyoqda sakrab chiqish mashqlari;
- chap oyoqda va o'ng oyoqda zinalarga chiqish;
- 100 m masofaga oyoqdan-oyoqqa sakrab yugurish mashqlari.

Tezkor-chidamlilikni rivojlantirishga tajriba jarayoniga qaratilgan quyidagi vositalardan foydalandik:

- 200 m masofani takroriy yugurib o'tish, har xil shiddatda;
- 400 m masofani takroriy dam olish oralig'i orqali mashg'ulotni o'rta va oxirida yugurib o'tish usulini qo'llash.

Mashg'ulot jarayonida qo'llanilgan ushbu vositalar tajriba guruhi o'rta masofaga yuguruvchilarni mashg'ulot jarayonida tezkor-chidamliligi va tezkor-kuch jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu qo'llanilgan vosita va usullar Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida o'rta masofaga yuguruvchilarni sport natijalarini yuksalishida ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalarini samaradorligini O'zbekiston chempionatlari va kubok musobaqalarida tajriba guruhi o'rta masofaga yuguruvchi sportchilari ko'rsatgan sport natijalarida ko'rsatishimiz mumkin.

Organizmida funksional rezrlarning safarbar etilishi, bu jarayonni boshqarishni takomillashtirish organizmning zararli omillariga qarshi turishida hayot faoliyatida yuzaga kelgan yangi sharoitlarga uning moslashishi uchun fiziologik asos bo'ladi. Bu rejalashtirish yillik musobaqalar dasturiga asosan, asosiy yozgi musobaqalarga samarali tayyorgarlik ko'rish va muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun qulay ekan. 400 m masofalarga yugurishda yuqori natijalarga erishish sportchining har tomonlama tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi. Biroq yuqori darajadagi tayyorgarlikning har tomonlama rivojlangan, mukammal texnik va taktik tayyorgarligidan tashqari, o'rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun zarur bo'lgan maxsus chidamlilikni o'stirishga e'tibor berishi lozim. Bu esa yuguruvchining butun masofa davomida tezlikni saqlab yugurishni talab etadi. Maxsus chidamlilik, bir tomondan, bosh miya po'stlog'idagi asab jarayonlarining kuchi va barqarorligiga, ikkinchi tomondan, mushaklardagi energiya almashinuv jarayonlarining takomillashuvi bilan uzviy bog'liq bo'lishi aniqlandi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan yengil atletika bo'yicha murabbiylarda yangi o'quv uslubiy adabiyotlarni yetishmasligi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Bu yosh davrida bolalarning jismoniy rivojlanishi. Jadal o'sish va tananing o'lchamlarining kattalashuvi kuzatiladi. Tana uzunligining bir yillik o'sishi 4–7,5 sm, bu, asosan, oyoqlarning uzayishi hisobiga sodir bo'ladi. Tana og'irligi yil sayin 1–2 kg.ga ko'paydi. 17–18 yoshgacha bo'lgan davr jadal o'sish rivojlanish bilan tavsiflanadi va jinsiy yetilishning yaqqol ko'rinishi namoyon bo'ladi. Bilamizki, 400 m masofaga yugurishda tezkor chidamlilik sifati boshqa masofalarga nisbatan farqlanishi barchaga ma'lum. Sinaluvchilar o'rta masofaga yugurishda ushbu tezkorlik va tezkorlikka bo'lgan maxsus chidamlilikni o'zlarida shakllantirishi zarur. Chunki o'rta masofaga yugurishda ushbu sifatlar asosiy jismoniy sifatlar hisoblanadi. O'rta masofaga yuguruvchilarni na faqat jismoniy tayyorgarligiga, qolaversa, ularning funksional holati ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'pkaning tiriklik sig'imi juda muhim, shuning uchun mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarini rivojlantirishning maxsus mashqlari bilan bir qatorda, funksional tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan mashqlar ham ularni malakali sportchi bo'lib, shakllanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, haftada bir marta suzish mashqi o'rta masofaga yuguruvchilarning O'TS oshirishga zamin yaratadi. Bu esa 400 m masofaga yuguruvchilarni nafas olish ritmi va harakat chastotasini to'g'ri bajarishda ham yaxshi samara beradi.

Yakuniy xulosa o'rnida qayd qilish mumkinki, sport va jismoniy tarbiya bu sog'lom turmush tarziga amal qilish, salomatlikni saqlash va mustahkamlash va uzoq umr ko'rishning eng qiziqarli va samarali uslubi hisoblanadi.

Xulosalaridan kelib chiqqan holda, yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, biz tomonimizdan tajriba guhiga mansub sinaluvchi sportchilarga tayyorlov davrida maxsus chidamlilikni tarbiyalashga qaratilgan mashg'ulot usullaridan foydalansak, maxsus tayyorgarlik davrida tezkor-chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalaridan foydalanamiz. O'rta masofaga yugurishda sakrash mashqlari va 400 m masofaga takror-takror yugurishni dam olish oralig'li yugurish mashqlari o'rta masofaga yuguruvchilarni tezkor-chidamliligini rivojlantirish hisobiga sportchilarni natijalari yuksalishiga xizmat qilar ekan.

**Orazimbetov Shingisbek Amirbek og'li (Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI  
tayanch doktoranti; shingisbek@gmail.com)  
O'QISH MATERIALLARIGA MADANIYATLARARO YONDASHUV**

***Annotatsiya:** Maqolada chet tilini o'qitishda til va madaniyat masalalariga to'xtalib, ingliz tili darsliklaridagi o'qish materiallariga (reading materials) madaniyatlararo yondashuvni qo'llashning natijalari tahlil qilinadi.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы языка и культуры в обучении иностранному языку и анализируются результаты применения межкультурного подхода к материалам по чтению в учебниках английского языка.*

***Annotation.** The article discusses the issues of language and culture in teaching a foreign language and analyzes the results of applying an intercultural approach to reading materials in English course books.*

***Kalit so'zlar:** til, madaniyat, tamoyil, darslik, matn, o'qish ko'nikmasi, madaniyatlararo yondashuv.*

***Ключевые слова:** язык, культура, принцип, учебник, текст, навыки чтения, межкультурный подход.*

***Key words:** language, culture, principle, coursebook, text, reading skills, intercultural approach.*

Globallashuv asrida tilshunoslikning o'ziga xosligi tilni o'zlashtirishning madaniyatlararo jihatlari-ga e'tibor qaratish bo'lib, bu o'qituvchilar va olimlarni uni o'rganishning bor bo'lgan dasturiy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishga, shuningdek, boshqa madaniyatni o'zlashtirishning yanada samarador usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bu davrda mahalliy pedagogikada madaniyat nuqtayi nazaridan chet tilini o'rganishning yangi nazariya va konsepsiyalari paydo bo'lishi va asoslanishi kuzatilmoqda, bu esa chet tilini o'qitishning nazariy asoslarini o'zgartirish va modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda.

Professor J.Jalolov "...til, shu jumladan o'zga til bitta vaqtning o'zida tili o'rganilayotgan mamlakat yoki til egasining madaniyati aksi sifatida o'rganiladi. Shu sababli so'nggi yigirma yillikda tilni madaniyat bilan birgalikda o'qitish, masalan, ingliz tili va madaniyatiga o'qitish masalalari jadal ko'rib chiqilmoqda" [8,90]. Bu fikrdan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda ingliz tili metodologiyasida tilni madaniyat orqali o'qitishga katta e'tibor qaratilayotganligini sezishimiz mumkin.

Ingliz tilini o'qitishning madaniyatlararo tomonlariga to'xtalmasdan oldin, avvalo, madaniyat haqida qanday ta'riflar va fikrlar keltirilganligini ko'rib chiqsak.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha faoliyat yurituvchi UNESKO tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, madaniyat – jamiyat yoki ijtimoiy guruhning o'ziga xos ma'naviy, moddiy, intellektual va hissiy xususiyatlari to'plami sifatida belgilanib, nafaqat san'at va adabiyotni, balki turmush tarzi, birgalikda yashash usullari, qadriyatlar tizimi, an'analar va e'tiqodlarni ham o'z ichiga oladi [5].

Kembrij onlayn lug'atida, madaniyat – ma'lum bir davrdagi, ma'lum bir guruh odamlarining turmush tarzi, ayniqsa, umumiy odatlari va e'tiqodlari, deb berilgan [12].

Demak, keltirilgan tariflardan kelib chiqib, madaniyat – ma'lum bir jamiyat a'zolarining dasturlari, xatti-harakatlari, tarixi, ijodi, odob-axloqi, ma'naviy holati va yashash tarzi.

Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosi madaniyatlararo lingvistik tadqiqotlarning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Til va madaniyat alohida tushuncha bo'lishiga qaramay, ularning rivojlanishi va uyg'unligi jihatidan ular g'oyat mustahkam aloqador bo'lib, bir tarafdin, til madaniyatning asosiy shakllaridan biri, milliy madaniyatning zarur tarkibiy qismi, uning bor ekanligi va rivojlanishining asosiy faktori sifatida qaralsa, boshqa tarafdin, til madaniyat hosili sifatida qaraladi.

Til madaniyatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, sababi u, avvalo, milliy mentalitetning o'ziga xosligini anglatadi. Tilshunoslikda madaniyat – gapirish, eshitish, o'qish va yozish kabi til ko'nikmalari qatorida qo'llashga bo'ladigan beshinchi ko'nikma hisoblanadi [3,26]. Til yordamida biz madaniyat ma'nosini anglaymiz va bu orqali biz atrofimizdagi dunyo haqida bilib olamiz. L.I.Bim "Tillar o'sha tilda gaplashuvchi xalqlar dunyosi va madaniyatidan ajralmagan holda o'rganilishi kerak" [7,48].

Chet tilini o'rganishda madaniyatning ta'siri bo'yicha, birinchi navbatda, V.Safonovning "Социокультурный подход к обучению иностранному языку как специальности" (1992), V.Furmanovning "Межкультурная коммуникативная компетенция и культурно-языковая прагматика в теории и практике преподавания иностранных языков" (1994) mehnatlarini alohida ta'kidlash zarur.

V.Safonova o'zi tarafdin ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy yondashuvning retrospektivi va pers-

pektivasini tahlil qilib, “Madaniyatlar hám sivilizatsiyalar bog‘liqligi kontekstida tillarni birgalikda o‘rganish taklif qilingan yondashuv maktabda yoki oliy o‘quv yurtida faqatgina madaniyatlararo ta‘limning umumiy nazariy asoslarini yoritib bermay, 1995-yildan boshlab fan dasturlari va fan adabiyotlarini ishlab chiqish qoidalarini stilistik qayta ko‘rib chiqish, madaniyatshunoslik va yangi turdagi kommunikatsiyaga asoslangan o‘quv-metodik va o‘quv adabiyotlarini proektlashtirish, yaratish va joriy qilishni yo‘lga qo‘ydi” [10,57].

Chet tili, umuman, boshqa madaniy kontekstda, ya‘ni, o‘quvchilarning o‘z madaniyati sharoitida o‘rganiladi, bu o‘quv jarayonida madaniyatlar dialogini ta‘minlaydi, ular orasidagi o‘xshashliklar va farqni yaxshiroq anglashga hissa qo‘shadi. “Shu sababli har qanday madaniyatni, ayniqsa, ijodiy matn materiallari asosida, o‘rganish o‘z madaniyatini va o‘zga madaniyatni solishtirish asosida amalga oshiriladi. Aynan ushbu aspekt chet tilini o‘qitish metodikasi uchun katta qiziqish uyg‘otadi, sababi u solishtirish yo‘li orqali madaniyatni o‘rganish shaklining yaratilishiga imkoniyat beradi”.

Albatta, madaniyatlararo yonsdashuvlarni qo‘llashda biz chet tilini o‘qitishning ayrim tamoyillariga tayanmasak bo‘lmaydi. Chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo tamoyillar muammosi metodologiyada eng qiyin masalalardan biri hisoblanadi. Turli nuqtayi nazardan o‘qitish tamoyillarini ko‘rib chiqqan holda, tadqiqotchilar ularga turlicha ta‘riflar beradi.

Adabiyotlarni tahlil qilish asosida madaniyatlararo savodxonlikni shakllantirish tamoyillarini aniqlash mumkin:

- didaktika va tarbiya tizimining integratsiyalashuvi tamoyili;
- “Global fikrlab, mahalliy darajada harakat et” tamoyili;
- hamkorlik tamoyili, uning ko‘rsatkichlaridan biri shaxslararo munosabatlar va dialogik hamkorlikda empatiyaning ustunligi hisoblanadi;
- muloqot va madaniyatlararo empatiya tamoyili, umumjahon turmish tarziga qayg‘urish hislarini tarbiyalash;
- tabiat, o‘zaro, boshqa odamlar bilan garmoniyada munosabatlarni o‘rnatish, kooperatsiya, o‘zaro yordam [9,213].

Madaniyatlararo tillarni o‘rganish dars jarayoni sifatida beshta tamoyilga qaratiladi [4].

Faol qurilish: o‘quvchilar o‘z madaniyati va o‘rganilayotgan til madaniyati haqida shaxsiy nuqtayi nazarini rivojlantirishning bir bo‘lagi sifatida madaniyat haqida o‘z bilimlarini yaratish kerakligi tamoyili. Faol qurilishdagi o‘qituvchining roli madaniyatni butun qilib ko‘rsatishning o‘rniga uning farqini sezishga, aniqlashga va akslanishini tushunishga o‘rgatish hisoblanadi.

Muloqot o‘rnatish: madaniyatlararo til o‘rganishda o‘quvchi o‘z madaniyati, tili va bilimlari bilan sinfda uchraydigan yangi stimullar o‘rtasida o‘z muloqotini o‘rnatishga chaqiriladi. Buni amalga oshirish uchun yangini allaqachon mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bilan solishtiradigan va qarama – qarshi qo‘yadigan taqqoslash nuqtayi nazarini rivojlantirish zarur. Bu degani, boshqa madaniyatlar haqida o‘rganguncha o‘quvchining ona madaniyatiga ham joy berilishi kerak.

Ijtimoiy o‘zaro ta‘sir: madaniyat boshqalar bilan muloqot o‘rnatish orqali o‘rganiladi va tadqiq etiladi. Ijtimoiy o‘zaro ta‘sir o‘quvchilarga muloqot vaqtida o‘ziga xosliklarni sezish, taassurotlari bilan bo‘lishish, mumkin bo‘lgan javoblarni sinab ko‘rish imkonini beradi.

Refleksiya: madaniyatlararo til o‘rganish jarayonining asosiy bo‘lagi bo‘lib, o‘ziga xoslik haqida fikrlash imkonini beradi. O‘quvchi o‘zi duch keladigan madaniyatga ijobiy yoki salbiy munosabatta bo‘lish va yangi bilimlarning o‘zini va boshqalarni tushunishga ta‘sirini tan olish imkoniyatiga ega bo‘lish kerak.

Mas‘uliyat va eng oxirida, o‘quvchilar o‘zlarining barcha tillarda muvaffaqiyatli muloqot o‘rnatishi hamda boshqa tillar, madaniyatlar va insonlarni qadrlaydigan nuqtayi nazarni rivojlantirish uchun javobgar ekanligini bilib oladi.

Agar o‘quvchilar uchun foydalaniladigan materiallar qulay va yaxshi tanish bo‘lsa, ularning darsga qatnashishi yaxshilanadi. Bundan tashqari, ularning mavzu bo‘yicha boshlang‘ich bilimlari tanish mazmun bilan faollashadi, bu esa ularning dars davomida savol javobga qatnashishga qiziquvchiligidan namoyon bo‘ladi.

Biz, birinchi navbatda, maktab o‘quvchilarining chet tilida madaniyatlararo savodxonligini shakllantirish uchun o‘qish materiallarini (reading materials) asos qilib olishimiz kerak deb hisoblaymiz. Bugungi kun ingliz tili o‘qish materiallari keng ko‘lamli bilimlarga va katta hajmdagi ma‘lumotlarga ega bo‘lib, ular mamlakatlar, xususan, tarixiy geografik, mahalliy urf-odat, odob-axloq normalari, ijtimoiy etiket, qadiryatlar va hokazolar haqidagi turli madaniy bilimlarni o‘z ichiga oladi [6,150–151]. Shu sababli



maktab darsliklaridagi ko'pchilik ma'lumotlar o'qish ko'nikmasi ko'rinishida beriladi va o'quvchilar ulardan turli xil qiziqarli madaniy ma'lumotlarni egallashi mumkin. Bu esa, o'z o'rnida, o'quvchining ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining oshishiga olib keladi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni IV yo'nalish 42-maqsadi 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etishni nazarda tutib [1], bu bo'yicha AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida 2022–2023-o'quv yilidan boshlab "Cambridge University Press" nashriyoti tarafidan bosib chiqarilgan ingliz tili darsliklari maktablarda foydalanila boshladi. Respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinflarida yangi o'quv yilidan boshlab Prepare (level 2 grade 8) darsligi o'tilib kelinmoqda. Masalan, bu darslikdagi matnlardan biriga madaniyatlararo yondashgan holda o'quvchilarga yetkazib bersak, dars samaradorligi oshadi deb hisoblaymiz.

8-sinf darsligidan The history of computers (kompyuterlar tarixi) deb nomlangan matnni misol qilib olsak. O'qish ko'nikmasi uchun berilgan matning asl ko'rinishi [2,74].

**The history of COMPUTERS**

**around 2,700 BCE to today**

**205 BCE**  
**The Antikythera Mechanism**  
 In 1900, a group of people diving near the Greek island of Antikythera found this machine on the sea floor. For many years, no one understood what it was or how it worked. Scientists now say it was used to find out the positions of the sun, moon and stars. Many people call it the world's earliest 'computer'.

**The abacus**  
 People still use abacuses today in many parts of the world, especially to teach maths to children. Of course, they are very different from modern computers, but the idea is the same – to answer difficult maths questions much more quickly than a human can.

**1791–1871 and 1815–1852**  
**Charles Babbage and Ada Lovelace**  
 The modern computer was Charles Babbage's idea. The machine he wanted to build, called a 'difference engine', was special because it had all the parts that a modern computer has. It could save information and was also a kind of printer. Ada Lovelace was the first computer programmer. She had the idea for 'software' – a way of telling a computer to do different things.

**1940s**  
**Alan Turing**  
 Alan Turing wasn't well known when he was alive, but he's now one of the most famous scientists of the 20th century. His ideas on computer science changed the world. He worked on the first digital computer – it was called Colossus, weighed 30 tonnes, and was as big as a large living room.

**From the 1950s**  
**Modern computers**  
 From the 1950s, computers got smaller, faster and cheaper. Today, the smallest mobile phones have more memory than the biggest early computers. And computers are getting better all the time. However, they are not perfect. One of the worst problems is computer viruses. You can lose a lot of information when one gets on your machine. Be careful about what you download from the internet.

**READING**

- 1 Do you know the names of any early computers? Read the article once and check your ideas.
- 2 Complete the sentences with one or two words from the article.
  - 1 Some children use an abacus to learn how to do \_\_\_\_\_.
  - 2 Charles Babbage's computer had several different \_\_\_\_\_.
  - 3 The first person to program a computer was \_\_\_\_\_.
  - 4 Colossus was as big as a \_\_\_\_\_.
  - 5 Modern \_\_\_\_\_ are small but can do more than the biggest computers of the past.



Agar ushbu matnga madaniyatlararo yondashib, o'quvchiga tanish bo'lgan ma'lumotlarni matnga qo'shib o'qitsak, o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshgan bo'lar edi. Buning uchun matndagi kerakli joyga quyidagi ma'lumotlarni qo'shishimiz mumkin.

Al Khwarizmi (780 to 850 CE). He is known as the father of algebra. The word "algebra" comes from the title of one of his most famous books. The word "algorithm" is derived from the Latinization of his name. In fact, algebra is the basics of every field of study today thanks to Al Khwarizmi. His discoveries gave rise to the current technological development and in many other sectors, his works are fundamental.

Keltirilgan fikrlardan shuni anglashimiz mumkin, madaniyat o'quvchilar o'rganayotgan lingvistik materiallarga singdirilgan holda yashirin turda o'r-

gatiladi. O'quvchilarni berilgan madaniy ma'lumotlardan xabardor qilish uchun o'qituvchilar ushbu madaniy o'ziga xosliklarni o'rganilayotgan til shakllari bilan bog'liqli holatda ochiq muhokama qilish mavzusiga aylantirishi kerak deb o'ylaymiz. Madaniy ma'lumotlar darsliklardagi o'qish materiallari tarkibiga o'qitish mazmunini boyitish hamda o'quvchilarni xabardor qilish uchun diqqat bilan ishlab chiqilishi va dars rejalariga kiritilishi zarur.

Umumlashtirib aytganda, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni boshqara olish chet tilini o'qitishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. O'qish ko'nikmasi, kommunikativ faoliyatning bir turi sifatida, muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va madaniy ongini boyitish kabi o'qitish vazifasini ham bajaradi. Agar siz qadiryatlar orasidagi farqlarni tushunmasangiz, madaniyatlar orasidagi farqni tushuna olmaydiz. O'quvchilar o'z qadiryatlari yordamida matnning tushunishi oson, biroq ularning matnda berilgan boshqa qadiryatlarni o'zlarinikidan farq qilmaydi deb o'ylashi o'quvchilarning matnning to'g'ri tushuna olmasligiga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 28.01.2022-yil PF-60-son.
2. Joanna Kosta, Melanie Williams. Prepare (level 2 grade 8) student's book. Uzbekistan edition, Cambridge University Press, 2021.
3. Krashinsky S. (1993). Context and culture in language teaching (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press, p. 26
4. Liddicoat A.J., Papademetre L., Scarino A., & Kohle, M. (2003). Intercultural language learning. Cambridge, MA: DEST.
5. UNESCO (2001). UNESCO Universal Declaration on Cultural Diversity. Paris, UNESCO.
6. Wang Xiaoli. High school English reading teaching with the introduction of Cross culture elements [J]. New Curriculum (Teaching and Research Edition), 2020, 000(003), p. 150 – 151.
7. Бим И.Л. Цели обучения иностранному языку в рамках базового курса. “Иностранные языки в школе”, 1996, № 1, с. 48 – 52.
8. Жалолов Ж. Интерференция в методике обучения неродному языку. www.journal.fledu.uz “Ўзбекистонда хорижий тиллар”, илмий-методик электрон журнал, № 5 – 6, 2017, с. 90.
9. Муратов А.О. Формирование кросс – культурной грамотности учащихся в процессе обучения английскому языку с использованием телекоммуникаций [текст]. Дис. ...канд. пед. наук, 13.00.01. Барнаул, 2005, 213 с.
10. Сафонова В.В. Социокультурный подход: ретроспектива и перспектива. Ученые записки национального общества прикладной лингвистики, 2013, № 4 (4), с. 53 – 72.
11. Фурманова В.П. Межкультурная коммуникативная компетенция и культурноязыковая прагматика в теории и практике преподавания иностранных языков. Автореф. дис. ...д-ра пед. наук, М., 1994, с. 4
12. dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/culture

**Tursunqulov Elmurod Azzamqulovich (PhD, dotsent vazifasini bajaruvchi (SamDU)**

### **SPORT BOSHQARUVI UCHUN BAKALAVRLARNING TAYYORGARLIK DARAJASINI RIVOJLANTIRISHNI MODELLASHTIRISH**

***Аннотация.** Ушбу мақолада бакалаврнинг спорт менежменти фаолиятига дастлабки тайёргарлиги ва уни такомиллаштириши йўллари аниқлашга йўналтирилган сўровномани тузиш бўйича тавсиялар келтирилган. Махсус маъруза курсини жорий этиш орқали бошқарув кўникмаларини шакллантиришнинг асосий усуллари баён этилган. Тадқиқотчиларнинг эътибори спорт менежерини шакллантиришга таъсир қилувчи миқдорий ва сифат омилларини аниқлашга ёрдам берадиган материалларни математик ва статистик қайта ишлаш хусусиятларига қаратилади.*

***Аннотация.** В данной статье даны рекомендации по составлению вопросника для определения начальной подготовки бакалавра к спортивно-менеджерской деятельности и пути их совершенствования. Описаны основные методы формирования менеджерских навыков посредством внедрения специального курса лекций. Обращается внимание исследователей на особенности математическо-статистической обработке материалов, которые способствуют определить количественные и качественные факторы влияющие на формирование модели спортивного менеджера.*

**Annotation.** This article gives recommendations on how to compile a questionnaire to determine the initial preparation of a bachelor's degree for sports management activities and ways to improve them. The main methods of forming managerial skills are described through the introduction of a special course of lectures. The attention of researchers is drawn to the features of mathematical and statistical processing of materials that contribute to determine the quantitative and qualitative factors affecting the formation of the model of the sports manager.

**Калим сўзлар:** бошқарув, ижтимоий сўровнома, диагностик тестлар, когнитив, рефлексив, партисипатив усуллар, компетенция.

**Ключевые слова:** менеджмент, социальный опрос, диагностические тесты, когнитивные, рефлексивные, партисипативные методы, компетенция.

**Key words:** management, social questionnaire, diagnostic tests, cognitive, reflexive, participatory methods, competence.

**Мавзунинг долзарблиги.** Bugungi kunda respublikamizda talabalarga “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” fanidan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning nazariy hamda pedagogik asoslarini takomillashtirish zarur bo‘lmoqda. Bu muammolar aynan uzluksiz ta‘lim, fanlararo uzviylik asosida hal etilishi maqsadga muvofiqdir.

Qator olimlar olib borgan tadqiqotlar natijasida shular ma‘lum bo‘ldiki, uzluksiz ta‘limning asosiy bosqichi bo‘lgan oliy ta‘lim o‘quv jarayonida bu muammoga nisbatan keng e‘tibor qaratish lozim. Ayniqsa, sport sohasida ta‘lim-tarbiya olayotgan talabalar jamiyatning eng harakatlanuvchi qatlami hisoblanadi. Shu boisdan sohaga talabalarda “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” fanidan ko‘nikma hamda malakalarini shakllantirishning nazariy va pedagogik asoslarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammodir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasini takomillashtirish yo‘lida 2018-yil 5-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish maqsadida, sport kadrlarini, ayniqsa, boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi jismoniy tarbiya va sport boshqaruvi sohasida malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj borligi qayd etildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** 2018-yilda qabul qilingan O‘zDS 36.18.33 davlat ta‘lim standarti 5.3-bandiga muvofiq, sport faoliyati bakalavr murabbiy, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi hamda tashkilotchi-boshqaruvchi kasbida ishlashi mumkinligini yoritib berish. Shu bilan birga, ijtimoiy hayotning o‘zgarishi va me‘yoriy talablar yuqorida qayd etilgan pedagogik nazariyani, ayniqsa, oliy ta‘lim amaliyotini modernizatsiya qilish muhimdir. Oliy ta‘limda, xususan, sport faoliyati bakalavrining ta‘lim jarayonini o‘rganish davom etmoqda. Shuningdek, sport faoliyati yo‘nalishi bakalavriyatini sport menejmentida va pedagogik boshqaruviga tayyorlashning dolzarbliги haqidagi tezisini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sport menejerlarini tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan uslublar va vositalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqotning usullari: psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy taxlil qilish asosida bir qator diagnostik testlarni tanlab oldik.

Ular sport faoliyati bakalavrini sport pedagogikasi hamda sport menejmentiga tayyorgarligini va rivojlantirishning asosini tashkil etuvchi to‘rtta tarkibiy qismlardan: sport faoliyatida motivatsion qadriyatli, faoliyatli hamda refleksiv qismlardan har birining rivojlanish darajasini aniqlashga imkon beradi. Ushbu testlar M.F.Sharipovning 2010-yildagi tadqiqotlarida tavsiya etilgan va sinab ko‘rilgan bo‘lib, bizning tadqiqotlarimiz o‘z xususiyatlarini hisobga olgan holda, ayrim o‘zgarishlar bilan qo‘llanildi. Ushbu uslub 40 ta etalon (andoza) me‘yorlaridan iborat bo‘lib, ularning ifodalanganligiga bog‘liq xolda respondent 0 dan 1 ballgacha baholanib boriladi. So‘ngra eng ko‘p to‘plash mumkin bo‘lgan ballga nisbatan foiz hisoblab chiqiladi va respondentning sport menejmentiga tayyorlik darajasi aniqlanadi. Ushbu uslub bo‘yicha mualliflar tomonidan to‘rtta daraja kreativlik (76–100%), mahsuldorlik (51–75%), yaratuvchilik (26 – 50%) va intuitiv moslashish (25% dan kam) darajalarida nazarda tutilgan me‘yorlarni tavsiya etiladi.

Ushbu usulning mazmuniga ko‘ra, u mualliflar tomonidan bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun va pedagogik menejmentga tayyorlik haqida gap ketishini hisobga olgan holda, ayrim tuzatishlar kiritildi. Bizning tadqiqotimizda esa asosiy e‘tibor sport faoliyati bakalavrini sport pedagogik menejmentga tayyorlash modeli haqida bo‘ladi.

“Model” so‘zi izohli lug‘atlarda “andoza”, “shakl” ma’nolarini anglatadi. Sport-pedagogik menejment – bu pedagogik menejmentning xususiy bir holatidir, biroq, davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqilganda, sport faoliyati bakalavrini nafaqat jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, balki murabbiy, tashkilotchi-boshqaruvchi va sport yo‘riqchisidir. O‘zgartirishlar kiritilgandan keyin, ya’ni, kreativlik, mahsuldorlik, qayta yaratuvchilik va intuitiv moslashish darajalarini ta’minlovchi uslublar validligini – yaroqliligini aniqlash uchun kichik guruhlarda sinab ko‘rildi. Validlik fanda olinayotgan baxolarning aniqligini, ularning zarur o‘lchamlarini qay darajada aniq baholanishini, uni tashkil etuvchi sinovlarning tadqiq etilayotgan muammoga qanchalik mosligini xarakterlovchi me’yorlarning eksperimentga muvofiqligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ushbu tushuncha foydalanilayotgan uslub va vositalarning o‘lchanayotgan ko‘rsatkichlarga mos kelish (adekvatlik) darajasini aks ettiradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan baholashning majmuaviy usullaridan tashqari, sport faoliyati bakalavrini sport-pedagogik menejmentga tayyorgarligini rivojlantirishda u yoki bu tarkibga yetakchi bo‘ladigan sabablanish (motivatsiya) va refleksiya kabilarda alohida sifat va holatlarni baholashga yo‘naltirilgan psixologik testlardan ham foydalanildi. Faoliyatli va kognitiv tarkibiy qismlar “Sport menejmenti asoslari” maxsus kursida o‘zlashtirishni joriy va yakuniy nazorat qilishda pedagogik testlar natijalarini tahlil etish yo‘li bilan, shuningdek, o‘yinli topshiriqlarni hal etish vositasidan qo‘shimcha baholandi.

Sport faoliyati bakalavrini sport-pedagogik menejmentga tayyorgarligini rivojlantirishning sabablanish – qadriyatli tarkibiy qismini baholash uchun R.X.Jo‘rayev (2001) tomonidan tavsiya etilgan, shaxsning sabablanish va emotsional strukturasi diagnostikasiga yo‘naltirilgan usulini tanladik. Refleksiv tarkibiy qism, M.F.Sharipovning o‘z-o‘zini boshqarishning darajasi va tipini aniqlash uchun tuzilgan savolnoma yordamida qo‘shimcha baholandi.

Kognitiv va faoliyatli tarkibiy qismlar ustidan nazorat sport faoliyati bakalavrini sport-pedagogik menejmentga tayyorgarligini rivojlantiruvchi o‘quv-amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha darslarda amalga oshirildi.

Asosiy jihatlar bu “Sport menejment asoslari” maxsus kursida ro‘yobga chiqarildi. Bunda kognitiv-tarkibiy qismni baholash uchun asos qilib talabalarning nazariy mashg‘ulotlardagi baholari, faoliyatli qism uchun esa amaliy mashg‘ulotlardagi ko‘rsatkichlar olindi. Sport menejmentning “Tayyorlik” modelini aniqlashda matematik statistika usullaridan foydalanildi. Ushbu usullarni batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Matematik statistika usullaridan foydalanish, mutaxassislar fikriga ko‘ra, eksperimental ma’lumotlarning yuqori darajada ishonchliligiga rioya qilgan holda, tadqiqot natijalarini o‘ta ixcham va ko‘rgazmali bayon etishga imkon beradi. Bundan tashqari, statistik usullar sifat o‘zgarishlarining miqdoriy ifodalanishi uchun xizmat qiladi, u yoki bu yangiliklar samaradorligining statistik ahamiyatligi bo‘yicha xulosalar chiqarishga imkon beradi. Oqibatda statistik, eksperimental ma’lumotlarni to‘plash hamda qo‘l-lash, tadqiqotchi tomonidan ilgari surilgan farazni tekshirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

U yoki bu statistik usulni tanlash tadqiqotning vazifalari va eksperimental ma’lumotlarning taqsimlanish xarakteri bilan belgilanadi. Shu sababli tadqiqot natijalari olinishi sharoitidagina uni yuqori aniqlikda amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot va nazorat guruhlarini jamlashda, G.V.Yakovlev va N.O.Yakovlevlar fikricha, kiritiluvchi omillardan, bizning holatda pedagogik sharoitlardan kelib chiqish lozim bo‘ldi. Shu tariqa, uchta pedagogik sharoitdan iborat majmuani tekshirish uchun bir nechta tadqiqot guruhlarini va bitta nazorat guruhini jamlash eng to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi. Bizning holatda sport faoliyati bakalavrini sport menejmentga tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarining miqdori, miqyosi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uchta tadqiqot va bitta nazorat guruhini jamlashni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Uchta tadqiqot guruhining har birida turli xil pedagogik sharoitlar (kiritiluvchi omillar) yoki ularning 1-jadvalga mos ravishdagi umumlashmalari amalga oshirildi.

*1-jadval*

**Tajriba ishlar jarayonida guruhga ta’sir**

Guruh	Maydon	Soni	Pedagogik sharoitlar
Tajriba guruh-1 “A”	SamDU	4-kurs, 26 nafar	PSH-1, PSH-2, PSH-3, PSH-Z
Tajriba guruh -2 “B”	SamDU	4-kurs, 25 nafar	PSH-1, PSH-3
Tajriba guruh -3 “V”	SamDU	4-kurs, 27 nafar	PSH-1, PSH-Z
Nazorat guruhi	SamDU	4-kurs, 30 nafar	

1-jadvaldan ko‘rinadiki, shakllantirilayotgan tadqiqotning amalga oshirilishi, ajratilgan guruhlarining har birida turlicha yuz berdi. Shartli “A” belgisi ostidagi tajriba guruhida sport faoliyati bakalavrini

sport menejmentga tayyorligini rivojlantirishdagi pedagogik sharoitlarning butun majmuasi, shu bilan bir vaqtda, “B” va “V” belgilari ostidagi guruhlarda esa faqat ayrim pedagogik sharoitlar amalga oshirildi.

Nazorat guruhidagi ta’lim jarayoniga biror-bir o’zgarish kiritilmadi. Bunday bo‘linish ta’lim jarayoniga biz tomonimizdan, kiritilayotgan ayrim pedagogik sharoitlar va ularning majmuasidagi eng ta’sirli omillarning tadqiqotda aniq ta’minlashdagi ta’sirini o’rganish uchun amalga oshirildi.

Savollarning so‘nggi turkumi sport menejmentga tayyorlikni shakllantirishdagi eng samarali vosita va usullarni aniqlashga yo‘naltirilgan. So‘ralganlarning mutlaq ko‘pchiligi sport tadbirlarini tashkil etishda qatnashishni eng samarali vositasi sifatida tadbirdan keyingi tahlilni tanladilar. Ish o‘yinlari va yetakchi sport menejerlarining kasbiy faoliyat tajribasini o‘rganish vositalari ham respondentlar tomonidan ancha yuqori baholandi. Respondentlarning 100% sport menejmentga tayyorgarligini rivojlantirishga bevosita yo‘naltirilgan maxsus kurs kiritilishi zarurligini belgiladilar.

Shu tariqa, ta’kidlash o‘rinliki, sinovdagi ko‘pchilik respondentlar sport menejmenti fanining mazmuni bo‘yicha tavsiflarini yetarlicha farqlamaydilar, biroq ta’lim jarayonidagi ayrim innovatsiyalar bevosita faoliyatning ushbu turiga tayyorlikni rivojlantirishga ehtiyoj sezadilar.

**Xulosa.** Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ushbu anketa so‘rovi, sport faoliyati bakalavrini sport-pedagogik oshirish va menejmentga tayyorgarligini rivojlantirish hamda sport modeliga uzviy bog‘langan, pedagogic sharoitlar majmuasini amalga oshirish va qo‘llash turadi.

Bundan tashqari, olingan natijalar ajratib ko‘rsatilgan sharoitlarni to‘g‘rilashga, ularni amalga oshirishning pedagogik shakllari, vositalari va usullarini izlashga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. “Xalq so‘zi”, 06.03.2018.
2. Djuraev R.X. Ta’lim menejmenti. Darslik, Toshkent, 2006.
3. Sharipov M.F. Talabalarda sport menejmenti malakalarini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma, M., 2011.
4. G‘ulomov Z.T. Sport menejmenti. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2016.

**Muminova Dilafro‘z Akbaraliyevna (Namangan davlat universiteti Boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

**(PhD), dotsent; [dilbarxon2008@mail.ru](mailto:dilbarxon2008@mail.ru)**

**KITOB HAYOTNI YARATUVCHI MURABBIYDIR**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jamiyat va shaxs kitobxonligi, kitobning ta’lim va tarbiya olish jarayonidagi o‘rni, mutolaa madaniyati, kitobning tafakkur qanoti, kitobning dunyoqarashni kengaytirishi, kitob xazina, yoshlarda kitobga muhabbat uyg‘otish, kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, badiiy adabiyot va unga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish hamda elektron adabiyotlar va ulardan foydalanishga doir pedagogik-psixologik ma’lumotlar keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье приводятся сведения об общественном и индивидуальном чтении, значении книги в процессе воспитания и обучения, культуре чтения, формировании книжного мышления, расширении мировоззрения посредством книг, сокровищ, привитие любви к книге у молодежи, развитие навыков чтения художественной литературы и повышения их интереса, а также педагогической и психологической информации об электронной литературе и ее использовании.

**Annotation.** In this article, society and individual reading, the place of books in the process of education and training, reading culture, the wing of book thinking, the expansion of worldview by books, book treasure, instilling a love of books in young people, developing reading skills, fiction and its increasing their interests, as well as pedagogical and psychological information about electronic literature and their use.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, kitob, o‘quvchilar, qalb chirog‘i, tafakkur, jamiyat, kitobxonlik, badiiy adabiyot, tadqiqot, bilim bulog‘i, intellektual, ilg‘or, psixologik, ko‘nikma, mutolaa, nutq, ta’lim, o‘qish, texnologiya, mutolaa madaniyati.

**Ключевые слова:** человек, книга, читатели, озарение души, мышление, общество, чтение, художественная литература, исследование, источник знаний, интеллектуальный, передовой, психологический, навык, чтение, речь, образование, чтение, технология, культура чтения.

**Key words:** *person, book, readers, light of heart, thinking, society, reading, fiction, research, source of knowledge, intellectual, advanced, psychological, skill, reading, speech, education, reading, technology, reading culture.*

Kitob – bilim manbai, deymiz. Bu isbot talab qilmas haqiqat. Zero, inson bilimni, asosan, kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakllanadi. Yoshlarimiz badiiy adabiyotlarni o‘qiganda, ularning dunyoqarashi kengayadi, hayotga munosabati o‘zgaradi. Zero, kitob – qalb chirog‘i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrdan topib bo‘lmaydigan o‘ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mu‘jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko‘ngil cheksiz zavqqa to‘lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur-halovati tamoman o‘zgachadir

Kitobga bolalikdan mehr qo‘ygan bolada kitobxonlik madaniyati erta shakllanib boradi, nutqi ravnashadi, dunyoqarashi kengayadi, ehtimol, ular o‘qishni bilmas, harf tanimas, lekin kitobni tomosha qilish orqali uni o‘qishga, ichidagi sehdan bahra olishga intiladi. Bola bog‘chadan maktab davriga o‘tayoq paytda kitob, kutubxona tushunchalaridan boxabar bo‘lishi, kitobning ta‘sirini sezib maktabga qadam qo‘yishi kerak. O‘shanda maktab kutubxonachisi ham, o‘qituvchi ham qiynalmaydi. Chunki bola kutubxona ahamiyatidan boxabar. Ehtimol, keyinchalik, bo‘sh vaqtini kutubxonada o‘tkazishga o‘zi o‘rganib ham qolishi mumkin. Zero, kitob dunyosida ulg‘ayayotgan bolada yomon illatlar shakllanmaydi.

Jamiyat va shaxs kitobxonligi yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari ham kitob o‘qish katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun yanada ijobiy ta‘sir ko‘rsatishidan dalolat beradi. AdMe.ru saytida e‘lon qilingan ma‘lumotlar ushbu fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Keltirilgan ma‘lumotlar sirasida kitob o‘qishning bolalar va o‘smirlarning umumiy psixologik, intellektual, hatto fiziologik rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan g‘oyalar ham mavjud. Chunonchi, kitob o‘qish: asabni tinchlantiradi, olimlarning yondashuvlariga ko‘ra, kitob o‘qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Buning uchun kuniga bor-yo‘g‘i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi. Hissiyotlarni xuddi duo yoki she‘r o‘qish kabi tarbiyalaydi. Badiiy asar o‘qigan odam hayotda ham boshqalarning histuyg‘ularini yaxshi tushunadi. Miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko‘paytiradi. Emori universiteti (AQSH)ning tadqiqotchilariga ko‘ra, kitob o‘qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘ladi. Kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Obafemi Avolau universiteti (AQSH) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko‘p kitob o‘qigan shaxslarning aksariyati she‘r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi, badiiy asarlarni, ayniqsa, she‘rlarni ifodali o‘qish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega, ijtimoiy faollikni oshiradi, badiiy didni o‘stiradi, xorijiy tillarni o‘rganishni osonlashtiradi, boshqa tillarni o‘rganishda yangi so‘zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi, ko‘p kitob o‘qiydigan bolalar darslarni yaxshi o‘zlashtirishadi, yaxshi hikoyanavisga aylanadi, qancha ko‘p kitob o‘qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi, ota-onalar va farzandlarning o‘zaro munosabatlari yaxshilanadi.<sup>1</sup>

Ma‘lumki, bolalarning kitoblarga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda ular uchun mo‘ljallangan adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Bu esa ko‘plab tadqiqotchilarni bolalar adabiyotlari va ularning yaratish tarixini yaratishga undagan. Ana shunday tadqiqotlardan biri rossiyalik pedagog F.I.Setina tomonidan olib borilgan. Tadqiqotchining bildirishicha, Rossiyada bolalar uchun birinchi badiiy asar XV asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan.<sup>2</sup>

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> farmoyishi, ta‘bir joiz bo‘lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma‘naviyatimizda g‘oyat ulkan voqea bo‘ldi. Ushbu sa‘y-harakat milliy adabiyotimiz va ma‘naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo‘lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o‘rinda xorij tajribasini o‘rganish, yoshlar o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi masalalarning ko‘tarilgani g‘oyatda tahsinga loyiqdir.

<sup>1</sup> <https://zamin.uz/life-style/14196-kitob-oqishning-21-foydasi.html>.

<sup>2</sup> Qayumxo‘jayeva Y. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. T., A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat instituti, 2007, 12 – 48-betlar.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi F-4789-sonli farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 38-son, 1029-modda.

Kitob – bilim bulog‘i. Bu buloqdan bahra olmagan inson johillikka yuz tutadi. U har qanday tubanlikka qo‘l urishi, insoniylikni, vijdonini arzimagan narsaga sotib yuborishi mumkin. Jamiyatda kitobxonlik qay darajada keng ommalashgan bo‘lsa, ziyoli ahli shunchalik ko‘p bo‘ladi, o‘z navbatida, bu joyda umuminsoniy qadriyatlar barqaror turmush tarziga aylanadi.

XX asrning boshlarida ham ilg‘or qarashlarga ega insoniyat yoshlarni kitob o‘qishga, kitobxonlikka rag‘batlantirish jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi asosiy omil ekanligini e‘tirof etgan holda bu yo‘lda amaliy ishlarni olib borishga urindi. N.A.Rubakinning “Kitobxon ruhiyati va kitoblar” (1929), Y.Shafirning “Kitobxon ruhiyatidan ocherklar” (1927), S.L.Valdgardning “Kitob o‘qish psixologiyasi ocherklari”, (1931), Y.V.Rivlinning “Kitob o‘qish psixologiyasi”, (1929) nomli asarlarida shaxsni faol kitobxon bo‘lib shakllanishida nafaqat ruhiy, shu bilan birga, ijtimoiy, pedagogik omillar ham muhim o‘rin tutishi aytib o‘tilgan.<sup>1</sup>

Mavzuga doir tadqiqotlarda shaxsning kitob o‘qishga bo‘lgan munosabati ikki xil, birinchidan, tuzilmaviy (kitob o‘qishning o‘zaro aloqador elementlardan tarkib topgan qandaydir murakkab tuzilmaga ega sifatida tasavvur qilish), ikkinchidan, amaliy (alohida ruhiy jarayonlar – diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot va ularning kitob o‘qish jarayonida namoyon bo‘lishi) yondashuvni o‘zida namoyon etishi tarzida e‘tirof etiladi.<sup>2</sup>

Farzandlarimizni kitob o‘qishga o‘rgatish bilan birga, o‘zimiz ota-onalar ham kitobga oshno bo‘lishni unutmashimiz kerak. Barkamol avlodlarni o‘stirib voyaga yetkazish, kelajakda farovon turmush qurishni orzu qilib intilib yashayotgan har qanday jamiyat, shu jumladan, o‘zbek xalqining ham azaliy orzusidir.

Kitob savdosi va narxi eng og‘riqli nuqtamizga aylangan, desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ammo kitob kartoshka yoki piyoz emas, kitob bu kitob. Uni bir kunda yoki bir oyda sotib, ayniqsa, undan tezda foyda ko‘rib bo‘lmaydi. Kitoblar taqchilligi borasida gap ketganda avvalo narx muammosiga duch kelamiz.

Kitobga, kitob mutolaasiga munosabatni tubdan o‘zgartirish uchun, avvalo, ziyoli o‘qituvchilarga suyanishimiz kerak. Ya‘ni, kitob targ‘ibotchilari qanchalik bilimli, ziyoli bo‘lsa, shuncha ijobiy natijaga erishish mumkin. Aytish kerakki, kitob chiqarish va sotish bu cho‘ntakni qappaytirish yoki biznes qilish emas. Kitoblar qaysi janr yoki mavzuda bo‘lishidan qat‘iy nazar, u ma‘naviyat quroli ekanini mas‘uliyat bilan to‘la-to‘kis anglashimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, kitob tafakkur qanoti, kitob xazinalar bulog‘idir. Farzandlarimiz ilmli, dunyoqararashi keng bo‘lishi uchun, albatta, ularni kitobni sevuvchi va ardoqlovchi qilib tarbiyalash muhim kasb etadi. Dunyo bizga havas bilan boqadigan o‘qimishli va kitobxon mamlakat bo‘lishimiz uchun kitoblar shunchaki javon bezagi emas, balki ko‘nglimizning bebaho mulkiga aylanishi kerak. Shundagina farzandlarimiz qalbiga ezgu g‘oyalarni singdirib, ularni komil inson qilib tarbiyalashimiz mumkin.

**Xolboyeva Gulnora Anorboyevna (p.f.n. Jizzax davlat Pedagogika universiteti  
boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida dotsenti; xolboyeva@jdpu.uz);  
Xolmuratova Nilufar A‘zamjonovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti  
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti)**

#### **BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘qituvchi didaktik o‘yinlar orqali darsni qanchalik qiziqarli olib borsa, o‘quvchi darsga shuncha qiziqib, darsni yaxshi tushinishi haqida, shu bilan birga, didaktika matematika fanini oson o‘zlashtirishiga yaqindan yordam berishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Аннотация.** В данной статье приведены сведения о том, чем интереснее учитель проводит урок посредством дидактических игр, тем больше заинтересован ученик в уроке и тем лучше он понимает тему, и в то же время дидактика тесно помогает ему овладеть математикой.*

***Annotation.** This article provides information about the more interesting the teacher conducts the lesson through didactic games, the more the student is interested in the lesson and the better he understands the lesson, and at the same time, didactics closely helps him master mathematics.*

***Kalit so‘zlar:** arifmetik amallar, fanlararo bog‘lanish, didaktik o‘yinlar, matematik o‘yinlar.*

<sup>1</sup>Збаровская Н.В. Информационная культура личности. “Библиотечное дело”, М., 2005, №1, с. 7 – 8.

<sup>2</sup> Shu manba.

**Ключевые слова:** арифметические действия, межпредметная связь, дидактические игры, математические игры.

**Key words:** arithmetic operations, interdisciplinary communication, didactic games, mathematical games.

Bugungi kunda barchamizga ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi deb qaramay, unga ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir. O'quvchi uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish juda murakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'lim faoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni, dars jarayonida ta'limiy va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin. Ayniqsa, matematika fani mashg'ulotlari davomida didaktikadan foydalanish mashg'ulotning samaradorligini oshiradi.

Mamlakatimizda ham ta'lim sohasida matematika fanini rivojlantirish bo'yicha bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prizidetning 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ta'limning barcha bosqichlarida matematika fanini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsatida 2020 – 2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dasturning ikkinchi ustuvor yo'nalishida umumta'lim muassasalarida matematika fanini o'qitish sifatini oshirish uchun qator vazifalar belgilab qo'yilgan [1].

Boshlang'ich sinflarda ham olib borilayotgan matematika fanini zamonaviy, ya'ni, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib, mashg'ulotlar olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Birgina yuqorida ta'kidlaganimizday, didaktik o'yinli metodlardan foydalanish bugungi kun zamon talablaridan hisoblanadi. Masalan,

$$\begin{array}{ccccccc} \textcircled{400} & + & \textcircled{\quad} & = & \textcircled{432} \\ \textcircled{\quad} & - & \textcircled{24} & = & \textcircled{500} \\ \textcircled{56} & \div & \textcircled{\quad} & = & \textcircled{8} \end{array}$$


**“Darchalarni to'ldir” o'yini.** Didaktik topshiriq. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish. O'yin topshirig'i. O'yin jarayonida bolalarning matematik og'zaki hisoblash qobiliyatini takomillashtirish. O'yin bayoni: uying tartib raqami va yoshini aniqlash. O'yin bayoni: har bir o'quvchining soniga teng ko'rgazma tayyorlanadi, orasiga qo'yilgan varaqqa misollar yozilgan bo'ladi. Bu varaqlarni tez-tez almashtirib turish uchun qulay qilib tayyorlash lozim. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi va hamma o'quvchilarga o'tilgan mavzu asosida yozilgan ko'rgazma tarqatiladi. So'ng bu perfokartochkadagi misollarning javobi qanday bajarilishi tushuntiriladi. Masalan, birinchi qo'shiluvchi 400 bo'lsa, ikkinchi qo'shiluvchi noma'lum bo'lsa, yig'indi 432 bo'lar ekan. Siz ikkinchi qo'shiluvchini qanday qilib topasiz? Buni toping va topgan 32 sonini darchaga yozib qo'ying. Yoki qaysi sondan 24 ni ayirsang, 500




hosil bo'ladi. Demak, 524 dan 24 ni ayirsak, 500 hosil bo'ladi. Shu bois darchaga 524 deb yozib qo'yamiz. 56 ni qaysi songa bo'lsak, 8 hosil bo'ladi: 56 ni 7 ga bo'lsak, 8 hosil bo'ladi, darchaning ichiga 7 soni yoziladi. Darcha ichiga yozayotgan raqamlarimizni oddiy qora qalam bilan yozsak, o'chirib tashlashga qulay bo'ladi.

Bu o'yinni hamma amallar bilan og'zaki savol-javob orqali o'tkazish mumkin. Masalan, men bir son o'yladim. Shu o'ylangan songa 7 ni qo'shib, 97 hosil qiling. O'ylangan sonni toping. 90. Men bir son o'yladim, o'ylangan sondan 100 ni ayirgan edim, 69 hosil bo'ldi. O'ylangan sonni toping. 169. Shunday o'yinlar o'quvchilarni fikrlashga, mehnat qilishga va ularning o'tkir zehni bo'lishiga, tezkorlikka, topqirlikka undaydi.

**“Jim” o'yini.** Didaktik topshiriq. O'quvchilarning og'zaki hisoblashga doir malaka va ko'nikmalari-rini mustahkamlash. O'yin topshirig'i. O'quvchilarning fikrlash qobiliyati va tasavvurini shakllantirish. O'yin bayoni: bu o'yin uchun quyidagi jihozlar tayyorlanadi. Magnitli doska, turli shaklda berilgan mi-sollar yozilgan ko'rgazmalar, raqamli kartochkalar.



O'qituvchi o'yinning sharti bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Magnit doskaga turli shaklda misollar yozilgan rasm yopishtirib qo'yiladi. So'ng o'qituvchi qaysi misolni ko'rsatsa, o'sha misolning javobini raqamli kartochka orqali ko'rsatishi lozim. Bunda oddiydan murakkabga qarab ish tutilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Mana bu shaklga yaxshilab ahamiyat bering, 24 hosil qilish uchun 8, 9, 6, 4, 5, 7 sonlariga qaysi sonlarni qo'shsak hosil bo'ladi, javobini raqamli kartochkalar yordamida ko'rsatishingiz kerak, deb tushuntiriladi.



Bo'sh katakchalar o'rniga shunday son qo'yinki, undan 100 hosil bo'lsin, deb aytiladi. O'quvchilar tez fikrlab javobini raqamli kartochkalar orqali ko'rsatishlari kerak. Bu o'yin o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, hozirjavobligini, topqiriligini o'stirishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarning raqamli kartochka orqali to'g'ri javob berganliklarini, kim xatolikka yo'l qo'rganliklarini o'z vaqtida baholab rag'batlantirib borishi kerak. Bunday o'yinlar o'quvchilarning og'zaki hisoblashi va qiziqishining ortishiga kata yordam beradi [2,3].

Ushbu maqolaning amaliy ahamiyati sifatida shuni aytishimiz mumkinki, har bir o'qituvchi, pedagog, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida, didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalan-

ganda, o'quvchilarning bilimlari yanada oshadi, mustahkam bo'ladi, shuningdek, bu usullar yordamida o'quvchi dars davomida, guruh bilan ishlashga, o'zining fikrini mustaqil bildirishga, masalaga hamma tarafdan yondashishga, mulohaza yuritishga, mavzular doirasida bilimlarini umumiy qilib, dars davomida zerikib qolmaslikka, aksincha, dars tugamasdan davom etishini xohlashiga erishamiz. Pedagog esa, metodlardan foydalangan holda o'tilgan mavzularni o'quvchilarga takrorlatishga, ularni baholashga, darsning o'zgacha o'tilganligiga, o'quvchilar bilan fikr almashishga, o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishi mumkin bo'ladi. Bunda o'qituvchi didaktik o'yin texnologiyalarining talablariga rioya qilishi kerak. Umuman olganda, didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanish darslarni rang-barang, qiziq bo'lib o'tishiga hozirgi vaqtda talab ancha yuqori va bu usullar yordamida tashkillangan darslar kutilgan natijalarni beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli "Matematika soha-sidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/docs/-4807552>

2. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. OO'YU uchun darslik, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2005, 128 – 132-betlar.

3. Bikbayeva N.U., R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma, Toshkent, "O'qituvchi", 1996, 75-bet.

**Jumayev Rustam G'aniyevich (Buxoro davlat universiteti, Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; RJumayev@buxdu.uz)**

### **SIYOSATSHUNOSLIK O'QITISH METODIKASI FANIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FUQAROLIK POZITSIYASI TO'G'RISIDAGI QARASHLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada Sharq mutafakkirlari fuqarolik pozitsiyasi to'g'risida fikr yuritgan bo'lib, ularning insoniy burch, mas'uliyat, majburiyat tushunchalarining tamal toshi hisoblangan ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal qoidalariga asoslanganliklarining o'zi talaba-yoshlar qalbida insoniylik his-tuyg'ularini junbushga keltirib, fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash xususida fikr bayon etilgan. Chunki ajdodlarimizning yosh avlod tarbiyasi to'g'risidagi ta'limoti axloqiy-huquqiy ong, tafakkur, tasavvur, burch, mas'uliyat, majburiyat kabi fazilatlarining mazmun-mohiyatini teranroq anglash va ular asosida ish yuritishga da'vat etadi.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды восточных мыслителей на гражданскую позицию, и тот факт, что они основаны на правилах благородной речи, благородной мысли, благородного поступка, которые считаются краеугольным камнем понятий человеческого долга, ответственности, обязательности, является по воспитанию гражданской позиции, привнося чтобы разжечь чувства человечности в сердцах, потому что учение о воспитании подрастающего поколения наших предков поощряет более глубокое понимание сущности таких качеств, как моральное и правовое сознание, мышление, воображение, долг, ответственность, целеустремленность и действия на их основе.*

***Annotation.** The article examines the views of Eastern thinkers on the civil position, and the fact that they are based on the rules of noble speech, noble thought, noble deed, which are considered the cornerstone of the concepts of human duty, responsibility, obligation, is to educate the civil position, bringing to kindle feelings of humanity in the hearts, because the doctrine of the upbringing of the younger generations of our ancestors encourage a deeper understanding of the essence of such qualities as moral and legal consciousness, thinking, imagination, duty, responsibility, purposefulness and actions based on them.*

***Kalit so'zlar:** mutafakkir, tarbiya, ta'limot, fuqarolik pozitsiyasi, shaxs, fuqaro, pedagogika.*

***Ключевые слова:** мыслитель, воспитание, доктрина, гражданская позиция, личность, гражданин, педагогика.*

***Key words:** thinker, education, doctrine, civic posture, personality, citizen, pedagogy.*

***Kirish.** Shuni e'tirof etish joizki, o'zbek millati fuqarolik pozitsiyasining asosini tashkil etgan axloq-odob masalasi allomalar ta'limotida ulug'lanadi. Uning mazmunida insonga g'amxo'rlik qilish, uning hayoti haqida qayg'urish, husn, latofat, nazokat, odamiylik kabi fazilatlar asosiy manba sifatida qo'llanilgan. Shuning uchun ham bo'lajak oliy o'quv yurtlarida bo'lajak ma'lumotli mutaxassislarni buyuk alloma va mutafakkirlarning ma'naviy o'gitlaridan bahramand qilib, ular ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya ishlarini*

tashkil etib, talablarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini yo'lga qo'yish hozirgi davr pedagogika nazariyasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili.** Yaqin va O'rta Sharq Uyg'onish davri allomalarining fuqarolik pozitsiyasi va undagi shaxslarning fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi qarashlari, ularning ko'plab asarlarida ilmiy-amaliy jihatdan o'z ifodasini topganligining guvohi bo'lish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abu Nasr al-Forobiyning (873–933) axloqiy-ma'rifiy g'oyalari diqqatga sazovordir. Al-Forobiy Sharq Aristoteli, ikkinchi muallim degan unvonlarga sazovor bo'lgan buyuk allomadir. Uning 160 dan ortiq yaratgan asarlari falsafa, tabiatshunoslik, ta'lim-tarbiyaga oid bo'lib, undagi g'oyalar ilmiy-falsafiy va pedagogik jihatdan asoslangan. Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishish haqida», «Matematika traktati», «Donolik javohiri», «Fozil shahar aholisining qarashlari» kabi asarlarida mamlakat hamda uning rahbarlarini fozil va johillarga ajratadi. Fozil mamlakat hokimining fozilligi tufayli bu mamlakatda ilm-fan, pozitsiya, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda turadi. Uning fuqarolari esa ijobiy fazilatli bo'lib, yaxshilik qilishni, adolatli bo'lishni va ma'rifatli, jamoada yashash hamda mehnat qilishni o'zlarining asl fuqarolik burchlari deb biladilar. Shuning uchun har doim ularga g'alaba yor bo'ladi.

Forobiy shaxs-fuqarolik pozitsiyasi xususida fikr yuritar ekan, uning go'zal xususiyatlarini ta'lim va tarbiya bilan hal qilish mumkinligini ilmiy asoslab, o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida shunday yozadi: «Xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni, ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilatni birlashtirish degan so'zdir». «Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug' tug'ma fazilat va ulug' kasb (kasb-hunar) fazilati, odat-malaka bo'lib qolgan odamlarda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababchisi bo'ladi. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hal qilinadi. Ta'lim degan so'zlar xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazorat fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir»[1]. Forobiy bu bilan ta'lim faqat so'z va voqelikni o'rganishni ta'minlashga xizmat qilsa, tarbiya amaliy ish, tajriba orqali amalga oshiriladi, deydi.

Forobiy bilimli, ma'rifatli, insongina fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lib donishmand kishi bo'lishi mumkin deb, ular to'g'risida so'z yuritar ekan, shunday yozadi: «Donishmandlarga ishonib, ixlos qo'yib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Ba'zilar esa bu narsalarni boshqalarning tasavvurlaricha, taqlid orqali biladilar. Bunday odamlar tabiatan yoki odatlariga ko'ra ruhiy bilimlarni aslida qanday mavjud bo'lsa, shunday tushunish qobiliyatiga ega emaslar. Mana shu ikki xil tasavvur ham bilim manbayidir, ammo donishmandlarning bilimlari, albatta, eng yaxshi bilimdur». «Fozillar shahrining barcha aholisi samoviy xilqatlarni va ulardan har birining sifatlarini, so'ng shu xilqatlardan pastdagi tabiiy jismlarni, shuningdek, ularning qanday vujudga kelishi va yo'nalishi hamda ularda yuz berayotgan barcha hodisalarning mukammalligi, yaxlitligi, muruvvat, adolat bilan, oqilona ekanligini, bu hodisalarda hech bir nuqson, hech bir adolatsizlik yo'kligini bilishlari zarur» [2]. Shuning uchun insonlar voqelikdagi ma'lumotni bilishlari, bir-birlarini adolat va hurmat qilishlari, o'zaro insoniy munosabatda bo'lishlari lozim.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) – Sharqda «Shayx ur-raisi» (Olimlar raisi) unvoni bilan taqdirlangan. Bobokalonimiz Ibn Sino O'rta asrlar fanining turli: falsafa, tibbiyot, tabiatshunoslik, dorishunoslik, kimyo, astronomiya, ruhshunoslik, pedagogika, fiziologiya, adabiyot sohalarida asarlar yozib, jahon fani uchun juda katta va bebaho ilmiy meros qoldirdi. Ibn Sinoning pedagogik faoliyatida fuqarolik tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'z yurti va Vatanining jonkuyar farzandi bo'lgan ibn Sino yoshlarni qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar, o'z xalqi, mamlakati ravnaqi, gullab-yashnashi, tinchligi va baxt-saodati uchun kurashishga da'vat etadi. Buning uchun Ibn Sino bolalar eng yoshlik davridan boshlab o'z Vatanining sarhadlarini, fuqarolarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini, tarixiy merosini sinchiklab o'rganishlari va unga ijobiy munosabatda bo'lishlari lozim, deb biladi. O'zining bu g'oyalarini «Kitob al-shifo» to'plamidan o'rin olgan «Kitob ul-insof», «Donishnoma», «Hayy ibn Yaqzon», «Solomon va Ibsol» kabi asarlari mazmuniga singdirib, fuqarolarga xos insoniy pozitsiyani ulug'laydi. Bu asarlarda haq va haqsizlik, xalq manfaatini uchun kurash, adolat tantanasini ulug'lash, shaxs fuqarolik pozitsiyasining eng yaxshi belgisi sifatida tavsiflanadi. Darhaqiqat, Ibn Sinoning «Donishnoma» asarida fuqarolarning ilm-fanni egallashlari, hunar o'rganish, xalq va mamlakatga foyda keltirishlarini ta'kidlaydi. Chunki ilm-fan, kasb-hunar insonni ma'naviy yuksaltiradi va jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ilm-fan fuqaro pozitsiyaliligi uchun bamisli shamchiroqdir. Allomaning fikricha, yaxshi odat, yaxshi

xulq, o'zini anglash, fuqarolik burchini his etish, bilim egallash, Vatan ravnaqi uchun mehnat qilish faqat ilm-fan orqali qo'lga kiritilishi mumkin [3].

Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida fuqarolarning hayoti va faoliyati mamlakatning kichik ya-cheykasi bo'lgan jamoada tarkib topishi, amalga oshishi va rivojlana borishi mumkinligi alohida ta'kidlanadi. Uning fikricha, inson o'zini o'rab turgan tabiat va tabiiy hodisalariga, tashqaridagi narsalarga shunday muhtojlik sezadiki, bu narsalarni u faqatgina jamoa bo'lib mehnat qilish orqali qo'lga kiritishi mumkin. Bunda jamoa a'zolari bir-birlarini hurmat qilishlari, qo'llab-quvvatlashlari, o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishlari lozim. Bunday munosabatda ma'rifiy odatlar yordamida fuqarolik pozitsiyasi yuzaga keladi va insonlarni inoqlikka, yaxshilik qilishga yo'naltiradi.

Ibn Sinoning fuqarolik pozitsiyasiga oid qarashlarida aql va aqliy tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, aql va aqliy tarbiya fuqarolikka mansublikni anglashda tabiiy va ruhiy holatlarning mohiyatini ochib berishga ko'maklashadi. Hayot, hayotiy quvvat, mehnat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi. Bularning mohiyatini inson aql va tafakkur orqali anglab oladi. Aql va tafakkurni rivojlantirish esa aqliy tarbiyaning vazifasidir. Ibn Sino bolada fuqarolik pozitsiyasini oilada, uy-ro'zg'or tutish odatlariga o'rgatish orqali shakllantirishni tavsiya qiladi. Shuning uchun Alloma ota-onalar, avvalo, ro'zg'or tutishda tejamli, o'z nuqson-kamchiliklarini tuzatib borishlari, o'z shaxsiy manfaati va ehtiyojlarini oila manfaati va ehtiyojidan ustun qo'ymaslikka harakat qilishlari lozim, deb biladi.

**Tahlil va natijalar.** IX–XII asrlar pozitsiyasi va ma'rifati taraqqiyotida shu davrning ko'zga ko'ringan mutafakkiri Yusuf Xos Hojib (1021-yilda tug'ilgan, vafot etgan yili noma'lum) hisoblanadi. U o'zining 1069–1070-yillarda yozgan «Qutadg'u bilig» («Qutga, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim») asarida eng yaxshi insoniy fazilat va xususiyatlar ramziylashtirilgan. Bunda adolat Quntug'di deb nomlanib, shohning vazifasini, davlat – Oyto'ldi vazir vazifasini, aql-zakovat–O'gdulmish, qanoat esa O'zg'urmish va shoh maslahatchilari vazifasini bajaruvchilar sifatida tasvirlangan. Mutafakkir o'z asarida raiyat (oddiy xalq, fuqaro)ning aql-zakovati, adolati, qanoati va insoniy fazilatlarini uni baxt-saodatga erishtiradi deb, xulosa yasaydi. Shuning uchun butun asarda bir nuqta fuqarolik pozitsiyasiga ega inson masalasi qizil ip bo'lib o'tadi. Asarda oddiy fuqaro, mehnatkash insonning ijtimoiy mohiyati, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi o'rni, vazifasi bayon etilib, fuqaro bilimi, mehnati, o'zgalarga bo'lgan munosabati, muomalasi, aql-idroki, sabr-toqati, adolati yordamida chinakam kamolga yetadi, degan g'oya ilgari suriladi. Asarda turli-tuman kasb egalari – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar va boshqalarning kasb xususiyatlari, fazilatlarining e'tirof etilishi shu kasb egalari bo'lgan muhabbat va hurmat ifodasini anglatadi. Barcha kasblar mazmunida fuqaroning bilim darajasi, aql-idroki, zakovati, qanoati, sabr-toqati ifodalaniib, ular insonni komillikka eltuvchi omil sifatida gavdalanitiriladi. Shuning uchun Yusuf Xos Hojib podshohlarning bilimli, aql-zakovatli, qanoatli bo'lishlarini, o'zboshimchalik va qonunsizlikka yo'l qo'ymasliklarini maslahat beradi.

Yusuf Xos Hojib bilimni shaxs fuqarolik pozitsiyasining asosi hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning rivoji uchun qudratli kuch deb biladi va uni egallashga da'vat etadi. Mutafakkir ijtimoiy hayotni, axloqiy muhitni faqat bilim bilan yaxshilash mumkin deb biladi. Chunki bilim har qanday jumboq va dardlarning kaliti hisoblanadi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib qanoatning, aql-zakovatning yuksalishiga katta ta'siri mavjudligini ta'kidlaydi. O'zg'urmish (qanoat)ning O'gdulmish (aql-zakovat) so'zlariga bergan javobida barcha yaxshiliklarning, baxt-saodatning asosi ezgulik, vafo, adolat, haqiqat ekanligini uqdiradi va doim yolg'on, munofiq ishlardan uzoq bo'lishi kerak, deb maslahat beradi.

Shunday qilib, XI asrda yashab o'tgan Yusuf Xos Hojib odamlarning bir-birlariga mehr-muhabbatli, sadoqatli bo'lishlari, imkon darajasida ezgu ishlarni ko'proq qilishlarini, yolg'ondan, yomondan uzoq yurish lozimligiga alohida ahamiyat beradi. «Qutadg'u bilig» asarida ko'tarilgan ma'naviylik, madaniylik, axloqiylik, ma'rifatparvarlikni talaba-yoshlar ongiga singdirish, bilim, o'quv-idrok, qanoat asosida ish tutishga o'rgatish fuqarolik pozitsiyasi asoslarini tarbiyalaydi va fuqarolik burchi fuqarolik his-tuyg'ulari, fuqarolik tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Demak, o'quv-idrok, bilimlilik, ezgulik, zakovat, qanoat komillikning muhim xususiyatlari ekan, Quntug'di shu sifatlarga rioya qilishi va bu fazilatlarini o'zida shakllantirishi zarur. Buyuk alloma ilm va ma'rifatni pozitsiyali hayotning tamal toshi deb biladi. Shoir ilmi kishida xushxulqlik, mehribonlik, sa'y-harakat, yovuzlikdan saqlanish kuchli bo'ladi deb biladi. Shuning uchun ham tinchlik, baxt-saodat, ezgulik, taraqqiyot ilm asosida qurilgan inshootlardir [5].

O'zbek xalqining pozitsiyasevar, pozitsiyaparvar, adolat bayroqdori va davlat arboblardan biri Amir Temurning (1336–1405) fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi fikrlari bugungi kun uchun muhim va

ahamiyatlidir. Chunonchi, Amir Temur – buyuk shaxs, davlat arbobi, yetuk sarkarda, mard va adolatli shoh, valiylar suhbatini sevuvchi, ulardan ma'naviy ozuqa oluvchi, iymon-e'tiqodli inson, talantli me'mor, notiq, ruhshunos va pedagogdir. Amir Temurning fuqarolik pozitsiyasiga xos fazilatlaridan yana biri mamlakatda ilm-fanni rivojlantirish, yurt obodonchiligi, fuqaro tinchligi va faravonligiga e'tibor qaratganligidir. Amir Temur o'z saltanatida ilm-fan rivojiga e'tibor berish bilan birga, fuqarolarning tarbiyasiga ham alohida e'tibor bilan qaraganligining shohidi bo'lamiz. Amir Temur mamlakatida iymon va e'tiqod fuqarolik pozitsiyasining asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi. Bu mezonlar diniy aqidalarni mukammal bilish, javonmardlik, bahodirlik, fuqaro manfaatini ko'zlab ish tutish kabi insonparvarlik va adolat mezonlari bilan mustahkam tarzda amal qilgan.

Amir Temur ilm-fanni egallashda bilimning ahamiyatini teran tushungan shaxs. Chunonchi, bilim olish milliy g'ururni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Bilimsiz inson kamolotga erisha olmaydi. Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan odobli, axloqli, kamtarin, yaxshi, yomonni tushundigan fozil inson bo'ladi. Amir Temur bilimning ahamiyati va darajasini davr pozitsiyai, taraqqiyot rivojidan yuqori bo'lishi uni o'ziga ergashtirishga xizmat qilishi lozim, deb bilgan. Shu bois mamlakatda ta'lim-tarbiyani kuchaytirish uchun masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurib diniy va dunyoviy ilmlarni o'rgatishni yo'lga qo'ygan. "Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni buyurdim. Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim. Turli mamlakatlardagi sadrlar va qoziylarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar berib turishni buyurdim" [9]. Pozitsiyaning ma'naviy nur, ma'rifiy shamchiroq bo'lib, ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayot yutuqlarini ta'minlashda muhim qurol bo'la olishini, shuningdek, pozitsiya kishilarning o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va donishmandligida namoyon bo'lishini teran anglagan kishilar Amir Temur tomonidan rag'batlantirilgan.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari markazida inson va uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish hamda fuqarolik pozitsiyasi g'oyasi turadi: "...ra'iyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko'rsatdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz urib oldimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim. Farzandlar, qarindoshlar, oshno-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni unutmadi. Har kimni (turish-turmushning past-u balandlarida) turli yo'llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim" [9]. Shariat va urf qonunlarini nazarda tutgan holda, odamlar bilan muomala qilinsa, ular shohga ishonadilar va uning aytganlarini jon-u dil bilan bajarishadi. Amir Temur mudom shunga amal qilgan.

Shaxsning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo'nalishida bebaho meros qoldirgan buyuk mutafakkirlardan biri, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiydir (1441–1501). U yosh avlodning axloqiy-ma'naviy shakllanishiga, uning komil fuqaro bo'lib tarbiyalanishiga katta e'tibor bilan qaraydi. Uning "Hayrat ul-abror" (1483), "Farhod va Shirin" (1484), "Layli va Majnun" (1484), "Sab'ayi sayyor" (1484), "Saddi Iskandariy" (1485) kabi dostonlarida komil inson masalasi jaranglab turadi [9]. Alisher Navoiyning fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi tasavvurlari komil inson g'oyasi bilan sug'orilgan. Zero, uni komillik konsepsiyasining mazmuni adolat, faqirlar to'g'risida qayg'urish, yo'qsillarga, beva-bechoralaraga g'amxo'rlik qilish, bilim va donishmandlik, ota-onaga hurmat, e'zoz, mehnatsevarlik, o'z luqmasini halol yo'l bilan topish, beg'araz do'stlik, ishbilarmonlik, hunar egallash kabi shaxs pozitsiyaining tarkibiy qismlaridan iborat bo'lgan. Yuksak fuqarolik pozitsiyasi uchun kurashgan shoir o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolaridan kelib chiqib, o'z asarlarida adolat, saxiylik, hunar o'rganish, xushomadgo'ylikka, ikkiyuzlamachilikka, o'z manfaati yo'lida har qanday pastkashliklarga boruvchilarga qarshi kurashish g'oyalari ilgari surgan.

Shaxs fuqarolik pozitsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan adolat, xalq va mamlakat manfaati uchun qayg'urish tuyg'usi Alisher Navoiy ijodining bosh g'oyasini tashkil etadi. Shoir adolat, insonparvarlik g'oyalari uchun kurashgan fuqarolarni, fuqaroparvarlik va mehnatparvarlikni o'z ijodining mahsuli, deb biladi va fuqarolarni hayot hamda tafakkur yo'lini yorituvchi shamga qiyoslaydi [10].

Fuqarolik pozitsiyasining muhim xususiyatlaridan biri ota-ona hurmatini bajo keltirish deb bilgan. Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida shunday yozadi. Odob va Tavoze'ni fuqarolik pozitsiyasining muhim mezonlaridan deb bilgan alloma "Mahbub ul-qulub"ning «Tavoze' va odob to'g'risida» nomli qismida shunday yozadi: "...Odob – kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odob-

li yoshga bo'lgan muhabbat ko'nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori bu odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi" [10].

"Mahbub ul-qulub"ning uchinchi qismi "Turli foydali va maslahatlar"ga bag'ishlanib, unda odamiylik, chin insoniylik to'g'risidagi g'oyalari shoirning o'z hayot tajribalaridan keltirgan voqealar bayonini ifoda etadi. Bu qismdagi pand-nasihatlari Navoiyning yuksak insoniy fazilatlar, ezguliklarni madh etish, targ'ib etish, ayni paytda, fuqarolardagi xunuk, insoniylikka xos bo'lmagan xislatlarni tanqid ostiga olishi, uning ijtimoiy qarashlarini aks ettiradi.

Buyuk allomaning "Lison ut-tayr" asarida ham inson va uning ulug'ligi, sabr-toqatliligi, kamtarinligi, eng muhimi, o'zligini, o'zini anglashi to'g'risidagi g'oyalari teran mazmun, serjilo badiiy bo'yoqlar orqali bayon etilganki, ular bevosita yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun muhim manba bo'la oladi. Mazkur asarni o'rganish va uning ma'naviy-axloqiy mazmunini talaba-yoshlar diqqatiga havola qilish o'qituvchidan, albatta, katta bilim, yuksak badiiy-adabiy, ruhiy-pedagogik mahorat talab etadi. Chunonchi, muallif bu asarda o'zini, o'zining ma'naviy-axloqiy va falsafiy-pedagogik qarashlarini bayon etar ekan, sabotli bo'lish, chidamlilik, kamtarona hayot kechirish, xalq g'ami bilan yashash, zohiran va botinan Ollohga mansublik, hamnafaslik, Haq yo'lida riyozat chekish kabi ma'naviy-axloqiy g'oyalarini bayon etadi. Asar mazmuni Navoiyning hayot mazmunidir. Shunga asosan, asar o'rganilayotgan va badiiy-tarbiyaviy xususiyatlari tahlil qilinayotganida uning g'oyaviy mundarijasini emas, balki Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Fakr-u Fano kabi manzillarining g'oyaviy-axloqiy mazmunini tahlil qilish orqali mutafakkirning komil shaxsning fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi g'oyasini anglash mumkin bo'ladi. Fuqaroviylikning muhim xususiyatlaridan biri – o'zini va o'zligini anglashdir. Ya'ni, Olloh jamoliga yetishish hamda o'zgaralarni kamolotga erishishiga yo'l ko'rsatish, riyozat chekishdir.

Buyuk mutafakkirning fuqarolik pozitsiyasi to'g'risidagi qarashlarini umumlashtirib, ular quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topgan deb xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiyning pedagogik merosini o'rganish uni talaba-yoshlar ongiga yetkazish va shu asosida fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan quyidagilarga e'tibor qaratishni tavsiya qilamiz:

- fuqarolik pozitsiyasining negizi axloq va axloqlikdir;
- jamiyat, millat, xalq uchun fidoyi inson bo'lish uchun adolat, haqqoniyat, vijdon amriga rioya qilish;
- yaxshi xulqlarni har qanday insonni qudratli, matonatli, qanoatli qilishiga qodir kuch deb bilish;
- yomon xulqlardan saqlanish, chunki ular jaholat va halokatga yetaklaydi;
- axloq, axloqlik, barkamollik fuqaro pozitsiyasining shakllanishi uchun qudratli kuch hisoblanadi. Shuning uchun ularni talaba-yoshlarda tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, fikrlarni yakunlab shuni aytish mumkinki, O'rta asr mutafakkirlarining fozil inson, orif fuqaro, komil shaxs to'g'risidagi ta'limoti, yosh avlodni mehnatsevar, vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalashda eng muhim dastur bo'lib xizmat qila olgan va u talaba-yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qodir. Buyuk allomalarning barkamol inson, pozitsiyali fuqaro xususida yuritgan fikrlari metodologik ahamiyatga ega. Chunki ular nafaqat o'tmish, balki bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усмонбоева М.Х. Умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиларининг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш (VIII – IX синфлар мисолида). Педагогика фан. номз. дисс. автореферати, Т., 2000, 23 б.
2. Ушинский К.Д. Асарлар. Т.8, М., ЛПН РСФСР, ПФА нашриёти, 1950, 774-бет.
3. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. Т., "Шарқ", 2003, 512-бет.
4. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов ва бошқалар, масъул муҳаррир А.Жалилов, Т., "Шарқ", 2004, 384-бет.
5. Фалсафа. Қомусий луғат (тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). Т., "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004, 496-бет.
6. Фарберман Б.Л. Илғор педагогика технологиялар. Т., "Фан", 2000, 128-бет.
7. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Т.: 1993, 224 б.
8. Маҳкамов У.И. Ўқувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. Т., "Фан", 1995, 200-бет.
9. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. Т., 1998, 163-бет.

10. Ҳақимов Х.Н. Ўқувчи шахсини шакллантиришда, жисмоний ва маънавий ахлоқий тарбия интеграциялашувининг педагогик шарт-шароитлари. Пед. фанл. бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати, 2019, 27 б.

11. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. Қарши, “Насаф”, 2000, 80-бет.

12. Мусурмонова О. Юқори синф ўқитувчиларининг маънавий маданиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари. Пед. фан. д-ри...дисс., Т., “Фан”, 1993, ТДПИ, 1993, 364 бет.

**Saparov Kalandar Abdullayevich (Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasini professori),  
Xonnazarova Mamlakat To‘lqinovna (Nizomiy nomidagi TDPU Zoologiya va anatomiya kafedrasini  
o‘qituvchisi; e-mail: [xonnazarova@mail.ru](mailto:xonnazarova@mail.ru))**

## **OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZOOLOGIYA FANINI O'QITISHDA "ZOOLOGIYA" ELEKTRON TA'LIM RESURSIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Аннотация.** Мақоллада мamlakatimizda ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida ilg'or texnologiyalar hamda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish, elektron darslik, ularni yaratishga qo'yiladigan umumiy talablar, elektron darsliklarning an'anaviy darslikdan farqli tomonlari yoritilgan. Mazkur maqola tadqiqot ishining vazifasi asosida ishlab chiqilgan "Zoologiya" elektron darsligi, uning tarkibiy qismlari, undan foydalanish metodikasi haqida fikrlar keltirilgan.

**Аннотация.** В статье освещаются цели эффективной организации образовательных процессов в нашей стране, развитие передовых технологий и электронных образовательных ресурсов, электронных учебников, их использование, общие требования к их созданию, отличия электронных учебников от традиционных. В частности, приводятся суждения об электронном учебнике «Зоология», его составных частях и методике его использования, разработанной исходя из задачи исследовательской работы.

**Annotation.** In order to effectively organize educational processes in our country, the development of advanced technologies and electronic educational resources, their use, electronic textbooks, the general requirements for their creation, and the differences of electronic textbooks from traditional textbooks are highlighted in the article. In particular, opinions are given about the "Zoology" electronic textbook, its components, and the methodology of its use, developed on the basis of the task of the research work.

**Kalın so‘zlar:** elektron ta'lim resurslari, o'quv jarayoni, elektron darslik, multimediali elektron darslik, video, animatsiya, videodarslar, nazorat testlari, "Zoologiya" elektron darsligi, "Bandicam" dasturi, Ispring Suite dasturi.

**Ключевые слова:** электронные учебные ресурсы, учебный процесс, электронный учебник, мультимедийный электронный учебник, видео, анимация, видеоуроки, контрольные работы, электронный учебник «Зоология», программа «Bandicam», программа Ispring Suite.

**Key words:** e-learning resources, educational process, e-textbook, multimedia e-textbook, video, animation, video lessons, control tests, "Zoology" e-textbook, "Bandicam" program, Ispring Suite program.

Bugungi zamon ta'lim tizimi jahon miqyosida barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida "butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan [1]. Ushbu konseptual yondashuv doirasida, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida zoologiya fanini zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga talabalarning kasb mahorati va o'quv-uslubiy faoliyatlarini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini muntazam yuksaltirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonida [2] 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish (47-maqsad), xususan, milliy o'quv dasturiga asosan, 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darslik, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish dolzarb vazifalar sifatida belgilangan.

Barcha fanlar qatori, zoologiya fani doirasida tashkil etiladigan mashg'ulotlarni ham elektron ta'lim resurslari vositasida tashkil etish va maqsadli elektron darsliklarni yaratish davr taqozosi sanaladi.

**Elektron darslik.** Amaldagi DTS, o'quv reja va dasturlar hamda tasdiqlangan darslikka asoslangan holda, dasturchi, dizayner, uslubchi va darslik muallifidan iborat ijodiy guruh tomonidan yaratiladi [3].

An'anaviy darslikdan farqli ravishda, elektron darsliklar o'z tarkibida nafaqat matn, balki rasm, chizma, grafik, formula, multimedia, animatsiya, videolavha, nazorat savollari va topshiriqlari, o'yin, test, krossvord kabi resurslarni mujassam etadi. Elektron darslik ma'lum tuzilmaga ega bo'lib, unda kerakli ma'lumotni izlash, tez ochish, takrorlash kabi funksiyalar mavjud. Talabalarning mavzu materiallarini o'zlashtirishlarida elektron darslikdagi xususiyatlar, o'chib yonish, rangni ajratib ko'rsatish, tagiga chizib qo'yish, ovoz kabi vositalar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolarni yechish uchun berilayotgan ma'lumotlarning sifatini oshirish va elektron darslikda bir qator imkoniyatlar yaratish lozimki, ular yordamida ko'pgina parametrlarni o'zgartirishdan iborat [4].

Elektron darsliklardan bevosita o'quv jarayonida hamda darsdan tashqari mustaqil ta'lim olish uchun foydalanish mumkin. Zoologiya darslarida elektron darsliklardan foydalanilganda, talabalar quyidagi ijobiy imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- har bir mavzu yakunida savollar ro'yxati mavjudligi;
- foydalanish sodda va oson ekanligi;
- dasturning muloqotli shaklda tuzilganligi;
- video va audioma'lumotlar bilan boyitilganligi;
- matn qismi avtomatik harakat qilib yaratilganligi;
- talabalar bilimni nazorat qilish bo'limi mavjudligi;
- elektron darslikdan foydalanish qoidalari yoritilganligi va b.

Elektron darsliklar kompyuterli o'quv uslubini qo'llashga va fanga oid o'quv materialining har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga asoslangan o'quv adabiyoti bo'lib, ular quyidagi to'rtta darajadan bit-tasiga taalluqli bo'lishi mumkin.

1-daraja: o'quv materialini faqat verbal (matn) ko'rinishida taqdim etadigan elektron darslik;

2-daraja: o'quv materialini verbal (matn) va grafik (tasvirli) shaklda taqdim etadigan elektron darslik;

3-daraja: multimedia darsligi, ya'ni, ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklida taqdim etiladigan multimediali elektron darslik;

4-daraja: material ovozli va uch o'lchamli fazoviy ko'rinishda bo'lib qolmasdan, taktik (his qiluvchi, seziladigan) xususiyatli ma'lumotlar vositasida bayon qilinib, o'rganuvchini "ekran olamida" stereonuxasi tasvirlangan real olamga kirish va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan elektron darslik [5].

Quyida biz zoologiya fanidan ishlab chiqilgan "Zoologiya" elektron darsligi va undan foydalanish metodikasini yoritib o'tamiz.



**1-rasm. Elektron darslikning asosiy ko'rinishi.**

Ushbu elektron darslik quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

- |                                          |                                        |
|------------------------------------------|----------------------------------------|
| 1. Ma'ruzalar materiallari.              | 5. Videodarslar.                       |
| 2. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar. | 6. Nazorat testlari.                   |
| 3. Taqdimotlar.                          | 7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. |



4. Qizil kitob.


8. Muallif.

Ushbu elektron darslikdan talabalar nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, balki peadgogik faoliyatlarida foydalanishlari mumkin. Elektron darslikka kiritilgan materiallar maktab o'quv dasturiga ham moslashtirilgan. Elektron darslikning "Ma'ruza materiallari" qismida 6 ta mavzu bo'yicha ma'lumotlar kiritilgan (2-rasm).



2-rasm. Elektron darslikning "Ma'ruza materiallari" oynasi.

"Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar" qismida zoologiya fani bo'yicha talabalar egallagan bilimlarini mustahkamlovchi amaliy va laboratoriya topshiriqlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan, baliqlar (pisces) katta sinfi, tog'ayli baliqlar (chondrichthyes) sinfi, tikanli akulaning tashqi tuzilishi va skeleti, suyakli baliqlarning tashqi tuzilishi va skeleti, tirik zog'ora baliqning ichki tuzilishini o'rganish bo'yicha amaliy topshiriqlar ishlab chiqilgan (3-rasm).



3-rasm. Elektron darslikning "Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar" oynasi.

Shuningdek, ushbu qismda har bir amaliy va laboratoriya topshiriqlari yakunida mustahkamlovchi savollar hamda baholash tizimi keltirilgan. Foydalanuvchi uchun ushbu ma'lumotlarni shu jarayonning o'zida chop etish va undan tarqatma materiallar sifatida foydalanish imkoniyati mavjud.

“Taqdimotlar” qismida OTM talabalari va umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mavzular asosida tayyorlangan taqdimotlar joylashtirilgan (4-rasm).



4-rasm. Elektron darslikning “Taqdimotlar” oynasi.

Zamonaviy elektron ta'lim resurslari haqida gap ketar ekan, shu o'rinda videodarslar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bizga ma'lumki, videodars – bu qisqa muddatli, ma'lum bir formula yoki jarayonni talqin qilish uchun yaratilgan rolik hisoblanadi. Formatini TV-ko'rsatuvga o'xshab ketadi. Bunday videodarslar uchun oldindan mukammal va puxta ssenariy tuziladi. Videodarsni olishda har bir aytiladigan jumla va kadrda ko'rsatiladigan elementlar oldindan rejalashtiriladi.

Videodars yaratish uchun umumiy talablar quyidagilar:

- ilmiylik – o'quv materiallarni ilmiy jihatdan asoslanganligi, to'g'riligi, chuqurligi va eng oxirgi ilmiy yangiliklarga asoslanganligi;
- o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi, o'quvchiga tushunarli bo'lgan ravon tilda o'rtacha tezlikda bayon qilinganligi;
- ko'rgazmalilik – videodars yoritiladigan o'quv materialini o'quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinishiga erishish;
- o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltiradigan va rag'batlantiradigan bo'lishi;
- tizimli, ya'ni, oldin o'tilgan mavzuni eslatib, o'tiladigan mavzuni chuqurlashtirish va keyingi mavzuga o'tish uchun ko'prik bo'lishi kerak;
- o'tiladigan mavzuni mustahkam o'zlashtirish imkonini berish;
- adaptiv–o'quv materialidan foydalanadigan o'quvchini qabul qilish tempiga moslashadigan bo'lishi;
- interaktiv – imkoniyat doirasida o'quvchini faollashtiradigan uslublardan foydalanish;
- mualliflik huquqlariga rioya qilish, ya'ni, internet va boshqa manbalardan olingan videodarslardan foydalanishda muallifni qayd etish, imkoniyat doirasida tarjima qilish yoki foydalanish uchun ruxsat olish;
- videodarsni yoritishda etik qoidalarga rioya qilish.

Zoologiya ta'limi samaradorligini oshirish maqsadida elektron darslikda "Videodarslar" oynasi tashkil etildi. Ushbu qismda (5-rasm) "Bandicam" dasturi yordamida tayyorlangan videodarslar joylashtirilgan. Foydalanuvchilar ushbu videodarslarni uyali aloqa vositalari yoki kompyuter qurilmalariga ko'chirib olishlari va ta'lim jarayonlarida foydalanishlari mumkin.



5-rasm. Elektron darslikning "Videodarslar" oynasi.

Elektron darslikning "Nazorat testlari" qismida (6-rasm) mavzular bo'yicha Ispring Suite dasturida tayyorlangan 11 turdagi testlar kiritilgan bo'lib, bu talabalarning fan yuzasidan egallagan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.



6-rasm. Elektron darslikning "Nazorat testlari" oynasi.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizning tabiatining biologik va landshaftlar xilma-xilligi milliy boyligimizning ajralmas qismidir. Bu boylik bir necha ming yillik evolutsiya davomida yuzaga kelgan hamda ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan ulkan merosdir. Zimmamizda bu merosni avlodlarga xilma-xil va barqaror tizim ko'rinishida qoldirishdek ulkan va mas'uliyatli vazifa turibdi [6].

Yuqorida keltirilgan vazifani amalga oshirish maqsadida "Qizil kitob" oynasi ishlab chiqildi. Mazkur qismda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan baliqlar to'g'risida ma'lumotlar kiritilgan. Foydalanuvchilar O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan noyob baliqlar, respublikamizning qaysi hududlarida tarqalganligi, yashash muhiti, ko'payishi, noyob xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu esa ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning ne'matlaridan oqilona foydalanish, Vatanparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantiradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, elektron darsliklar quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi [7]:

- ta'limni va o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishini ta'minlashi;
- mustaqil ta'lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining yaratilishi;
- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligi;
- axborot-ta'lim resurslarini rivojlantirish va tezkor yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- matn, shuningdek, boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) orqali taqdim etilishi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zoologiya ta'limini elektron darsliklar asosida tashkil qilish o'quv materiallarini fanning so'nggi fan yutuqlari asosida tezkor yangilab borish va shunga o'xshash bir qator afzalliklar tug'diradiki, an'anaviy darslikdan elektron darslikning ustunligi, uning "intellektual" kuchga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ma'lumotlarni o'z vaqtida va kerakli joyda taqdim etish imkoniyatiga ega ekanligida yaqqol seziladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
3. Taylakov N.I. Elektron darslik yaratishga qo'yiladigan talablar. "Xalq ta'limi" jurnali, 2005, 2-son.
4. Djurayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. T., "Sano-standart", 2010, 87-bet.
5. Usmonov M. Interaktiv elektron o'quv kurslar – o'qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. "Xalq ta'limi", 2011, 6-son, 22 – 23-betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi. II jild, 3-bet.
7. Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU, Iqtisodiyotning real tarmoqlarini rivojlanishida axborot texnologiyalarining o'rni. Respublika ilmiy-texnik anjumani. Ma'ruzalar to'plami, 1-qism.
8. Dadayev S., Saparov K. Zoologiya (xordalilar). Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, "Turon-iqbol", T., 2018.
9. Laxanov J.A. Umurtqalilar zoologiyasi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, T., 2005.
10. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya, T., "Fan", 2007.
11. M.T.Xonnazarova. Methods of Using Media Technologies in Organizing laboratory Trainings in Zoology Sciences. European journal of life safety and stability (ejlss). Table of Content-Volume 19 (Jul 2022), Ispaniya, 2022, pp. 119 – 123.
12. M.T.Xonnazarova. Oliy ta'limda zoologiya fanini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlarini takomillashtirish, International scientific journal Science and Innovation 2022, № 6, 67 – 74-betlar.
13. M.T.Xonnazarova. Mediatexnologiyalar asosida zoologiya ta'limi metodikasini takomillashtirish (suyakli baliqlar sinfini o'rganish misolida). Toshkent davlat Pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, ilmiy-nazariy jurnali, 2022, 3-son, 291 – 296-betlar.

**Abdijamilova Mahfuza Maxmudovna (Nukus davlat Pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi)**  
**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QIB TUSHUNISHGA OID  
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR**

***Annotatsiya.** Maqolada, asosan, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qib tushunish malakasini shakllantirishga doir ta'lim mazmunini ishlab chiqishda o'qib tushunishga oid ko'nikma va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish haqida fikr yuritiladi.*

***Аннотация.** В статье в основном рассказывается о формировании навыков понимания прочитанного и лингвистических компетенциях при разработке содержания обучения по формированию навыков чтения и понимания текста на уроках родного языка и читательской грамотности.*

***Annotation.** The article mainly talks about the formation of reading comprehension skills and linguistic competencies in the development of training content for the formation of reading skills and text comprehension in the lessons of the native language and reading literacy.*

***Kalit so'zlar:** matn, o'qib tushunish, malaka va ko'nikma, nutqiy ko'nikma, lingvistik kompetensiya.*

***Ключевые слова:** текст, понимание прочитанного, навыки и умения, речевые навыки, лингвистические компетенции.*

***Key words:** text, reading comprehension, skills and abilities, speaking skills, linguistic competence.*

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qib tushunish malakasini shakllantirishga doir ta'lim mazmunini ishlab chiqishda o'qib tushunishga oid ko'nikmalarning berilish holati ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu borada bugungi kungacha turli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ulardan ayrimlarini tahlil qildik.

Ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borgan T.B.Vasilyeva matn ustida ishlashning quyidagi bosqichlariga amal qilish mumkinligi haqidagi ma'lumotlarni keltiradi [1]:

**1-sinf:**

- matnni o'qish;
- matn mazmunini tushunish.

**2-sinf:**

- matnni qayta so'zlab berish;
- matnni qismlarga ajratish;
- kalit so'zlarni ajratish;
- qahramonlarni aniqlash, ularni ta'riflay olish va xatti-harakatlarini baholash.

**3–4-sinf:**

- so'ralgan ma'lumotni qidirish va topish;
- matndagi voqea-hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabatni bildirish;
- asosiy va ikkinchi darajali ma'nolarni ang'lay olish;
- qahramonlarning xatti-harakatlarini o'z dunyoqarashi va xulosalari bilan taqqoslay olish;
- voqealar rivojini bashorat qila olish;
- matn mazmuniga mos savollar tuza olish;
- bir xil mazmunga ega bo'lgan ikki xil janrdagi matnni taqqoslay olish.

Xalqaro darajada baholanadigan o'qish savodxonligiga oid ko'nikmalar faqatgina bitiruvchi sinf (4-sinf) o'quvchilari uchun belgilab olingan bo'lib, ular qiyinchilik darajasiga ko'ra, quyidagicha tasniflanadi:

**Matnni quyi darajada tushunish:**

- matnda ochiq holatda berilgan ma'lumotlarni topish;
- matn boshida keltirilgan aniq xabarni izlash va topish.

**Matnni o'rta darajada tushunish:**

- matnda ochiq shaklda berilgan bir nechta ma'lumotni aniqlash;
- qahramonlarning harakatlarini aniq tushunish va tushuntirib bera olish.

**Matnni yuqori darajada tushunish:**

- matnning turli qismlarida yashiringan tafsilotlarni aniqlash;
- yaxlit bir matn, murakkab jadvallardan so'ralgan ma'lumotni aniqlash.

**Matnni oliy darajada tushunish:**

–muallifning umumiy g‘oyasini tushunish uchun matnning tafsilotlarini tushunish va ularni o‘zaro bog‘lay olish;

–qahramonlarning his-tuyg‘ularini, niyatlarini, maqsadlarini va xarakter xususiyatlarini tushunish uchun voqealar va harakatlarni sharhlay olish;

–matnning turli qismlaridagi murakkab ma‘lumotlarni eslab qolish va sharhlash.

Tadqiqotlarimiz davomida o‘qish savodxonligini shakllantirishga oid testlarning to‘rt xil darajada tasniflanganligiga oid ma‘lumotlar bilan tanishdik. Unga ko‘ra [2]:

• 1-darajali testlar o‘qituvchi tomonidan berilgan ma‘lumotlar asosida o‘quvchini bilim, malaka va ko‘nikmasini aniqlaydi. Aniq belgilangan algoritmlar asosida hal qilinadigan testlar;

• 2-darajali testlar taqqoslash, qiyoslash talab qilinadigan testlar. O‘qituvchi bergan ma‘lumotlar asosida turlicha javob chiqarilishi mumkin bo‘lgan testlar;

• 3-darajali testlar bir necha manbadan kerakli ma‘lumotlarni topib, taqqoslab, qiyoslab eng maqbul yechimi topiladigan testlar;

• 4-darajali testlar esa loyiha ko‘rinishidagi topshiriqlar hisoblanadi.

Qozog‘iston Respublikasida til ta‘limiga bo‘lgan zamonaviy yondashuv asosida o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalar sinflar kesimida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagi tartibda taqsimlangan:

#### **1-sinf:**

–matnning muallifi va nomini aniqlay oladi va ayta oladi;

– matn sarlavhasiga qarab, uning nima haqida ekanligi, umumiy mazmuni va g‘oyasi haqida fikr bildiradi oladi;

– matnning janrga xos xususiyatlarini farqlay oladi (she‘r, hikoya, ertak);

– o‘qish jarayonida ritm va ohangni matn janriga qarab moslashtira oladi;

– o‘qilgan matnga nisbatan o‘z munosabati va xulosasini ayta oladi;

– qahramonlarni tavsiflay oladi;

–do‘stining o‘qilgan matn haqidagi fikrini tinglaydi.

#### **2-sinf:**

• matn mazmuniga mos keluvchi sarlavha tanlaydi;

• hikoyada ishtirok etgan qahramonlarni o‘zaro taqqoslaydi, ularning farqli jihatlari haqida fikr bildiradi oladi;

• mantiqiy urg‘u va pauzaga rioya qiladi;

• matnning janrga xos xususiyatlarini farqlay oladi (tavsifiy matn, muhokama matni);

• qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi, unga munosabat bildiradi oladi.

#### **3-sinf:**

• matn mazmunini qayta so‘zlab beradi, unga nisbatan o‘z munosabatini ifodalay oladi;

• matn mazmuniga mos savollar tuzib yoza oladi;

• matnning janrga xos xususiyatlarini farqlay oladi (she‘r, ertak, hikoya, epos, masal);

• qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qila oladi.

#### **4-sinf:**

• muallifning matnga nisbatan yondashuvini aniqlashga qaratilgan savollarni tuza oladi;

• o‘zining ifodali o‘qishi va sinfdoshining ifodali o‘qishiga baho bera oladi;

• qahramonlarning xatti-harakatlarini analiz qila oladi, baholaydi va o‘z so‘zlari bilan munosabatini ifodalay oladi.

Shuningdek, ingliz tili birinchi til sifatida o‘qitiladigan Alabama maktabining o‘quv dasturi bilan tanishish jarayonida 4-sinf o‘quvchilarida o‘qib tushunishga oid quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish maqsad qilib olinganligi bilan tanishdik [3]:

– matndagi aniq detallarga tayangan holda hikoya yoki dramadagi voqealar, vaziyat va qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qila oladi.

– matndagi aniq faktlarga asoslangan holda bosh qahramon xarakterining butun matndagi voqealar rivojiga asoslangan holda qanday o‘zgarib borishini tushuntirib bera oladi.

–muallifning nuqtayi nazarini aniqlash maqsadida muallif tomonidan qo‘llangan vositalarni aniqlay oladi;

– matndan chiqargan xulosalarini matnda berilgan vositalar yordamida asoslay oladi;

– badiiy matnda hikoya qiluvchining matnda ifodalangan voqea-hodisaga nisbatan nuqtayi nazarini aniqlay oladi va qahramonning ushbu voqeaga nisbatan nuqtayi nazari bilan taqqoslay oladi;

- matndagi turli qahramonlarning qarashlarini taqqoslay oladi;
- tarixiy hikoyalar, miflar va turli millat qadriyatlarini tavsiflovchi matnlarning mazmuni va uslubi-ni o‘zaro qiyoslaydi va tahlil qila oladi;
- matnda aniq ifodalangan ma’lumotni ta’kidlash uchun unda keltirilgan detallardan foydalana oladi;
- matnda keltirilgan tafsilotlarning matn mazmunini, asosiy g‘oyasini ifodalashga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganligini tushunadi;
- matnning asosiy g‘oyasi yoki mavzusini anglaydi;
- matnda nazarda tutilgan va aniq keltirilgan detallar orasidagi farqni tushuntira oladi;
- asosiy xulosalarni matndan keltirilgan dalillar yordamida umumlashtira oladi;
- axborot matnlaridagi voqealar, jarayonlar, g‘oyalari asosida nima ro‘y berganligi, nima uchun ro‘y berganligini matnda ochiq shaklda keltirgan axborotlar yordamida tahlil qila oladi;
- matnning tuzilishi va o‘ziga xosligi axborot matning mazmuniga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligini baholay oladi;
- muallifning axborot matnidagi muhim axborotlarni ta’kidlash uchun qo‘llagan usullarini tushuna oladi.
- she’riy matnning tuzilishi va shakli uning mazmunini yuzaga chiqarishda qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntira oladi.
- she’r ritmining she’rda ifodalangan mazmunni yuzaga chiqarishdagi o‘rnini tahlil qila oladi.

Ko‘rib turganingizdek, o‘qib tushunish bilan bog‘liq holda kelirilgan ko‘nikmalarning barchasi o‘quvchida amaliy nutqiy ko‘nikmani shakllantirishga qaratilgan. Turli mamlakatlarda belgilab olingan va mavjud yondashuvlar asosida o‘qib tushunishga oid ko‘nikmalar tahlili natijalariga ko‘ra hamda olib borilgan tajriba-sinovdan chiqargan xulosalarimiz yordamida 4-sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunishga oid ko‘nikmalarni lingvistik kompetensiyalar bilan bog‘liq holda shakllantirish mazmunini quyidagicha belgilab oldik:

**Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘qib tushunishga oid ko‘nikmalarni lingvistik kompetensiyalar yordamida shakllantirish mazmuni (4-sinf)**

<b>FONETIKA</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni tushunish uchun so‘zni bo‘g‘inlar (ochiq va yopiq, unli va undosh tovushlar, diftonglar)ga to‘g‘ri ajratgan holda o‘qiy oladi; Masalan, pandemiya, yordamlashibdi, dangasalik.</li> <li>- ko‘p bo‘g‘inli notanish so‘zlarni o‘zak va qo‘shimchaga, old qo‘shimchalarga ajrata oladi;</li> <li>- berilgan matnni yaxshiroq anglash maqsadida urg‘u va ohang(pauza, to‘xtam)ni to‘g‘ri tanlagan holda o‘qiy oladi;</li> <li>- imlo jihatdan to‘g‘ri va xato yozilgan so‘zlarni avtomatik tarzda to‘g‘rilab o‘qiy oladi.</li> </ul>
<b>LEKSIKOLOGIYA</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- muayyan so‘z yoki iborani matnda berilgan ma’nosiga ko‘ra, u ifodalagan tasviriy ma’noni anglagan holda izohlay oladi;</li> <li>- muayyan so‘zlar yig‘indisi qanday ma’no-mazmunni shakllantirishga xizmat qilayotganligini tushuna oladi;</li> <li>- badiiy tasviriy vositalar: taqqoslash, metafora, alliterasiya singari vositalarning matn mazmunini yuzaga chiqarishga qo‘shayotgan hissasini tushuna oladi;</li> <li>- so‘zning ma’nosini yaxshiroq tushunish uchun so‘zlar o‘rtasidagi sinonimik, antonomik va omografik munosabatlardan foydalana oladi.</li> </ul>
<b>MORFOLOGIYA</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hikoya yoki voqealarning nechanchi shaxs tilidan hikoya qilinayotganligini tushuna oladi;</li> <li>- matnda yashirin ifodalangan ma’lumotlarga ishora qiluvchi birliklarni aniqlay oladi va ularning vazifasini tushuntira oladi;</li> <li>- matnda sabab, natija, o‘xshashlik va qarama-qarshilikni yuzaga chiqaruvchi vositalarni aniqlay oladi;</li> <li>-muallifning shaxsiy munosabatini, xulosaviy fikrlariga ishora qiluvchi birliklarni tushunadi, ularning matndagi vazifasini tushuna oladi.</li> </ul>

<b>SINTAKSIS</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- matn qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni yuzaga chiqarayotgan vositalarni aniqlaydi va ularni izohlay oladi;</li> <li>- matnda bir nechta gap orqali ifodalangan ma'noni bir gap yoki jumla orqali ifodalay oladi;</li> <li>- matndan hikoya muallifining nuqtayi nazarini ifodalovchi, ushbu mazmunni yuzaga chiqaruvchi vositalarni aniqlay oladi.</li> </ul>
<b>USLUBIYAT</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hikoya boshqa shaxs yoki qahramon tomonidan hikoya qilinganda uning mazmuniga qanday o'zgartirishlar kiritish mumkinligi haqidagi takliflarni bera oladi;</li> <li>- bir mavzu doirasidagi ikki xil uslubdagi matnni qiyoslaydi va ular o'rtasidagi farqni aniqlaydi;</li> <li>- hikoyalar, miqlar va turli millat qadriyatlarini tavsiflovchi matnlarning mazmuni va uslubini o'zaro qiyoslaydi va tahlil qila oladi;</li> </ul>
<b>TUSHUNISH</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- matndagi bir nechta qahramonning o'zaro munosabati va matndagi o'rmini tahlil qilib, tushuntirib bera oladi.</li> <li>- hikoyada keltirilgan aniq dallilarga asoslangan holda qahramonning xulq-atvori, xarakteri, vaziyat va sharoitlar bilan bog'liq xulosalarni chiqara oladi;</li> <li>- muallifning she'r, hikoya va dramatik asarlardagi mazmunni yuzaga chiqarish uchun qo'llagan badiiy tasviriy vositalarni izohlay oladi.</li> <li>- matnda yashirin holda berilgan ma'lumotlarni unga ishora qiluvchi birliklardan foydalangan holda aniqlay oladi;</li> <li>- muallif va hikoya qahramoni o'rtasidagi farqni tushuntira oladi;</li> <li>- bosma matn va internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlarni talqin qila oladi.</li> </ul>

Belgilab olingan ko'nikmalar Milliy o'quv dasturi doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun berilgan ko'nikmalar mazmunini to'ldirib, ularni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, byerilgan tavsiyalar, ishlab chiqilgan mezonlar asosida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish jarayonini olib borishda uning amaliy ahamiyatini tushunish va uni shakllantirishdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun dasturulamal vazifasini o'taydi deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/materialy-mo/2021/06/16/razvitie-chitatelskoy-gramotnosti-v-nachalnoy-shkole-kak>
2. D.N.Baxriddinova. PIRLS baholash tizimi yo'nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integrasiya qilishning dolzarbligi. PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari, 2020-yil, Toshkent.
3. Alabama Course of Study English Language Arts

#### **Арабова Мухиба Бозоровна (преподаватель кафедры Русского языка и литературы ТГПИ) ЗНАЧИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ФОЛЬКЛОРА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodini boshlang'ich sinflarda o'rganishning ahamiyati ko'rsatilgan. Yosh avlodning insoniyatning buyuk ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirish ahamiyati haqida aytiladi. Xalq hayotining tarixiy, ijtimoiy, maishiy, etnografik xususiyatlari boshlang'ich sinf o'quv dasturiga kiritilgan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarida eng chuqur va yorqin ifodalangan haqida to'xtaladi. Xalq maqollari va matallarining ma'nosi so'z boyligini boyitadi va so'zga ma'no beradi, aql-zakovat, o'quvchilar xotirasini rivojlantiradi. Axloqiy tarbiya va o'quvchilarning xulq-atvori qoidalarini rivojlantirishga juda muhim ta'sir ko'rsatadi.*

***Аннотация.** В данной статье показана важность изучения узбекского фольклора. Способность молодого поколения усваивать великие духовные ценности человечества. Исторические, социальные, бытовые, этнографические особенности жизни народа наиболее глубоко и ярко выражены в произведениях узбекского фольклора включенных в школьную программу начальных классов. Смысл народных пословиц и поговорок обогащает словарный запас и придает значение*



словам, интеллекту, развивает память учеников. Подаёт очень важное влияние на развитие нравственного воспитания и свода правил поведения учащихся.

**Annotation.** *This article shows the importance of studying Uzbek folklore. The ability of the younger generation to assimilate the great spiritual values of mankind. Historical, social, everyday, ethnographic features of the life of the people are most deeply and vividly expressed in the works of Uzbek folklore included in the primary school curriculum. The meaning of folk proverbs and sayings enriches the vocabulary and gives meaning to words, intelligence, develops the memory of students. Gives a very important influence on the development of moral education and a set of rules for the behavior of students.*

**Kalit so'zlar:** *folklor, tarbiyaviy, xalq boyligi, ma'naviy qadriyatlar, ertaklar, maqollar, matallar, xalq donoligi.*

**Ключевые слова:** *фольклор, воспитание, народное достояние, духовные ценности, сказки, пословицы, поговорки, народные мудрости.*

**Key words:** *folklore, educational, national wealth, spiritual values, fairy tales, proverbs, ancestors, folk wisdom.*

Всестороннее развитие младших школьников всегда было характерно для начальной школы. В наши дни общество, особенно подрастающие дети, нуждаются в практической помощи в «освоении» духовных ценностей народа для развития самостоятельности в творческом восприятии произведений художественной литературы.

В нынешнем методологии принято говорить о восприятии художественного произведения как полнофункционального материала. Так как художественное произведение допускает разные интерпретации, содержательное восприятие означает способность читателя сочувствовать героям и писателю произведения, понимать процесс, эмоций, осмысливать мотивы, обстоятельства и последствия поступков героев, оценивать характеры героев произведения, определение позиции автора, овладение идеей произведения. Достаточное осваивание творчества писателя обладают наличием эстетических взглядов и индивидуальных отношений учащихся к прочитанному материалу. Ученик должен понимать не только логическую сторону но и его образно-эмоциональную сторону произведения.

“Литература – зеркало души народа”. Необходимо и в школьном преподавании литературы установить более тесную связь ее с культурой, ибо “литература, – по справедливой мысли М.Бахтина, – неотрывная часть культуры, ее нельзя понять вне целостного контекста всей культуры данной эпохи” [1].

Однако образный анализ художественного текста формируется не сам по себе. Детей нужно учить с малых лет воспринимать каждое произведение «обдумывающе» способностью мыслить и анализировать о человечестве и жизни людей в целом.

Программа начальных классов расширяется из года в год. В книгах для чтения в начальных классах с каждым годом углубляется тематика о родине, учащихся получают новые знания о истории национальной культуры, обычай и традициями своего народа.

Фольклорные произведения созданные народом в течение нескольких тысячелетий являются главной основой национальной культуры народа.

«Духовно-нравственное, культурное наследие народа ярко проявляется в богатстве его фольклорных произведений. Само слово «фольклор» в буквальном переводе с английского означает «народная мудрость». Именно в устном народном творчестве сохранились особенные черты национального характера, присущие ему нравственные качества, представления о добре и красоте, правде, храбрости, трудолюбию, верности и т.д. Знакомя детей с поговорками, загадками, пословицами, сказками, песнями, легендами народов, проживающих в нашей республике, мы тем самым приобщаем их к общечеловеческим нравственным ценностям» [2].

The classical model of project-creative education provides for the development of practical activities in the profession being prepared on the basis of a partner enterprise. Accordingly, in relation to the training of students on the basis of the enterprise JSC “Uzbektelecom” within the framework of a professional module, such a training model will imply close interaction with the realities in production. At the same time, the theoretical part is studied on the basis of the university, but under the guidance of an enterprise specialist, and all practical classes are conducted on the basis of the enterprise. Accordingly, the learning process is focused on the system of competencies of the employees of the enterprise.

The theoretical and methodological basis should be determined by the provisions of the system, competence, modular, activity approaches, the totality of which made it possible to consider the educa-

---

<sup>1</sup>Abdeeva A.M. Methodological recommendations for the development of design and artistic competencies among design students in the design classes. Actual research. 2022, № 20 (99), p. 64–66; URL: <https://apni.ru/article/4129-metodicheskie-rekomendatsii-razvitiya-proektn>.

<sup>2</sup>Abdeeva A.M. Methodological recommendations for the development of design and artistic competencies among design students in the design classes. Actual research. 2022, №20 (99), p. 64–66; URL: <https://apni.ru/article/4129-metodicheskie-rekomendatsii-razvitiya-proektn>.

tional and methodological support for the professional training of students at the scientific and methodological level. The management process should be carried out on the basis of a roadmap and an agreed action plan.

In coordinating these factors at the levels of officials, i.e. universities (in the implementation of the project-creative teaching methodology) and enterprises (introduction of dual interaction), we will be able to see how students more successfully adapt to the conditions of the enterprise, receive in-depth knowledge, skills and practical experience in a modern and sought-after working profession, which, in turn, it contributes to their obtaining higher qualifications, real results of improving the quality of education of university graduates.

The development of the world scientific space does not stand still. And this development entails an impact on the methods of presenting educational material. The requirement of time speaks of the need for the most effective methods and techniques, built using a variety of heterogeneous criteria and conceptual approaches.

The choice is complicated by elementary ignorance of these methods by teachers. The need to structure all possible effective methods will make it possible to see real opportunities, differences in methods between traditional and innovative teaching methods (Table 1).


Table 1

Basic comparison of traditional and innovative teaching methods

Traditional learning	Innovative developmental training
based on the principle of accessibility;	based on the zone of proximal development;
the student acts as an object of cognitive activity;	the student acts as the subject of his own learning activity;
focused on the assimilation of a certain amount of knowledge;	aimed at mastering the ways of cognition as the ultimate goal of teaching;
develops ordinary thinking, an empirical way of knowing	develops theoretical thinking and a theoretical way of knowing;
solving specific practical problems, students learn private methods;	educational tasks come to the fore, solving them, students learn general methods of mental activity;
as a result, an individual is formed – a person capable of performing activities.	a personality capable of independent creative activity is formed.

The choice of methodology is complicated by the fact that it is not always clear which one should be emphasized, pedagogical technologies of a certain type can have different influences and effects on the perceived information. And the teacher must choose the one that reflects the essence as much as possible and will allow the most effective learning of the material.

There is a need to introduce into the educational process a method that is most effective in perception, reproduction, practical application, as close as possible to real working conditions – a method – a project-creative pedagogical teaching methodology. The magnitude of the effect arising from the application of the design-creative methodology is evaluated in its comparison with other types of methods and is expressed in the maximum output for processes that occur in conditions close to working ones, in algorithms, tools and methods that are effective in their reliability, manufacturability, simplicity, flexibility, increased productivity. The effect of perception by students is expressed as a result that helps to satisfy the future specialist with a set of theoretical and production competencies (Fig. 1).



Rice. 1. The main algorithm for the effectiveness of the educational process leading to effective action.



The effectiveness of the project-creative methodology will be manifested in the degree of achievement of the goals set, the completeness of the circle of training. And for students - information content, functionality, scalability, portability and reliability of obtaining competencies.

The teacher's help in project-creative technology is connected, first of all, with the creation of didactic and psychological conditions for the emergence and development of the very need for self-education in students, the desire for activity and independence in this process, and in working with students, the role of organizing joint productive activity of the teacher is great and students.

The teacher creates such a learning environment that determines the structure and logic of intellectual relations and communication, offers flexible and variant programs with a single line of scientific knowledge, practical tasks for comparison and self-knowledge, experimental work, solving problems of a new class, comparing different points of view on one and the same phenomenon [10]. The problem often lies in the fact that teachers often practically do not include independent work in the system of student learning. Teachers do not make efforts to ensure that students master the elementary skills of independent cognitive activity, assess the level of cognitive activity of students as insufficient, and, based on this, do not try to introduce effective, modern teaching methods through independent work. Using the traditional, stereotypical, mostly verbal way of teaching in the formation of students' knowledge and skills, they, in turn, determine a further decrease in students' cognitive initiative. Thus, the pedagogical interaction "teacher-student" becomes ineffective.

A common opinion should be developed that in order to eventually get an excellent specialist at the exit from a higher institution, not only the teacher and the improvement of the work of the entire university are applied, but a priori the attitude of the student towards higher education has been developed. No changes in the structure of the university, no new technologies will produce the desired effect until applicants going to a higher educational institution have a certain set of knowledge and competencies, as well as a certain set of requirements. Without these requirements, it is impossible to introduce any innovations in the field of higher education. Accordingly, it is necessary to make changes in parallel in all spheres and directions of education, starting from secondary education and gradually introducing it into all areas.<sup>1</sup> As a result, at the output we will get a specialist who meets the modern requirements of market stability and is able to prove himself as a competent specialist:

- the ability to apply the methods of mathematical analysis and modeling, theoretical and experimental research;
- the ability to use knowledge about modern physical processes in equipment;
- the ability to acquire new knowledge using modern educational and information technologies;
- the ability to understand the essence and significance of information in the development of the modern information society, to be aware of the dangers and threats that arise in this process, to comply with the basic requirements of information security;
- possession of the main methods, ways and means of obtaining, storing and processing information, has the skills to work with a computer as a means of information management; knowledge of automated database management systems;
- mastery of the basic methods of organizing the life safety of production personnel and the population, their protection from the possible consequences of accidents, catastrophes, natural disasters;
- the ability to use the skills of conducting a measurement experiment and evaluating its results based on knowledge of the methods of standardization and certification metrology;
- the ability to apply modern software tools for the development of design and technological documentation;
- the ability to apply knowledge in the field of electrical engineering and electronics for the development and implementation of technological processes, technological equipment and technological equipment, automation and mechanization;
- possession of methods for evaluating properties and methods for selecting materials;
- possession of the basics of calculation and design of elements and devices of various physical principles of operation;

---

<sup>1</sup>Comparative analysis revealing the features of transformations in the field of higher education. Amurova N.Y., Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti. "Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari. P. 63–747. <https://tuit.uz/lmiy-konferensiyalar>.

- possession of the main methods, methods and means of planning and implementing industrial safety;
- ability to use normative documents on quality, standardization, certification and rules of technical operation, maintenance, repair and production of power supply systems; use technical means to diagnose the technical condition of systems; use elements of economic analysis in practice;
- the ability to develop and use regulatory and technical documents to control the quality of maintenance and repair of power supply systems, their modernization, assess the impact of product quality on the safety of power supply, analyze the state of power supply security;
- possession of regulatory documents for the repair and maintenance of power supply systems; ways of efficient use of materials and equipment in the maintenance and repair of power supply systems; possession of modern methods and methods for detecting malfunctions in operation, determining the quality of maintenance of power supply systems; possession of methods for calculating quality indicators;
- the ability to develop and use methods for calculating the reliability of equipment in professional activities; justify the adoption of a specific technical solution in the development of technological processes for the production, operation, maintenance and repair of power supply systems; carry out an examination of technical documentation.

**Findings.** In higher education, the technology of teaching pedagogical procedures, the sequence of operations and actions that together make up a didactic system, the implementation of which in pedagogical practice leads to the achievement of specific learning goals and the acquisition of competencies. From a vast sea of learning systems and learning technologies, it will be up to you to choose the most productive one in order to achieve maximum coverage of competencies.

Identification and creation of a unique system of coverage of competencies to the maximum for mastering the subject “Power supply in infocommunication technologies”, for the completeness of the creation and formation of all indicators, a system is considered that is fundamental for the creation of a unique project-creative methodology that allows you to build training in the form of formed actions, clearly evaluate and control the order of achieving the goal. It should also be noted that the internal processes taking place in the minds of students, perhaps the peculiarities of the nature of the perception of knowledge, which reflects spectacular goals, are not always clearly amenable to their description. This makes the picture not entirely clear and causes certain difficulties in setting goals.

Jumayev Jura (BuxDU dotsenti; jumayev.jura1956@mail.ru),  
Baqoyeva Sitora To'liqin qizi (BuxDU magistranti)

ISSIQLIK TARQALISH MASALASINI O'RGANISHDA KOMPYUTER VA DASTURIY  
TA'MINOT UYG'UNLIGI

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta'lim muassasalarida matematik modellashtirish bilan bog'liq fanlarni o'qitish zaruriyati, bunda matematik va kompyuterli modellashtirishning ahamiyati ta'kidlangan holda, issiqlik tarqalish masalasini yechish davomida to'rt tugun nuqtalarida temperatura tarqalish jarayoni son qiymatlar orqali, shuningdek, Delphi muhiti grafik interfeysi imkoniyatlaridan foydalanib, RGB ranglash vositalaridan, MathCAD imkoniyatlaridan foydalangan holda, turli ranglar orqali namoyish etib berilgan.

**Аннотация.** В статье обсуждается необходимость преподавания предметов, связанные с математическим моделированием в высших учебных заведениях, значение транспортной задачи в практическом применении и, следовательно, необходимость их углубленного изучения с использованием современных информационных технологий и методологические аспекты при обучении транспортной задачи используя графического интерфейса языка Delphi, возможностями MathCAD, которое может еще больше укрепить знания учащихся.

**Annotation.** The article discusses the need for teaching subjects related to mathematical modeling in higher educational institutions, the importance of the transport problem in practical application and, therefore, the need for their in-depth study using modern information technologies and methodological aspects in teaching the transport problem using the Delphi graphical interface, MathCAD capabilities which can further enhance students' knowledge.

**Kalit so'zlar:** matematik modellashtirish, kompyuterli modellashtirish, dasturlash tili, Delphi, MathCAD, grafik interfeys, ta'lim uslubi, RGB ranglash vositalari.

**Ключевые слова:** математическое моделирование, компьютерное моделирование, язык программирования, Delphi, MathCAD, графический интерфейс, методика преподавания, световые инструменты RGB.

**Key words:** mathematical modeling, computer modeling, programming language, Delphi, MathCAD, graphical interface, teaching methods, RGB lighting tools.

**Kirish.** Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p. O'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi, mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi, o'quvchilarning ishlash sur'ati jadal-lashadi, kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim subyektiga aylanadi, o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi, kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda, darsni uzoq-dagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi, kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo.<sup>1</sup>

Shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi bilan muammoli o'qitish jarayonining yangi ko'rinishi – muammoli-kompyuterli o'qitish vujudga keldi. Pedagogik tizimda yangi element – kompyuterning paydo bo'lishi uning funksiyalarini o'zgartirishi va yangi pedagogik samaraga erishishga imkon yaratishi mumkin. O'quv jarayonida kompyuter va uning barcha imkoniyatlaridan foydalanish, pedagogik jarayon sifatiga ta'sir qiluvchi yo'qotishlarning oldini olishga imkon beradigan strategiyani tanlash bo'yicha jiddiy, ko'p qirrali muammo hosil bo'ladi. Shuning uchun o'qitish jarayonini EHM asosida loyihalashdan oldin o'qituvchi kompyuter asosida o'qitish metodikasini bilishi lozim.<sup>2</sup>

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda kompyuterlarni qulaylik tomonlaridan biri – bu ayrim o'quv holatlarini modellashtirish. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida talabalarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyu-

<sup>1</sup> Abdullayev N. Matematika fanini zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitish texnologiyasi. Academic research in educational sciences. Volume 2, Issue 2. 2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-132-135.

<sup>2</sup> Xayitboyev Xamrobek Shavkatovich. (2022). O'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari. Journal of new century innovations, 7(4), 105–108. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1603>.

ter multimediasini ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular mavzularni chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar.

Modellashtirish bilan obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud narsa va hodisalarning modellarni yasash va o'rganishdan iboratdir.

Modellashtirish uslubidan hozirgi zamon fanidan keng foydalanilmoqda. U ilmiy tadqiqot jarayonini osonlashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarini o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Modellashtirish, ayniqsa, mavhum obyektlarni, olis-olislarda joylashgan obyektlarni, juda kichik hajmli obyektlarni o'rganishda ahamiyati kattadir. Modellashtirish uslubidan fizik, astronomik, biologik, iqtisod uchun ham foydalaniladi.

Ayni kunlarda Windows tizimida ishlaydigan va zamonaviy kompyuter texnikalari bilan uyg'unlasha oladigan mukammal dasturlash tillari ommalashib bormoqda. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan zamonaviy dasturlash tillari o'zlarining katta imkoniyatlari bilan oldingilaridan keskin farq qiladi. Ularning rivoji va imkoniyatlari yuqori darajaga ko'tarilgan deb hisoblash bo'ladi. Vizual va obyektli dasturlash tillari o'zlarining keng qamrovli imkoniyatlari va qulayliklari bilan dasturchilar e'tiborini qozonmoqda.

Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda, ko'pgina mutaxassislik fanlarida o'rganiladigan muhitda issiqlik tarqalish tenglamasini biror usul yordamida yechib, muhitning turli nuqtalarida issiqlikning qay darajada tarqalayotganini ko'rsatish maqsadida Delphi, Mathcad muhitlaridan foydalanildi.

**Metodika.** Delphi muhitida bunday jarayonlarni ekranda aks ettirishning ikki usuli tanlandi. Birinchisi – bu muhitda temperatura o'zgarishini jadval ko'rinishida aks ettirish. Buning uchun Delphi StringGrid komponentasidan foydalanildi.<sup>1</sup>

StringGrid jadval komponentasi ikki o'lchovli ma'lumotlarni, masalan, matritsa elementlarini qiymatini ekranda jadval ko'rinishida tasvirlash, ular qiymatini kiritish va tahrirlash uchun ishlatiladi.

Amaliy matematika yo'nalishining bir necha fanlarida xususiy hosilali differensial tenglamalar, xususan, parabolik tipdagi issiqlik tarqalish tenglamasi ham o'rganiladi, uning amaliy tadbirlari ko'riladi. Bu tenglama yechimlari massivlar ko'rinishida bo'lgani uchun ularni jadval, grafikli usullarda taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, sterjenda issiqlik tarqalish tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega [4]:

$$\frac{\partial u(x, t)}{\partial t} = a^2 \cdot \frac{\partial^2 u(x, t)}{\partial x^2} \quad (1)$$

Bu yerda  $u(x, t)$  – izlanayotgan no'malum funksiya;  $a^2$  – issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti, xususiy holda musbat o'zgarimas miqdor.

Tenglama yechimini  $D: \{a \leq x \leq b; 0 \leq t < T\}$  sohada qidiraylik.

(1) tenglama uchun quyidagicha boshlang'ich shartni qo'yamiz:

$$u(x, t)|_{t=0} = f_1(x) \quad (2)$$

Bu yerda  $f_1(x)$  – sterjen ichki nuqtalaridagi boshlang'ich temperatura.

Chegaraviy shartlar sifatida Derixle masalasini qaraymiz:

$$u(a, t) = P_1(t), \quad u(b, t) = P_2(t) \quad (3)$$

Bu yerda  $P_1(t)$  va  $P_2(t)$  sterjen uchlaridagi vaqt bo'yicha o'zgaradigan temperatura.

Ushbu masalani sonli usulda oshkor va oshkormas sxemalardan foydalanib yechish mumkin. Ma'lumki, oshkor usulning to'r qadamlariga qo'yiladigan yaqinlashish sharti bor:

$$\tau \leq \frac{h^2}{2a^2} \quad (4)$$

Bu yerda  $\tau, h$  – to'r qadamlari.

Agar bu parametrlar shart bajarilmaydigan qilib tanlansa, yechimda ma'no bo'lmaydi.

Shuning uchun metodik ta'minot uchun tuziladigan dasturda oshkormas usuldan foydalangan ma'qul.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nazirov Sh.A., Musayev M.M. va b. Delphi tilida dasturlash asoslari. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2008, 277-bet.

Agar biz issiqlik tarqalish tenglamasini sonli yechganda sohani 100 ta teng oraliqqa bo'lsak, chegaraviy va boshlang'ich qiymatlarni bersak, u holda sohaing dastlabki ko'rinishi 1-chizmadagidek bo'lishi mumkin. Ushbu chizmaga e'tibor qilsak, 100 ta elementni bir necha satrda bo'linib ko'rsatilganiga guvoh bo'lamiz. Bu endi ekran kattaligida barcha qiymatlarni joylashtirish uchun dastur orqali qilingan bir usuldir.

**1-chizma. Stringgrid ekraniga boshlang'ich qiymatlarni yozish.**

Ushbu misolda sterjenning chap chegarasida 50, o'ng chegarasida 30 qiymati berilgan. Ichki nuqtalarda esa 1 qiymati berilgan. Bu qiymatlar oldindan o'rnatib qo'yilgan bo'lib, dasturni ishga tushirgandan so'ng ularni o'zgartirish mumkin. Bu ekranda faqat boshlang'ich qiymatlar berilgan. Endi vaqt o'tishi bilan, sterjen chekkalaridagi yuqori temperatura sterjen ichki nuqtalariga tarqalishini qo'shimcha qo'yilgan tugma orqali bajarib ko'rish mumkin. Masalan, bir marta vaqt qadami tashlanganidan so'ng, ekrandagi ko'rinish quyidagicha bo'ladi (2-chizma).

ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASINI ECHISH										
50,0000	14,1295	4,5180	1,9427	1,2526	1,0677	1,0181	1,0049	1,0013	1,0003	
1,0001	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	1,0000	
1,0001	1,0002	1,0008	1,0029	1,0107	1,0401	1,1495	1,5579	3,0821	8,7705	30

**2-chizma. Matritsada temperatura tarqala boshlagan hol.**

<sup>1</sup> Jumayev J., Shirinov Z., Kuldashv H. Computer simulation of the convection process near a vertically located source//International conference on information Science and Communications Technologiyes (ICISCT) 4-6 november. 2019, Tashkent, Conference Proceedings. pp. 635-638. DOI: 10.1109/ICISCT47635.2019.9012046

Ushbu natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, katta temperaturaga ega bo'lgan sterjen uchidan tarqaladigan qiymatlar kichik qiymatli uchidan tarqalgan qiymatlardan katta ekanligini ko'ramiz. Masalan, birinchi uchidagi ikkinchi qiymat 14,1295 bo'lsa, ikkinchi uchidagi ikkinchi qiymat 8,7705 ekanligini ko'ramiz. Bu shu bilan izohlanadiki, sterjenning birinchi uchidagi temperatura qiymati 50 ga, ikkinchi uchidagi temperatura qiymati esa 30 ga teng.

Agar dasturni ishlatganda t boyicha qadamlar sonini ko'proq bersak, temperaturani ko'proq tarqalganini ko'ramiz.

Yuqoridagi ko'rinishlar sterjen tugun nuqtalaridagi temperatura qiymatlari sonlar ko'rinishida berilgan holda olingan. Bu yerda vaqtning har bir qadamida temperaturaning o'zgarib borishini kuzatib turish, tahlil qilish mumkin. Agar masalani oshkor holda yechilsa, yechim uzoqlashgan hollarni ham ko'rib borish mumkin.

Ko'rilayotga sohada bo'layotgan jarayonni tasvirlashning yana bir yo'li – bu dasturlashdagi ranglash effektlaridan foydalanish. Masalan, Delphidagi rgb usulida 3 ta parametr bo'lib, ular mos ravishda musbat son bo'lib, 255 gacha o'zgaradi. Biz beradigan temperatura qiymati ham qizil, yashil, ko'k ranglarning kombinatsiyasini ifodalaydi. Har bir parametr 100 dan katta bo'ladi va sterjen chap tomoni qizil rangga yaqin bo'ladi. Xuddi shunday sterjen o'ng tomonini va sterjen ichki nuqtalarini bo'yaymiz. Ushbu jarayonni aks ettiruvchi dastur oynasi ushbu ko'rinishga ega (3-chizma).

### 3-chizma. Sterjenga chegaraviy va boshlang'ich shartlarni qo'yish.

Dastur bajarilishida sterjen chap va o'ng tomonlaridan hisoblash natijasida temperatura tarqalishi sodir bo'ladi. Buning oqibatida vaqt bo'yicha sterjenda issiqlik tarqalishi sodir bo'ladi. Bu jarayon sonlarda namoyon bo'ladi va dasturda bu sonlar rgb usuli orqali rangga aylantiriladi. Ushbu jarayon quyidagi dastur qismi orqali beriladi:

```
FOR I:=0 TO N DO BEGIN IT:=TRUNC(U2[I]);
Canvas.Brush.Color:=rgb(TB+iT,10,10);//qizil, yashil, ko'k;
Canvas.Brush.Style:=bsSolid; Canvas.pen.Color:=rgb(TB+iT,10,10);
Canvas.Rectangle(20+3*i,10,50+3*i,40); for j:=1 to 1000000 do k:=1; END.
```

Bu yerda Trunc funksiyasi orqali hisoblangan temperatura qiymati butun tipga aylantiriladi va sterjen bo'ylab kerakli koordinatada shu rangli kichik to'rtburchak shu rangga bo'yaladi. Har bir rang bo'yalganidan keyin pauza hosil qilinadi, chunki dastur juda tez ishlaydi.

4-chizmada ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, sterjen ichida temperatura tarqalishida hosil bo'lgan holat ranglar orqali tasvirlangan. Sterjen chap va o'ng chegaralaridagi temperaturalar qiymati bir-biriga yaqin bo'lgani uchun ham sohada tarqalish holati deyarli bir xil.

Jarayonni ekranda tasvirlashning yana bir yo'li MathCAD tizimida dastur yozib, natijasini grafiklarda namoyish etishdir. Ana shunday tasvirlardan biri 5-chizmada namoyish etilgan [6]. Bunda vaqtning 3 ta birligida temperatura tarqalish holatlari ko'rsatilgan.


Form1

---

Sterjen chap chegara temperaturasi
Sterjen o'ng chegara temperaturasi

Ichki nuqtalardagi temperatura

4-chizma. Dastur ishlashi jarayonida sterjenda issiqlik tarqalish jarayoni.



5-chizma. MathCADda issiqlik tarqalish jarayoni tasviri.

**Xulosa.** Matematik va kompyuterli modellashtirish tamoyillari qo'llanilib, Delphi dasturlash tili hamda MathCAD tizimi asosida sterjen bo'ylab temperatura o'zgarishi grafik interfeysda namoyish etilishi ko'rsatildi. Bundan ko'rinadiki, kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash bunday mavzularni o'qitishda yangicha yondashuv olib kiradi, hisoblashlarni osonlashtirish, grafiklarni chizish, boshlang'ich ma'lumotlarni o'zgartirib turib, ko'rinishlarni almashtirish, natijalarni tushunishni osonlashtirishi mumkin bo'ladi.

**Boymurodov Zohid Shokirovich (Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi)**  
**TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH – YOSHLAR TURMUSH TARZINI**  
**OPTIMALLASHTIRISH OMILI**

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlar turmush tarzini optimallashtirishda tadbirkorlikning muhim omil ekanligi hamda yoshlar turmush tarziga ta'siri bilan bog'liq qarashlar tahlil etilgan. Tadbirkorlik faoliyati yoshlarni ish bilan ta'minlashi, muayyan daromadga ega bo'lishiga, maishiy turmushini farovonlashtirishiga, bo'sh vaqtning mazmunli o'tishiga xizmat qilishi bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Аннотация.** В статье анализируются взгляды на то, что предпринимательство является важным фактором оптимизации образа жизни молодежи и его влияние на образ жизни молодежи. Мнения, связанные с тем, что предпринимательство представляет собой занятость молодых людей, обеспечивает им определенный доход, улучшает их быт, служит для содержательного проведения свободного времени.

**Annotation.** The article analyzes views on the fact that entrepreneurship is an important factor in optimizing the lifestyle of young people and its impact on the lifestyle of young people. Opinions related to the fact that entrepreneurship provides employment to young people, provides them with a certain income, improves their household life and serves to spend their free time in a meaningful way.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, turmush tarzi, moliyaviy madaniyat, optimallashtirish, odat, ko'nikma, moliyaviy bilim, mehnat bozori, daromad.

**Ключевые слова:** предпринимательство, стиль жизни, финансовая культура, оптимизация, привычка, умение, финансовые знания, рынок труда, доход.

**Key words:** *entrepreneurship, lifestyle, financial culture, optimization, habit, skill, financial knowledge, labor market, income.*

**Kirish.** Bugungi kunda yoshlar turmush tarzini optimallashtirish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun, eng avvalo, ularning moddiy ta'minotini yaxshilash zarur. Biroq yuksak moddiy ta'minotning o'zi turmush tarziga optimal tus beravermaydi. Buning uchun yoshlarni moddiy imkoniyatlardan oqilona foydalanishga ham o'rgatish zarur bo'ladi. Shuningdek, yigit va qizlarda sog'lom odat va ko'nikmalarni qaror toptirish masalalari ham dolzarb tus olmoqda. Binobarin, yoshlar turmush tarzini optimallashtirishning uch yo'li mavjud: a) yigit va qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishni jaddallashtirish; b) ularning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish; d) ularning sog'lom odat va ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Adabiyotlar tahlili.** Turmush tarzi bilan bog'liq muammolar bir necha asrdan buyon jahon faylasuflarning e'tiborini o'ziga jalb qilib keladi. B.Spinoza, L.Feyyerbax, Z.Freyd, A.Shopengauer, M.Xaydegger, M.Sheler kabi mutafakkirlarning asarlarida uning antropologik va ontologik asoslari ochib berilgan. Mamlakatimizda yoshlar turmush tarzining turli aspektlari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan. R.Arzikulov yigit va qizlarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish muammolarini, F.Jumanova va G.Nazirovalar maktab o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillarini, E.Ibragimov ma'naviy-ruhiy manipulatsiyaning yoshlar dunyoqarashi va turmush tarziga ta'sirini, Sh.Ismailova yoshlar ijtimoiylashuvida axloqiy qadriyatlarining o'rnini, A.Rasulev va F.Ubaydullayevalar yoshlar o'rtasida ishsizlikning kelib chiqish sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, D.Xudoyberdiyev yoshlar iste'molchilik xulqining o'zgarishi sabablari va oqibatlarini, G.G'affarova va D.Jumanovlar ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini o'rganishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada yoshlar turmush tarzini optimallashtirish yo'llari muhokama qilinadi. Uning asosiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va ularning natijalari hamda saqlanib qolayotgan salbiy holatlar tahlil qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Yoshlar turmush tarzida saqlanib qolayotgan salbiy holat va muammolarni bartaraf etishga kirishishning tayanch nuqtasi ularning moddiy ahvolini, moddiy ta'minotini yaxshilash bilan bog'liq. Chunki aynan moddiy ta'minot yigit va qizlar uchun barcha muammolarni hal qilishning dastlabki asosiy vazifasini o'taydi. Albatta, yoshlar moddiy ahvolini yaxshilash uchun ularni munosib ish bilan ta'minlash zarur – bu aksiomatik mulohaza. Biroq mehnat bozoridagi ishchi kuchi rivoji bilan yangi ish o'rinlarining yaratilishi o'rtasida nomutanosiblik mavjud bo'lgan bir sharoitda bu vazifa hal qilib bo'lmamas ahamiyat kasb etadi. Masalaning yagona yechimi tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlarda tadbirkorlik ruhini uyg'otish bilan bog'liq. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: "Iste'dodli va bilimli yoshlarimizni tadbirkorlikka keng jalb etish muhim ahamiyatga ega", deb ta'kidlagandi.<sup>1</sup> Kundalik hayotda "tadbirli odam" deganda o'z ishini puxta o'ylab amalga oshiradigan shaxslar tushuniladi. "Tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalarining mazmunini anglab yetishda ham ushbu talqin qo'l keladi. Tadbirkor – muayyan sohada daromad olish maqsadida o'z xatti-harakatlarini puxta o'ylagan holda, muayyan reja asosida amalga oshirishga qodir kishidir. Tadbirkorlik faoliyati esa "tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatdir".<sup>2</sup> Tadbirkorlik shakllari haqida gap ketganda, ayrim mamlakatlarda davlat tadbirkorligi xususida ham fikr yuritiladi. Biroq O'zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo'lishi mumkin emas. Umuman olganda, bu boradagi chora-tadbirlar yoshlarga, ularning ehtiyoj va muammolariga, huquq va manfaatlariga e'tibor yangi pallaga kirgan bir vaziyatda amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, keyingi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati mutlaqo o'zgacha tamoyillar, yondashuvlar asosida amalga oshirila boshlandi. Birgina "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining, «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining» qabul qilingani bunga yorqin misoldir. Shuningdek, jamiyatda yoshlar bilan ishlashning zamonaviy, yaxlit tizimi vujudga kela boshlaganini ham ta'kidlab o'tmoq darkor. Bu bejiz emas, albatta. Chunki "dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston – turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining teng huquqli a'zosi. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-j, T., "O'zbekiston", 2020, 260-bet.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"/<https://parliament.gov.uz/uz/laws/adopted/97/3496>.



xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir".<sup>1</sup> Mamlakat yigit va qizlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida qator ahamiyatli davlat dasturlari qabul qilindi. "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh tashabbus", "Har bir yoshga – bir gektar" dasturlari shular jumlasidandir. Mazkur dasturlar doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, yaratilgan imkoniyatlar ham diqqatni tortadi.

Mamlakat rahbari yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq vazifalar, shu jumladan, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoit yaratish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida turishini bot-bot takrorlamoqda. "Bugungi murakkab zamonda, deb yozadi u, yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib qolmoqda".<sup>2</sup> Bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan choralar haqida gapirganda, birinchi navbatda, tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan korrupsion holatlarni bartaraf etish zaruriyatini tilga olish lozim bo'ladi. Umuman olganda, bugungi kunda korrupsiya jahonning barcha mamlakatlarida tadbirkorlikka to'siq bo'lib qolmoqda, investitsiya muhitini yomonlashtirmoqda. "Tahlillarga ko'ra, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi".<sup>3</sup>

Obyektivlik nuqtayi nazaridan, keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan korrupsion holatlar jadal bartaraf etib borilayotganini aytib o'tmoq darkor. Lekin bunday holatlarning hanz mavjudligi tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyatini modernizatsiyalash, fuqarolik jamiyati institutlarining tadbirkorlik faoliyatini himoyalash borasidagi faoliyatini takomillashtirish, "davlat organlari tadbirkorlar" muloqotining zamonaviy mexanizmlarini vujudga keltirish, litsenziyalash tizimini to'liq raqamlashtirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil mobaynida "Jizzax, Andijon, Navoiy va Xorazm viloyatlaridagi 59 ta qurilish obyekti bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirishda moliyaviy xato va kamchiliklar, shuningdek, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgani aniqlangan".<sup>4</sup> Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun, bir tomondan, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini huquqan tartibga solish, ikkinchi tomondan, davlat xaridlarini to'liq raqamlashtirish va oshkoralashtirish zarur bo'ladi.

Ikkinchidan, tadbirkorlar huquq va manfaatlarining buzilishi hollariga barham berish kerak bo'ladi. Birgina 2020-yilda Biznes-ombudsmanga tadbirkorlar mulkiy huquqlarining buzilishiga doir 1 ming 67 ta murojaat kelib tushgan.<sup>5</sup>

**Xulosalar.** Yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Yoshlar turmush tarzida saqlanib qolayotgan salbiy holat va muammolarni bartaraf etish uchun, eng avvalo, ularning moddiy ahvolini, moddiy ta'minotini yaxshilash zarur. Buning uchun mamlakatimiz yigit va qizlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishni jadallashtirish kerak. Buning natijasida yoshlar ish bilan ta'minlanadi, ular moliyaviy sarf-xarajatlarini mustaqil amalga oshirishga ko'nika boshlaydilar, oiladagi hayotlarida ijobiy siljish yuz beradi, jamiyat ishlariga ishtiroki faollashadi, dunyoqarashi kengayadi, ahamiyatli fazilatlarini rivoj topadi, sog'lom odatlari ko'payadi, bo'sh vaqti mazmunli o'ta boshlaydi.

**Mamatqulov Abdulxapiz Latipovich (AndCHTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;**

**[mamatqulovabdulhafiz1@gmail.com](mailto:mamatqulovabdulhafiz1@gmail.com)**

## **GERMAN TILLARIDA OTLARNING KO'PLIK KATEGORIYASI KO'RSATKICHLARINING IFODA ETILISH USULLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola german tillarida otlarning ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi morfologik vositalarning shakllanishi va taraqqiyoti davrida umumiylik va xususiylik hodisalarini aniqlashga bag'ishlangan.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена выявлению особенностей общности и специфичности при формировании и развитии морфологических средств выражения множественного числа существительных в германских языках.*

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-j, T., "O'zbekiston", 2017, 27-bet.

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T., "O'zbekiston", 2021, 254-bet.

<sup>3</sup> Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlari takomillashtiriladi.// uza.uz, 2020, 11 fevral.

<sup>4</sup> O'zbekistonda nihoyat manfaatlar to'qnashuviga oid qonun qabul qilinadi.//kun.uz, 2021, 30 mart.

<sup>5</sup> Qaysi viloyatlarda tadbirkorlar mulkiga ko'p tajovuz qilingan?// kun.uz, 2021, 28 yanvar.

**Annotation.** This article is dedicated to identifying the features of similarity and specificity in the formation and development of morphological means of expressing the plural of nouns in Germanic languages.

**Kalit so'zlar:** german tillari, ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi usullar, son, rod, kelishik, grammatik ma'no.

**Ключевые слова:** германские языки, способы выражения значения множественности, количество, падеж, род, грамматическое значение.

**Key words:** Germanic languages, ways of expressing the meaning of plurality, quantity, case, gender, grammatical meaning.

Dunyo tilshunosligida o'zaro qarindosh yoki o'zga til oilalariga mansub tillarni qiyoslash asosida leksik qatlamlari genetik ildizlarining qay tarzda rivojlanganligi, bir-biriga ta'siri, lug'aviy tarkibining bo'yib borishi masalalari muhim amaliy vazifalardan hisoblanadi. Bir va har xil sistemaga mansub tillarning mufassal tipologik analizi "qiyoslanayotgan tillarning son va sifat xarakteristikalari" aniqlangach, ma'lum bo'ldi [1,24].

Shunday izlanishlardan biri otlarning son kategoriyasini, uning ko'plik ma'nosini ifoda qilish usullarini o'rganishdir. Tillardagi relevant belgilar ko'plik formalarni yasashda nihoyatda aniq ifodalanadi, chunki ko'plikning formal vositalari realizatsiyasi tilning turli taraqqiyot davrlarida farq qilishlari mumkin. Shuning uchun ot turkumining son kategoriyasi qiyoslanayotgan tillarning asosiy xarakteristikalaridandir [2,88]. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada german tillarida otlarning ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi morfologik vositalarning shakllanishi va taraqqiyoti davrida umumiylik va xususiylik hodisalarini aniqlash ko'zda tutilgan.

German tillarida otlarning son kategoriyasida ikkita binar oppozitsiya elementi mavjud: birlik va ko'plik. Bu privativ oppozitsiyadir. Chunki uning faqat biri markerga ega. Shuning uchun V.Y.Plotkinning ko'plik formasi markerlangan, degan fikriga qo'shilish mumkin [3,109]. Shu bilan birga, qadimgi german tillarida ayrim otlarning (ayniqsa, sredniy rodga mansub) ko'plik formalari omonim edi, ya'ni ayrim paytlarda oppozitsiya neytralizatsiyalashadi.

Qadimgi german tillarida otlarning ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi asosiy morfologik vositalar rang-barang fleksiyalardir. Ularning hech biri bir tilning barcha otlari uchun umumiy emas edi. Shu fleksiyalar sinkretik holatda son, rod va kelishik kabi grammatik ma'nolarni ifoda etadilar. Masalan, qadimgi nemis tilida ko'plik qo'shimchasi bir vaqtda son va kelishik kategoriyasi ma'nolarini ifoda etsa, qolgan qadimgi german tillarida uchala grammatik kategoriya ma'nolarini ifoda etadi. German tillarida ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi morfologik ko'rsatkichlarning tarixiy taraqqiyotini kuzatish natijasida, taqqoslanayotgan tillarda qator umumiyliklarning mavjudligini ko'ramiz. Xususan, kelishik va rod vositalarining son vositalaridan ajralish jarayoni, birlik va ko'plik ma'nolarini ifoda etuvchi usullarini aniqroq qarama-qarshiligini ko'rsatuvchi tendensiyasi va ko'plik ma'nosini bir xil ifoda etish tendensiyasidir.

Kelishik va rod ma'nolarini ifoda etuvchi vositalarning ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi vositalardan ajralish jarayoni german tillarida turlanish tiplarining ajralishi, keyinchalik, bir xil holga o'tishi g'oyat muhim jarayon bilan parallel yuzaga chiqqan. Bundan tashqari, qo'shimchalar orasidagi farqlar qisman yoki to'la tugatilgandir. Ko'plik ma'no ifoda etuvchi morfologik vositalarning kelishik va rod ma'nolarini ifoda etuvchi vositalardan ajralish jarayonining xronologik davri hamma german tillarida turlicha. Masalan, shunday defferensiatsiya nemis tilida XIV asrdan boshlanib, bir necha yo'llar bilan realizatsiya qilinadi [4,190–193]. Ko'plik ma'no ko'rsatkich sifatida keng qo'llanilgan -er (-ir) suffiksi va umlaut ko'plikni ifoda etish formalarni kelishik formalaridan ajralish jarayoniga imkon bergan. Keyinchalik, otlarda ko'plik ma'nosining ko'rsatkichi funksiyasiga -e, -n (-en) suffikslari ega bo'ldilar. Otlarning ko'plik bilan turlanish paradigmalarida ushbu suffikslarning XIV asrdanoq mavjud bo'lishi mazkur qo'shimchalarning shunday o'zgarishiga yordam berdi. Nemis tilida har xil o'zaklarga mansub bo'lgan (-e "unli o'zaklar", -n (-en)n"-o'zakli", -er (-r)"s"-o'zakli" va umlaut) yetarli ko'plik qo'shimchalari bo'lishiga qaramay, XVII asrda ko'plik fleksiyasi sifatida tamoman yangi -s suffiksi vujudga kelgan. Bu, albatta, yangi nemis tilida hukmronlik qilgan birlik va ko'plikning aniq qarama-qarshilik tendensiyasini ko'rsatuvchi dalildir.

Bundan tashqari, yuqorida qayd qilingan jarayoniga qadimgi nemis tilidagi otlarning turlanish tiplariga asoslangan eski gruppalash, ehtimol, yordamchi faktor bo'lgandir. Bunday holatda mujskoy rodga mansub bo'lgan otlar ko'plik formalarining -e fleksiyasi, agar mumkin bo'lsa, umlaut orqali ifoda etish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Jenskiy rod otlarda esa -en fleksiyasi sredniy rod otlarda -er fleksiyasi umlaut bilan bir qatorda ishlatiladi.

Skandinav tillarida kelishik qo‘shimchalarining reduksiyasi bilan birgalikda hamma ko‘plikdagi otlarning kelishik bilan turlanishida ko‘plik ma‘nosini ifoda etuvchi morfologik vositalar kelishik va rod ma‘nosini ifodalovchi vositalardan farqlanadi. Buning natijasida otlarda qayta gruppalanish protsessi vujudga keladi. Otlarning turlanish tiplari bo‘yicha eski gruppalash yangicha, ko‘plik formasi usuliga asoslangan gruppalashga olib keladi. Daniya tilida otlarning ko‘plik formasini ifoda etish uchun -er, -r, -e va nol fleksiylari asosiy ko‘rsatkich bo‘lib qolsa, shved tilida -or, -ar, -er, -r, -n(en), r nol fleksiylari bo‘lib qoladi. Otlarning ko‘plik formalarini yasash usullariga asosan, taqsimlash bilan ularning biror rodga mansub bo‘lishi orasida shved tilida ayrim hollarda ma‘lum aloqa mavjud. Shunga ko‘ra, -or, -ar, -er, -r, fleksiylari yordamida ko‘plik formalarini yasagan hamma otlar (ayrim istisno bilan) umumiy rodga mansubdir, -n (-en) suffiksi orqali ifoda etilgan ko‘plik formadagi hamma otlar (istisnosiz) sredniy rodga taalluqlidir [5,116–123].

Skandinav tillari orasida ikki adabiy til formalariga ega bo‘lgan (rikemol va lansmol) norvegiya tili alohida o‘rin egallaydi. Ikki adabiy til formalarining farq qilinishi otlarda ko‘plik formasini yasashda o‘z aksini ham topadi. Riksmolda otlarning ko‘plik formalari, asosan, -er, -r va -e va nol fleksiylari orqali o‘z ifodasini topadi, bunda -er va uning varianti -r fleksiylari tip asosiy otlarni o‘z ichiga oladi. Lansmolda esa ko‘plik qo‘shimchalari differensiyasi saqlanadi, bunda otlarning ko‘plik qo‘shimchalari, asosan, -er qo‘shimchasining variantlaridir (-or, -ar, -r) [6,35].

Skandinav tillarning boshqa german tillaridan farqli xususiyati shundaki, bu tillarda otlarning ko‘plik formalariga suffikslashgan artikl (dan. -ene (-ne), shved. -na (-ne), norv. -ene (-ne)) qo‘shiladi. Shunday qilib, skandinav tillarida suffikslashgan artikl tufayli ko‘plik ma‘nosini ifoda etuvchi formal “universal” ko‘rsatkichi” mavjuddir. Bundan tashqari, mazkur tillarda otlarning asosiy qismi ko‘plik formasini -er (yoki uning varianti -r) fleksiyasi orqali ifoda etadi, bu esa, ehtimol, skandinav rootatsizmi natijasidir, ya‘ni, bu holatda ham otlarning ko‘plik ma‘nosini bir xil ifoda etish tendensiyasini ko‘rish mumkin.

Niderland va ingliz tillarida otlarning ko‘plik ma‘nosini ifoda etuvchi morfologik sistema vositalari til taraqqiyoti jarayonida sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Shunday qilib, mazkur tillarda oldingi har xil ko‘plik yasash usullari o‘rniga cheklangan ko‘plik yasash vositalari qoladi, ya‘ni, adabiy tilda bir yoki ikki fleksiya yordamida ko‘plik formalari yasash vujudga keladi va bir xil qiyofaga kiradi.

O‘rta niderland tilida o‘zining unumdorligi, o‘rtacha uchratilishi va areal taqsimlanishi jixatdan -e, -er, -s, -en (-n) va nol fleksiya yordami tufayli otlarda ko‘plik yasash usullari mavjud edi. Taraqqiyot jarayonida shu fleksiylar orqali ko‘plik yasagan otlar -s va -en qo‘shimchalari yordamida ifoda etgan unimli modellarga qo‘shilib ketadi. Shunday qilib, XII asrda -s va -en (-n) modellar niderland tilida otlarning ko‘plik yasovchi usullari bo‘lib qoladi [7,256].

Qadimgi davr ingliz tilida otlarda ko‘plik yasash morfologik vositalari undan ortiq edi (-as, -an, -um, -ru, -a, -u, -e, -i, -is), nol fleksiyasi va o‘zak unlisining o‘zgarishi). O‘rta ingliz tili davriga kelib (XV asr), otlarda ko‘plik yasash morfologik vositalar inventari minimum darajada qisqaradi, ya‘ni, -a o‘zagi mujskoy rodga mansub otlarning bosh va tushum kelishiklarining ko‘plik -as qo‘shimchasidan kelib chiqqan -s(-es) fleksiyasi yordamida ko‘plik formasi yasash modeli ko‘p otlar uchun universal model bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, shu vaqtga kelib, ko‘plik ifoda etuvchi vositalar rod va turlovchi vositalardan ajraladi, nihoyat, turlarga asoslangan otlarning gruppalanishi (IX–XIII asr yodgorliklarida) yangicha, ko‘plik yasash usullariga asoslangan gruppalanishga o‘tadi.

Afrikans tilida otlarda ko‘plik yasash asosiy morfologik ko‘rsatkichlari -e va -en fleksiyadir. Bu tilning xarakterli belgisi shundan iboratki, -es qo‘shimchasi, universal ko‘plik fleksiyasi sifatida, yozma va og‘zaki tillarda uchraydi, -e fleksiyasi esa faqat yozma tilda uchraydi, ya‘ni, ular faqat stilistik jihatdan farqlanadi. Hozirgi zamon ingliz tili kabi, afrikaans tilida ham rod kategoriyasi yo‘qdir.

Shunday qilib, hamma german tillarida otlarning son grammatik kategoriyasi universal tipdagi kategoriyadir. Shu bilan birga, uning formal realizatsiya vositalari ko‘riyatotgan tillarda sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, nemis tiliga xos bo‘lgan o‘zak unlisini o‘zgartirish orqali ko‘plik yasash usuli ingliz va boshqa german tillarida juda oz otlarda uchraydi; -en fleksiyasi yordamida ko‘plik yasash nemis, niderland va ayrim skandinav tillarida normativ bo‘lsa, ingliz tilida faqat bir necha otlarga mansubdir. Afrikans tilida esa, umuman, uchramaydi.

Hamma german tillari, bir-birlaridan qat‘iy nazar, asrlar davomida taraqqiy qilishiga va umumgerman holatdan uzoqlashganlariga qaramay, bu tillarda evolutsiya murakkab flektiv sistemani analogik sodalastirish tomon boradi, ya‘ni, I.P.Ivanova tili bilan aytganda, “hamma german tillarining grammatik tuzilish taraqqiyoti analitizm tomon yo‘naladi, ammo analitizm darajasi bu tillarda bir xil emas”.

Ingliz, niderland va sezilarli darajada norveg tilining riksmolida otlarning ko'plik yasash vositalari inventari sezilarli qisqaradi, daniya, shved va norveg tilining lansmoli o'zlarining qadimiy holatiga yaqinligini saqlaydi. Shu sohada bu tillar o'z qadimiy holatini saqlab qolgan island tiliga yaqinroq turadilar, nihoyat, boshqa german tillar orasida nemis tili, xususan, otlarda ko'plik yasash usuli jihatidan, ya'ni, bu tilga yangi bo'lgan -s fleksiyasining paydo bo'lishi jihatidan qadimgi o'z holatidan uzoqlashadi.

Shunday qilib, otlarda ko'plik ma'nosini ifoda etuvchi morfologik vositalar borligi nuqtayi nazardan (son jihatdan), german tillarining shu gruppada oraisdagi gradatsiyasi quyidagicha.

Ingliz va nemis tillari tamoman aks pozitsiyalarga ega, boshqa tillarni shu borada taqqoslash natijasida shunga imkon beradiki, afrikaans va niderland tillari ingliz tiliga yaqinroq, daniya, shved, island tillari esa nemis tiliga yaqin turadi.

Albatta, "qardosh tillar gruppasining struktur modelini har xil hind yevropa va hind yevropa bo'lmagan tillar struktur modeliga solishtirib bo'lgandagina..., aniq tillar gruppasining tipologik xarakteristikasi va tipologik xususiyatlari haqida savol qo'yish maqsadga muvofiqdir".

Ammo qardosh tillarning diaxron o'zgarishlar tipologiyasini tuzish uchun qardosh tillar gruppasi bo'yicha ayrim aspektlarda izlanishlar tipologik qiyoslash ham maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtayi nazardan, ushbu izlanish natijalarini boshqa avtorlar izlanishlari bilan taqqoslash qiziqarlidir. Ayniqsa, bu german tillarining shu tillar gruppasi orasidagi klassifikatsiyasi sohasida namoyon bo'ladi. Chunki izlanish obyektiga qarab ayrim tillarning tipologik xususiyatiga ko'ra german tillari gradatsiyasi biroz o'zgaradi. Agar ot turkumiga mansub sistema izlanish obyekti bo'lsa, german tillari tipologik jihatdan qutbiy joylashgan ingliz va niderland tillari orasidan joy oladi. Bunda afrikans va niderland tillari ingliz tiliga yaqinroq tursalar, boshqa german tillari esa nemis tiliga yaqinroq joylashadilar.

Agar izlanish obyekti fe'l sistemasiga mansub bo'lsa, german tillari tipologik jihatdan tamoman teskari bo'lgan ingliz va island tillari orasidan joy oladilar, bunda ham niderland va afrikans tillari ingliz tiliga yaqinroq bo'lsa, nemis va skandinav tillari island tiliga yaqinroq bo'ladi [8,104–182].

German tillarining ot turkumidagi va fe'l turkumidagi o'xshshligi va farqi asosida vujudga kelgan ikki klassifikatsiyani taqqoslash natijalarining ko'rsatishicha, differentsiatsiya faqat bir fazadadir, ya'ni, ot turkumiga oid klassifikatsiyada ingliz va nemis tillari qutbiydir, fe'l sistemasi asosidagi klassifikatsiyada esa ingliz va island tillaridir, bunda nemis tili island tiliga yaqinroqdir. Aytib o'tish kerakki, har ikkala klassifikatsiyada ham skandinav tillari o'rtadan joy oladilar.

Ushbu klassifikatsiyalardagi farqlar shuni taxmin qildiradiki, tarixiy taraqqiyot jarayonida morfologik sistemada barcha o'zgarishlar tildan tashqari muhitni aks ettirish bilan bog'liqdir. Bu jihatdan har ikkala klassifikatsiya ham asosdilir, chunki ot morfologiya sistemasi tildan tashqari muhitni aks ettirish bilan bog'liq bo'lib, ko'proq o'zgarishlarga duchor bo'lgan, fe'l sistemasi esa biror ichki til munosabatlarini aks ettiradi. Shuning uchun havola qilingan german tillari gradatsiyasida ham ushbu tildan tashqari muhitni aks ettirish o'z ifodasini topgandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ярцева В.Н. Типологическое исследование морфологических структур в родственных языках. Структурно-типологическое описание современных германских языков. М., 1966, с. 22.
2. Меновшиков Г.А. Способы выражения единичности и множественности в языках различного типа. "ВЯ", 1970, № 1, с. 88.
3. Плоткин В.Я. Эволюция систем оппозиции в истории германских языков. Историко-типологическое исследование морфологического строя германских языков. М., 1972, с. 109.
4. Жирмунский В.М. История немецкого языка. М., 1965, с. 207.
5. Маслова С.С. Лашанская. Шведский язык. М., 1963, с. 116 – 123.
6. Стеблин М.И. Каменский. История Скандинавских языков. М., 1968, с. 15.
7. Миронов С.А. Морфология имени в нидерландском языке. М., 1967, с. 256.
8. Кубрякова Е.С. Морфологическая структура слова в современных языках. Морфологическая структура слова в индо-европейских языках. М., 1970, с. 104 – 182.

**Choriyeva Asila Alisher qizi (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti)**

**Ingliz tili 3-fakulteti 3-bosqich talabasi; e-mail: [asilachoriyeva2002@gmail.com](mailto:asilachoriyeva2002@gmail.com))**

**FRAZEOLOGIZMLARGA LINGVOMADANIY NUQTAYI NAZARDAN YONDASHISH**

*Annotatsiya. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda olib borilgan ko'plab lingvistik tadqiqotlar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik masalalariga qaratilgan. Til va madaniyat bir-biri bilan bog'liq bo'l-*

ganligi sababli, bu aloqalarni ochish uchun ularni birgalikda o'rganish muhimdir. Ushbu maqola frazeologizmlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq qilishga qaratilgan. Unda frazeologik birliklarning milliy o'zlikni, xususan, dunyoga milliy qarashni ko'rsatish qobiliyatiga urg'u bergan. Ushbu tadqiqotda frazeologizmlar millatning madaniy o'ziga xosligini ochib beruvchi lingvistik konstruksiyalar sifatida qaraladi. Tadqiqot maqsadlarini bajarish uchun quyidagi vazifalar talab qilinadi: tegishli adabiyotlarni tahlil qilish, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, frazeologizmlarning madaniy asoslarini aniqlash. Tadqiqot lingvistik tavsif va lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalangan holda o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning qo'llanishi orqali millatning madaniy va milliy o'ziga xosligini ochish mumkin. Bundan tashqari, frazeologizmlar ma'lum bir xalqning dunyoqarashini aniq belgilash uchun ishlatilishi mumkin.

**Аннотация.** Следует отметить, что многие лингвистические исследования, проводимые в последние годы, сосредоточены на вопросах связи языка и культуры. Поскольку язык и культура связаны, важно изучать их вместе, чтобы выявить эти связи. Настоящая статья направлена на исследование фразеологизмов с лингвокультурологической точки зрения. Подчеркивается способность фразеологизмов отражать национальную принадлежность, в частности, национальную картину мира. В данном исследовании фразеологизмы рассматриваются как языковые конструкции, раскрывающие культурную самобытность нации. Для выполнения целей исследования необходимо решить следующие задачи: анализ соответствующей литературы, изучать взаимосвязь языка и культуры, определить культурную основу фразеологии. Исследование проводилось с использованием методов лингвистического описания и лингвокультурологического анализа. Результаты исследования показали, что через использование фразеологии можно раскрыть культурную и национальную идентичность нации. Кроме того, фразеологизмы могут использоваться для четкого определения мировоззрения того или иного народа.

**Annotation.** It should be noted that many linguistic studies conducted in recent years are focused on the issues of connection between language and culture. Because language and culture are related, it is important to study them together to uncover these connections. The current article is aimed at researching phraseologisms from a linguistic and cultural point of view. It emphasizes the ability of phraseological units to show the national identity, in particular, the national view of the world. In this study, phraseologisms are considered as linguistic constructions that reveal the cultural identity of the nation. To fulfill the research objectives, the following tasks are required: analysis of relevant literature, study the relationship between language and culture, to determine the cultural basis of phraseology. The research was conducted using the methods of linguistic description and linguistic and cultural analysis. The results of the research showed that the cultural and national identity of the nation can be revealed through the use of phraseology. In addition, phraseologisms can be used to clearly define the worldview of a particular nation.

**Kalit so'zlar:** frazeologizmlar, lingvistik dunyoqarash, til, madaniyat va milliy o'ziga xoslik.

**Ключевые слова:** фразеологизмы, языковое мировоззрение, язык, культура и национальная идентичность.

**Key words:** phraseologisms, linguistic outlook, language, culture and national identity.

**Kirish.** Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy lingvistik va mintaqaviy tadqiqotlar (shunga o'xshash atama – lingvokulturologiya) lingvistik birliklar, tushunchalar va boshqa obyektlarni u yoki bu etnik guruhga mansubligi nuqtayi nazaridan o'rganadi. Shu o'rinda, tilning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi o'z va geografik nomlari, bizda ingliz tilining shu o'rinda ta'kidlangani alohida qiziqish uyg'otadi.

Madaniyat har qanday sivilizatsiyaning o'zagi, jamiyatda axloqiy tamoyillar va madaniy imperativlarni o'rnatish har qanday jamiyatning eng muhim va qiyin muammosidir. Zamonaviy tilshunoslikda etnolingvistika va lingvokulturologiya muammolari juda dolzarb bo'lib, rus tilida ham, jahon tilshunosligida ham faol o'rganilmoqda.

**Adabiy sharh.** Til va madaniyatning o'zaro ta'siri bilan shug'ullanish juda muhim, bular o'ziga xos semiotik ramkalar ekanligini eslatib, juda ehtiyotkorlik bilan o'rganish kerak. Aql-idrok bilan shuni aytish kerakki, semiotik ramkalar juda ko'p umumiyliklarga ega. Madaniyatshunoslar inson va mavjudotni birlashtirib, madaniyatda o'z o'rniga ega deb ta'riflagan muhitga moslashish ishini bizning aql-zakovatimiz bilan qo'shimcha ravishda til bajaradi. Xususan, insonning tashqi dialekt jamiyatiga, shaxsning xilma-xil ijtimoiy jamoaga fonetik moslashuvi usuli asosida atrof-muhitga moslashish ishidir. Madaniyat va tilning utilitar xususiyatlarini taqqoslash ko'pgina imkoniyatlarning umumiylikini ta'kidlash uchun asos beradi, ular o'rtasida yaqinlik, parallellik, qo'shilish va kesishish munosabatlari mavjud.

Tilshunoslar ta'kidlaganidek, til tufayli inson o'z his-tuyg'ularini ifodalashi mumkin. Gumboldt: "Insonning ichida shunday chuqur, shu qadar nozik va keng qamrovli narsa yo'qki, tilga o'tmaydigan va u orqali bilib bo'lmaydigan", degan [2, 57].

Filolog M.T.Tagiyev "Til inson jamiyati tomonidan tuyg'ular doirasida yaratilgan mu'jiza, xalqlarning milliy-etnik birlashmalari. Til odamlar o'rtasidagi muloqot, fikrni, munosabatlarni ifodalash vositasidir" [6, 32].

"Zamonaviy tilshunoslikdagi umume'tirof etilgan haqiqat – bu lingvokulturologiyani sintez qiluvchi turdagi murakkab ilmiy fan sifatida qabul qilish. Tilshunoslik madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini uning faoliyati orqali o'rganadi. Bu jarayon birliklarning ajralmas tuzilishi sifatida tizimli usullardan foydalangan holda, lingvistik va ekstralingvistik (madaniy) tarkib va zamonaviy ustuvorliklar madaniyat institutlariga (me'yorlar va umuminsoniy qadriyatlar tizimi) yo'naltirilgan" [1,36–37]. Shunga ko'ra, lingvokulturologiyani tushinishda "til" va "madaniyat" atamalarini chuqurroq o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy qabul qilingan ta'rif bilan bir qatorda, lingvokulturologiyani fan sifatida aniqlashga qaratilgan quyidagi urinishlar mavjud. Masalan, lingvokulturologiya bo'yicha mashhur darslik V.A.Maslova lingvokulturologiyani "tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan tilshunoslik sohasi", "jonli milliy tilda mujassamlangan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganuvchi va til jarayonlarida namoyon bo'ladigan gumanitar fan" yoki "integratsion soha", "madaniyatshunoslik va tilshunoslik, lingvokulturologiya va madaniy antropologiya sohasidagi tadqiqotlar natijalarini o'zida mujassam etgan bilimlar", deb ta'riflaydi [5].

"Frazeologik birlik" atamasini ko'pchilik to'plamchilar va tadqiqotchilar "leksik jihatdan bo'linmas, tarkibi va tuzilishi jihatidan barqaror, tugallangan nutq birligi shaklida takrorlanadigan yaxlit iborani tushunadilar.

Frazeologik iboralarning lingvistik va mintaqaviy ahamiyati, shubhasiz, ularning mazmuni ishonchliligidadir. Frazeologizmlar aholining barcha qatlamlari tomonidan qo'llanadi, shuning uchun ular milliy xususiyatni aks ettiradi, deb aniq aytishimiz mumkin. Ko'p hollarda ular xalq tomonidan yaratilgan, shuning uchun ular xalqning manfaatlari va kundalik faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Tilning boshqa vositalari kabi ular tarixni eng yaxshi o'zlashtiradilar, chunki genetik jihatdan erkin iboralar xalqning ma'lum urf-odatlarini, hayoti va madaniyati, tarixiy voqealari va an'analarini tasvirlaydi, ularning ba'zilar faqat shu davrda saqlanib qolgan yoki mavjud bo'lmasligi mumkin.

Bugungi kunda fanda: 1) fazo-zamon harakatining asosiy tushunchalari va frazeologik birliklarning bir butun sifatida o'zlashtirilishi haqida umumiy fikr tuzildi; 2) alohida xalqaro frazeologik birliklarning kelib chiqishi va tarqalishini aniqlashga harakat qilindi; 3) frazeologik birliklarni ijtimoiy-tarixiy voqelik faktlari va qonuniyatlari bilan o'zaro bog'lashga, ularni ijtimoiy munosabatlarni, ijtimoiy ongini va ma'lum bir etnik guruhning ruhiy tarkibini ifodalovchi sifatida tushuntirishga harakat qilindi.

Frazeologik birliklarning tasnifi turli asoslarga ko'ra tuzilishi mumkin. Demak, frazeologik birliklar tildagi vazifalariga, grammatik tuzilishiga ko'ra, komponentlarning o'zaro semantik bog'lanish darajasiga, gap bo'laklariga mansubligi va hokazolarga ko'ra ajratilishi mumkin.

Til nafaqat xalqning ijtimoiy tarixini, balki uning madaniy taraqqiyotining barcha eng muhim bosqichlarini ham aks ettiradi. Bundan tashqari, xalqning madaniyat darajasi tilning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi [4,16]. Avloddan avlodga ko'paytiriladigan, ya'ni, inson o'ziga xosligi natijalarini taqlid qiluvchi semiotik tizimlar bo'lgan manbalar ona tilida so'zlashuvchining o'ziga xosligidagi an'anaviy uzluksizligi tufayli ularning ma'nosini ochishda ona tilida so'zlashuvchilar uchun "rebus" bo'la olmaydi [7, 239].

Tilshunoslik ta'limoti tarixi olimlarning til, tafakkur va madaniyatning o'zaro ta'siri to'g'risida juda ko'p so'zlariga ega, ammo, birinchi navbatda, ushbu g'oyalarning rivojlanishidagi o'sha bosqichlar davomiylikni ushbu turdagi tadqiqotlar asosiga aylantirganligini ta'kidlash kerak. Vilgelm fon Gumboldtning xalq tili, tafakkuri va madaniyati o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri bog'liqligini ochiq tan olgan g'oyalari zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikning manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bu munosabatlarning tan olinishi Gumboldtning "millat", "xalq ruhi", "lingvistik ong", "dunyoga qarash" kabi tushunchalarni zamonaviy gumanitar bilimlar uchun shunday asosga aylantirish natijasi edi.

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro munosabati va o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan sifatida tadqiqotini tilning obrazli va frazeologik birliklariga qaratadi.

Telia ta'kidlaganidek, frazeologizmlar milliy tillarda voqelikning shunday obrazli tasviri asosida vujudga keladi, u til jamoasining muntazam empirik, tarixiy yoki ma'naviy tajribasini aks ettiradi, bu, al-

batta, uning madaniy an'analari bilan bog'liq, chunki mavzu nominatsiya va nutq faoliyati doimo milliy madaniyat mavzusidir [7,13].

V.N.Telya frazeologiyada hozirgi vaqtda frazeologik birliklarning kamida olti sinfi yonma-yon mavjud degan nuqtayi nazarga amal qiladi. Bular: 1) idiomalar; 2) frazeologik birikmalar; 3) paremiya (maqol va matallar); 4) nutq belgilari; 5) klishe; 6) qanotli ifodalar. Bu fikrga S.G.Gavrin, N.M.Shanskiy va boshqa tilshunos olimlar ham qo'shiladi. Xalq og'zaki ijodini o'rganish ko'plab fanlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslar, tarixchilar, psixologlar va sotsiologlar folklorga murojaat qilishadi.

Bu boradagi bilimlarni tartibga solish, to'plash milliy fan va madaniyatni mustahkamlash uchun zarur. V.N.Telia ta'kidlaganidek, tilning frazeologik tarkibi "til va madaniy ham jamiyat o'zining milliy o'ziga xosligini belgilaydigan ko'zgu", ya'ni, frazeologik birliklardir, chunki u ona tilida so'zlashuvchilarga dunyoga, vaziyatga alohida qarashni yuklagan" [5,82]. Til jamiyatda rivojlanadi va turli tarixiy bosqichlarda uning rivojlanishi va shakllanishiga hissa qo'shadigan ona tilida so'zlashuvchilarsiz mavjud bo'la olmaydi [4,16].

Shu jihatdan frazeologik birliklarni o'rganish alohida ahamiyatga ega, chunki frazeologik birliklarni tashkil etuvchi so'zlar bir-biriga ma'no qo'shmaydi, balki butun gapning o'ziga xos umumiy ma'nosini hosil qiladi. Tushunish jarayoni va muloqot jarayoni frazeologik birlikda milliy-madaniy semantikani o'z ichiga olganligi bilan murakkablashadi.

Ta'kidlanishicha, frazeologizmlar emotsional yukni ko'tarib, chet ellik so'zlovchiga til to'sig'ini yengib o'tishga yordam beradi. Nutqda frazeologizmlardan foydalangan holda, qabul qiluvchi o'z fikrini ma'lum bir xalqning tarixi va madaniyati haqidagi haqiqiy bilimlarga asoslanganligini ko'rsatadi. Frazeologik birlikning onga ta'sirining o'ziga xos maqsadlari og'zaki muloqotni qabul qiluvchining bevosita maqsadlari va frazeologik birlikning semantik yuki bilan belgilanadi.

**Xulosa.** a) til va madaniyat bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarni ochib berish uchun ularni bir-biri bilan bog'lab o'rganish kerak;

b) frazeologizmlar – millatning madaniy o'ziga xosligini aks ettiruvchi til birliklari;

d) frazeologizmlar mansub bo'lgan millatning madaniy va milliy o'ziga xosligini ochib bera oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методология. М., изд-во Рос. университета Дружбы народов, 1997, 331 с.
2. Гумбольд В. Избранные труды по языкознанию. Пер.с нем. М., "Прогресс", 1984, 343 с.
3. Исрафилова Д.Ш. Взаимосвязь зыйка и культуры – как основной объект лингвокультурологии, Вестник ТГГПУ, 2010, № 2 (20).
4. Культурный код и язык: международный сборник научных трудов и лингвокультуры. Под ред. Е. Стефанского. Самара, 2015, 232 с.
5. Ковшова М.Л. (2009). Семантика и прагматика фразеологизмов (лингвокультурологический аспект). Автореферат, Москва.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М., «Академия», 2001, 208 с.
7. Cicoure, Aaron V. (2006). The Interaction of Discourse, Cognition and Culture. Discourse Studies. Vol.8, №1, p. 25 – 29.
8. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., Школа "Языки русской культуры", 1996, 288 с.

**Chorshanbiyeva Nozima Boymurod qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti**

**Xorijiy til va adabiyoti, ingliz tili, magistrant),**

**Qodirova Muqaddas Tog'ayevna (TerDPI, PhD)**

#### **DIPLOMATIK TERMINLAR CHO'G'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK OBYEKTI SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola tilshunoslikda terminologiyaning rivojlanishi, termin tushunchasiga izoh berish hamda sohaviy terminlarning tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati, xususan, diplomatik sohaga oid terminlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada diplomatik sohaga oid terminlar ingliz va o'zbek tillari misolida tahlil qilinadi.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена проблеме развития терминологии в языкознании, интерпретации понятия «термин», а также изучению роли и значения полевых терминов в языкознании, в частности, лингвистической характеристике терминов, относящихся к дипломати-*

ческой сфере. В статье анализируются термины, относящиеся к дипломатической сфере, на примере английского и узбекского языков.

**Annotation.** This article is dedicated to the issue of the development of terminology in linguistics, explanation of the concept of the term and the study of the role and importance of field terms in linguistics, in particular, the linguistic characteristics of terms related to the diplomatic field. In the article, terms related to the diplomatic field are analyzed using the examples of English and Uzbek languages.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, termin, sohaviy terminlar, lingvistik xususiyat, diplomatik terminlar.

**Ключевые слова:** терминология, термин, полевые термины, языковые особенности, дипломатические термины.

**Key words:** terminology, term, field terms, linguistic features, diplomatic terms.

**Kirish.** Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilshunosligida terminologiya o'ta shaxdam va dinamik tarzda rivojlanib borayotgan bo'limlardan biri bo'lib, o'zbek adabiy tili leksikasining muhim va ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Shuningdek, terminologiya til lug'at boyligining muttasil o'sib va kengayib borishida bitmas-tuganmas manba rolini bajarib kelmoqda. Har qanday tilning so'z boyligi insonlar tomonidan yaratiladigan rang-barang lug'atlarda ma'lum bir darajada o'z aksini topadi. Bugungi kunda muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani o'sha tilda yaratilgan lug'atlarning turi, soni va ularning sifati bilan o'lchanmoqda. Ushbu bo'lim rivoji uchun B.N.Golovin, A.S.Gerd, N.Dmitriyev, N.Basakov, A.A.Reformatskiy, V.P.Danilenko, N.Mamatov, U.Tursunov, H.Dadaboyev, E.Begmatov, O.Usmov, N.Mahkamov, H.Jamolxonov, N.Ikromova, A.Madvaliyev kabi xorijiy va o'zbek olimlari tadqiqot ishlari olib borib, o'z hissalarini qo'shgan.

Terminologiya tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda turli xil ta'riflar berilgan. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan: "Terminologiya (lot. terminus – chegara+yun. logos–fan, ta'limot). 1. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llanadigan terminlar majmuyi. 2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi".<sup>1</sup> Demak, terminologiyani ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida ishlatiladigan terminlar jamlanmasi hamda tilshunoslikda terminlarni va ularga oid bo'lgan muammolarni o'rganadigan soha deb ta'riflasak bo'lar ekan.

V.P.Danilenkoning ta'kidlashicha, terminologiya – umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya'ni an'anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili).<sup>2</sup> Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so'zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi.

Diplomatiya va diplomatik munosabatlar boshqaruv siyosati vujudga kelgan qadim davrdan boshlab, o'z vazifasi va mavqeyiga ega bo'lgan soha hisoblanadi. O'sha davrdan boshlab, to hozirgi kunga qadar diplomatiya va ushbu sohaga oid terminlarni o'rganish olimlar va tadqiqotchilarning e'tibor markazida bo'lgan eng dolzarb masalalardan biridir.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ushbu soha haqida so'z yuritar ekanmiz, dastavval, "Diplomatiya" tushunchasiga ilmiy adabiyotlarda berilgan turli xil ta'riflarga e'tiborimizni qaratsak. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha: "Diplomatiya (fransuzcha diplomatie<yunoncha diploma–ikki buklangan qog'oz varag'i). 1. Davlatning tashqi xalqaro siyosatni amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati. 2. Biror maqsadga erishish yo'lida ustalik bilan olib borilgan muomala".<sup>3</sup>

Rus olimlari I.I.Borisenko va L.I.Yevtushenkolar unga quyidagicha izoh berishadi: "Diplomatiya 1. Xalqaro aloqalarni o'rnatish san'ati va tajribasi. 2. Tashqi ishlarni olib borishda aql va uslubdir".<sup>4</sup> Ingliz olimi G.Nikolson esa: "...diplomatiya biror-bir siyosiy sistemaning kashfiyoti ham biror siyosiy manfaat uchun o'ylab topilgan faoliyat ham emas. Ammo u insonlar va xalqlarning o'zaro ongli munosabatini yo'lga qo'yish uchun eng asosiy element sifatida xizmat qiladi", deydi.<sup>5</sup> Barcha berilgan izohlarni umumlashtirgan holda, diplomatiyani davlat tashqi siyosatiga oid bo'lgan va mazkur siyosatning eng faol quroli deb ta'riflasak bo'lar ekan.

Rus tilshunosligida diplomatik nutqni va ijtimoiy-siyosiy notiqlikni o'rganishga F.P.Sergeyev, D.S.Kulmamatov, L.V.Postnikova, N.M.Tatarnikova, T.A.Volkova, Y.R.Lixoded, M.A.Agapova kabilar sal-

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild, Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 74-bet.

<sup>2</sup> Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. Москва, "Наука", 1977, с. 8.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild, A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 624-bet.

<sup>4</sup> Борисенко И.И., Евтушенко Л.И. Английский язык в международных документах. Москва, "Славянский дом", 2003, с. 472.

<sup>5</sup> Никольсон Г. Дипломатия. Москва, Госполитиздат, 1941, с. 79.



moqli hissa qo‘shgan. O‘zbek tilshunosligida A.M.Qosimov, X.S.Muhiddinova, N.A.Abdullayeva va Sh. N.Ko‘chimovlar tomonidan yozilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari mazkur sohadagi ilk ishlar hisoblanadi. S.A.Hoshimova va A.A.Karimovlar hammuallifligida yaratilgan “Xitoycha-o‘zbekcha-ruscha diplomatik atamalar lug‘ati” esa o‘zbek tilidagi diplomatiyaga oid yagona ishdur.<sup>1</sup>

Shuni aytish joizki, diplomatik terminlar, asosan, lotin, ingliz, fransuz tillarida yaratilgan yoki vositachi til sifatida ingliz va fransuz tillari orqali o‘zlashtirilgan.<sup>2</sup> H.Dadaboyevning ta’kidlashicha, VII–IV asrlar yozma yodgorliklari matnlarida qayd etilgan *dushmanlik, elchi, sulhnoma, elchilik, elchixonona, yorliq, sulh, xabar, josus, tashrif, ijozat, qabid, noma, muhr, nishon* va boshqa asl o‘zbekcha (turkiy) hamda o‘zlashma so‘z va so‘z birikmalari zamonaviy o‘zbek diplomatik terminologiyasi tizimida keng ishlatilmoqda.<sup>3</sup> Ayni chog‘da, hozirgi o‘zbek diplomatik terminologiyasi taraqqiyotini uning tarkibiga kirib kelayotgan, bugungi jahon diplomatiyasi sohasida mavjud tushuncha va mazmunlarni ifodalovchi leksemalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirgi o‘zbek diplomatik terminologiyasi genetik jihatdan turli-tumandir. Uning safida azaldan qo‘llanishda bo‘lgan umumturkiy terminlar qatori, Sharq va Yevropa (rus, ingliz, nemis) tillaridan turli zamonlarda kirib kelgan o‘zlashmalar ham o‘z aksini topgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallari asosida qilingan statistik tahlil diplomatik terminlarning umum o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasi chastotasining pastligini ko‘rsatdi. Xususan, nomi tilga olingan izohli lug‘atdan o‘rin olgan 60.000 so‘zning atigi 410 tasi, ya’ni 0,7% ni diplomatik terminlar tashkil qiladi, xolos.<sup>4</sup>

Shu boisdan ham O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligi rahbariyatining bevosita tashabbusi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi ko‘magi bilan “Diplomatik terminlar izohli lug‘ati” kitobi 2021-yili chop etildi. Kitob muallifi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Xalqaro munosabatlar bo‘yicha axborot-tahliliy markazi xodimi Isroil Shamsimuhamedov bo‘lib, ushbu lug‘at kitob siyosat va xalqaro diplomatiya sohasida qo‘llanayotgan 400 ga yaqin termin, so‘z birikmasi va nomlarni o‘z ichiga olgan. Lug‘at keng diplomatlar ommasi, talabalar, tarjimonlar va ushbu sohaga qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

**Muhokama va natijalar.** Barchamizga ma’lumki, har bir sohaning o‘ziga xos alohida terminlari mavjud. Shu o‘rinda, hamma sohalar kabi diplomatiya ham o‘z terminlari tizimiga ega ekani, uning lug‘at boyligi diplomatik, tarixiy, madaniy, lingvistik, huquqiy va boshqa xil iboralardan tashkil topganini aytib o‘tish joizdir. Ushbu maqolada diplomatik sohaga oid bo‘lgan bir qator terminlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi ma’nolarini ko‘rib chiqamiz. Ushbu sohaga oid terminlar, asosan, lotin, ingliz va fransuz tillarida yaratilgan yoki ular orqali vositachi tillar sifatida kirib kelgandir. Ushbu soha doirasida ishlatiladigan so‘zlarning o‘zbek tilidagi leksik-semantik ma’nolari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Diplomat	1.Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokara olib borish uchun hukumat tomonidan vakil qilib tayinlangan mansabdor shaxs. 2. Muomalaga usta, muzokara olib borish san’atini yaxshi biladigan inson.
Elchi	Diplomatik vakolatxonaning protokol jihatidan yuqori darajali rahbari.
Elchilik	Biror davlatga boshqa davlat tomonidan maxsus topshiriq bilan yuborilgan delegatsiya, missiya.
Immunitet	Diplomatik vakillar foydalanadigan alohida huquq va imtiyozlar majmuyi.
Pakt	Yirik siyosiy ahamiyatga ega xalqaro bitim, xalqaro shartnomalar nomlaridan biri.
Status	Bu termin jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqiy holatini anglatadi.
Shartnoma	Ikki yoki undan ortiq tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi kelishuv.

<sup>1</sup> Longman Pearson. Longman dictionary of Contemporary English, 5th Edition, 2009, p. 10 – 11.

<sup>2</sup> Саидов Х.А. Дипломатическая терминология и ее особенности в разносистемных языках. Вестник университета права, бизнеса и политики. 1–2, Худжанд, 2012, №3 (51), с. 216 – 223.

<sup>3</sup> Дадабаев Х. Старотюркская дипломатическая терминология в XI – XIV вв., с. 4 – 13.

<sup>4</sup> Абдуллаева А. Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков). Автореф. дисс. канд. филол. наук, Ташкент, 2003, с. 160.

Endi diplomatik sohaga oid terminlarning “Longman dictionary”da berilgan ma’nolarini ko‘rib chiqamiz:

**1. Sanctions** – official orders or laws stopping trade, communication with another country, as a way of forcing its leaders to make political changes.

**2. Refugee** – someone who has been forced to leave their country, especially during a war, or for political or religious reasons.

**3. Convention** – a formal agreement, especially between countries, about particular rules or behavior.

**4. Declaration** – 1) an important official statement about a particular situation or plan, or the act of making this statement; 2) an official or serious statement of what someone believes.

**5. Passport** – a small official document that you get from your government, that proves who you are, and which you need in order to leave your country and enter other countries.

**6. Protocol** – a system of rules about the correct way to behave on an official occasion.<sup>1</sup>

Ikki til, ya’ni, o‘zbek va ingliz tillarini bir soha terminlari bo‘yicha qiyoslaganimizda, o‘zbek tilida diplomatiya sohasida ishlatilayotgan terminlarning ko‘pchiligi ingliz, lotin yoki fransuz tillaridan o‘zlashganini va o‘zbek tilida ayrim terminlarning tarjima qilinmasdan o‘z holicha, ayrimlarining esa muqobil varianti qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilida esa ko‘plab terminlar inglizchada berilgan. Ammo bu tilda ham boshqa tillardan olingan so‘zlarni uchratishimiz mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, davlatlarning tashqi xalqaro siyosatini yanada rivojlantirish va mustahkamlash uchun ushbu sohaga oid bo‘lgan terminlarni o‘rganish hamda ular ustida tadqiqot olib borish juda ham muhimdir. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi diplomatik terminlarni cho‘g‘ishtirib o‘rganish tilshunoslikda yangiliklarga sabab bo‘ladi.

**Salomova Gavhar Abdinazarovna (Surxondaryo viloyati yangi metodikalarga o‘rgatish**

**milliy markazi katta o‘qituvchisi; e-mail: [gavhar.salomova@mail.ru](mailto:gavhar.salomova@mail.ru))**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GRAFIK QISQARTMA SO‘ZLAR**

**Annotatsiya.** Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida grafik qisqartma so‘zlarning qiyosiy tahlili haqidagi tushunchalar o‘rganilgan. Bunda grafik qisqartmalarining kelib chiqishi va abbreviatsiyadan farqi va ularning ingliz va o‘zbek tillarda o‘rganilishini ko‘rib chiqilgan. Grafik qisqartmalarining boshqa qisqartmalardan farqlari, tadqiqotchilar bu qisqartmalarining tilga hech qanday aloqasi yo‘qligini ta’kidlaydilar. Grafik qisqartmalar, aslida, tilda qo‘llanishi qulay bo‘lishi uchun va o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi bilan afzal hisoblanadi.

**Аннотация.** В статье исследуются концепции сравнительного анализа графических аббревиатур на английском и узбекском языках. Мы можем рассмотреть происхождение графических аббревиатур и их отличие от аббревиатуры, изучение на английском и узбекском языках. Отличия графических аббревиатур от других видов аббревиатур, как отмечается исследователями, заключается в том, что эти аббревиатуры не имеют ничего общего с языком. Графические сокращения на самом деле предпочтительнее из-за их простоты применения в языке и понятности читателю.

**Annotation.** The article explores the concepts of a comparative analysis of graphic abbreviations in English and Uzbek. In this we can consider the origin of graphic abbreviations and their difference from the abbreviation and their study in English and Uzbek. Differences of graphic abbreviations from other abbreviations, researchers argue that these abbreviations have nothing to do with language. Graphic abbreviations are actually preferred for their ease of application in the language and for being understandable to the reader.

**Kalit so‘zlar:** grafik qisqartmalar, tilshunoslik, og‘zaki va yozma nutq, model.

**Ключевые слова:** графические аббревиатуры, лингвистика, устная и письменная речь, модель.

**Keywords:** graphic abbreviations, linguistics, oral and written speech, model.

**Kirish.** Qisqartmalar, aslida, grafik deb ataladi, chunki yozma shakl uchun nutqning ma’lum birliklarini belgilashda grafik vositalaridan foydalaniladi va mavjud asosidan kutilganidan kamroq og‘zaki va yozma shakllarini amalga oshirishning optimal yozishmalari til nutq birliklari hisoblanadi.

<sup>1</sup> Longman Pearson. Longman dictionary of Contemporary English, 5th Edition, 2009.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Grafik qisqartmalar tilda fikrni to'liq ifodalamaydi, balki faqat harflardan iborat qisqartmalar hisoblanadi. Bu tez-tez uchraydigan so'zning shartli qisqartmasi yoki faqat yozma nutqda ishlatiladigan iboralar va o'qish jarayonida shifrlangan hisoblanadi. V.Z.Sannikov o'z ilmiy izlanishlarida "Grafik qisqartmalar tinish belgilari tizimiga o'xshash jarayon, deb fikr yuritgan, bu esa ular og'zaki tilning hodisalari bilan sezilarli aloqaga ega emas, deb hisoblanadi, ular shartli belgi sifatida xizmat qiladi" [Sannikov].

A.M.Suxotin grafik qisqartmalar bo'yicha tadqiqotlarida qisqartmalarni quyidagi ta'rif bilan ta'kidlaydi: "Grafik qisqartmalar til asosi emas, balki to'liq yoki qisman qisqartmalardir bu esa so'zga ta'sir qilmaydi" [Suxotin]. Shuning uchun A.M.Suxotin, aslida, grafik qisqartmalarni tildan tashqari qisqartmalar sifatida chiqaradi. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham taxminan bir xil fikr bildirilgan. Masalan, M.M. Segal "qisqartmalar tilga mutlaqo begona narsa kabi ko'rinadi" [Segal]. I.Vaxek ta'kidlaganidek, "Qisqartmalar, keyinchalik, grafika sohasida paydo bo'lgan tilga tegishli bo'lganidan, boshqa belgi domenida mavjuddir. Bu esa grafik qisqartmalarni ishlab chiqishga to'sqinlik qiladi – qisqartmalar boshqa til tizimini ajralmas qismi hisoblanadi" [Vaxek].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek tili, ilgari paydo bo'lishiga qaramay, qisqartmalar sezilarli darajada mavjudligi kam hisoblanadi. Biroq, davriy nashrlar bilan tanishish (ilmiy jurnallar, asarlar va boshqalar) bu fikrimizning isboti hisoblanadi, lug'atlarda juda ko'p grafik qisqartmalar mavjud, ya'ni fanning muayyan sohasida keng tarqalgan.

O'zbekiston nashrlarining tahlili va sharhi shuni ko'rsatadiki:

- 1) deyarli butunlay qabul qilingan grafik qisqartmalar takrorlanish va bir-biriga mos kelish;
- 2) o'zbek va ingliz tillarida sanoat grafik qisqartmalar ayrim tillarga qaraganda ancha ko'p miqdorda taqdim etilgan;
- 3) ingliz tilida ham shunday grafik qisqartmalar mavjudki, ularning ayrimlarini, o'zbek tilida ekvivalentini uchratib bo'lmaydi.

Ekvivalentining mutlaq yo'q bo'lishi ham mumkin (grafik qisqartma tilde, umuman, tegishli emas) va nisbiy holat. Bu yerda umumiy grafikning ba'zi misollari keltirilgan, bu esa tillardagi qisqartmalar hisoblanadi. Umumiy qabul qilingan deganda, biz sanoatning davriy nashrlarida, maktab darsliklarida, turli mashhur nashrlarda, rasmiy hujjatlarda, e'lonlarda va hokazolarda dekodlanmasdan qo'llaniladigan grafik qisqartmalarni tushunamiz [1].

Grafik qisqartmalarni to'g'ri o'qish nafaqat o'quvchining tajribasiga, balki kontekst va kontekstual vaziyatga ham bog'liq. Qandaydir qisqartmalar o'quvchi uni ko'rishga odatlangan va so'zlar bilan birgalikda bo'lgan holati unga juda tushunarli ko'rinadi. Bu umumiylik tushunchasi va ular faoliyati davomida uchraydigan insonlar ongida normal holat deb qabul qilinadi. Biroq xuddi shu qisqartmalar boshqa o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar, xususan, M.A.Belyayeva, "Grafik qisqartmalar to'liq so'zlar bilan to'liq shaklda almashinadi, ularning variantlari bo'lishi mumkin" [7,67]. Masalan: mkrn – mikrorentgen, j. – joule va boshqalar – kasr, zat. – orqa suv, d – dyuym, sim. – nosimmetrik, perpendikular va boshqalar. Grafik qisqartmalardan foydalanish to'g'risida L.I.Garnevaning ta'kidlashicha: "Bu guruhga oid qisqartmalar matematika, biologiya, kimyo, tarix, fizika, texnologiya va boshqalar bo'yicha turli ilmiy matnlarda ishlatiladigan barcha grafik qisqartmalarni o'z ichiga olishi kerak. O'quvchiga manbani havola qilishda ular uchun izohlar juda zarur bo'lib qoldi" [Garneva. 1984, 98]. Muayyan lingvistik asarlardan misol tariqasida olingan yozuvchi ismlarining grafik qisqartmalari solishtirilayotgan tillarda juda keng tarqalgan. Masalan, masc. gen. masculargender, fem. gen.-feminine gender, sing. num. – singular number, pl. num. – plural number va boshqalar [2].

Bu, odatda, grammatik qo'llanmalarda va izohli lug'atlarida o'z aksini topadi. Hatto shartli qisqartmalarni tushuntirish tartibi ham mavjud: boshida yoki oxirida dekodlash bilan qisqartmalarning maxsus ro'yxati berilgan. Qisqartirilgan so'zlar, ba'zan qavs ichida matnning bir qismi bilan beriladi, ya'ni semantik va grammatik aloqasiz. Turli mualliflar familiyasining qisqartmalari, misol uchun, tojik tilidagi ilmiy-leksikografik xarakterdagi asarlarda ham uchraydi. Bu hodisani S.Aininning "Lugati nimtafsiriah to-chiki baroi zaboni adabii tochi, ik" lugati misolida korib chiqamiz [3]. Lug'at boshida shartli qisqartmalar ro'yxati keltirilgan bo'lib, unda shoir va yozuvchilarning nomlari, ijodidan namunalar olingan: F. – Firdavs I.K., Ibn Sino, N. –Nizomiy, H. – Hofiz, B. –Bedil, shekilli. Keyinchalik, bu qisqartmalar lug'at korpusida faol ishlatilgan. Biroq, tojik tilida bu grafikdan foydalanish amaliyoti antroponimlarning qisqartmalaridan keng foydalanilmaydi. Misol uchun, "Farxangi zaboni tojiki" lug'atida bu eng yaqqol ifodalangan. bu yerda rassomlarning ismlari va familiyalarining qisqartirilgan namunalar mavjud. Grafik qis-

qartmalar standart bo'lishi mumkin, bu ularni osonlashtiradi. Bu, ayniqsa, familiyalarning va ismlarning qisqartmalari uchun to'g'ri keladi [4].

Agar kitobda qisqartmalar ko'p bo'lsa, u tabiiy ravishda paydo bo'ladi, bu ma'lumotni yanada mujmallashtiradi. Masalan, A.M.G kabi qisqartmalarni misol qilishimiz mumkin. Agar ular turlicha bo'lsa, axborot yetarli bo'lmaydi, masalan, familiyalarni qisqartirilgan shaklini o'rganadigan bo'lsak: Aleksey Maksimovich Gorkiy, Mixail Golodniy, ya'ni, qisqartirish uchun shunchaki ism va familiya orasiga nuqta qo'yib bosh harflar bilan qisqartirib olishimiz mumkin. Qisqartmalar kirib kelish turiga qarab farqlanadi, ya'ni ular turli elementlarni o'z ichiga oladi: A.F. (Abulqosim Firdavs), A.L. (Abulqosim Loxutiy), S.A. (Sadridin Ayniy), A.M.G. (Aleksey Maksimovich Gorkiy), M.Gol. (Mixail Golodniy).

Tasodiflar ehtimoli qanchalik katta bo'lsa, qisqartmaning informatsion qiymati shunchalik mujmal va tushunarsiz bo'ladi, bu o'rinda ajralib turuvchi elementlarni kiritish kerak bo'ladi, masalan, M.S. Mixail Svetlov va Mamin – Sibir. Ikkinchisi M.Sib shakliga keltiriladi. Ko'pchilik grafik qisqartmalarda ma'lum bir shakllarni ko'rish mumkin. Biroq, rus tili hali ham an'anaviylikka amal qiladi. Ayrim qisqartmalarining analogiya shakli ham bor: (fuqaro va o'rtoq), odatda, o'rtoq bilan ...tinch aholi yo'q v. va boshqalar [6]. Bunday qisqartmalar va ularning izohi va ulardan foydalanish xususiyatiga qarab, ifodalanishi mumkin: a) muallif tomonidan ishlatiladigan barcha qisqartmalarni kitoblarda (maqolada) maxsus ro'yxati bilan izohlaydi. Matndagi izohlar, shu jumladan, ular hech qayerda tushuntirilmagan bo'lishi mumkin;

b) so'z tartibi qat'iy bo'lgan ko'p so'zli ibora matnda birinchi marta to'liq ishlatilgan, qavs ichida berilgan qisqartma, keyingi o'rnlarda faqat qisqartma shaklida yoki vaqti-vaqti bilan, stilistik maqsadlarda ishlatiladi;

d) ba'zan matnda to'liq ibora shaklda beriladi (bu ko'proq kuzatilganda faqat iqtibos holatda) izohda esa qisqartma hisoblanadi. Bunday hollarda muallif va o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatish mumkin va o'quvchi uni qiyinchiliksiz tushunib olishi mumkin. Ayrim tillar bilan taqqoslanganda, tillardagi grafik qisqartmalar shunga muvofiq shakllantiriladi va ikkala til uchun umumiy va o'xshash bo'lgan ba'zi modellar hisoblanadi. Bundan tashqari, grafik qisqartmalar, asosan, nutq birliklariga so'zlar va iboralar ekvivalent hisoblanadi [7].

**Tahlil va natijalar.** Grafik qisqartmalarining tillar bilan taqqoslanganda, quyidagi modellarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

Birinchi model

So'z bitta bosh harf bilan ifodalanadi:

y. yil y.<year

l.<litr l.<liter

sh.<shaxs p.<person

d.<daryo r.<river

Ikkinchi model

Bitta so'z ko'plik shaklida qisqartiriladi:

So'z ikki yoki undan ortiq harflar bilan qisqartiriladi: yy.<yillar

aa.<asrlar

uu.<urtoklar y.y<years

c.c<centuries

com.s<comrades

Grafik jihatdan qisqartirilgan erkin bo'lmagan iboralar (termalar): Subtip: so'zlar o'rniga ularning raqamli pastki turi ishlatiladi. sm<sup>2</sup> – santimetr kvadrat, kvadrat santimetr; M<sup>3</sup> – kubometr, metr mukaab. Pastki turlar: so'zlarning atama birikmalari belgi bilan qisqartiriladi, ikki nutq o'lchov birligining nisbatini bildiruvchi: m/sek. – metr sekundiga, metr dar sonia, g/sm. – santimetr t/k l uchun gramm. – tonna kilovatt, tonna – kilovatt. 3, 4 modellarining juda ko'p grafik qisqartmalari mavjud maxsus qo'llanmalar mavjud. Bu qisqartmalar xalqaro, me'yoriy, ya'ni, so'z tarkibida ishlatilishi kerak, aks holda, ular atama ma'nosini yo'qotadilar [8].

Ularining eng muhim xususiyati shundaki, ular tarjima qilinadi, ya'ni, har biri til ularni o'z materialida shakllantiradi, garchi bunday turdagi qisqartmalar modellari tillararo xarakterga ega. Beshinchi modeldan iborat qisqartirilgan standart iboralar, ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topadi. Tilda ular juda ko'p emas, lekin ular faqat faol. n.n.p.<nom va nomi padar; v.g.<va gaira; v.d.<va digaron; %<va % ta'minlangan; %t.<%amin brendlari;t.z.m.<bu sezilarli.

Olimlarning ta'kidlashicha, "O'zbek va inglizcha qisqartmalar, ko'p hollarda, ular xuddi shunday modellashtirilgan ekanligini ko'rsatadi.

Termin ma'nosiga ega qisqartmalar (birliklar o'lchovlar, tillararo umumiy ma'nolar va boshqalar) ayrim hollarda takrorlanadi. Deyarli to'liq takrorlanadi deb ataladiganlari umumiy qisqartmalar hisoblanadi. Biroq ularning ba'zilarini so'zning ma'nosi bilan bog'liq kelishmovchiliklarni ko'rsatashimiz mumkin" [XX asr oxiridagi tilshunoslik. 1995, 45]. Bu qisqartmalarining ekvivalentlarini ingliz tilidan o'zbek tilida yo'qligini ko'rishimiz mumkin, o'zbek tilidagini esa ingliz tilidagi ko'rinishini topolmaymiz [9].

O'zbek va ingliz tillarida ba'zan bir so'zning grafik qisqartmalarining ikki yoki uchta varianti bor. Masalan: (r.st.<railway station, c.<comrade, st<station). o'., o'rtoq-ingliz tilida com.-comrade ta'lim< education mos keladi. Foydalanish yoki foydalanmaslik u yoki bu grafik qisqartma matnda, ko'pincha, qisqartmaning yozuvchining munosabatiga bog'liq. Bitta maqsadli so'zlamali matnda ko'plab qisqartmalar bo'lishi mumkin, boshqa tomondan, umuman, bo'lmasligi ham mumkin. So'z shaklini grafik tarzda qisqartirganda, ideal holda uning minimal mazmunli segmentining uzunligini hisobga olish kerak. Biroq, aksariyat hollarda, yozma nutqda, so'z shakllari birinchi bosh harfga qisqartiriladi. Masalan, Moskva<M. Moscow<M.,

Leningrad<L., Leningrad<L., Tashkent<T., Toshkent<T., Zatashaiyo<3.,  
Samarkand<S., Dushanbe<D., Dushanbe<D., London<L., modda, minut,  
milodiy, ma'sul<m., sheg<g., daryo<d., SHeg<SH., litr<l.,  
named<n., nomli<n., sonun<s., yututs<yu., uyin<u, tiyin, tom,

tonna<t., soat, seans<s., va boshqalar. Bu o'rinda so'zlarning qisqarishi, ko'pincha, omonimiyaga olib keladi va ba'zi hollarda matnни tushunishni murakkablashtiradi: masalan, a.< anod, amper, asr, armiya, antenna, n< nisbat, nomli. O'z-o'zidan, bitta harfli grafik qisqartmalar matnda ularni birinchi bo'lib uchratgan o'quvchi uchun tushunish oson bo'lmaydi, chunki harfning o'zi bu harf bilan boshlangan barcha so'zlar to'plamiga mos keladi [10].

O'zbek tilidagi har qanday grafik qisqartma yozilishi shart quyidagi tamoyillarga javob beradi: a) o'tkazib yuborish mumkin emas, so'z shaklining bosh qismi; masalan, so'z shakli "masalan" "asalan" yoki "lan" segmentiga qisqartirish mumkin emas, faqat sifatida vt<masalan; b) kamida ikkita harf qoldirilgan, demak, natijada kamida uchta harfdan iborat so'z shakllari qisqartirilishi mumkin; ichida) so'z shaklining qisqartmadan qolgan qismi ideal tarzda mos kelishi kerak semantik segment, ya'ni, havola bo'lishi kerak qisqartirilgan so'zning ichki shakli. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu qoida har doim ham bajarilmaydi. Grafik qisqartmani leksiklashtirish kabi hodisani ko'rib chiqing [10].

Foydalanish sohalariga ko'ra, qisqartmalarni bir nechta juda katta faoliyat sohalariga bo'lish mumkin: masalan, tashkilotlar, tuzilmalar, uchrashuvlar nomlari: ICAO – International Civil Aviation Organisation (IKAO – Xalqaro Fuqaro Aviatsiyasi Tashkiloti), ANC – Air Navigation Commission (ANK – Ayeronavigatsiya Qo'mitasi), SCAA – State Civil Aviation Authority (GSGA – Davlat Fuqaro Aviatsiyasi Xizmati), EANPG – European Air Navigation Planning Group (Yevropa Ayeronavigatsiyasini Rejalashtirish Guruhi – EANPG), RACGAT – Russian-American Coordinating Group for Air Traffic (Control) (ATC bo'yicha Rossiya-Amerika muvofiqlashtirish guruhi – RACGAT. [22, c. 38]

Mahalliy kelib chiqadigan grafik qisqartmalar ham mavjud, bu yerda imlodagi inglizcha yekvivalentlarga mos keladigan so'zlarning qisqartmalari va iboralar guruhlarini to'liq shaklda mavjud:

- 1) masalan, haftaning kunlari, Mon – Monday, Tue – Tuesday;
- 2) masalan, oylarning nomlari, Apr – April, Aug – August;
- 3) masalan, Aqsh Shtatlarining nomlari, Ala – Alabama, Alas – Alaska;
- 4) masalan, harbiy unvonlar, capt. – captain, col. – colonel, sgt. – sergeant;
- 5) masalan, ilmiy darajalar, B.A. – Bachelor of Arts, D.M. – Doctor of Medicine. (Ba'zan ilmiy darajalarda bizda lotin kelib chiqishi qisqartmalari mavjud, masalan, MB – Medicinae Baccalaurus);
- 6) vaqt, uzunlik, vazn birliklari, masalan, f./ft – foot/feet, sec. – second, in. – inch, mg. – milligram i t.d. [8, c. 22].

Ba'zi grafik qisqartmalarni o'qish kontekstga bog'liq, masalan, «m» sifatida o'qish mumkin: male, married, masculine, metre, mile, million, minute. «LP» sifatida o'qish mumkin long-playing, low pressure. Inglizcha qisqartmalar rus tiliga turli yo'llar bilan tarjima qilinishi mumkin [11]. Qisqartma sifatida ham ishlatilishi mumkin bo'lgan ruscha tarjima, shunga qaramay, transliteratsiya rus tilida deyarli butunlay saqlanib qolgan ("C" – "K" juftligi bundan mustasno). SCAA – ruscha qisqartma ingliz tiliga tarjima qilingan bir nechta holatlardan biri. Ammo rus tilidagi EANPG yegishli qisqartmaga yega yemas. Shunga o'xshash qisqartmalarni ingliz tilida yangraydigan bir xil fonetik qobiqda rus tiliga "tarjima qilish" keng

tarqalgan. Parvoz operatsiyalari, havo harakatini boshqarish va boshqalarda ishlatiladigan keng tarqalgan va tez-tez ishlatiladigan qisqartmalar., masalan: RVSM – Reduced Vertical Separation Minimum (Minimal vertikal ajratish kamayadi – RVSM), ATS – Air Traffic Control (Havo harakatini boshqarish – HNB), AIP – Aeronautical Information Publication (Aviatsiya ma'lumotlari to'plami – AMT/AIP), CNS/ATM – Communications, navigation, and surveillance/air traffic management (Aloqa, navigatsiya va kuzatuv/havo harakatini boshqarish), WGS-84 – World Geodetic System 1984 (Jahon Geodeziya Tizimi – 1984 [5, c.74].

Qisqartmalar juda oddiy bo'lishiga qaramay, ko'plab tarjimonlar ularni tarjima qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi. Birinchidan, bu yigirmanchi asrning 1990-yillarida taniqli siyosiy o'zgarishlardan so'ng, rus aviatsiya tilining rivojlanishi, asosan, rus tili endi ishlatilmaydigan mamlakatlar tarjimonlari e'tiboridan tashqarida bo'lganligi bilan bog'liq.

**Xulosa va takliflar** Grafik qisqartmalar nafaqat yozma nutqda, balki og'zaki nutqda ham so'zlar va iboralar guruhlarini qisqartirish natijasidir, vaqt va kuchni tejash uchun tegishli shakllar qo'llaniladi. Ingliz tilidagi eng qadimgi grafik qisqartmalar guruhi lotin tilidan kelib chiqqan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев Д.И. Сокращенные слова в русском языке. Учебное пособие, Саратов, “Феникс”, 1979, с. 328.
2. Алексеев Д.И. Графические сокращения и слова-аббревиатуры. Развитие современного русского языка. М., 1963, с. 49.
3. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Москва, “ФЛИНТА”, 2012, с. 188; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, “Советская энциклопедия”, 1996, с. 26.
4. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. Назрань, ООО «Пилигрим», 2010, с. 20.
5. Ковригина А.И. Реализация принципа экономии языковых средств в современной испанской прессе, Лексико-синтаксический аспект. Автореф. дис. канд. филол. наук, М., 2013, с. 6 – 7.
6. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. Москва, 1981, с. 200; Елдышев А.Н. Структура и мотивированность сокращённых слов (к проблеме взаимодействия формально-содержательных признаков в слове). Автореф. дис. ...канд. филол. наук, М., 1982, с. 34; Дюжикова Е.А. Аббревиация сравнительно со словосложением: структура и семантика (на материале современного английского языка). Дис. ...докт. филол. наук, М., 1997, с. 340.
7. Маслова Г.Д. К вопросу о неологизмах в современном французском языке. Автореф. дисс. докт. филол., М., 1962, с. 22; [Волошин Е.П. Аббревиатуры в лексической системе английского языка. Автореф. дисс. канд. филол. наук, М., 1967, с. 26.
8. Пищальникова В.А. Соотношение симметричных и ассиметричных компонентов текста как синергетической системы. Языковое бытие человека и этноса: психолингвистический и когнитивный аспекты. Барнаул, 1996, с. 72 – 79.
9. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент, “Университет”, 2000, 554-бет.
10. Ренц Т.Г., Рыцарева А.Э. Словарь лингвистических терминов на английском языке. Волгоград, изд-во ВолГУ, 2003, с. 5.

#### Sayfulloev Baxshillo Nematulloevich (BuxDU Fransuz filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi) FRANSUZ TILIDA O'ZGA NUTQ VA UNING IFODA USULLARI

**Annotatsiya.** Maqola kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmish o'zga nutq va uning fransuz tilida ifoda usullariga bag'ishlangan. Unda diqqat-e'tibor, asosan, o'zga nutq turlari bo'lmish ko'chirma nutq (le discours direct), o'zlashtirma nutq (le discours indirect) va o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (le discours indirect libre)ning matniy xususiyatlariga qaratilgan. Shu bilan birga, fransuz tilida o'zga nutq turlarining funksional-semantik xususiyatlariga izoh berilgan. O'zga nutqni matnda ifodalashda tinish belgilarining qo'llanilishi, xabar manbaining o'rni hamda nutq fe'llarining qo'llanish holatlari misollar asosida tahlil qilingan. Fransuz adabiy tilida ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda grammatik kategoriyalar, jumladan, zamon, shaxs, mayl va boshqalar moslashadi. Maqolada o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq boshqa o'zga nutq turlaridan ekspressivlik va subyektivlik belgilari hamda fel zamon kategoriyalari bilan farqlanishi asoslab berilgan.

**Аннотация.** Статья посвящена одному из важных направлений категории коммуникативной цели: иностранной речи и способам ее выражения во французском языке. В ней основное вни-

мание уделено другим видам речи, т.е. прямой речи (*le discours direct*), косвенной речи (*le discours косвенная*) и несобственной речи (*le discours косвенная libre*). При этом объясняются функционально-семантические особенности других типов речи во французском языке. На основе примеров проанализированы употребление знаков препинания, место источника сообщения и употребление речевых глаголов в выражении иноязычной речи в тексте. Во французском литературном языке грамматические категории, в том числе время, лицо, наклонение и др., согласуются при превращении цитаты в притяжательное предложение. В статье обосновывается, что цитируемая речь, не являющаяся собственной, отличается от других видов речи признаками экспрессивности и субъектности, а также категориями глагольного времени.

**Annotation.** *The article is dedicated to one of the important directions of the category of communicative purpose: foreign speech and ways of its expression in French. It focuses on other types of speech, i.e. direct speech (le discours direct), indirect speech (le discours indirect) and improper speech (le discours indirect libre). At the same time, the functional and semantic features of other types of speech in French are explained. On the basis of examples, the use of punctuation marks, the place of the source of the message and the use of speech verbs in the expression of foreign speech in the text are analyzed. In the French literary language, grammatical categories, including tense, person, mood, etc., are consistent when turning a quote into a possessive sentence. The article substantiates that the quoted speech, which is not one's own, differs from other types of speech in terms of expressiveness and subjectivity, as well as categories of verb tense.*

**Kalit so‘zlar:** o‘zga nutq, ko‘chirma nutq, o‘zlashtirma nutq, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq, matn, xabar manbasi, muallif nutqi, nutq fe‘li, qo‘shiroq, tire, ikki nuqta, zamon moslashuvi.

**Ключевые слова:** чужая речь, прямая речь, косвенная речь, несобственная речь, текст, источник информации, авторская речь, речевой глагол, кавычка, дефис, двоеточие, согласование времён.

**Key words:** *someone else's speech, direct speech, indirect speech, improper speech, text, source of information, author's speech, speech verb, quotation mark, hyphen, colon, tense agreement.*

**Kirish.** So‘zlovchi hamma vaqt ham o‘z fikrinigina bayon etibgina qolmay, ba‘zan u o‘zganing gapini ham o‘z nutqi ichida ishlatadi. Shu asosda qo‘shma gapning yana bir maxsus turi hosil bo‘ladi. O‘zganing gapini ifoda etuvchi shaxs muallif, uning gapi esa muallif gapi deyiladi. Muallifning ma‘lum shaxs fikrini o‘z nutqi ichida keltirishi o‘zganing gapi, gapi ifoda qilinayotgan shaxs so‘zlovchi sanaladi. So‘zlovchi borliq haqida o‘z fikrini emas, o‘zgalarning fikri yoki suhbatini bayon qiladi. O‘zga nutq orqali so‘zlovchi adresatni o‘zi yoki adresat amalga oshirgan voqea-hodisa mazmunidan xabardor qiladi. O‘zga nutqning ifodalanishi turli uslubda turlicha bo‘lib, har biri o‘ziga xos grammatik me‘yorga ega.

**Asosiy qism.** Kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish o‘zga nutq hodisasi zamonaviy tilshunoslikda o‘z o‘rniga ega yo‘nalishlardan biridir. O‘zga nutq 3 turga bo‘lingan holda, kommunikatsiya hodisasi sifatida shakllanadi. Bular:

Ko‘chirma nutq (*le discours direct*).

O‘zlashtirma nutq (*le discours indirect*).

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq (*le discours indirect libre*).

O‘zganing nutqi o‘zgarishsiz, so‘zma-so‘z bayon qilinish hodisasi ko‘chirma nutq (*le discours direct*) bo‘lib, quyidagi ifoda usullari orqali amalga oshiriladi:

a) nutq fe‘li (*dire–aytmoq, demander–so‘ramoq, interpellier–murojaat qilmoq, s‘écrier–hayqirmoq, baqirmoq va hokazo*) ikki nuqta va tirelardan foydalanish orqali.

*La fillette le reconnut et s‘écria:*

*–Vous êtes mon professeur!*

*– En effet.*

*– Papa travaille dans son atelier. Il vous attend.*

*Tout en le suivant à l’intérieur de la maison, Meredith remarqua immédiatement sa démarche étrange.*

Misoldan ko‘rinadiki, muallif nutqi ko‘chirma nutqdan oldin kelganda nutq fe‘lini tejash va ko‘chirma gaplarda ifodalangan turli xil emotsional holatlarni to‘g‘ri va tushunarli ifodalash maqsadida muallif va ko‘chirma nutq ikki nuqta orqali ajratilgan va vertikal tartibda har bir ko‘chirma nutq oldidan tire bel-gisi qo‘llanilgan;

b) ko‘chirma gap nutq fe‘li va ikki nuqta (:) bilan kiritilmasdan ham matnda kelishi mumkin. Bunday holda muallif nutqi ko‘chirma nutqdan keyin keladi va ular orasida hech qanday ajratuvchi belgi qo‘yilmaydi:

- *Que fabriquez-vous ici? demanda le surveillant.*
- *Je viens voir ma soeur, elle travaille ici, répondit le jeune garçon.*
- *Vous n'avez pas l'autorisation. Allez-vous-en!*
- *Monsieur, je vous en prie, c'est une urgence!*

Yuqoridagi holatda ko'chirma nutq so'roq yoki undov gap bo'lmasa, muallif va ko'chirma nutq orasida vergul qo'yiladi.

–*Nous serons sans doute obligés de nous soumettre à ces règlements, affirma Louis;*

d) ko'chirma nutq ifodalanishida qo'shtirnoq va tiredan bir vaqtning o'zida ham foydalanish mumkin. Bunday holda, qo'shtirnoqlar har bir satrda emas dialogning faqat boshida va oxirida qo'yiladi hamda tirelar so'zlovchilar o'zgarishini ko'rsatib keladi:

*Elle est entrée rapidement dans son bureau.*

«*Je pense que je mérite une explication!*

– *Non, je ne le pense pas.*

– *Vous m'avez menti! Je ne le tolère pas!*

– *Assieds-toi, je vais t'expliquer».*

*Elle s'est assise et a attendu pendant qu'il prenait une longue inspiration;*

d) ko'chirma nutq ikki nuqta va qo'shtirnoq yordamida ham ifodalanadi. Bunda qo'shtirnoq (") yordamida to'g'ridan to'g'ri xabar qilingan gaplarni ajratish mumkin. Ko'chirma gapning bu shakli, odatda, nutq fe'li orqali kiritiladi va ikki nuqta (:) nutq fe'lidan keyin keladi.

1. *Il m'a dit: «Quel beau spectacle!»*

2. *La mère de la chanteuse a révélé : «Je suis tellement fière de ma fille!»*

Fransuz tilida o'zlashtirma nutq (*le discours indirect*) og'zaki yoki yozma nutqning morfosintaktik moslashuvi bo'lib, ko'chirma nutqqa qaraganda kamroq ob'ektivdir. O'zlashtirma nutqda xabar manbai bir muncha mavhum bo'ladi va odatda kontekstual yoki matniy tahlil orqali aniqlanadi. O'zlashtirma gapda tinish belgilari xabarning ifoda qilinish holatiga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari, qo'shtirnoqlar ishlatilmaydi.

O'zlashtirma nutq o'zga nutqni uzatishning yana bir usulidir. Bunda u muallif nutqiga grammatik jihatdan moslashadi. Aytilgan gap odatda muallif gapi tarkibidagi nutq feli (masalan, *dire-aytmoq, s'écrier-hayqirmoq, demander-so'ramoq, exiger-talab qilmoq va hokazo*)ning tobe bo'lagi sifatida shakllanadi va ergashgan qo'shma gap hosil bo'ladi. Bunda muallif nutqi bosh gap funksiyasini bajarsa, aytilgan gap ergash gap vazifasida keladi.

*Il a exigé que tous les employés ont interrompu ma pause déjeuner et a procédé à la salle de réunion.*

Yana bir misol. *J'ai dit que je serai de retour en retard et je n'ai pas eu à attendre.*

Zamon, shaxs va shu kabi boshqa moslashuvlar o'zlashtirma nutqning muhim jihatlaridan biridir. Grammatik nuqtayi nazardan bayon etuvchi nutqiga bo'ysunuvchi aytilgan gap ergash gap shaklini oladi va hikoyaning bir qismi bo'lgan holda, odatda, o'tgan zamonda keladi.

*Jean prétend qu'il est malade. Il a ajouté qu'il n'irait pas travailler aujourd'hui, et il a eu le culot de me demander d'appeler le médecin!*

O'zlashtirma va ko'chirma nutqning konstruksiyalari bir-biriga ma'lum darajada o'xshaydi. Ular ikki qismdan iborat bo'lib, biri muallif nutqi, ikkinchisi esa o'zganing xabari, buyrug'i yoki so'rog'idir. Ko'chirma nutqning o'zlashtirma nutqdan asosiy farqi shundaki, muallifning ko'chirma nutq qismi nisbatan mustaqil bo'lib, nutqda ma'lum bo'lgan turli xil stilistik vositalar orqali yetkazilishi mumkin.

O'zga nutqning uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo'lib, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma nutq (*Le discours indirect libre*) deb ataladi. O'zga nutqning bu turi muallif matniga qo'shib, asar qahramonlari fikr va tuyg'usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. U muallif nutqi bilan birlashib chatishib ketadi. Bu uning grammatik jihatdan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Unda o'zlashtirma, ko'chirma va muallif nutqining belgilari mavjud bo'ladi. Uning sintaktik tuzilishi ko'chirma gapnikiga o'xshaydi. Unda indikativ va dialogik nutqqa xos bo'lgan his-tuyg'uni ifodalovchi vosita (*modal so'z va yuklama, undov so'z, undov gap* kabi)lar qo'llanadi. III shaxs shaklining ishlatilishi esa uning o'zlashtirma nutq bilan bir xilligidan dalolat beradi. Muallif nutqi kabi unga ham o'tgan zamon shakllarining qo'llanishi xos. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning bu belgilari faqat matnda namoyon bo'ladi. Kontekstdan tashqarida u odatdagi ko'chirma nutqdan farq qilmaydi. O'zga nutqning bu turida o'tgan zamon o'rnida hozirgi zamon ham uchraydi.



O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq fransuz grammatikasida erkin o‘zlashtirma uslub sifatida ham tanilgan. Bu adabiy konstruksiya birinchi marta 1887-yilda tilshunos Adolf Tobler tomonidan tasvirlangan bo‘lib, u buni Zola va Flober asarlarini o‘rganayotganda kashf etgan. Boshqa tilshunos Charlz Balli 1912-yilda unga nom bergan va uni “style indirect libre–erkin o‘zlashtirma uslub” deb atagan. Uning o‘ziga xosligi shundaki, unda nutq fe‘llari (parler–gapirmoq, dire–aytmoq, demander–so‘ramoq yoki interroger–savolga tutmoq, chuchoter–shivirlamoq, exprimer–ifodalamoq...) ishlatilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘chirma gapni o‘z ichiga olgan ergash gap bosh gap ishtirokisiz mustaqil gapga aylanadi. Fe‘llarning zamoni o‘zgaradi (ko‘pincha, o‘tgan zamonga o‘tish orqali) va xabar manbayi ham aniq ko‘rsatilmaydi.

*Il met bas son fagot, il songe à son malheur. Quel plaisir a-t-il eu depuis qu’il est au monde?*

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq stilistik jihatdan kengroq erkinlikka, yorqinroq leksik va sintaktik bo‘yoqdorlikka ega. U, asosan, badiiy adabiyotda ergash gap sifatida emas, balki mustaqil gap sifatida keladi.

*Pierre ouvre la fenêtre et regarda le ciel. Voici un Bourgogne coucher du soleil lumineux, probablement demain sera encore plus froid qu’aujourd’hui.*

Boshqa tillar singari, fransuz tilida ham o‘zga nutqni ifoda etishda har bir uslub o‘ziga xos xususiyatga ega. Quyidagi misollarda ularning farqli jihatlarini ko‘rishimiz mumkin:

Ko‘chirma nutqda: «*Non! Je ne partirai pas d’ici, demain!*»

O‘zlashtirma nutqda: *Elle lui dit qu’elle ne partirait pas de là, le lendemain.*

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutqda: *Elle se fâcha. Non! Elle ne partirait pas de là, le lendemain!*

Yuqoridagi misolda ko‘chirma nutqda undov, so‘roq (!?) gap turlari, og‘zaki nutqning ifoda belgisi (Yo‘q!), subyektivlik belgilari (qahramonning nutq usullari) va ergash gap yo‘qligi ko‘zga tashlanadi.

O‘zlashtirma nutqda esa matn oldidan tire yoki qo‘sh tirnoq qo‘yilmasligi, vaqt va joy belgilari moslashuvi (u yerda, ertasi kun), bir xil olmoshlar (u), bir xil fe‘l zamonlarining qo‘llanilishi, zamon moslashuvi (partirair) va hikoya nutqi umumlashtirilishi kabi xususiyatlar o‘z aksini topadi.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda nutq fe‘li ishlatilmaydi, shuning uchun ham ergash gaplar bo‘lmaydi va mustaqil gap shaklida ifodalanadi, ko‘pincha, o‘tgan zamon imparfait, plus-que-parfait de l’indicatif, présent du conditionnel à valeur de futur dans le passé qo‘llaniladi, xabar manbayi aniq ko‘rsatilmagan va o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutqni ba‘zan kontekstdan tashqarida aniqlash qiyin.

Misol tariqasida Nathalie Sarrautening Tropismes hikoyalar to‘plamidan bir parcha keltiramiz.

*«Elle se tenait assise, les mains croisées sur son sac assorti, souriante, hochant la tête, apitoyée, oui, bien sûr elle avait entendu raconter, elle savait comme l’agonie de leur grand-mère avait duré, c’est qu’elle était si forte, pensez donc, elle avait conservé toutes ses dents à son âge... Et Madeleine ? Son mari... Ah, les hommes, s’ils pouvaient mettre au monde des enfants, ils n’en auraient qu’un seul, bien sûr, ils ne recommenceraient pas deux fois, sa mère, la pauvre femme, le répétait toujours. »*

♦*Elle* → 3 shaxs birlik ;

♦*oui* → og‘zaki nutq belgisi ;

♦*bien sûr* → og‘zaki nutq belgisi;

♦*c’est qu’elle était si forte* → subyektivlik belgisi;

♦*pensez donc* → og‘zaki nutq belgisi;

♦*Et Madeleine?* → ifodalik belgisi;

♦*Son mari...* → ifodalik belgisi;

♦*Ah, les hommes* → og‘zaki nutq belgisi;

♦*ils n’en auraient qu’un seul* → subyektivlik belgisi.

Ushbu parchada biz aniq bo‘lmagan ma‘ruzachining fikrlarini kuzatib turibmiz. Hikoyada o‘tgan zamonning l’imparfait (pouvaient), le plus-que-parfait (avait conservé), le présent du conditionnel (recommenceraient) kabi formalari qo‘llanilgan. Kirish so‘zlari ishlatilmagan va gaplar o‘rtasida bog‘lovchilar mavjud emas.

**Xulosa.** Boshqa tillar singari, fransuz tilida ham o‘zgalar nutqi ifodalanishining eng oddiy usuli ko‘chirma nutqdir. Ko‘chirma nutqda o‘zganing fikri hech o‘zgarishsiz, aynan bayon qilinadi. O‘zgalar nutqi ifodalanishining ikkinchi muhim usuli o‘zlashtirma nutqdir. Nutqning bu turida o‘zgalarning xabari qisman o‘zgarish bilan muallif nomidan bayon etiladi. O‘zgalar nutqining uchinchi turi faqat badiiy adabiyotga xos bo‘lib, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq deb ataladi. O‘zgalar nutqning bu turi muallif

matniga qo‘shilib, asar qahramonlari fikr va tuyg‘usini ifodalaydi, ularning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi.

Nutqiy maqsad-u vazifa taqozo qilsa, xabar manbayi o‘zlashtirma gapdan oldin turadi. Bunday holda, avval, nutqiy amal uchun muhim hisoblangan biror voqea-hodisa haqida xabar beriladi, keyin muayyan ish-harakat o‘zlashtirib bayon qilinadi. Xabar manbayi o‘zlashtirma gapning o‘zida kelishi yoki nutqiy maqsadu vazifa taqozo qilmasa, kontekstda aniq ifodalanmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fransuz tili nazariy grammatikasi. Gak V.G. Rus tilidan tarjima. Tarjimon I.K.Mirzayev. T., “Tafakkur qa-noti”, 2016, 100-bet.
2. La grammaire théorique et pratique de la langue française. D.Margot. Troisième édition. Sn-Pétersbourg. 1875, 260 p.
3. Zikrillayev G‘. Ruh va til. Toshkent, “Fan”, 2018, 464-bet.
4. O‘zbek adabiy tilida o‘zlashtirmalik va matn [matn]. Monografiya, F.S.Safarov, E.B.Jumayev. Buxoro, “Durdoni” nashriyoti, 2022, 132-bet.
5. Рўзиев Я.Б. Ўзбек тилшунослигида кўчирма ва ўзлаштира нутқнинг талқини тавсифи. “БухДУ или мий ахбороти”, Бухоро, БухДУ, 2022, 4-сон, 68 – 77-бетлар.
6. <https://www.superprof.fr/ressources/langues/francais/college-fr2/3eme-fr2/quel-type-de-discours.html>.
7. <https://www.maxicours.com/se/cours/les-paroles-rapportees-le-discours-indirect-libre>.

Mardiyev To‘lqin Kulibayevich (SamISI dotsenti, Tillarni o‘qitish kafedrasini mudiri)

#### O‘ZBEK TILIDA BAXT LEKSEMASINING ETIMOLOGIK VA METAFORIK JIHLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada an’anaviy madaniyatga ko‘ra, baxt tuyg‘usi inson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g‘oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi. Maqolada, shuningdek, baxt tuyg‘usining etimologik tahlilga ko‘ra tojikcha, arabch qanday ma’noni anglatishni, mazkur tillarda mavjud bo‘lgan izohli lug‘tlar yordamida qiyosiy tahlili berilgan. Jumladan baxt tuyg‘usining mental ma’nolari nafaqat nazariy, qolaversa, ushbu leksemaning sematik jihatdan qanchlik boyligi donishmandlar fikrlari bilan ham maqolada bayon etiladi.

**Аннотация.** В этой статье, согласно традиционной культуре, чувство счастья понимается как категория, охватывающая систему понятий и представлений человека или общества о ценностях, предпочтениях и материальных благах. В статье также дается сравнительный анализ значения слова «счастье», этимологический анализ на таджикском, арабском языках с использованием имеющихся в этих языках толковых словарей. В то время как ментальные значения чувства счастья в предложениях являются не только теоретическими, семантическое богатство этой лексемы, комментируются мнения известных мыслителей.

**Annotation.** In this article, according to traditional culture, the feeling of happiness is understood as a category encompassing the system of ideas and representations of a person or society about values, preferences and material goods. The article also provides a comparative analysis of the meaning of the word happiness by etymological analysis in Tajik, Arabic languages using explanatory dictionaries available in these languages. While the mental meanings of the feeling of happiness in sentences are not only theoretical, the semantic richness of this lexeme is also explained in the article by the opinions of wise men.

**Kalit so‘z:** baxt va quvonch, shodlik, oqibat, mehr, istak, iliq munosabat, e’tibor, lingvomadaniy, til va madaniyat, tafakkur, emotsional, axloqiy, tuyg‘ular, lisoniy, hissiy, verbal, qadriyatlar.

**Ключевое слово:** счастье и радость, веселье, доброта, привязанность, желание, теплое отношение, внимание, лингвокультурный, язык и культура, мышление, эмоциональный, нравственный, чувства, языковой, эмоциональный, вербальный, ценности.

**Key words:** happiness and joy, fun, kindness, affection, desire, warm attitude, attention, linguocultural, language and culture, thinking, emotional, moral, feelings, linguistic, emotional, verbal, values.

**Kirish.** Shu narsa bizga ma’lumki, har bir inson hayoti davomida baxtli hayot kechirish, baxtsizlikdan qochib yashashga intiladi. Insonning bilimi, hayotiy tajribasi ortib borar ekan, uning baxt-saodat haqidagi tasavvurlari o‘zgarib, shakllanib boraveradi. Insoniyat tarixiga e’tibor bilan qarasa, ushbu tushuncha yoki konsept to‘g‘risidagi insonlarning fikrlari, g‘oya va tasavvurlari izchillik bilan bog‘lanib borganligini kuzatish mumkin. O‘tmish mutafakkir olimlari o‘z asarlarida baxt tuyg‘usini turlicha holatlarda namoyon bo‘lishini isbotlab, ijtimoiy hayotda insonning eng oliy tuyg‘ularidan biri ekanligini ta’kidla-

ganlar. Bu borada xalq tilida ham juda ko'p hikoya va rivoyatlar, hikmat va maqollar – paremiyalar yuzaga keltirilgan.

O'zbek badiiy adabiyoti matnlarida, ko'p hollarda, muhabbatga erishish baxt konseptiga bog'lanib ketadi. Baxt o'ziga xos tuyg'u, ya'ni, baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ifodalaydi hayot hamda bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo'lib, baxtsizlik diada (ikkilik) konseptini yuzaga chiqaradi. Diniy adabiyotlarda ham insonlar o'rtasidagi baxt va baxtsizlik dualligi Allohning qudrati bilan bog'liq bo'ladi. Baxt va baxtsizlik dualligi nafaqat ilohiy kuchlarning ta'sir etish obyekti, balki o'z erki va insonga ta'sir etish qobiliyatini ko'rsatuvchi yaxshiliklar obyekti ham hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XIX asrning birinchi yarmida V.Gumboldt tomonidan zamonaviy antropologik tilshunoslikka asos solindi. U bir necha bor, til – bu shunday organki, inson u yordamida o'z fikrini ifodalaydi deb ta'kidlagan. Dunyo tilshunosligida esa XX asrning birinchi choragida lingvomadaniy masalalarni haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Y.Stepanov o'zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, bunda so'zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida G'.Salomovning maqol va idiomalar tarjimasini bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlari, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", M.Abdurahimovning "O'zbekcha-ruscha aforizmlar lug'ati", T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulovning "O'zbek xalq maqollari" to'plamlari, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovning "Ma'nolar maxzani", Sh.Shomammedovning "Donolar bisotidan", Sh.Abdurazzoqovanning "Tafakkur gulshani" (tarjimalari), Hamidjon Homidiy, Mahmud Hasaniyning "Mashriqzamin hikmat bo'stoni", xususan, H.Berdiyev, R.Rasulovning "O'zbek tilining paremiologik lug'ati", U.Sanaqulovning "Mahmud Koshg'ariy hikmatlari" kabi kitoblarda tilimizdagi madaniy-axloqiy qadriyatlar aks etgan til birliklari to'planganligini kuzatish mumkin. Qator yillar davomida tilshunoslikning ushbu bo'limi lingvomadaniy masalalarni o'rganishga bag'ishlangan ishlarda ta'kidlangan ediki, maqol va matallar tilning milliy o'ziga xos birliklari hisoblanib, xalqning madaniy imkoniyatlarini oshiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada, asosan, tavsifiy, chog'ishtirma, konseptual tahlil usullaridan hamda til nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida qo'llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalari.** Ma'lumki, o'zbek tilida baxt leksemasi o'zining etimologiyasiga ega. Baxt – bu etimologik tahlilga ko'ra, tojikcha ot "mamnunlik holati" ma'nosini anglatadi. Bu otdan o'zbek tilida baxtli, baxtsiz sifatleri, baxtsizlik oti yasalgan, baxt-iqbol, baxt-saodat juft otlari, baxti ochilsin, baxti qora, baxtga qarshi iboralari tuzilgan. Ushbu maqolada biz baxt va baxtsizlik tushunchalarining semantikasi haqida o'zbek maqol va matallarida ko'p misollar uchratishimiz mumkin.

Izlanishlar natijasiga ko'ra, o'zbek tilining etimologik lug'atidan foydalanilgan ma'lumotlarda quyidagilarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Baxt – fors-tojikchada – taqdir, nasiba, ulush ma'nolarini anglatib, quyidagi ma'naviy xususiyatlariga ega hisoblanadi. Quyida esa baxt so'zining o'zbek tilidagi nasiba, ulush, taqdir so'zlari bilan bog'liqligini va ma'naviy xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

1. Kishining o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu-umidining ushlab sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy tushuncha.

2. Hayot (turmush)dan to'la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut. Mehnat – baxt keltirar.<sup>1</sup> Ona-yer nafasiga, mehriq, inonlariga to'yib yashashdan ortiq baxt bormi?<sup>2</sup> Maqol va matallarning tahlili, shuningdek, o'rganilayotgan tushunchalarning kognitiv belgilarini, baxt va baxtsizlikning tabiati va xarakterini aniqlashtirishi mumkin, ularning insonlar hayotidagi rolini aniqlash va qarama-qarshiliklarni o'rganish mumkin. Maqollarning tarkibiy va ma'no jihatdan tashkil etilishini har tomonlama tahlil qilish bir yoki bir necha tushunchalar bilan bog'langan qiymatga ega bo'ladi. Masalan, Yaxshilik bilan yomonlik egizak/Yaxshilik va yomonlik abadiy hamroh; Tun o'rnida kun keladi; Yomon ob-havodan keyin quyoshli kunlar keladi; Qiyinchiliksiz rohat yo'q kabi paremalarda umid, taqdir tushunchalari o'z aksini topgan.

<sup>1</sup> Sodiqova M. Maqollar va frazeologiya mohiyatiga doir. T., 2005, 14-bet.

<sup>2</sup> Ashurov T. Oq ot. T., 2000, 94-bet.

Etimologiyaga nazar tashlaydigan bo'lsak, "baxt-bak" (omad, quvonch) va "kut-bliss" (ijobiy hayot muvozanati, hayotdan qoniqish) tushunchalari bir-biridan farq qiladigan va bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki hodisa sifatida paydo bo'lgan va rivojlangan. Turkiy madaniyatlarining bosqichma-bosqich dunyoviy-lashuvi natijasida baxt konsepti o'zining diniy yo'nalishini yo'qota boshladi va asta-sekin ma'no jihatdan "baxt-bak" tushunchasiga yaqinlasha boshladi. Jumladan, qadimgi tilda "kut" so'zi arabcha "bak" so'zi bilan bir xil semantikaga ega bo'lgan "Baq", "bereke" (mo'llik) so'zlarining semantik tuzilishining ildizi etnik guruhning lingvistik ongidan kelib chiqqan bo'lib, pirovardida faol lug'atni "kut" (baxt) va "kuta-yu" (baxtli bo'lmoq) atamaları bilan siqib chiqaradi. Taxmin qilish mumkinki, "qut" so'zi ko'proq "bak" so'zi bilan parallel qo'llanib, asta-sekin bak-baxtga aylanib, "baqit" (bak+kut) so'zning semantikasini shakllantirgan. Shuning uchun og'zaki ifoda Qutlug' bo'lsin! Hozirda tez-tez ishlatiladi.

Masalan, Tug'ilgan kuning qutlug' bo'lsin! Baxt qushing qutlug' bo'lsin! (Kuyovga aytiladigan tilak bu yerda kelin "baxt qushi" sifatida timsollangan). Madaniy konsept nomini o'z ichiga olgan barqaror odob-axloq formulasining mavjudligi bu konseptning keng qo'llanilishini ko'rsatadi. Ya'ni misollarda ko'rishimiz mumkin: Baxting ochilsin! Baxt qushi boshingga qo'nsin! (Baxtli bo'ling!).<sup>1</sup>

XIX asrning yarmi asrlar davomida biz butun insoniyatni band qilgan eng muhim muammo – baxt haqida gaplashdik. Siz uzoq o'ylashingiz mumkin, chunki mavzu cheksiz va keng. Inson qachon baxtli bo'lishi mumkin, buning uchun u nima qilishi kerak? Baxt, sevgi uchun kurashing, o'zingizni takomillashtirishga intiling, yaxshilik uchun ishlang, boshqalarga yomonlik tilamang. Baxti kulmoq yoki ochilmoq. Baxtiyor hayotga, xushnud onlarga erishmoq; baxtli, baxtiyor bo'lmoq. Ajab emas, baxti ochilib, Gulnor ham yaxshi, obro'li joylarga kelin bo'lsa.<sup>2</sup> Bu gapda yozuvchi qahramonning umr yo'llarini birga bog'laydigan yaxshi bir umr yo'ldoshi topilishiga ishora qilgan. Qisqasi, boladan baxtim ochilmadi, do'stim.<sup>3</sup> Ushbu parchada esa uzoq yillar davomida farzandsizlik azobini tortayotgan inson qismati ko'rsatilgan. Baxting ochilsin yoki baxtingni bersin yoshlarga muhabbat va shirin oilaviy turmush tilash shakli. Iloyo, baxtingni bersin, yaxshi qayliqqa uchrab, bu kunlaring unut bo'lsin, bolam!<sup>4</sup> Ushbu parchada ham muallif qahramonga yaxshi bir turmush o'rtoq topib, baxtli-saodatli bo'lib yashashligini duo qilgan. Baxti qora (yoki qaro) – turmushdan yolchimagan, baxtsiz. Aziz do'stlar, netay, baxti qaro bo'lganga yig'layman, Azizimdan tirik, o'lmay judo bo'lganga yig'layman.<sup>5</sup> Baxt shu kabi jumalalarda badiiy adabiyotlarda tez-tez uchrab turadi.

3. Omad, tole, iqbol – ma'nolarida ishlatilishi. Uf, nima ish qilsam, ketga qarab ketadi, xolos, mening baxtim qursin.<sup>6</sup> O'zbek tillarida inson tuyg'ularini ifodalovchi tushunchalardan biri baxt leksemasi sanaladi. Baxt leksemasi alohida konsept sifatida o'ziga xos ishonch tuyg'ularini anglatsa-da, muhabbat, do'stlik tuyg'ulari bilan ham bog'lanadi. O'zbek tilida ko'p hollarda muhabbatga erishish baxt konseptiga bog'lanib ketadi. Zero, muhabbatga erishish baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ham ifodalaydi. Masalan, Men endi juda baxtliman deb baqirgim keladi, nihoyat, Nigoraning muhabbatiga sazovor bo'ldim.<sup>7</sup>

Badiiy adabiyotlarda insonlar o'rtasidagi baxt va baxtsizlik dualligi tolening muruvvati bilan bog'liq bo'ladi. Bu duallik nafaqat oliy kuchlarning ta'sir etish obyekti, balki o'z erki va insonga ta'sir etish qobiliyatini ko'rsatuvchi yaxshiliklar obyekti ham bo'lishi mumkin. Baxt o'ziga xos tuyg'u, ya'ni, baxtli hayot mazmuniga erishish tushunchasini ifodalaydi hamda bunday baxtga erishmaslik xususiyatlari ham mavjud bo'lib, baxtsizlik diada konseptini yuzaga chiqaradi.

Baxt baxtsizlik bilan yonma-yon yashaydi. Baxtga asta-sekin erishilsa, baxtsizlik esa qanot qoqib keladi. Baxtsizlikdan omadsizlik ma'nosi kelib chiqadi. Omadsizlik baxtsiz hodisadir. Bunda kutilmagan ko'ngilsizlik namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda baxt va baxtsizlik dualligi turli sohalar bilan ham bog'lanadi. Ular orqali inson hayotidagi baxtlilik, baxtsizlik kabi tushunchalar namoyon bo'ladi. Bunday munosabatni aks ettiruvchi turli shakldagi leksemalar mavjud. Ular bir yadroga, ya'ni *baxt* konseptiga borib bog'lanadi.

*Baxt* har kimda har xil tushuniladi. Chunonchi, donishmandlardan biri shunday deydi: Agar faqat baxtli bo'lishgina maqsad qilib qo'yilsa, bunga tezda erishish mumkin. Lekin odamlar, ko'pincha, bosh-

<sup>1</sup> Nurov S. Maysalarni ayoz urmaydi. T., 2000, 45-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Qahhor. Sarob. T., "Sharq", 1995, 237-bet.

<sup>3</sup> Ashurov T. Oq ot. T., 2000, 94-bet

<sup>4</sup> Oydin. Chaqaloqqa chakmoncha. T., 22-bet.

<sup>5</sup> Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. "Sharq", 1975, 167-bet.

<sup>6</sup> Shu manba.

<sup>7</sup> Oybek. Bolalik. T., 2000, 26-bet.

qalardan ko‘ra baxtliroq bo‘lishni istaydilarki, buning diyarli iloji yo‘q chunki, aslida, bizga o‘zgalarning baxti hamisha ko‘roq bo‘lib ko‘rinadi.<sup>1</sup>

Suqrot shunday deydi: “Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, negaki bunday qanoat uning ma‘naviy boyligidan dalolat beradi. Dunyoda odam yenga olmagan narsa bo‘lmaydi, shuning uchun, aslo, qo‘rqma, o‘zingga berilgan quvvat va g‘ayratlarini sarf qilib, olg‘a intil. Baxt va saodat osmondan tushadi yoki kutilmagan holda qo‘qqisdan vujudga chiqadi deb o‘ylama. Shu o‘yga borsang, dunyoning nodon odamlaridan biri hisoblanasan”.<sup>2</sup> Baxt faqat mol-dunyo, martaba yoki o‘tkinchi his-tuyg‘ulardangina iborat emas. Allohning har bir bergan ne‘mati baxtdir. Ikki olam sarvari Muhammad Mustafa (s.a.v) dedilarki: “Kim o‘z uyida omonlikda, jasadi salomatlikda, kunlik taomi bo‘lgan holda, tong ottirsa, xuddi unga butun dunyo jamlangandek bo‘ladi”.<sup>3</sup>

Darhaqiqat, baxt har kimda har xil bo‘lishi mumkin, lekin uni sotib olib bo‘lmaydi. Shogirdlar ustozidan “Baxt pulda emas!” degan gapni isbotlab berishni so‘rashibdi. Ustoz javob beribdi: “Bu gap to‘g‘ri aytilgan, chunki pulga yaxshi to‘shak sotib olish mumkin, uyquni emas, taniq taomni sotib olish mumkin, lekin ishtahani emas, qimmat dori olish mumkin, sog‘likni emas, xizmatkor yollash mumkin, ammo do‘stni emas, ...hayotda pulga sotib olmaydigan narsalar ham bor. Pul bo‘lmasa ham, u narsalarning borligi yaxshi”. Aql ham bir baxtdirki, u hammaga ham nasib qilavermaydi. Darhaqiqat, inson bo‘lib yaralganimizning o‘zi baxt emasmi? Alloh taolo barchamizga baxtli insonlar qatorida bo‘lishni nasib etsin.<sup>4</sup>

Manbalardan seziladiki, baxt – baxtsizlik kabi konseptual tushunchalar barcha millat adabiyotida keng e‘tirof etiladi. *Baxt* leksemasi yoki konseptining inson kamolotiga erishishdagi ahamiyati to‘g‘risida dunyoning barcha yetuk mutafakkir olimlari o‘z fikrlarini ta‘kidlab o‘tishgan. Ko‘rinib turibdiki, baxt tushunchasining ijtimoiy hayotdagi barcha jabhalarga uzviy bog‘liqligi namoyon bo‘ladi. Yer yuzida baxt haqida o‘ylamagan, uni orzu qilmagan inson bo‘lmasa kerak. Baxt kim uchundir oila yoki sevgi-muhabbat, kimgadir farzand, kimgadir mol-dunyo yoki amal bo‘lishi yoki uzoq vaqt xasta bo‘lsa-yu, sog‘ayishini yoxud o‘zga yurtlarda sarson bo‘lsa-yu, o‘z yurtiga qaytishni baxt deb o‘ylashi mumkin.

Baxt konseptida ham duallik xususiyati mavjud. Bu baxt va baxtsizlik leksemalari mazmunida aks etadi. Zero, baxt omad keltiradi. Baxtsizlik esa kulfat keltiradi. Baxt Alloh tomonidan berilgan buyuk ne‘mat, baxtsizlik esa Alloh tomonidan berilgan ne‘matdan mahrum etilishdir. Baxt konseptining qarama-qarshi ma‘nosi baxtsizlik bo‘lib, ular bir-biri bilan tarkibi jihatdan bog‘lanadi. Ma‘lumki, maqol va matallar strukturaviy va semantik jihatdan tuzilgan tizim hisoblanadi. Ular tilning barcha so‘zlovchilariga tegishli bo‘lgan ong va madaniyat konstantlarini o‘rnatadi, dunyoni baholash tizimini belgilaydi va asosiy tushunchalarni ajratish va tahlil qilish imkonini beradi. Baxt va baxtsizlik xususiyatlari ko‘p jihatdan uning ma‘lum belgilarini ifodalashi va ularning semantik xususiyatlari bilan belgilanadi. Berilgan tushunchalarning leksik va semantik ifodalanishi baxt va baxtsizlikning konseptual muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Baxt semantikada taqdir leksimasi bilan o‘zaro bog‘lanadi. Insonning ulushi va mayli uning qadr-qimmatiga to‘liq mos kelmasligi mumkin, bu, bir tomondan, tasodifiy taqdir, boshqa tomondan esa, baxtdir. Baxt insonni aqli yoki ta‘limi, ideologiyasi, dini, kasbi va boshqa parametrlariga ko‘ra tanlamaydi. Har qanday insonni tahlil qiling yoki ma‘lum bir joyga borib kuzatingki, agar shu inson taqdirini qadrlamasa, u o‘z-o‘zidan ketadi va, aslo, qaytib kelmasligi mumkin.

An‘anaviy madaniyatga ko‘ra, baxt tuyg‘usi inson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g‘oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi. Jamiyatning lingvistik ongida u boylik tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, baxt salomatlik, yaxshi hayot, mol-mulk, boylik, aql-zakovat, bilim, ko‘nikma, san‘at va boshqa tushunchalar bilan aloqadordir. Ushbu maqolni tahlil qiladigan bo‘lsak, “Baxt – turmushga chiqqan qiz, boylik – tez eriydigan muz, bola – sening izing, bu hayotda, ya‘ni, vafot etganingdan keyin, farzanding hayot yo‘lingni davom ettiradi”.<sup>5</sup>

Baxt va baxtsizlik quyidagi frazeologik birliklar bilan bog‘langan: Baxt–o‘zgaruvchan. Boshingga baxt qo‘nganda, sen dono odamsan! Shuningdek, ijobiy his-yuyg‘ular bilan bog‘liq bo‘lgan maqol va matallar ham mavjud. Masalan, Baxtdan boshi aylangan, ya‘ni juda xursand ma‘nosida. Chunonchi, baxtsizlikni ifodalovchi qator misollar mavjud bo‘lib, u kambag‘allik, qismat, muammo kabi tushunchalar bilan

<sup>1</sup> Abdurazzoqova Sh. Tafakkur gulshani. T., 1989, 464-bet.

<sup>2</sup> Shu manba. 462-bet.

<sup>3</sup> [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz).

<sup>4</sup> [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz).

<sup>5</sup> Sodiqova M. Maqollar va frazeologiya mohiyatiga doir. T., 2005, 14-bet.

o‘zaro bog‘lanadi. Masalan, Qismatingdan qochib qutula olmayсан/Peshonangga yozilgani bo‘ladi. Ammo oyog‘ing ostida kabilar.

Darhaqiqat, baxt tuyg‘usi mazmunida qadr-qimmatga ega bo‘lgan va inson juda xohlaydigan narsa yotadi. Ammo baxtsizlikda esa buning aksi namoyon bo‘ladi.

#### **Xulosa va takliflar.**

– qiyoslanayotgan har ikki tilning lingvomadaniy jihatdan sezilarli darajada farqli tomonlarini uchratsakda, lekin umumiylikka xos bo‘lgan jihatlarini ham maqolada ko‘rishimiz mumkin;

– an‘anaviy madaniyatga ko‘ra, baxt tuyg‘usi inson yoki jamiyatning qadriyatlar, afzalliklar va moddiy boyliklar haqidagi tushunchalari va g‘oyalari tizimini qamrab olgan kategoriya sifatida tushuniladi;

– muxtasar qilib aytganda, semantik makondagi konsepsiya o‘zining paradigmatic, sintagmatik va so‘z yasash aloqalarini, shuningdek, belgining ekspressiv va tasviriy funksiyalari bilan bog‘liq barcha pragmatik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Tushuncha semantikasining yana bir komponenti – bu so‘zning kognitiv xotirasi belgining semantik xususiyatlari, uning azaliy maqsadi va tizim tilining ma‘naviy qadriyatlar bilan bog‘liq.

### **Allamberganova Perxan Kudaybergenovna (O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti) TAQRIZ JANRINING TELEVIDENIYADAGI KO‘RINISHI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada taqriz janriga ta‘riflar, uning tasnifi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi telekanallarda taqriz janrining namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.

**Аннотация.** В данной статье научно анализируются определения жанра рецензии, дается ее классификация. Также анализируется проявление жанра рецензии на телеканалах Республики Каракалпакстан.

**Annotation.** This article scientifically analyzes the definitions of the review genre and its classification. Additionally, the article provides an analysis of the manifestation of the review genre on the TV channels of the Republic of Karakalpakstan.

**Kalit so‘zlar:** taqriz, teatr, kino, klip, tasnif, ilmiy publitsistika.

**Ключевые слова:** рецензия, театр, кино, клип, классификация, научная публицистика.

**Key words:** review, theater, film, clip, classification, scientific journalism.

Tahliliy publitsistikaning muhim janrlaridan biri taqrizdir. Taqriz so‘zi arabcha bo‘lib, o‘lchamoq, salmoqlab ko‘rmoq, baholamoq degan ma‘nolarni bildiradi. Mazkur janr retsenziya deb ham yuritiladi. Bu lotincha “recensio” baho beruvchi publitsistik janrdir. Demak, taqriz, retsenziya hayotni bevosita tasvir etuvchi maqola va boshqa tahliliy janrlardan farqli ravishda, fan, adabiyot, san‘at va boshqa sohalarida vujudga kelgan yangi asarlar, ilmiy-ijodiy mahsulotlarni tahlil etish, baholashga qaratiladi.<sup>1</sup>

Rus olimi A.A.Tertichniy “Taqriz – badiiy adabiyot, san‘at, fan, jurnalistik asarlarga javoban mulohaza, baho (ko‘proq tanqidiy) tariqasida fikr yuritadigan janr”, degan fikrni bildiradi. Aslida, telejanrlarning an‘anaviy tasnifida taqriz haqida fikr uchramaydi. Negaki, bu janr ko‘proq matbuotga xos deb hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Taqriz – retsenziya yozish, bir kitob (asar)ni maqtab yozish. Ilmiy, badiiy va boshqa turdagi asarga tanqidiy nuqtayi nazardan berilgan yozma baho, tahlil”,<sup>2</sup> deya ta‘rif beriladi. Janr nuqtayi nazaridan material ancha murakkab, unda taqriz bilan bir qatorda, intervyu, reportaj, maqola va ocherk belgilari ham bor. Odatda, bunday holda ko‘rsatuvning janri uning etakchi xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

Filologiya fanlari doktori Z.Orazimbetova taqrizni qisqa qilib “taqriz – bu fikr, talqin, tahlil”<sup>3</sup>, deya ta‘riflaydi. Manbalarda taqrizga ilmiy yondashuvlar ham mavjud, masalan, “taqriz – monografiya, ilmiy maqola, dissertatsiyalarga yozilib, asosan, ilmiy manbalarning yutug‘i va kamchiliklariga baho beriladi”. Nazdimizda, bu yerda faqat ilmiy asarlarga beriladigan taqriz e‘tiborga olingan.

<sup>1</sup> Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Т., “Tafakkur”, 2011, 211-bet.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006, 176-бет.

<sup>3</sup> Оразымбетова З. Қарақалпақ күнделикли баспасөзи тилинің стильлик өзгешеликleri. Т., “Hilol Media”, 2019, 91-бет.

G.S.Melnik va A.N.Tepliyashinalar esa “Taqriz – bu ilmiy, badiiy yoki ijtimoiy-siyosiy asarga berilgan baho”, deydi va bunda xabardorlik muammoni chuqur tahlil qilish bilan birlashadi. Baholash mezonini tanlash voqea-hodisaning madaniy yoki ilmiy ahamiyatiga, taqrizchining shaxsiy mulohazalariga bog‘liq. Taqrizda shaxsiy fikr yaqqol aks etadi,<sup>1</sup> deydi. Albatta, taqrizda shaxsiy fikr aks etar ekan, unda muallifning fikr-mulohazalari, baholash mezonlari tushunarli bo‘lishi va dalil, isbotlar tizimi taqriz kompozitsiyasiga to‘g‘ri kelishi kerak.

Taqriz tiliga kelsak, olim Z.Orazimbetova ta’kidlaganidek, taqrizning qaysi soha yoki kitob, spektakl, kino, jurnal yoki ko‘rsatuvga bag‘ishlanganiga qarab tildan turlicha foydalaniladi.<sup>2</sup> Biz bu fikrga qo‘shilamiz, negaki, taqriz yozilayotganda o‘sha soha terminlaridan, neytral so‘zlardan qo‘llaniladi. Ba’zan esa e’tirozli yondashuvlarni ham kuzatish mumkin.

Olim M.Xudoyqulov “Taqriz inson ongi olamining barcha sohalarni qamrab olar ekan, o‘z navbatida, turli xillarga bo‘linib ketadi”, deydi va ularni quyidagicha tasniflaydi:

1. Ilmiy taqrizlar.
2. Adabiy-badiiy taqrizlar.
3. Teatr taqrizi.
4. Kino taqrizi.
5. Musiqa asarlari taqrizi.
6. Tasviriy san’atga doir taqrizlar.
7. Radio eshittirishlar va teleko‘rsatuvlar taqrizi va boshqalar”<sup>3</sup>

Olim bu tasnifdagi har bir taqrizga izoh beradi va taqrizlarni ichki tuzilishi bo‘yicha ham ikkiga ajratadi: axboriy yoki tahliliy. Axboriy taqrizlarda yangi ilmiy, adabiy-badiiy yoki san’at asari haqida kengroq xabar beriladi. Aksariyat taqrizlar tahliliy bo‘lib, ular o‘z xususiyatlari bilan maqolaga yaqin turadi. Ya’ni, taqrizda ham xuddi maqola kabi, tahliliy mushohada yuritiladi, ayrim fikrlar oldinga suriladi, xulosalar chiqariladi. Taqriz qilinayotgan asarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tanqid ostiga olinishi tanqidiy taqrizlar sirasiga kiritilgan.<sup>4</sup>

Olima N.Toshpo‘latova taqrizning “taqriz-maqola, taqriz-esse, taqriz-ocherk, taqriz-reportaj” turlari borligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, taqrizlar yozilishi, maqsadi, mavzular ko‘lamiga qarab, bir necha turini ko‘rsatadi va ularni izohlaydi.<sup>5</sup> Qoraqalpoq olimlari esa taqrizning: adabiy-badiiy, teatr, kinossenariy. Shu bilan birga, janrlar orasida ham turlari bor. Masalan, retsenziya-maqola, retsenziya-ocherk, retsenziya-reportaj va boshqa”<sup>6</sup> deydi.

Shu o‘rinda mulohaza. Professor M.Xudoyqulov taqriz janri ko‘proq gazeta-jurnallardan o‘rin olishini ta’kidlaydi “Radio va televideniya ular taqriz emas – eshittirish yoki ko‘rsatuvning bir turi sifatida qo‘llanilishini”<sup>7</sup> ta’kidlaydi. Ammo efir orqali namoyish etilayotgan ko‘rsatuvda taqriz janriga mansub elementlar majud. Aniq ma’ulmot keltiramiz. Masalan, respublika markaziy “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida efirga uzatilgan “Mundarija” (hozirgi kunda “Press kafe” deb yuritiladi) ko‘rsatuvida yangi chop etilgan kitoblar, ma’lum bir jurnalning yangi chop etilgan sonidagi asarlar va maqolalar haqida so‘z yuritiladi. Unda o‘sha asar yoki maqola bilan tanishgan shaxslarning fikr-mulohazalari, baholari beriladi. Xuddi shunday Qoraqalpog‘iston televideniya orqali namoyish etiladigan “Kino+teatr” ko‘rsatuvida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi teatrlarda (asosan, Nukus shahri) namoyish etilgan sahna yoki “Qaraqalpaqfilm” kinostudiyasi tomonidan tasvirga olingan turli janrlardagi asarlarni mutaxassislar tomonidan tahlil qilinadi. Aynan o‘sha spektakl yoki filmdan mutaxassis tahlil qilgan joyidan parchalar beriladi. bu esa fikrlarning asosli ekanligini ta’minlaydi. ko‘proq taqriz janri kuzatiladi. Chunki teatrdan sahna-lashtirilgan asarni soha mutaxassislari batafsil tahlil qiladi. Olimlar “teatr taqrizi mualliflari faqat dramaturglar asarlari, teatr repertuarlari haqida emas, balki qoraqalpoq va dunyo teatrlari tarixi haqidagi bilim-ga ham ega bo‘lishi”<sup>8</sup> kerakligini ta’kidlashadi. Ammo “Kino+teatr” ko‘rsatuvining hamma soni ham taqriz janriga mansub emas, ba’zan ko‘rsatuvda teatr yoki kinoijodkorlarining portreti ochib beriladi. har

<sup>1</sup> Г.С.Мельник ва А.Н.Тепляшина. Основы творческой деятельности журналиста. СПб, “Питер”, 2004, с. 42.

<sup>2</sup> Оразымбетова З. 93-бет.

<sup>3</sup> Худойкулов М. 213-бет.

<sup>4</sup> Худойкулов М. Журналистика ва публицистика. Т., “Tafakkur”, 2011, 218-бет.

<sup>5</sup> Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika. Т., “Bayoz”, 2019, 162 – 167-бетлар.

<sup>6</sup> Глобалласыў процесси хэм галаба хабар кураллары хызмети. Илимий мийнетлер топламы. Н., КДУ, 197-бет.

<sup>7</sup> Худойкулов М. 216-бет.

<sup>8</sup> Qo‘jiqbaeva Z. Baspa so‘z: janrlar, maket, dizayn. N., “Qaraqalpaqstan”, 2011, 21-бет.

kuni efirga uzatilgan “Assalom-u alaykum, Qaraqalpaqstan!” tonggi dam olish dasturining “Bir eksponat tarixi” sahifasini ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Bunda san’atshunos mutaxassis ma’lum bir eksponat yoritilish tarixini, mazmun-mohiyatini tushuntirib, rassomning mahoratiga baho beradi. “Taqrizchining asosiy vazifasi kitob, spektakl yoki tasviriy san’at polotnosini yaratuvchi ijodkorlar asarlarida aytmoqchi bo’lgan masalaga auditoriya e’tiborini qaratish, unda ijodiy jarayon mohiyatini tushuntirish, yaratilgan turli asarlarga mustaqil baho berish orqali auditoriyaning voqelik haqidagi estetik tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan bo’lishi kerak”.<sup>1</sup>

Albatta, taqriz – konseptual-estetik janr. Publitsist bahosi – bu uning bir tomonlama (“yoqadi-yoqmaydi”) ixtiyoriy bahosi degani emas, balki manbaning qismlarga bo’lib, izchil dallillashi. U voqelikni butkul qamrab olishi (teatr taqrizida, aytaylik, rejissorning spektaklda qo’llagan topilmalari yoki bitta-ik-kita aktyorning roli haqida bo’lishi mumkin) shart emas, ammo auditoriyagga asar haqida to’liq tasavvur berish juda muhim”.<sup>2</sup>

Biz bir ko’rsatuv misolida taqriz janrining mavjudligini ta’kidladik. Olima N.Toshpo’latovanning “ilgari taqriz faqat ijtimoiy-siyosiy, ilmiy yoki badiiy adabiyotlarga yozilgan bo’lsa, keyinchalik, san’atning spektakl, konsert, kino, raqs, tasviriy san’at, rassomchilik kabi turlariga ham beriladigan bo’ldi, endilikda teleko’rsatuvlar, radioeshittirishlarga ham, kliplar, reklama roliklariga ham, hatto moddiy ishlab chiqarish mahsulotlariga ham taqriz, baho berilyapti”,<sup>3</sup> degan fikrlariga qo’shilamiz. Chunki respublikadagi mavjud nodavlat telekanallar, asosan, ko’ngilochar-musiqiy dasturlarga yo’naltirilgan. Bu kanallarda yangi tayyorlangan klip qo’shiqlari va unga nisbatan mutaxassis va tomoshabinlarning fikr-mulohazalari, baholari beriladi. Aniq misollarga murojaat etamiz. Ellikqal’a tumanining “ETV” telekanali orqali namoyish etiladigan “Premyera” ko’rsatuvida yangi yaratilgan qo’shiq kliplari taqdim etiladi va studiyaga taklif etilgan mutaxassis tomonidan klip talqin qilinadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, taqriz janri televideniya mavjud. Unda, asosan, spektakl, tasviriy san’at namunalari, kinofilmlar, multfilmlar, adabiyot asari va boshqa asarlar talqin qilinadi, fikr-mulohazalar, tahliliy baholar beriladi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, u qanday obyekt, ya’ni, kitob, spektakl, kino, raqs, tasviriy san’at asari, klip, ko’rsatuv, eshittirish, ilmiy tadqiqot ishi va boshqa asarlarni unda taqrizchi-muallifning shaxsiy fikri ifodalanadi. Shu bilan birga, taqrizchining dunyoqarashi, tajribasi, mahorati namoyon bo’ladi. Shunday ekan, taqriz haqida gapirganda, ikki tomonlama baho berish mumkin. Birinchidan, asar muallifiga, ikkinchidan, taqriz muallifiga.

Aytish mumkinki, taqrizning predmeti va axborot obyekti – kitoblar, risola, spektakl, kinofilm, teleko’rsatuv, raqs, tasviriy san’at, klip va boshqalardir.

**Omonova Sevinch Zarif qizi (Navoiy davlat Pedagogika instituti talabasi; e-mail: [zarif\\_1178@mail.ru](mailto:zarif_1178@mail.ru))**  
**ATOYI G‘AZALLARIDA INSON TURMUSHI BILAN BOG‘LIQ HAYOTIY VOQEALAR**  
**TALQINI**

***Annotatsiya.** Maqolada Atoy she’riyatining o‘ziga xos badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar berilgan. Shoir g‘azallaridagi inson turmushi bilan bog‘liq hayotiy detallarning badiiy talqinlari keltirilgan.*

***Аннотация.** В статье комментируются уникальные художественные особенности поэзии Атои. Представлены художественные интерпретации деталей быта в газелях поэта, связанных с жизнью человека.*

***Annotation.** The article comments on the unique artistic features of Atoy’s poetry. Artistic interpretations of the details of everyday life associated with human life in the poet’s gazelles are presented.*

***Kalit so‘zlar:** she’riyat, g‘azal, obraz, turmush, so‘z san’ati, badiiy tasvir vositasi.*

***Ключевые слова:** поэзия, газель, образ, жизнь, искусство слова, средство художественной выразительности.*

***Key words:** poetry, gazelle, image, life, art of the word, means of artistic image.*

Milliy adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha bo’lgan davrda yetishib chiqqan ulkan so‘z san’atkorlaridan biri Atoyidir. XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida yashagan Atoy yetuk zamon-

<sup>1</sup> Основы творческой деятельности журналиста. Ред. сос. С.Г.Корконосенко. СПб, “Знание”, 2000, с. 149.

<sup>2</sup> Shu manba. С. 150.

<sup>3</sup> Nazira Qurbon. 157-bet.



doshlari kabi badiiy ijodi bilan turkiy adabiyot va adabiy til ravnaqiga hissa qo'shgan adiblardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shoir adabiy merosini ilmiy tadqiq etish borasida ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning boshlaridayoq amalga oshirila boshlangan. Bu borada Abdurauf Fitrat, H.Zaripov, E.Rustamov, N.Mallayev, A.Hayitmetov, I.Haqqulov, S.Rafiddinov, T.Xo'jayev<sup>1</sup> singari olimlarning tadqiqotlari ana shular jumlasidandir. Bu ishlarda Atoyining hayoti va ijodiga doir ilmiy va nazariy qarashlar ilgari surilgan bo'lsa-da, faqatgina S.Rafiddinovning Atoyi ijodiga doir tadqiqoti maxsus monografik tadqiqot hisoblanadi.

Adabiyotshunos Sayfiddin Rafiddinov ma'lumotlariga ko'ra, Atoyi ijodi haqida rus tilida ham bir qancha tadqiqotlar e'lon qilingan. Bunga Y.Bertels, A.Samoylovich kabi olimlarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, F.Ko'prilizoda, Y.Ekman, E.Rossi, A.Bombachi kabi xorijlik olimlar asarlarida mavlono Atoyi to'g'risida ayrim ma'lumotlar berilgan.

Atoyi lirik merosini asosini g'azal janridagi she'rlar tashkil etadi. Adabiyotshunos O.Nosirov o'zining "O'zbek adabiyotida g'azal" nomli kitobida mumtoz she'riyatda obrazlilik va uning o'ziga xosligi haqida gapirib, shunday ta'kidlaydi: "XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida yaratilgan ko'pchilik g'azallarda mahbubaning tashqi qiyofasi tasviri beriladi". Bu fikrda ham haqiqat bor, albatta. Lekin professor Abduqodir Hayitmetovga ko'ra, she'rlarida yor go'zalligi tasvirlangan Lutfiy, Gadoiy, Atoyi, Sakkokiy kabi shoirlarning nomachi shoirlar she'riyatidan farqi shundaki, bular oshiqning tashqi, dardi-hasrati, orzu-havaslarini, intilishlari tasviriga tobora keng va jiddiy o'rin bera boshladi. Shu bilan birga, xalq hayoti bilan bog'liq tasvirlar ham she'riyatda aks eta boshladi. Inson turmushi bilan bog'liq holatlar xalq maqollari, iboralari zamiriga singdirilgan poetik holatlarda aks ettirila boshlandi.

"Barcha bosqichlarda bo'lgani singari, Atoyi ham she'riy tafakkurning tiklanish bosqichlarida xalq og'zaki ijodiyoti va yozma adabiyotdagi mavjud adabiy an'analarga qattiq suyangan, deb yozadi adabiyotshunos I.Haqqulov. Shoirning ko'p g'azallari uning o'zbek xalq og'zaki ijodi durdonalariga so'nmas mehr, kuchli ishtiyoq paydo qilganligi va ularga ijodiy yondoshganligidan dalolat beradi".<sup>2</sup>

Atoyi ijodida falakdan, davrdan, bevafo do'st-u yordan, zamondan shikoyat ohanglari bor. Lekin ular goh-gohida g'azallar qatida ko'zga tashlanadi, xolos.

Atoyi g'azallarining xalq ijodiga yaqinligini belgilovchi xususiyat uning xalq maqollari va ta'birlaridan mahorat bilan foydalanishida ko'zga tashlanadi. Shoir xalq donishmandligining ifodasi bo'lgan maqollarga murojaat etish bilan o'z g'azallarining mazmunini ham, til va badiiyligini ham boyitgan. Adabiyotshunos olim T.Xo'jayev XV asr birinchi yarami o'zbek adabiyoti masalalariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotida bu davr adabiyotiga xalq og'zaki ijodining ta'siri katta bo'lganini ta'kidlaydi: "O'sha davrda ham, bugungi kunda ham faol iste'molda bo'lgan iboralar ularning asarlarida nihoyatda keng ishlatilgan va ular misralariga shoirona mahorat bilan joylashtirilgan. Bu iboralarni mazmunan *ko'ngil, jon, qon, oh, yurak, ko'z, bag'ir, umr, tuz, oh, balo, qarg'ish* va boshqalar bilan bog'liq iboralar tarzida guruhlash mumkin.

Atoyida shunday bayt bor:

*Har zamon chiqsang xiromon el ko'zi tushsa sanga,  
G'ussadan ul dam Atoyining magar joni chiqar.*

Odam hayajonlanganda, sevgilisiga bexos ko'zi tushganda yoki qahri kelganda yurakning bezovtalanishi, qattiq urishi, nafas olishining tezlashishi, yurak go'yoki og'iz tomon siljigandek tuyulishi tabiiy holat. Atoyining lirik qahramoni ham ma'shuqasiga "el ko'zi tushsa" ana shunday junbushga keladi. Ma'shuqaning ko'zga ko'rinishi oshiq uchun g'ussa. Uning "joni chiqishi"ga olib keluvchi bu manzaraga bois, birinchidan, yorning go'zalligi va bu latofat oldida oshiqning esankirashi bo'lsa, ikkinchidan, ma'shuqa nigohiga raqibning boqishidir".<sup>3</sup> Ko'rinadiki, Atoyi g'azallarida qo'llanilgan bu kabi tasvirlar ham, iboralar ham juda xalqona, sodda, shu bilan birga, badiiy vazifa bajarishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Shoir she'riyatida xalq hayoti bilan bog'liq manzaralar juda noziklik bilan g'azallar zamiriga singdiriladi.

<sup>1</sup> Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, Toshkent, "Ma'naviyat", 2002; H.Zaripov. Fozillar fazilati. Toshkent, 1979; E.Rustamov. Узбекская поэзия в первой половине XV века. М. 1963 (Kitobning elektron nusxasi uchun qarang: [www.turklib.uz](http://www.turklib.uz)); N.Mallayev. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. Navoiyga armug'on (to'plam). Toshkent, 1963; A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961; Yana shu muallif: temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent, 1997; I.Haqqulov. She'riyat – ruhiy munosabat. Toshkent, 1989; S.Rafiddinov. Majoz va haqiqat. Toshkent, 1995.

<sup>2</sup> Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 55-bet.

<sup>3</sup> Xo'jayev T. XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor. Toshkent, 1996, 23-bet.

She'riyat hamma davrlarda ham hayot bilan, inson turmushi bilan uzviy bog'liq. Mumtoz adabiyotimizni olamizmi, hozirgi davr she'riyatiga e'tibor beramizmi – hammasida ham shoirlarimizning tabiatni, undagi har bir narsa, hodisa, o'zgarishlarni teran nigoh bilan kuzatganlarini va ana shu tomonlarni she'r-lariga singdirganliklariga shohid bo'lamiz. Mavlono Atoyi ijodida ham hayotiy manzaralar, inson, uning holati, turmushi, kechinmalari, tabiatdagi hodisalar, hayvonot va nabotot olamiga e'tibor berish, ularni g'azallarida aks ettirish ko'zga tashlanadi. Shoir borliqdagi har bir manzara, o'zgarish, ko'rinishlarni, tabiiy hodisalarni tez ilg'aydi. Bu hayotiy tasvirlar shoir she'riyatida o'zining chiroyli ifodasini topadi.

Navoiy she'riyati xususida fikr bildirib, adabiyotshunos T.Xo'jayev shunday yozadi: "Shoir g'azallarini o'qir ekanmiz, unda lirik qahramon va ma'shuqa xarakteri, holat va kayfiyati, qiyofasini yoritishda tabiiy manzaralar, hayotiy tashbeh va o'xshatishlarga keng murojaat etilganining guvohi bo'lamiz".<sup>1</sup> Bu fikrlarni to'lig'icha Atoyi ijodiga ham tatbiq etish mumkin. Shoir g'azallarida "gulning qizorishi", "labning qandu shakarligi", "kechalar bedor" bo'lishi, "bahorda xazon fasli bo'lishi", "oshiq qon yig'lasa, ma'shuqaning kulishi", "eshikda itlarning oshiqqa qarshilik qilishi", to'lin oyning osmonda paydo bo'lishi, gul bor yerda andalib (bulbul)ning bo'lishi, itning gadoga tashlanishi kabi qator hayotiy voqea-hodisa va manzaralarni kuzatamiz.

Atoyi g'azallarida, ulardagi ayrim baytlarda inson hayoti, uning kundalik turmushida uchraydigan voqealar, uning holati, kechinmalari o'zining go'zal ifodasini topgan. Shoir yor go'zalligi, uning behad husnu tarovatini o'quvchiga aniq tasvirlash, oshiq kechinmalarini, uning qayg'u, quvonch, hijron, visol paytidagi ko'rinishlarini jonli ifodalash uchun ularga murojaat qiladi. Adabiyotshunos I.Haqqul to'g'ri ta'kidlaganidek: "Sharq she'riyati tarixi – o'ziga xos tabiat qomusi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi to'rtliklardan tortib, Furqat yoki Avazgacha bo'lgan klassiklarimizning ijodiyotida tabiat u yoki bu shaklda yashaydi".<sup>2</sup>

Atoyi g'azallarida kutilmagan o'xshatishlar, o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, islomdan boshqa dinlarda butga sig'inish mavjud. Shoir ana shu voqeadan yaxshi xabardor bo'lgan:

*Zulfuni sevubon yuzunga sajda qilurman,  
Qilsa ne ajab Chin elidin butka iboda.* (Devon. 42-bet)

Shoir ta'kidicha, oshiq o'z yorining zulfini sevadi. Yuziga sajda qiladi. Bu xuddi Chin eli butga sajda qilganidek gap. Bu yerda ma'shuqa yuzi – but, oshiq esa Chin eli. Atoyi islom dini, Qur'oni karim, oyatlardan yaxshi xabardor edi. Bir baytda u yor husnini mushaf – Qur'onga, qora xolini bu muqaddas kitobdagi oyatga o'xshatadi. Qur'on, undagi oyatlar islom olamida qanchalik mashhur bo'lsa, mahubning yuzi barcha mo'minlarga hidoyat nuri bo'ladi:

*Ey mushafi husningg'a menging nuqtasi oyat,  
Islom eliga bo'ldi yuzung nuri hidoyat.* (Devon. 43-bet)

Inson bayramlarni yaxshi ko'radi. Atoyi g'azallarida islomiy g'oyalar, diniy rasm-rusumlar keng yoritilgan. Shoirning "Iyd" radifli g'azali to'liq hayotiy voqealarga – musulmon xalqlari orasida mashhur bo'lgan iyd bayrami tafsilotlariga bag'ishlangan. Xalqimiz Qurbon hayit, Iydi ramazon bayramlarini sevib nishonlaydi. Atoyi davrida ham bu bayramga e'tibor kuchli bo'lgan ko'rinadi. Shoir shunday yozadi:

*Kel, ey sanam, ki bo'ldi yana navbahor-u iyd,  
Kim, xushturur kishiga visoli nigor-u iyd.* (Devon. 51-bet)

Lirik qahramon ma'shuqasiga murojaat etib, yangi iyd bayrami kelgani, bu vaqtda yaxshi ko'rgan kishilarning visolga yetishlari, bir-birini ko'rib, xursand bo'lishlari yaxshi, deydi.

Adabiyotshunoslikda she'riyat va tabiat munosabatini o'rganish o'ziga xos an'ana kasb etdi. Shoirlarimiz asarlaridagi hayotiy voqealarni o'rganish bugungi kunda ham davom etmoqda. Adabiyotshunos H.Jo'rayev Navoiy lirikasini ana shu jihatdan o'rgandi. U shunday yozadi: "Sharq lirikasida, xususan, o'zbek mumtoz she'riyatida tabiat tasviri alohida turkumlarni tashkil etadi. Ilmiy muomalada "peyzaj lirikasi" deb yuritiluvchi bunday she'rlarning ilk namunalarini "Devonu lug'otit turk", "Qisasi Rabg'uziy", singari qadimiy manbalarda uchratishimiz mumkin. Haqiqiy so'z san'atkorining maqsadi tabiat go'zalligini tarannum etishdangina iborat bo'lmaydi, balki peyzaj xarakteridagi tasvirlardan ham o'zining falsafiy, axloqiy-ma'rifiy yoki ijtimoiy ruhdagi g'oyaviy maslaklarini ifodalashda ham unumli foydalana-di".<sup>3</sup> Atoyining mana bu bayti ham ushbu fikrni asoslaydi. "Murod" radifli g'azal ishq mavzusida. Shu

<sup>1</sup> Tohir Rashid Xo'ja. Ko'ngil shoiri. T., O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2001, 34-bet.

<sup>2</sup> Haqqul I. E'tiqod va ijod. Toshkent, "Fan", 2011, 53-bet.

<sup>3</sup> Jo'rayev H. Navoiy lirikasida an'anaviylikka munosabat. Alisher Navoiy ijodiy va ma'naviy merosining olam-

asosda ijtimoiy masala haqida gapiriladi. Kambag'al va boy, bechora va g'ani tushunchalari bor. Shoirning mana bu baytida hayotda uchraydigan ana shu jihat qalamga olingan:

*Men base miskinmen-u, siz husn ila asr-u g'ani,*

*Ayb emas, ko'z tutsa miskinlar tavongardin murod.* (Devon. 53-bet)

Hayotda miskin boylar ko'p. Gadolar boylardan biror narsa umidvor bo'lishi bor gap. Bu misralarda esa oshiq o'zini miskin – gado deb bilyapti. Ma'shuqa esa, husni bilan g'ani – boy. Oshiq o'z yoridan biror nima ko'z tutib, murodga yetsa, ajab emas.

Xalqda yashirincha, o'g'rincha qarash degan gap bor. To'g'ri, tik qarashdan uyalganda yoki qo'rq-qanda sezdirmay qiyo boqishga harakat qilinadi. Mana bu baytda shu narsa tasvirlangan:

*Qo'yimas nazari to'g'ri manga tengsanib vale,*

*O'g'rin boqarda jon tamurin qiyo boqar.* (Devon. 58-bet)

Lirik qahramon yorining unga to'g'ri qaramay, o'g'rincha boqishidan azobda. Bu narsa uning tomini qirg'ish bilan barobar.

Xalqimizda, ayniqsa, ayollar, qizlar hayit bayramlarida qo'llariga xina qo'yishadi. Bu ma'lum bir o'simlik vositasida amalga oshiriladi. Atoyi ana shu hayotiy hodisadan boshqacha xulosa chiqaradi:

*Xino rangimidur pormoqlaringizda,*

*Yo oshiq o'tururda qon bo'lubtur?* (Devon. 59-bet)

Shoir yozishicha, yorning "pormoqlari" – barmoqlaridagi xinomi yoki oshiqni o'ldirganidan qonli qon bo'lganmi? Xino rangi qon rangiga o'xshab ketadi.

Sel, toshqin, to'fonning uylarni vayron qilishi bor hodisa. Bu – hayotda ko'p kuzatiladi. Ana shu haqqoniy voqeadan shoir boshqa maqsadda foydalangan. Uningcha, sabr bilan qancha imoratlar bunyod etsa, yorga bo'lgan ishq seli ularni yer bilan yakson qiladi:

*Seli ishqing qo'yimadi, hamvor qildi yer bilo,*

*Sabr ko'yinda nechakim, aybladim bunyodlar.* (Devon. 65-bet)

Qadimda karvonlar, karvonsaroylar bo'lganini yaxshi bilamiz. Uzoq safarga chiqqan karvonlar karvonsaroylarda qo'nim topgan, hordiq olgan. Ana shu hayotiy voqea mana bu baytda o'z ifodasini topgan:

*Ko'z yo'lindin har zamon yuz karvoni g'am kelur,*

*Husn eli to kulbayi ko'nglumni manzil qildilar.* (Devon. 66-bet)

Husn eli – go'zal yorlar oshiq ko'nglini egallasalar, uning ko'zidan "yuz karvoni g'am kelur". Bu yerda tasvirlanishicha, oshiq ko'ngli karvonsaroy, undan ma'shuqalar joy olsa, ko'z yo'lidan yuz karvon – ko'z yoshlar qatorlashadi.

Bugungi kunda ham ro'za oylarida, fitr ro'zada beva-bechoralarga zakot berish, biron nima hadya qilish mavjud. Atoyi mana shu hodisadan ham xulosa chiqaradi. Baytlarida uni ma'lum maqsadda ishlata-di:

*Etmamu bir Atoyig'a, ey husn ila g'aniy,*

*Ko'z uchidin nazar, ki jamoling zakotidur.* (Devon. 74-bet)

Ma'shuqa husn ahlining g'anisi–boyi. Boylar kambag'allarga zakot berishi rasm-odat. Atoyi so'rayotgan zakot pul, boyluk, yegulik, ichgulik yoki kiyim-kechak emas. Ko'z uchidan bir boqib, jamolidan to'yish.

Shoir g'azallarini o'qir ekanmiz, hayotda uchraydigan rang-barang hodisa, voqealar bayonini ko'ramiz: posbon, uning iti bo'lishi, oshiq nolasidan itning bezovtalanishi (77-bet), munajjimlarning bashorat qilishi (83-bet), kiyimning go'zallarga yarashishi (98-bet), insonning saroy, ayvonda yashashi, oddiy kishilarning ostonada makon tutishi (107-bet), masjidida kishilarning namoz o'qishi (117-bet), mehmon kel-sa, uni yaxshi kutib olish va sovg'a berish (122-bet), qushning donga aldanib, dom-tuzoqqa tushishi (132-bet), farroshlik, uning jobur-supurgi va xokandozi (152-bet), itlarning tun-kun sahroyu biyobonlarda kezishi (162-bet), o'z-o'zini o'ldirish musulmonlikdan emasligi (164-bet), kichik bolalarning gunohini kattalar ham, Olloh ham kechirishi (166-bet), o'g'rining narsa o'g'irlaganidan so'ng yashirinishi (169-bet), maktabda kishi ilm olib, oq-qorani tanishi (170-bet), kechqurun kishilar tinch uxlashni istashi (178-bet), mast kishining yaxshi-yomonning farqiga bormasligi (248-bet), bunday kishiga shovqin ta'sir qilmay, qattiq uxlashi (275-bet) kabilar va hokazo.

Shoirning 2008-yil chop etilgan devoniga kiritilgan 260 ga yaqin g'azallarning yuz ellikdan ortig'ida inson hayoti bilan aloqador voqealar, urf-odatlar, kechinmalar qalamga olinadi. Bu tabiiy holatlar

oshiqning turli kechinmalari, ma'shuqaga xos sifatlarni ko'rsatishda muhim vosita vazifasini bajargan. Mana bu baytga e'tibor beraylik:

*Barcha qurbonlik qilurlar iyd uchun, men xastadil,  
Kelturubturmen sanga jonimni qurbon qilg'oli.* (Devon. 254-bet)

Bu yerda hayotiy voqeaga ishora bor. Bugungi kunda ham xalqimiz iyd bayramini nishonlab kelmoqda. Iyd qurbonda qurbonlik qilinadi. Qo'y, mol va boshqa jonivorlar so'yib, qurbonlik bajariladi. Bu narsa islomda azaliy ekanligi Atoyi g'azallari orqali ham oydinlashadi. XV asrda ham bu bayram bo'lgan, qurbonlik qilingan. Atoyi bu voqeadan boshqacha xulosa chiqaradi. U yori uchun jonini qurbon qilmoqchi. Oshiqning vafo va sadoqati nishonasi bu. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

**Ibodova Nasiba Komilovna (Buxoro Tabiiy resurslarni boshqarish instituti O'zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi; [manbux@mail.ru](mailto:manbux@mail.ru))**

### **IBROHIM MO'MINOV MA'NAVY JASORATNING YOSHLAR KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada butun umrini ilm-fanga bag'ishgan, iste'dodlarni qo'llab-quvvatgan, fanlar kesimida tadqiqotlar olib borgan, yosh avlodni ham ilm olishga, fan sirlarini puxta o'rganishga, kashfiyotlar qilishga da'vat qilgan akademik Ibrohim Mo'minov haqida so'z boradi. Shuningdek, u o'zining mazmunga to'la umri davomida juda katta ishlar qilishga ulgurganligi, o'z nomini millat tarixi sahifalariga sharaf bilan yozib qoldirganligi baxtiga musharraf bo'lganligi borasidagi o'rganishlar tahlil qilingan. Bugungi kunda yoshlarga akademik Ibrohim Mo'minovdek faylasufning hayot va ilm yo'li har tomonlama ibrat va namunadir.

**Аннотация.** В данной статье повествуется об академике Ибрагиме Муминове, который всю свою жизнь посвятил науке, поддерживал таланты, проводил исследования в области науки, призывал подрастающее поколение учиться, всесторонне изучать тайны науки, делать открытия. Он также проанализировал исследования о том, что успел сделать много великих дел за свою содержательную жизнь, и ему посчастливилось с честью вписать свое имя на страницы отечественной истории. Сегодня образ жизни и знания такого философа, как академик Ибрагим Муминов, является примером для молодежи.

**Annotation.** This article is about the academician Ibrahim Mominov, who devoted his whole life to science, supported talents, conducted research in the field of science, encouraged the younger generation to learn science, thoroughly study the secrets of science, and make discoveries. He also analyzed the studies on the fact that he managed to do a lot of great things during his meaningful life, and was fortunate enough to write his name on the pages of the nation's history with honor. Today, the way of life and science of a philosopher like academician Ibrahim Mominov is an example and example for young people.

**Kalit so'zlar:** Ibrohim Mo'minov, akademik, faylasuf, yoshlar, ilm-fan, iste'dod, tadqiqot, intellektual salohiyat, qobiliyat, ta'lim va tarbiya, jasorat, aql-zakovat, shaxsiy rivojlanish, asar, meros, namoyandalar, inson.

**Ключевые слова:** Ибрагим Муминов, академик, философ, молодежь, наука, талант, исследования, интеллектуальный потенциал, способности, образование и воспитание, мужество, интеллект, личностное развитие, произведение, наследие, деятели, человек.

**Key words:** Ibrahim Mominov, academician, philosopher, youth, science, talent, research, intellectual potential, ability, education and training, courage, intelligence, personal development, work, heritage, figures, man.

Jamiyatning har bir fuqarosi, so'zsiz, davlatning tom ma'nodagi eng noyob, eng bebaho boyligidir, chunki hech qaysi mamlakat va jamiyatni insonsiz, aholisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir inson tiyatida o'ziga xos iste'dod yashiringan bo'ladi. Shu qobiliyat yuzaga chiqsa, undagi iste'doddan butun jamiyat va xalq manfaatdor bo'ladi. Insondagi ana shu iste'dodni kashf qilishning vositasi – ta'lim va tarbiya.

Butun dunyo globallashuv jarayonini boshdan kechirmoqda, axborot xuruji tobora avj olmoqda, inson omili turfa shakllarda namoyon bo'lish bilan birga, uning aqliy, intellektual salohiyati oshib bormoqda va shunga teskari ravishda axloq muammosi jiddiy tus olmoqda. Qarama-qarshiliklar orasidagi koinot gultoji bo'lgan inson barcha davrlarda bo'lganidek, bugun ham ikki yo'ldan bir yo'zgulik, yo yovuzlik-

ni tanlashga majbur. Ana shu tanlovni to'g'ri amalga oshirishda tarbiya asosiy hal qiluvchi kuch sanaladi.

Bugun tabiiy xomashyo resurslari dunyo miqyosida deyarli oxiriga yetay deb qolmoqda, shu sababli mamlakatlarning e'tibori inson aql-zakovatini zabt etishga qaratilgan. Inson omili yuksalib, jahon iqtisodiyoti chuqur bilimga asoslangan sohalar ixtiyoriga o'tmoqda. Dunyoning eng boy, eng nufuzli kompaniyalari aql, tafakkur hisobiga boyib bormoqda. Demak, muvaffaqiyat asosi – puxta va mukammal bilim olish, ilg'or fikrlarni dadillik bilan hayotga tatbiq qilishda.

Davlatning rivojlanishi, jamiyatning taraqqiy topishi, xalq turmush tarzining farovonligi shaxslarning intellektual salohiyati bilan bog'liq. Shaxsiy rivojlanish bu uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, davr ruhini, zamon talabini his qilgan holda o'z-o'zini isloh qilish, yangilash, ong-tafakkurni yangi bilim, tajriba, ko'nikma bilan boyitib borishdir.

Vatandan tashqarida baxt bo'lmagani singari, vaqtni maqsadli sarflash o'zlikni anglashdir. Baxtiyorlik bilim, mehnat va harakat natijasi bo'lib, oila tarbiyaga tayansagina mamlakat taraqqiy qiladi. Ma'naviy jasorat bo'lmagan joyda milliy taraqqiyot bo'lmashligi isbot talab qilmaydigan aksioma, tarixiy haqiqat. Alloma I.Mo'minovning hayoti va faoliyati ana shu mulohazalarning isboti va tasdig'i, namuna va ibrat maktabi, ishonchli tajriba maskani.

I.Mo'minov o'zining ilmiy va tashkilotchilik faoliyatida, ayniqsa, milliy madaniyatimiz va uning negizi bo'lmish O'rta Osiyo xalqlari madaniy merosini o'rganishga katta e'tibor berdi. Uning rahbarligida o'tmish madaniy merosimizning buyuk namoyandalari Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy, Donish kabilarning asarlari keng o'quvchilar ommasi uchun nashr etildi. Ular haqida risolalar, kitoblar tayyorlandi, ko'plarining tavallud kunlari nishonlandi.<sup>1</sup> Alloma milliy hislarni uyg'otish uchun yagona chora xalqqa uning asl tarixini qaytarish, deb bildi va butun imkoniyat, iroda, kuchini shu yo'lda sarfladi. Faylasuf baland minbarlarda turib nutq so'zlarkan, millat qayg'usida yashagan Ahmad Donishning alamli iztirobini, erk va ozodlikni istagan Abdulla Qodiriyning qatag'onga uchrab, otib tashlanganligini unutmagan emas. Chunki I.Mo'minov zamon talabi bilan bunday deb ayta olmasdi, lekin amalda ustozlarining ishini davom ettira oldi, vorislik maqomini uddaladi.

I.M.Mo'minov faoliyati va tafakkurining muhim xislatlari izchillik, mustaqillik, e'tiborlilik, chuqur va asosli bilim, kenglik edi. U har doim mustaqil fikr yuritir va o'z fikrida qat'iy turib, uni izchil amalga oshirir edi.<sup>2</sup> Bu holni birgina Amir Temur bilan bog'liq kitobi misolida ham ko'rish mumkin. Iste'dodli insonlar tabiatan favqulodda o'jar, fikr va qarashlarida sobit, haqsevar, vatanparvar bo'lishadi.

I.Mo'minov taqdirning jadidlar o'rniga yuborgan tuhfasini edi. Tabiatga e'tibor qilsak, unda hamma narsa ma'lum bir tartibga ko'ra ro'y beradi. Yil fasllari, tun va kun, quyosh va oyning harakati, yog'in-garchilik, iqlim, ob-havoning o'zgarishi, zilzila, yong'in kabi hodisalar zamirida qat'iy qonuniyat mavjud, shu narsa odamzotga ham daxldor. Bir soat gulzor ichida o'tirgan kishiga gulning hidi urib qolganidek, ulug'lar, hur fikrli zotlar davrasida kamol topgan I.Mo'minovning ularga izdoshlik qilishi, tabiiy hol.

Bedil asarlari Sharqdagi, jumladan, O'rta Osiyodagi so'nggi shoirlar ijodiga o'zining chuqur falsafiy mazmundorligi bilan katta ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun Ibrohim Mo'minovning bu asari butun O'rta Sharqning, jumladan, Movarounnahr musulmon xalqlari adabiyoti, ijtimoiy-falsafiy fikrlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>3</sup> Darhaqiqat, alloma merosi faylasuflarimiz uchun ibrat maktabi, olimning boy ilmiy merosi ilm yo'lida izlanayotganlar uchun mayoq vazifasini o'tamoqda.

Birinchi qatori sho'ro tuzumining asl qiyofasini ko'ra olgan, mustabid siyosatning mohiyatini tushunib yetgan mutafakkir adib va alloma, o'zbeklar orasidan chiqqan birinchi tilshunos professor Fitratning butun faoliyati va ijodi ma'rifat, milliy taraqqiyot, milliy istiqloq g'oyasiga qaratilgan, XX asrda xalqni, ayniqsa, yoshlarni ogohlikka, hushyorlikka, kurashga chorlagan. U sobiq sho'rolarning mutlaq hokimiyatga asoslangan diktaturasi millionlab kishilarning umriga zavol bo'lishini hali 1924-yildayoq anglab yetgan va buni "Abulfayzxon" fojiasidayoq ko'rsatib bergan edi.

A.Fitrat "Yurt qayg'usi" (Temur oldinda)da: "Ulug' hoqonim! Turklik sharafi talandi. Turk uchun qo'ydig'ing davlat bitdi, turk ostig'i qurdig'ing xoqonlik yog'iygami ketdi. Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning ayog'lari ostinda qoldi. Turkning yurti, ulog'i, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat

<sup>1</sup> Xayrullayev M.M. Ibrohim Mo'minovning katta ilmiy jasorati (Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rnini va roli kitobida, 6-bet). T., "Fan", 1993.

<sup>2</sup> Shu manba. 11-bet.

<sup>3</sup> Shu manba. 4-bet.

o'ljasi g'a ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo'lg'an turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi. Sening kuching bilan dunyo xo'jasi bo'lgan turk qarluq temurlariga (temir panjaralar) kirdi".<sup>1</sup>

Faylasuf olimasi Sh.Madayeva o'zining "Milliy mentalitet va demokratik tafakkur" risolasida sobiq sovet hokimiyati tomonidan uyushtirilgan qatag'on haqidagi fikrlarini tarixiy faktlar bilan asoslaydi va ikkinchi jahon urushida 20 million kishi halok bo'lgan bo'lsa, sobiq SSSR o'z xalqi bilan kurashda 20 mln kishini qurbon qilganligini, shuningdek, 30–40-yillar va 50-yillarning boshida kontrevolutsion jinoyatlar uchun 3 778 243 odam hibsga olingani, ulardan 786 098 tasi otib tashlangani, 1930–1950-yillar bo'yicha siyosiy qatag'onlarning umumiy qurbonlari – deportatsiya, otuv, qiyinchiliklardan halok bo'lganlar 10 mln kishini tashkil qilishi, yurtimizda 1937–1953-yillarda kontrevolutsion harakatlar va millatchilik tamg'asi ostida 18 562 kishi qatag'on qilingan va ulardan 6036 tasi otuvga hukm qilingani, aksariyat hollarda hukm e'lon qilingunga qadar otib tashlangani bilan bog'liq dalillarni taqdim etadi.<sup>2</sup>

Fidoi, yurtsevar shoir shunday yozadi:

"Meni qo'limni tut,

Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber!

Sening dunyoga sig'magan g'ayratingga ont ichamanki,

Turonning eski sharf va ulug'ligini qaytarmasdan burun ayog'laringda o'tirmasman".<sup>3</sup>

Xalq, millat, adolat, vatan, erk, hurriyat, milliy mustaqillik uchun kurashgan va bu yo'lda qurbon bo'lgan faylasuf, ijodkorlar orzu qilgan kunlarda yashayotgan ekanmiz, daxldorlik tuyg'usini chuqur his qilishimiz shart. Beparvolik, loqaydlikka barham berilsa, jamiyatning har bir a'zosi yurt manfaatini shaxsiy manfaatidan kam ko'rmasa, har qanday qiyinchilik, to'siq va g'ovni yengib o'tish mumkin. Bunda mafkura muhim o'rin tutadi. Odamlarni ishontira oladigan, ularga umid beradigan, bir maslak va g'oyaga birlashtira oladigan mafkura ularni olijanob, yuksak maqsad sari olg'a yurishga undaydi. Mustaqillik mafkurasi ana shunday barhayot g'oyadir.

"O'ziga xos demokratik usul bilan umuminsoniy taraqqiyotga yuz tutayotgan, milliy g'oya tamoyillari asosida rivojlanish yo'lini tanlagan yurtimiz hayotida xalqimiz mentalitetiga, asosan, takomillash-tirish mumkin bo'lgan mafkuraviy ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqarish muhim vazifa".<sup>4</sup>

Jamiyatda qadriyatlarining amal qilish va o'zgarish dialektikasida ma'lum dinamik jarayonlar, qonuniy yangilanish vaziyatlari bo'lgani kabi tuzumlar almashinuvida ham tafakkur o'zgarishi, undagi vorislik, inkorni inkor, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish jarayoni qonuniy darajada yuzaga keladigan hodisadir. Tarixni aksiologik tushunilganda o'tmishdagi qadriyatlar bilan bog'liq o'zgarishlarni, tarixiy rivojlanish bosqichlariga xos qadriyat tizimlarining shakllanishi, amal qilishi, o'rin almashinuvi, bundagi inkor va vorislik dialektikasini tavsiflash osonlashadi.<sup>5</sup>

Hozirgi davrda mustaqillik tufayli O'zbekistonda milliy ong, milliy ruh, milliy madaniyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Ma'naviyatimiz manbai–tarixiy qadriyatlarimizni o'rganishga munosabat tubdan o'zgardi. Bu yo'lda endilikda Sharq xalqlari, xususan, O'rta Osiyo xalqlarining boy madaniy merosini, o'lmas falsafiy qadriyatlarini chuqur va izchil o'rganib, yangi ma'naviyatimizni yuksaltirish yo'lida foydalanish hozirgi kunning davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan masalasiga aylangan.

I.Mo'minov butun umrini ilm-fanga bag'ishladi, iste'dodlarni qo'llab-quvvatladi, fanlar kesimida tadqiqotlar olib bordi, yosh avlodni ham ilm olishga, fan sirlarini puxta o'rganishga, kashfiyotlar qilishga da'vat qildi. U o'zining mazmunga to'la umri davomida juda katta ishlar qilishga ulgurdi, o'z nomini millat tarixi sahifalariga sharaf bilan yozib qoldirish baxtiga musharraf bo'ldi. 1992-yildan boshlab, I. Mo'minovga bag'ishlangan "Birinchi Buxoro falsafaxonligi" o'tkazila boshladi. Mazkur an'ana Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida va O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Ibrohim Mo'minov nomli Falsafa va huquq instituti bilan ilmiy hamkorlik asosida respublika miqyosida 2010-yilga qadar o'tkazildi. I.Mo'minovning Yusuf Hamadoniy bo'yicha olib borgan tadqiqotini tekshirgan professor G.Navro'zova shunday xulosani bayon qiladi: "Akademik Ibrohim Mo'minov ekan zahmat urug'lari bugungi kunda unib, meva bermoqda. Mahdumi A'zam o'zining "Risolayi chahor kali-

<sup>1</sup> Fitrat A. Yurt qayg'usi. T., G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2008, 9-bet.

<sup>2</sup> Madayeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007, 82–86-betlar

<sup>3</sup> Fitrat A. Yurt qayg'usi. T., G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2008, 9-bet.

<sup>4</sup> Madayeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. T., Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007, 87-bet

<sup>5</sup> Shu manba. 109-bet.

ma” asarida to’g’ri ta’kid etgankim, kamolotni istovchi har bir inson bu to’rt o’gitga amal qilishi lozim... Bugungi kunda yoshlarni tarbiyasiga bu o’gitlarni o’rgatish ularni o’z-o’zini boshqarishga, nafas olish, ko’z, qo’l, oyoq, og’iz, ichki quvvatlar va qalb harakatini boshqarish va ularni ezgulik yo’lida ravona etishga yordam beradi”.<sup>1</sup>

I.Mo’minov totalitar tuzum davrida millat va xalq taqdiri uchun qayg’urgan, ma’rifat tarqatish orqali millatni uyg’otish mumkin deb hisoblab, shu yo’lda tinimsiz izlangan allomadir.

**Matmuratov Azizbek Abdikarimovich (Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)**  
**FARIDIDDIN ATTORNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID QARASHLARIDAN**  
**FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI**

***Annotatsiya.** Farididdin Attor hayotda ko’p bora qiyinchilik va talon-tarojlarga duch kelgan, hayotning og’ir sinovlari, larzali qismatlarni o’z boshidan kechirgan, xotirjam yashash imkoniyati unda juda oz bo’lishiga qaramay, uning ijodiyoti, baribir, samarali kechgan. U har tomonlama, chuqur ahamiyatga ega talay asarlarni kelajak avlodlarga abadiy meros qilib qoldirgan. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” nomli asarida Attor asarlarining umumiy hajmini 250 ming baytga yaqin deb ko’rsatganligi ma’lum. Bu maqolada aynan Farididdin Attorning yosh avlodga qoldirgan ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qimmatli merosi yoritilgan.*

***Аннотация.** Фаридиддин Аттара столкнулся в своей жизни со многими трудностями и огрублениями, он пережил суровые жизненные испытания и потрясающие судьбы, несмотря на то, что возможностей жить спокойно у него было очень мало, его творчество по-прежнему было действенным. Он оставил много всеобъемлющих и глубоко важных работ как вечное наследие для будущих поколений. Известно, что Давлатшах Самарканди в своем произведении «Тазкират уш-шуаро» указал общий объем сочинений Аттара примерно в 250 тысяч стихов. В данной статье освещается ценное наследие Фаридиддина Аттара по духовно-нравственному воспитанию, оставленное молодому поколению.*

***Annotation.** Farididdin Attar faced a lot of difficulties and robberies in his life, experienced severe life tests and shocking fates, despite the fact that he had very few opportunities to live peacefully, his creativity was still effective. He left many comprehensive and profound works as an eternal legacy to future generations. It is known that Davlatshah Samarkandi in his work entitled “Tazkirat ush-shuaro” indicated the total volume of Attar’s works as about 250 thousand verses. In this article, the valuable legacy of Farididdin Attar on spiritual and moral education left to the young generation is highlighted.*

***Kalit so’zlar.** axloqiy me’yorlar, marosimlar, hayo, xushmuomalalik, sezgirlik, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, do’slik va do’slik tuyg’usi.*

***Ключевые слова.** нравственные нормы, ритуалы, скромность, вежливость, чуткость, трудолюбие, великодушные, дружба и чувство дружбы.*

***Key words:** moral standards, rituals, modesty, politeness, sensitivity, hard work, generosity, friendship and the feeling of friendship is the science of generosity.*

Har bir xalqning o’ziga xos xususiyatlari, axloqiy me’yorlari, marosimlari, urf-odatlarini, turmush tarzi mavjud. Har bir xalqning yuzlab yillar davomida hayotda ildiz otgan o’ziga xos madaniyati mavjud bo’lib, bu ta’lim-tarbiya jarayoniga muqarrar ta’sir ko’rsatadi. Ko’rsatmalarga amal qilib, yosh avlodni ilg’or an’analar va ilg’or axloq-odob ruhida tarbiyalash, ular qalbida ijobiy xulq-atvor fazilatlarini singdirish, ezgu xalq udumlarini hayotga joriy etishga intilamiz.

Jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan tarbiyaviy ishlar tizimida yangi, ba’zan ancha murakkab vazifalar paydo bo’ladi. Jamiyat o’z taraqqiyotining har bir bosqichida oila, maktab va boshqa ta’lim muassasalari oldiga tobora ko’proq yangi vazifalar qo’ymoqda.

Hozirgi bosqichdagi ta’lim-tarbiya ishlarining bu xususiyatlari odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ta’sir etishning yangi, ilg’or va samarali usullarini izlash va aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini taqozo etadi. Ko’p asrlar davomida kitobxonlar ongini zabt etgan sharq adabiyoti klassiklarining pedagogik qarashlari o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, tarbiyaning barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu asarlar bolalar va yoshlarni insonparvarlik, yuksak axloq-odob ruhida tarbiyalashga chaqiradi, ularda hayo,

<sup>1</sup> Navro’zova G. Akademik Ibrohim Mo’minov tasavvuf xususida. I.Mo’minov ilmiy merosining O’zbekiston falsafiy fikri taraqqiyotida tutgan o’rni va ahamiyati mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari to’plami. Buxoro, “Durdona”, 2019, 10-bet.

xushmuomalalik, sezgirlik, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, do'stlik tuyg'ularini shakllantirish, mardlika, dushmanlarga nafratga, vatanga muhabbat va uning ravnaqi yo'lida fidoyilikka o'rgatadi.

Yosh avlodni tarbiyalash masalasi jamiyat taraqqiyoti tarixining barcha bosqichlarida, adabiy ijoda katta o'rin tutadi. Shuning uchun ham pedagoglar, olimlar, yozuvchilar va xalq og'zaki ijodining pedagogik qarashlarini o'rganish va hayotga tatbiq etish pedagogika fanining rivojlanishi va tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkirlarimiz bilimni insoniy kuch, inson va insoniy munosabatlarni takomillashtirishda bilimning o'rni beqiyos, deb hisoblaganlar. Ular o'z shogirdlari va izdoshlariga ega bo'lgan mutafakkir-ustozlar edilar. Ular o'z asarlarini yaratishda ushbu ilmiy asarlardan o'quv qo'llanmasi sifatida ham foydalanishini yaxshi tushunganlar. Binobarin, har qanday ilmiy risolada qimmatli pedagogik fikrlar, axloqiy ko'rsatmalar, bilimlarni amaliyotda qo'llash bo'yicha maslahatlar mavjud. Attor, Rumi, Sa'diy kabi so'fiylarning asarlarini taqdim etish uslubi ularni tushunarli qildi, bu manbalarni o'zlashtirishga xizmat qildi.<sup>1</sup>

Tasavvuf pedagogikasidagi komil insonni shakllantirish masalalariga tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha e'tibor berilmagan, tabiiyki, mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlariga bunday e'tibor bermaslik tarixan xato hisoblanadi, chunki milliy pedagogikani yuksaltirishda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashning bu jihati markaziy o'rinni egallaydi. Jamiyatning tub o'zgarishlari sharoitida o'rta asrlar tasavvuf vakillarining pedagogik g'oyalarini o'rganish va tahlil qilish zaruratga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan, ta'lim-tarbiya fani yanada katta ahamiyat kasb etadi va bu fanning asosiy maqsadi, albatta, insonparvarlik g'oyalariga boy o'tgan asrlarni o'rganishdir. O'rta asr Sharqining pedagogik tafakkuri chuqur il-dizlarga ega. Asrlar davomida u muayyan ijtimoiy-tarixiy voqeaning ijtimoiy jarayonlarining chuqur ravshanligini aks ettiruvchi barcha qadriyatlar va inson ma'naviyatini o'ziga singdiradi.

XII asrning buyuk olimi Farididdin Attorning pedagogik qarashlari uning barcha asarlarida o'rin olgan; didaktik, axloqiy, falsafiy va diniy xarakterga ega. Ularning fikriga ko'ra, inson darhol emas, balki asta-sekin tug'ilgan. Lekin bu jarayon yaratuvchining amriga ko'ra sodir bo'ladi, chunki dunyodagi hech bir hodisa mutlaq borliq – Xudoning nurisiz sodir bo'lmaydi. Ammo insonning kelib chiqishi bilan uning shakllanish jarayoni to'xtamaydi. Inson, o'z navbatida, umuminsoniy aql darajasiga ko'tarilishi kerak. Lekin insonda ham ma'naviy, ham jismonan, hayvoniy va samoviy tabiat bor ekan, bu tomonlar o'rtasida doimiy kurash – adovat bor. Hayvon nafs tomonida kim g'alaba qozonsa, u umumbashariy ruh darajasiga yetib bormaydi, kimki samoviy tabiatni egallab olsa, u yaratuvchining mohiyatini bilishi mumkin.

Attorning futuvvat ilmi rivojiga qo'shgan hissasi, bizningcha, asosan, quyidagilardan iborat.

1. So'fiylik axloqining tanazzulga uchrashiga olib kelgan ayrim so'fiylik qarashlarini qoralash: Ba'zilar faqat so'fiylar kiyinib, so'fiylar orasida misantropik tuyg'ularni namoyon qiladilar.

2. Attor jamiyatga aristokratik aksilinsoniy axloqdan (mehnatga va mehnatkashlarga nafratlanish) farqli ravishda barcha odamlarni teng deb biluvchi insonparvarlik odob-axloqini, halol, mehribon, manfaat-siz va mehnatkash odamlarni eng insonparvar va komil deb hisoblagan insonparvarlik axloqini jamiyatga taklif qildi.

3. Futuvvatda adolat uchun kurashayotgan faol insonlarni yuksak qadrlagan.

4. Attor birinchi marta adolatni boshqa barcha axloqiy me'yorlardan ustun qo'yishga jur'at etdi va adolatli kofirni nohaq va noinsof musulmondan ustun qo'ydi. Bu Attor uchun barcha fazilatlar ichida insoniylik va adolat eng qadrlil va ilohiy ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, insonning bu fazilatlar Attor davrida ham dolzarb bo'lgan, afsuski, bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Biroq, bilim va ilmning ahamiyatiga baho berar ekan, Attor o'zining buyuk salafilariga qaraganda chuqurroq va uzoqroqqa boradi.

1. U ilmning ahamiyati va qadrini amalda qo'llash bilan foydali bo'lishida ko'radi.

2. U bilim va fanni inson tarbiyasi va kamolotida tabiiy omil va harakatlantiruvchi kuch deb biladi.

3. Bilim va ta'lim jarayonining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

4. Ta'lim, intellektual rivojlanish va tarbiyaning birligi.

5. U kishilar farovonligi, ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanishi bilan ta'lim va tarbiya jarayonining bilim bilan, yoshlarning bilimlar tizimini egallashi bilan bog'liqligini asoslab beradi, bu esa zamonaviy pedagogik tamoyillarga mos keladi.

6. Ilm va ilm-fan himoya qiluvchi kuchlardir. qorong'i kuchlardan odamlar, odamlarni ma'naviy va jismoniy jihatdan yaxshilaydi, ularni yaqinlashtiradi va Xudoga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

<sup>1</sup>Совитова Э.Т. Становление и развитие суфийской педагогической мысли. Диссертация ...кандидата педагогических наук, Нижний Новгород, 2007, 239 с.



7. Nihoyat, bilim va ilm insonni pokiza va komil qiladi, ya'ni, ko'p jihatdan odamlarni ma'naviy va jismonan yaxshilash, yaqinlashtirish va Xudoga to'g'ri yo'lni ko'rsatish komil shaxsni shakllantiradi.

Farididdin Attorning bu pedagogik g'oyalari XII asrdayoq yorqin va bashoratli yangradi. Attorning pedagogik g'oyalari va topilmalari o'z xalqining manfaatini o'z manfaati va farovonligi uchun sotgan mo'g'ul bosqinchilari va mahalliy hukmdorlar tomonidan ekilgan vayronagarchilik va tengsiz shaxssizlikning qorong'i saltanatida quyosh nurlaridek porlagan edi. Ijtimoiy-siyosiy hayotni tashkil etishning mana shunday vahshiy sharoitlarida ham Attorning yorqin pedagogik g'oyalari xalq, yoshlar qalbidan joy oldi, maktab, madrasa, masjid, mehnatkashlar oilalari devorlariga kirib, qunt bilan amalga oshirildi. Xalqni ilm-fan va madaniyat, mehnat va insonparvarlik, oliyanoblik va ozodlikka muhabbat ruhida tarbiyalashdek kamtarona, mashaqqatli missiyasini amalga oshirdi. Bizningcha, Attorning bilim, ilm-fan va ta'limni o'zlashtirishning inson hayoti va faoliyatida zaruriyati va o'rni haqidagi pedagogik g'oyalarning azaliy qadriyati ham shundan iborat. Shuning uchun zamonaviy maktablar hayotida ushbu g'oyalarga bo'lgan talab dolzarbdir.

**Beknazarov Shamshir Marimbayevich (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
Pedagogika fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasini o'qituvchisi)  
KAMOLIDDIN BEHZOD VA TASVIRIY SAN'ATI ESTETIKASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon nafis san'atida miniatura san'atining tutgan o'rni, xususan, XIV–XV asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyatiga hissa qo'shgan rassom Kamoliddin Behzod ijodi va merosini o'rganuvchi mutaxassislar Jomiy, Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Taxmosp tasvirlari, shuningdek, Sharofiddin Ali Yazdiy, A.Jomiy, Dehlaviy, Sa'diy va Ganjaviy kabi mutafakkirlarining asarlariga ishlangan rasm va miniatyuralari haqidagi fikrlar tahlil qilib berilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается роль искусства миниатюры в мировом изобразительном искусстве, особенно творчество и наследие Камолитдина Бехзода, художника, внесшего вклад в науку и культуру Востока в XIV–XV веках, образы Джамии, Бойкары, Шайбанихана, Шаха Такмаспа, а также проанализированы и освещены представления о картинах и миниатюрах таких мыслителей, как Шарофитдин Али Язди, А.Джамии, Дехлеви, Саади и Гянджеви.*

***Annotation.** In this article, the role of miniature art in world fine art, especially the work and heritage of Kamoliddin Behzod, an artist who contributed to the science and culture of the East in the 14<sup>th</sup>-15<sup>th</sup> centuries, the images of Jami, Boykara, Shaibanikhan, Shah Takhmosp, as well as the ideas about the paintings and miniatures of thinkers such as Sharofiddin Ali Yazdi, A.Jami, Dehlavi, Sa'dii and Ganjavi are analyzed and illuminated.*

***Kalit so'zlar:** miniatura, musavvir, nafis san'at, o'yma ganch, Renessans, Sharq uyg'onish davri, Leonardo da Vinchi, Kamoliddin Behzod, Hirot, Samarqand, Isfahon, Tabriz.*

***Ключевые слова:** миниатюра, живописец, изобразительное искусство, гравюра, Ренессанс, Восточное Возрождение, Леонардо да Винчи, Камолитдин Бехзод, Герат, Самарканд, Исфahan, Тебриз.*

***Key words:** miniature, painter, fine art, engraving, Renaissance, Eastern Renaissance, Leonardo da Vinci, Kamoliddin Behzod, Herat, Samarkand, Isfahan, Tabriz.*

Miniatura san'ati jahon nafis san'atida noyob hodisa bo'lib, betakror va o'ziga xos qarashlar unda mujassam. San'atning bu turi Markaziy Osiyo va yaqin Sharqdagi xalqlar madaniyati taraqqiyot bosqichlarida asrlar osha sayqallangan. Uning asoschilaridan biri esa Kamoliddin Behzoddir.

XIV–XV asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada ravnaq topganligi, ayni chog'da, boshqa sohalarda, xususan, me'morchilik hamda tasviriy san'atda ham o'z ifodasini topdi. Bunda ko'p jihatdan bu davrda o'lka hududlarida hukm surgan tinchlik, osoyishtalikning sharofati ham katta bo'ldi. Shu davrda mahalliy hukmdorlarning sa'y-harakatlari tufayli shaharlarda noyob tarixiy obidalar, hashamatli binolar, ilmiy-madaniy maskanlar, kutubxonalar, masjid-u madrasalar qad ko'tardi.

Ayniqsa, xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar tomonidan yurt dov-rug'ini olamga tanitgan, ajoyib me'morchilik obidalari, tasviriy san'at namunalari yaratildi. Bu davr shaharsozligida xom g'isht va paxsalaridan keng foydalanilgan. Ularning shinamligi va ko'rinishini yanada ko'rkamlashtirishda ohakli qorishmalar ishlatilib, gajakdor qilib ishlov berilgan. Qurilgan ayrim masjid-

larning mehroblari esa silliqqlangan g'ishtlar, o'yma ganjlar, hatto tillo suvlari bilan ham bezatilgan. Har bir shahar markazida kitob do'konlari, madaniy mollar bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan.<sup>1</sup>

Buyuk musavvir Behzod miniatura san'atini faqat shakliy jihatdan emas, betakror mazmun va mohiyat, falsafiy jihatdan ham yuksak pog'onaga ko'tara oldi. Uning asarlari islomiy madaniyat durdonalari sifatida Yevropa tamadduniga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.<sup>2</sup>

Kamoliddin Behzod tabiatni tasvirlash uslubi, bo'yoqlardan foydalanish vositalari, rasmga olina-yotgan voqealarni nozik chiziqlarda ifodalash yo'llari, inson kayfiyati va harakatini aks ettira bilishdagi ustaligi, rasm kompozitsiyasining kengligi va ajoyib estetik zavq uyg'otishi bilan miniatura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Behzod ijodi va merosini o'rganuvchi mutaxassislarining fikricha, uning hozirgacha ma'lum bo'lgan asarlari taxminan. 30 ta rasm va rasmlar turkumidan iborat. Jomiy, Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Taxmosp tasvirlari, shuningdek, Sharofiddin Ali Yazdiy, A. Jomiy, Dehlaviy, Sa'diy va Ganjaviy kabi mutafakkirlarining asarlariga ishlangan rasm va miniaturlari bor. XV–XVI asrlarda Behzod ijodini Hirotda, Tabrizda, Buxoroda, Samarqandda, Sherozda, Isfaxonda, Istanbulda, Hindiston, shuningdek, ulkan Sharqning boshqa juda ko'plab shaharlarida ijod qilgan shogirdlari davom ettirdilar. Sulton Muhammad Qosim Ali Chehrakushoy, Darvish Muhammad, Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Shayxzoda Xurosoniy, Shoh Muzaffar, Mir Said Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi o'ndan ziyod atoqli musavvirlar Behzod maktabini, uning uslubini o'z zamonlari taqozolariga binoan rivojlantirdilar. Behzod maktabining hozirgi zamondagi davomchilarini Afg'onistonda (Ustod Muhammad Said Mash'al), Eronda (Karim Tohirzoda Behzod), O'zbekistonda (Chingiz Ahmarov) va boshqa Sharq o'lkalarida ko'rish mumkin.

Yevropa sivilizatsiyasining so'nggi ikki asrda yuksak darajada ravnaq topgani va keng ko'lamda quloch yozgani sabab bo'lib, O'rta dengizdan Hind ummoniga qadar cho'zilgan ulkan hududdagi mumtoz Sharq tamadduni jahon tarixiy-madaniy taraqqiyotidan chetga surilib qolgandek bo'ldi. O'tgan ana shu davr ichida VIII–XIX asrlarda gullab-yashnagan asl san'atni teran badiiylikdan mahrum shunchaki mistika mahsuli deb baholash urfga aylandi. Bugunga kelib esa jahon madaniyatini O'rta asrlar Sharq tasviriy san'atisiz tasavvur etish mumkin emasligi ayon bo'lib qoldi. Shunday ekan, hozirgi san'atshunoslar ulug'ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosni, umuminsoniy xazinani puxta tadqiq etmog'i darkor.

Sharq madaniyati jahonga asrlar davomida adabiyot, musiqa, me'morlik, rassomlik va amaliy san'at sohasida bir-biridan jozibador, bir-biridan hayratlanarli, bir-biridan ma'nodor durdonalarni tuhfa etdi.

E'tiborli jihati shundaki, Buxorodagi Mag'oki Attoriy masjidi-yu Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi, Samarqanddagi Registon majmuasi-yu Rimdagi Hazrat Pyotr ibodatxonasi ikki buyuk madaniyat – nasroniy Yevropasi va musulmon Sharqining o'ziga xos jihatlarini mujassam etgan. Ularning barchasi ma'naviy ahamiyati, inson ruhiyatiga ta'siri va beqiyos go'zalligi bilan jahon madaniyati durdonalari sanaladi. Yevropada O'rta asrlarda barpo qilingan muhtasham imoratlar va ayni shu davrda Osiyoda bunyod etilgan obidalar o'rtasida nafaqat shakl va me'moriy echimdagi o'xshashlik mavjud, balki ulug'vorligi, ko'tarinki tuyg'ularga yo'g'rilgan atmosferasi bilan ham hamohangdir.<sup>3</sup>

Islom san'atining asosiy yuksalishi Amir Temur va temuriylar zamonida kuzatilgan. Mazkur fenomenal davr o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, tasodifiy tarzda yuzaga kelib qolmagan, albatta. Adabiyot, me'morlik, tasviriy va amaliy san'at kabi ko'plab yo'nalishlarda insoniyatga betakror durdonalarni taqdim etgan ushbu oltin asrning "Temuriylar Renessansi" deya atalishi bejiz emas.

Ko'hna va navqiron shaharda o'tkazilgan yana bir xalqaro anjuman – UNWTO Ijroiya kengashi 99-sessiyasining ochilish marosimida BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh kotibi Taleb Rifai: "Yevropa tarixida muhim o'rin tutgan Renessans, ya'ni, Uyg'onish davri, aslida, mana shu zaminda ancha ilgari boshlanganini ta'kidlamog'chiman va zamonaviy madaniyat hamda sivilizatsiya aynan shu min-taqada paydo bo'lgan, deb ishonch bilan aytishim mumkin", deya ta'kidlagan.

Mazkur madaniy yuksalish davrida miniatura san'ati ham rivojlanib, yevropalik rassomlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. Buxoro, Hirot, Samarqand, Isfahon, Tabrizning mashhur miniaturchilari orasida, shubhasiz, buyuk musavvir Kamoliddin Behzod alohida maqomga ega. Uning ijodi aynan temuriy hukmdorlar homiyligida gullab-yashnagani tarixdan ma'lum.

Ko'plab yevropalik rassomlar–Renessans ulug'laridan XX asr buyuklarigacha – temuriylar davridagi sharqona miniatura va bezak san'atidan ilhom izlaganini e'tirof etgan. Ana shu e'tirofdan kelib chi-

<sup>1</sup> Арапов А. Амир Темур даврида меъморчилик. «Мозийдан садо», 2003, 2-сон, 30 – 38-бетлар.

<sup>2</sup> Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры 16–18 веков в избранных образцах. Ташкент, 1994, 54 с.

<sup>3</sup> Дилдаги гап. Умид Сориёв, Шукр Жаббор. "Интервью", 2021 йил 16-сон.

qib, ikki buyuk daho – Kamoliddin Behzod va Leonardo da Vinchi ijodini qiyosan o‘rganish o‘rinli. Ikki buyuk musavvir – ikki Renessans namoyandalari ijodi jahon madaniyati tarixida beqiyos iz qoldirgan. Ular deyarli tengdosh: Kamoliddin Behzod 1450 yoki 1455-yili tug‘ilgan, 1536-yili vafot etgan, qabri noma‘lum. Leonardo da Vinchi 1452-yili tug‘ilgan, 1519-yili vafot etgan, uning ham qabri noma‘lum. Ijodiy qismlari-da o‘xshash – Kamoliddin Behzodning sanoqli asarlari bizgacha etib kelgan – bugun musavvir o‘z qo‘llari bilan chizgan atigi uchta miniatura ma‘lum, bu benazir durdonalar AQSH (Baltimor), Angliya (Britaniya muzeyi) va Rossiya (Sankt-Peterburg)da saqlanadi. Leonardo da Vinchining ham aksar asarlari bizgacha yetib kelmagan. Ikki rassom ham e‘tiborda bo‘lgani bois hukmdorlar saroyida ijod qilgan va hayotligidayoq bemisl shuhrat qozongan. Ular turli makonda, turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitda faoliyat yuritgan, ular yashagan jamiyatdagi diniy-madaniy muhit ham farqli bo‘lgan. Te-muriylar davri miniatyuralari va Yevropada XV–XVI asrlarda yaratilgan tasviriy san‘at asarlari o‘rtasida o‘lcham, uslub va fazoviy echimda unchalik katta farq yo‘q. Ikki buyuk musavvirning asarlarida ohanglar umumiyliigi va mavzular muvofiqligi ko‘zga tashlanadi.

O‘rta asrlar san‘atida Sharq-u G‘arb aloqalari Usmonli saltanatida birmuncha kuzatilgan. Xususan, XV asr oxirlarida sulton saroyida venetsiyalik musavvir Jentile Bellini ijod qilgan. U G‘arb rangtasviriga xos nur-soya, bo‘rtma andaza an‘analaridan foydalangan holda Sharqona uslubda betakror suvratlar ishlagan. Usmonlilar sultoni ushbu rassom asarlaridan Hirotga ham yuborib, adabiyot va san‘atga homiyliigi bilan shuhrat qozongan Husayn Boyqaroni lol qoldirmoqchi bo‘lgan. Asosiy maqsad esa Hirot maktabi san‘atkorlarini ijodiy raqobatga chorlash edi. Natijada ikkala madaniy markaz namoyandalari bitta portretni o‘ziga xos tarzda chizib, mahorat sinoviga kirishgan.

Husayn Boyqaro Kamoliddin Behzodga Usmonli sultonining chaqirig‘iga munosib javob berishni buyuradi. Musavvir Sharqona tasviriy san‘atga xos bo‘lmagan turkum portretlar ishlagan. Bu asarlarda Yevropa rangtasviri ta‘siri sezilib turar edi. Ana shunday miniatyuralardan biri “Bag‘dodlik darvesh” 1500-yili chizilgan. Kamoliddin Behzod mazkur asarida usta miniatyurachi sifatidagi yuksak mahoratini, rangtasvirning akademik an‘analaridan yaxshi xabardorligini namoyish etib, nozik psixologik obraz yaratgan. Tavoze bilan o‘tirgan odamning yuz ifodasi va kayfiyatini juda aniq tasvirlagan. Darvesh oq qalpoq ustidan sipogina salla o‘rab, yelkasiga oddiy jun abo tashlagan, abo tagidan ko‘k ko‘ylagi ko‘rinib turibdi. Tomoshabinni xotirjam va sirli tikilgan ma‘noli nigohdan – eng muhim ma‘nodan hech narsa chalg‘itmaydi. Leonardo da Vinchining “Mona Liza”si ham ayni shu davrda yaratilgan. Mazkur kartina Yevropa tasviriy san‘atida psixologik portret yo‘nalishidagi o‘ziga xos hodisa hisoblanadi.

**Norboyeva Dilafruz Jumaqulovna (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi)**

## **UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA RUS ADABIYOTI NAMUNALARINI O‘RGANISHNING USLUBIY TAMOIYILLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va rus adabiyotining turli janrlarda yaratilgan, ertak, qissa, roman va boshqa turdagi asarlardan tashkil topgan badiiy asar namunalari muhokama qilinadi. O‘quvchilarga ana shu o‘xshash janrlar haqida ma‘lumot berilsa, rus va o‘zbek adabiyotini solishtirish mumkin bo‘ladi. Eng muhimi, manbalarda har ikki xalqning ijodiy hamkorligi, adabiy hayotning bir-biriga ta‘siri haqida yetarlicha umumiy ma‘lumotlar mavjud.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются образцы художественного произведения русской классической и узбекской литературы, созданные в разных жанрах (сказка, рассказ, роман и другие). Когда учащиеся информированы об этих схожих жанрах, появляется возможность сравнить русскую и узбекскую литературу. Самое главное, что в источниках достаточно зафиксированы общие сведения о творческом сотрудничестве обоих народов, взаимном влиянии литературной жизни друг на друга.

**Annotation.** On the example of Uzbek literature, as well as in Russian literature, there are pictorial works in various genres, which consist of fairy tales, short stories, novels and other types of works. When informing students about this related genre, there is a need to compare Russian and Uzbek literature. Most importantly, the output of cooperation between students of both nations lies in common sources of information in the mutual influence of literary life.

**Kalit so‘zlar:** badiiy asar, janr, adabiyot, ertaklar, hikoyalar, romanlar, ijod, manba, o‘zaro ta‘sir.

**Ключевые слова:** художественное произведение, жанр, литература, сказка, рассказ, роман, творчество, источник, взаимное влияние.

**Key words:** *work of art, genre, literature, fairy tales, stories, novels, creativity, source, mutual influence.*

Zamonaviy adabiy ta'limning asosiy maqsadlari maktab o'quvchilarini mahalliy va jahon adabiyoti xazinasi bilan tanishtirish, badiiy asarlarda aks ettirilgan voqelik hodisalarini estetik idrok etish va baholash qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchi shaxsining ma'naviy dunyosini shakllantirish, ijodiy salohiyat, axloq, fuqarolik, o'z-o'zini anglashning ijobiy va samarali ro'yobga chiqishi uchun ichki ehtiyojni shakllantirishdir.<sup>1</sup> Ma'lumki, o'qishlar o'zbek tilida olib boriladigan sinflarda, o'zbek adabiyoti bilan bir qator-da chet el va rus adabiyoti namunalari ham o'qitiladi. Adabiyot mashg'ulotlarida boshqa millat va xalqlar adabiyotini o'zaro qiyoslab o'rganish, o'quvchilar bilimlarini boyitish, badiiy adabiyot haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, rus adabiyoti namunalari o'zbek sinflarida o'rganishda bir muncha imkoniyatlar mavjud bo'lib, anchagina rus ijodkorlarining asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Maktab o'quv dasturiga kiritilgan rus adabiyoti namunalari ham mazkur qilingan tarjima asarlardan olingan namunalardan iboratdir. Ko'p yillik pedagogik kuzatishlar natijasida chiqarilgan xulosadan kelib chiqib, rus adabiyoti namunalari o'zbek sinflarida o'rganish usullariga doir ko'zga tashlanarli uslubiy qo'llanma yoki tadqiqotlarni uchratmadik.

Ma'lumki, ilk rus adabiyoti haqida o'zbek sinf o'quvchilari 4–7-sinfda tanisha boshlaydilar.

Tabiiyki, bu sinflarda o'quvchilar rus adabiyoti namunalari aks etgan mavzu va boshqa adabiy-badiiy vositalar hamda ularda keng qo'llanilgan badiiy janr turlari bilan tanishadilar. Rus adabiyotining jahon ahamiyati, unga xos bo'lgan ulkan insonparvarlik salohiyati, mavzular xilma-xilligi, janrlar va uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligi, eng yaxshi san'at asarlari namunalari beqiyos estetik qiymati rus adabiyotining yo'nalishini ta'kidlashga asos beradi.<sup>2</sup>

Yuqori sinflarga kelib esa, rus adabiyoti namunalari chuqurroq o'rganish imkoniyati keng bo'lib, hajman yirik, janr jihatdan xilma-xil bo'lgan asarlar tanlab olingan va o'zbek adabiyoti darsligi ham o'quv rejasiga kiritilgan. Chunki tarixan boy, turli janrlarda yaratilgan rus adabiyoti o'z mazmuni, qalamga olingan rus xalqi tarixi, madaniyati, tili, urf-odatlarini baynalminal ahamiyatga ega bo'lib, barcha xalqlar vujudga keltirgan ma'naviy qadriyatlarining uzviy qismini tashkil etadi.

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti namunalari ham, rus adabiyotida uchrovchi turli janrlarda yaratilgan asarlar ham mavjud bo'lib, ertak, hikoya, qissa, roman va boshqa ko'rinishdagi asarlardan iboratdir. Mazkur o'xshash janrlar haqida o'quvchilarga ma'lumot berilganda rus va o'zbek adabiyotini o'zaro qiyoslash imkoniyati vujudga keladi. Eng muhimi, har ikki millat o'quvchilarining ijodiy hamkorligi, adabiy hayotning bir-biriga o'zaro ta'siri xususida umumiy ma'lumotlar manbalarda yetarlicha qayd etilgan.

Ayniqsa, rus adabiyoti she'riyati bilan bog'liq tarjima namunalari o'quvchilarga yetkazishda o'qituvchidan har ikkala tilni bir-biriga qiyoslash mahorati, qolaversa, tarjimonning she'r matnini aslidan farqli jihatlarini anglash, his qilish qobiliyatini talab qiladi.

Shuningdek, she'r matnini bir-biriga qiyoslar ekan, eng muhim holat she'r matnini o'quvchilarga ifodali o'qib berish ham muhim ma'naviy-uslubiy jarayondir.<sup>3</sup>

Masalan, umumta'lim maktablarining 7-sinf darsligidagi iste'dodli rus shoiri Sergey Esenin ijodi namunalari "Eron taronalari" turkumidan olingan "Shahinam, o mening shahinam" va "Xurosonda bir darvoza bor" nomli namunalari kiritilgan. Bu she'riy namunalarni shoir Erkin Vohidov mahorat bilan tarjima qilgan.

Shoir Sergey Esenin she'rlarini tarjima qilar ekan, u shoirona qalb bilan matndagi go'zal g'oyani anglab olishga, o'quvchilarga aynan g'oyaning asl holicha yetkazishga intiladi. Shuningdek, rus she'riyati an'alariga amal qiladi. Ayniqsa, she'r matnidagi har bir so'zga, ularning o'zbek tilidagi muqobil shakllariga, rus tilidagi ifoda usullariga alohida e'tibor beradi.

O'zbek sinflarida o'rganilayotgan rus yozuvchilari, shoirlari haqida ma'lumot berish jarayonida ular ijod qilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot haqida berilgan obraz shaklidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga egadir.

Ravshanki, Sergey Esenin yashagan va ijod qilgan davr rus adabiyoti tarixining asosiy taraqqiyotga ko'tarilgan davrga to'g'ri keladi. Tabiiyki, shoir yashagan va ijod qilgan adabiy muhitda shoir ijodiga ta'

<sup>1</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. 2-ое изд, М., 2009.

<sup>2</sup> Черкезова М. В. Русская литература в национальной школе. М., 2011, с. 91–103.

<sup>3</sup> Шейман Л.А. Основы методики преподавания русской литературы в узбекской школе. Фрунзе, 2001, с. 80–82.

sir qilgan adabiy oqimlar va adabiy nazariy qarashlar, qolaversa, unga zamondosh bo'lgan ijodkorlarning o'zaro hamkorligi, ulardan farqli o'laroq, aynan Sergey Eseninning uslubiga xos va mos bo'lgan shaxsiy qarashlari xususida ma'lumot berish, shoirning o'z davrida tutgan o'rni va mavqeyini belgilaydi.<sup>1</sup>

Shunga ko'ra, obzor ma'lumotlar Sergey Eseninning qaysi she'ri o'rganilmasin, matn tahlili asosida beriladigan ma'lumotlar bevosita davr ruhi, adabiy-nazariy, madaniy hayot jarayoni haqida ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi. Shu sababli matnni tahlil qilish jarayonida, asarning hajmi, janr xususiyatlari o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan belgilanadi.

Tarjima qilingan asarlardan Pushkinning "Yevgeniy Onegin" (Oybek), Sergey Eseninning she'rlari (Erkin Vohidov) asl matnga yaqin bo'lib, ayniqsa, tarjimonlar til xususiyatlariga ijodiy yondoshganlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, hamma asarlar uchun bir qolipdagi umumiy usul va tavsiyalarining bo'lishi mumkin emas. Shu bois o'qituvchi tanlangan asarni tahlil qilganda, uning asosiy tarkibiy qismlarini bilmog'i, ana shundan kelib chiqib, o'z tajribasiga tayangan holda, qulay bo'lgan tahlil tartibini qo'llamog'i lozim. Masalan, rus adabiyoti namunalari tahliliga doir qo'yidagi muqobil yo'llardan foydalanish mumkin.

1. Rus adabiyoti vakillarining ijodiy kamolotida ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning qisqacha talqini.

2. Rus adabiyoti vakillari ijodining asosiy mavzusi va qalamga olgan ma'naviy g'oyaviy qarashlarining badiiy ifodasi talqini.

3. Rus tilining badiiy adabiyotdagi jozibasining o'zbek tiliga qilingan tarjimada ifodalanishi.

4. Rus adabiyotidagi an'anaviylik va novatorlikning har bir davrda tutgan o'ziga xos xususiyatlari.

5. Rus adabiyoti xususida o'zbek sinflarda mashg'ulot olib borayotgan o'qituvchi yuqorida sanab o'tilgan asosiy-nazariy, badiiy tushunchalarni barchasini bir darsda yoki bir asarni tahlil qilish jarayonida amalga oshira olmaydi.<sup>2</sup> Rus adabiyoti namunalari o'rganishning o'ziga xos muhim omillari mavjud bo'lib, bu har bir mavzuning o'rganishidan kelib chiqib qo'llaniladigan metodlardan iboratdir. Har bir metod o'tiladigan har mashg'ulotda qo'llanish barobarida, o'zaro taqqoslash yo'li orqali adabiy jarayon, yozuvchi qalamga olgan muhit va boshqa asardagi ifoda mezonlarini belgilab beradi.

O'zbek sinflari uchun tanlangan rus adabiyoti namunalari mohir tarjimonlar Oybek, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, asarlarning asliga mos va sof tarzda tarjima tili yaratilganligi o'quvchi va o'qituvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi.<sup>3</sup>

Bir so'z bilan aytganda, o'zbek tarjimonlari tilining boyligi, rus tili qonun qoidalaridan yaxshi xabardor ekanligi, har qanday murakkab fikrlarni ham to'la va ravon ifoda eta bilish imkonini berganligi sezilib turadi.

Shu o'rinda, Sergey Esenin chuqur va boy mazmunga ega bo'lgan she'riyati namunalari o'zbek tiliga tarjima qilgan Erkin Vohidov shoirning kuchli psixologik kechinmalarini mohironalik bilan yoritib berganligi o'zbek o'quvchilariga shoirni yaqinlashtirish imkonini bergan.

Yoki, A.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani Oybek tarjimasida shakl va mazmun birligi yaxshi aks etganligi bois o'quvchilarning sevimli asariga aylanishiga sabab bo'ldi. O'zbek sinfida o'qiyotgan o'quvchi bu asarning g'oyasi va mazmuni haqida to'liq tushunchaga ega bo'lmasligi mumkin, ammo asarda aytilgan, o'quvchi qabul qilishi mumkin bo'lgan fikrni bayon qilish uslubi muhim bo'lib, o'quvchining mahoratini o'quvchilar ko'zi oldida namoyon etadi. Chunki o'zbek sinflarida o'qiyotgan o'quvchilar rus ijodkorlarining asarlarining asl matnini o'qishda tabiiyki qiynaladilar. A.S.Pushkinning asarlarini to'liq o'rganish va o'zbek shoirlari asarlari bilan solishtirganda va adabiyotlarni (rus va o'zbek) o'zaro bog'liq holda o'rganish tamoyiliga tayanishi maktab o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlar bo'lgan shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalashga ta'sir qiladi.

Shunday ekan, o'zbek sinflarida tahsil olayotgan o'quvchilarni rus adabiyotining ayrim vakillari bilan tanishtirish, ularda rus adabiyoti haqida ma'lum tasavvur hosil qilish va ayrim mustaqil o'qiganlarini tartibga solish imkonini beradi.

Ayniqsa, yuqori sinf o'quv dasturiga kiritilgan rus adabiyoti namunalari, xususan A.Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini o'rganish mavzusining kiritilishi o'quvchilar uchun birmun-

<sup>1</sup> Хайруллин Р. 3. Национальная школа: взаимосвязанное изучение литератур. Пособие для учителя, М., 2005.

<sup>2</sup> Турьянская Б.И. Материалы к урокам литературы в 5–7 классах. М., "Русское слово", 2006, 253 с.

<sup>3</sup> Naim Karimov. O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi. T., "Fan", 2002, 6–13-bet.

cha murakkab bo'lsada, sodda til, ravon uslubda tarjima qilgani uchun u rus adabiyoti, ular yaratgan asarlar, muammolari haqida ma'lumot olish imkonini bergan.

O'zbek tilida ta'lim olib boriladigan sinflarda rus adabiyoti ijodkorlarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan tarjimonlar, ularning mashaqqatli mehnatlari tufayli o'zga bir xalqqa mansub bo'lgan ijodkor asarlari bilan tanishtirgan insonlar haqida so'z yuritilmaydi va kichik izoh ham berilmaydi.

Nazarimizda, rus adabiyoti o'rganilayotgan mashg'ulotda, ularning asarlarini o'zbek tiliga o'girgan tarjimonlar haqida ham o'qituvchilar qisqa ma'lumot berib o'tsalar, o'quvchilar tarjimonshunoslik sohasidagi katta mehnat talab qiladigan ilm ekanligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Bir so'z bilan aytganda, o'zbek sinflarida rus adabiyoti vakillari, ularning asarlaridan kiritilgan namunalar, tabiiyki, o'quvchilarga adabiyot haqida puxta bilim berish bilan bir qatorda, ularning fikr dunyolarini boyitishga hissa qo'shadi.

“O'zbek adabiyoti” darsligida rus adabiyoti namunalarini o'rganish haqida so'z borar ekan, albatta, mazkur adiblar qalamiga mansub bo'lgan asarlarning O'zbekistonda o'rganilishi tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib borish ham o'quvchilarni rus adabiyoti namunalarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Yana bir gap, adabiyot darslari tizimiga rus va o'zbek adabiyoti badiiy matnlarini qiyosiy tahlil qilish bilan bog'liq amaliy ishlarning bosqichma-bosqich kiritilishi ikki adabiy asarning badiiy matnini yaxlit idrok etishni ta'minlaydi, maktab o'quvchilarining tahliliy ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, o'quvchilarga adabiy asardagi badiiy so'zning ma'nosini tushunishga yordam beradi.

**Burxanov Taxir Maxammatjonovich (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD))**

## **BO'LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA MA'NAVYI-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaklik samaradorligini kafolatlovchi umumfalsafiy mezonlar o'rganilib, taxlil qilingan.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются общеполитические критерии, гарантирующие высокую эффективность морально-нравственных качеств будущих военнослужащих, приводится их анализ.*

***Annotation.** The article investigates and analyzes the general philosophical criteria that guarantee the high efficiency of the moral qualities of future servicemen.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviyat, madaniyat, axloq, odob, harbiy xizmatchi, g'oya, qadriyat, yoshlar, ma'naviy-axloqiy*

***Ключевые слова:** духовность, культура, этика, нравы, военнослужащий, идея, ценность, молодежь, духовно-нравственный.*

***Key words:** spirituality, culture, ethics, morals, soldier, idea, value, youth, spiritual and ethical.*

Butun dunyoda sodir bo'layotgan global o'zgarishlar ma'naviy kamolot muammosini tushunishda faqat an'anaviy tasavvurlar bilan cheklanib qolish mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Axloqiy qadriyatlar iyerarxiyasidagi tenglashtirish tamoyili yaqqol ko'zga tashlanayotgan hozirgi vaqtda shaxs va jamiyat faoliyatidagi mavjud axloqiy qoidalarning buzilishini, axborot sohasidagi mafkuraviy tahdidlar, xususan, shubhali axloqiy mahsulotlarni tortiq qilayotgan “ommaviy madaniyat” unsurlari egallayotganligi bilan izohlanmoqda. Bunday muammolarning oldini olish va bartaraf etishda ma'naviy-axloqiy ongni yuksaltirish masalasi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ushbu vaziyat ijtimoiy-falsafa fanining oldiga kursant-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini yanada yuksaltirishning samarali yo'llari va vositalarini aniqlash bilan birga, amaliyotga ma'naviy-axloqiy ong haqida yanada chuqurroq bilimlarni taqdim etish zaruratini qo'ymoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson omili bilan bog'liq muammolar o'z ko'lamiga ko'ra ijtimoiy falsafa sohasining muhim tadqiqot obyektiga aylandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”.

Bundan xulosa qilgan holda, “ommaviy madaniyat” ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrashga, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak”[2].

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida yoshlar ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishning metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish, uni obyektiv baholashning paradigmal mezon va darajalarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar "hayot ma'nosini anglash", "hayotga maqsadli munosabatda bo'lish", "hayotga mustahkam ishonch va e'tiqod", "vatanni sevvish", "insoniylik", "oila mas'uliyati", "kasbga muhabbat" va boshqa shu kabi ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarning tahlili, ma'naviy-axloqiy ongning turlarini definititsiyalash, kursantlarning ma'naviy-axloqiy ongini yuksaltirish muammolarini o'z ichiga olib, xalqaro miqyosda yoshlarni ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning yangicha modellarini yaratish va amaliyotga tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Falsafa fanida mezon – boshlang'ich nuqta, boshqaruvchi g'oya, xulq-atvor, o'zini tutishning asosi sifatida qaraladi. Mantiqiy ma'noda esa mezon markaziy tushuncha bo'lib, abstraksiya sifatida olingan hodisaning barcha sohalariga tadbiq qilinuvchi, umumlashtiruvchi va tarqatuvchi tizimning asosi hisoblanadi. Muayyan bir nazariya, ta'limot, fan, dunyoqarash yoki nazariy dasturning asosi - mezon hisoblanadi. Mezon insonning e'tiqodi, voqelikka bo'lgan munosabati va xulq-atvor me'yorlarini belgilab beradi [1].

Bo'lajak harbiy xizmatchilarning "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan asrashda ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaklik samaradorligini kafolatlovchi mezonlarni aniqlashtirib olishni talab etadi. Buning uchun esa, ma'naviyatni shakllantirdagan umumfalsafiy mezonlarni o'rganish va taxlil qilish maqsadga muvofiq.

"Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati"da "ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar"ga quyidagicha ta'rif beriladi: "Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar – inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, qoyalar va qarashlar umumlashmasi"[3].

Bo'lajak harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirish jarayonlari asosiy to'rta; ijtimoiylashuv, psixologik, kommunikativ va kasbiy yetuklik mezonlari doirasida tahlil qilindi. Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

–ijtimoiylashuv moslashuvchanlik–harbiy xizmatchining mudofaa faoliyatiga ijtimoiy moslashuvi, harbiy xizmat funksiyalari haqidagi tasavvurlari; harbiy xizmatchi o'z vazifasini anglashi; yuz berishi mumkin bo'lgan harbiy haraktlar teatrining o'ziga xos xususiyatlarida ishtirok etishi; harbiy operatsiyalar amalga oshiriladigan eng muhim yo'nalishlarda mamlakatimizni ehtimol tutilgan dushmanning bosqinchilik haraktlaridan ishonchli muhofaza qilishga qodirligi; kasbiy xulq-atvorga egaligi; shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini anglashi;

– psixologik moslashuvchanlik–jangovar vaziyatda maqsadga erishish jangovar harakat vaziyatining xavfli, kutilmagan tasodiflarga boy xarakteriga tayyor turishlik; jangovar vaziyat bilan hisoblashishlari, uning ehtimoliy o'zgarishlarini hisobga olishlari, salbiy ta'sirlarni yengib o'tishlari, jangovar stressomillar, emotsional-irodaviy barqarorlik, aniq axloqiy-psixologik sifatlarga tayyor turishi va yengib o'tishi; salbiy ta'sirlarni yengib o'tishlari motiv, qadriyat, ehtiyoj va boshqalarning kasbiy zaruriyati hamda ularning rivojlanishi;

– kommunikativ moslashuvchanlik–insonlar bilan muloqotni yo'lga quyish va saqlab tura olish ko'nikmasi; empatiya va qayg'ura olish qobiliyati; harbiy jamoada ijobiy axloqiy-psixologik muhitni yo'lga qo'yishga intilishi; shaxsiy tarkib bilan insonparvarlik, demokratik o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishi;

– kasbiy yetuklik – harbiy-kasbiy faoliyatiga ijobiy munosabat; harbiylik kasbga qadriyatli munosabat; tanlangan kasbdan qoniqish hissi; kasbiy-axloqiy sifatlarning mavjudligi; harbiylik refleksiyaning namoyon bo'lishi; o'z-o'zini boshqara olish; kasbiy bilim olishga intiluvchanlik; kasbiy muhitni muvaffaqiyatli egallash; bor kuchini sarf etishga tayyorlik; saviyasi va ma'naviy ehtiyojlarining kengligi; ijtimoiy muloqotchanlik; ijodiy yondashuvchanlik; kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni uzluksiz takomillashtirishga tayyorlik.

Bo'lajak harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish o'z navbatida texnologik yondashuvni amalga oshirishni taqozo etdi. Kursantlarni harbiy-kasbiy ijtimoiylashtirish parametrlariga tayangan holda tadqiqot doirasida texnologik yondashuv asosida kursantlarning ma'naviy kamotini yuksaltirishning ijtimoiylashuv moslashuvchanlik, psixologik moslashuvchanlik, kommunikativ moslashuvchanlik, kasbiy yetuklik mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Bo'lajak harbiy xizmatchilarda ma'naviy-axloqiy ongni yanada yuksaltirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ijtimoiy, ma'naviy-

ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish hamda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish reja – tadbirlarini 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonning 5-bandi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish va 7-bandi mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bandlarida yaqqol ifoda etib berdi [4].

Bo'lajak harbiy xizmatchilarda ma'naviy axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning mazkur mezonlari va ko'rsatkichlari, o'z navbatida, quyidagi jihatlarni hisobga olishni talab etishi aniqlandi: kursantlarning "ma'naviy kamolot" tushunchasi mazmun-mohiyatini bilishi va tushuna olishi: "ma'naviyat", "ma'naviy boyliklar", "ma'naviy buzg'unchilik", "ma'naviy burch", "ma'naviy vorislik", "ma'naviy jasorat", "ma'naviy zaiflik", "ma'naviy zarar", "ma'naviy ideal", "ma'naviy illatlar", "ma'naviy yo'qotishlar", "ma'naviy madaniyat", "ma'naviy meros", "ma'naviy-ma'rifiy ishlar", "ma'naviy poklik", "ma'naviy tahdid", "ma'naviy tarbiya", "ma'naviy targ'ibot-tashviqot", "ma'naviy ta'sir", "ma'naviy tubanlik", "ma'naviy fazilatlar", "ma'naviy xavfsizlik", "ma'naviy ehtiyojlar", "ma'naviy yangilanish", "ma'naviy o'zlikni anglash", "ma'naviy qadriyatlar", "ma'naviy qaramlik" kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini anglay olish; ma'naviy madaniyat qonunlari (ma'naviyat va moddiy hayot uyg'unligi; ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi; ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi), uning individual shakllari (har bir insonning tabiiy-tarixiy qadriyatlari; axloqiy qiyofasi, nafosati va go'zalligi; mehnati va iqtisodiy madaniyati; individual kamoloti va ijtimoiy mavqei;) va milliy asoslarini bilish; milliy g'oya, mafkura va ma'naviyat, ma'naviyat va moddiylik, ma'naviyat va din, ma'naviyat va iqtisod, ma'naviyat va ma'rifat, ma'naviyat va siyosat, umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyatimizning uyg'unligini tushunish; milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari va ma'naviy merosimizdan xabardor bo'lish; ma'naviy madaniyat bilan bog'liqlikda o'rganilgan materiallarni harbiy faoliyatda qo'llay olishi; kasbiy faoliyati bilan bog'liklikda ma'naviy yetuklikni namoyon eta olish; o'zining harbiy faoliyatida ma'naviy merosdan samarali foydalana olish; ma'naviy illatlarga qarshi tura olish va kurashish; ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlarida faol ishtirok etish; ma'naviy-ma'rifiy ishlarda jonbozlik va ma'naviy jasorat ko'rsata olish. ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tasniflash; mustaxillik ma'naviyatining asosiy yunalishlari va o'ziga xosliklarini belgilay olish; shaxs va millat ma'naviy kamolotining uyg'unligini tavsiflash; shaxs ma'naviyati va milliy ma'naviyatning o'zaro nisbatini umumlashtira olish; kursantlarning shaxs ma'naviy ehtiyojlarini baholay olishi: inson hayotida ma'naviyatning o'rni va ahamiyatini asoslash; iqtisod, siyosat, ma'naviyat; harbiy xizmat faoliyatida o'zaro uyg'unligi zaruratini baholay olish; milliy mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi va buning sabablari haqida qarorlar qabul qila olish; ma'naviyatning milliyliigi va umuminsoniy tavsifga egaligini baholash; ma'naviy yetuklik darajasini butun insoniyat manfaatlari, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlari hamda milliy qadriyatlarimiz majmuyini yaxlit uyg'unligi asosida baholay olish, milliy armiyani ma'naviy-axloqiy yuksak harbiy xizmatchi kadrlar bilan ta'minlash.

Bugungi kunda harbiy xizmatchi shaxsi ma'naviy kamolotiga tahdid solib turgan omillar quyidagilardan iborat:

1. Demokratiya eksporti. Ma'lumki, rivojlangan mamlakatlar "oltin milliard" deb atalayotgan G'arb fuqarolarini energiya bilan ta'minlash ilinjida energetik imkoniyatlari yuqori mamlakatlarga, xususan, O'zbekistonga ko'z tikmoqdalar. Bunday katta imkoniyatlarni o'z ta'sir ob'ektiga aylantirish maqsadida turli siyosiy kuchlar o'zlarining "demokratiya", inson huquqlari va erkinliklari haqidagi milliy qadriyatlarga zid bo'lgan qarashlarini targ'ib etmoqdalar. Demokratiya - jamiyatni boshqarishning o'ziga xos shakli ekanligi, uning prinsiplari va uslublari, omillari va vositalari esa mahalliy shart-sharoitlarga mutanosib tarzda o'zgarib borishi ularni mutlaqo qiziqitirmaydi.

2. Islomni obro'sizlantirishga urinishlar. Turli siyosiy kuchlar o'zbek kishisining Sovet hokimiyati yillarida asl islom ma'rifatidan uzilib qolganidan foydalanib, yoshlarning ma'lum qismiga vahhobiylik g'oyalari sof islom g'oyalari sifatida singdirdilar. Bugun esa asrlar davomida islom dini va madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan, islom madaniyatini himoya qilishga qodir bo'lgan O'zbekistonni vijdon erkinligi cheklangan mamlakat sifatida tanitishga urinilmoqda.

3. Ma'naviy anarxiya. Jahonda faoliyat ko'rsatayotgan turli siyosiy kuchlar maxsus xizmatlarning moliyaviy mablag'lari yordamida rivojlanayotgan, ayniqsa, katta iqtisodiy va energetik imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda, ma'naviy boshboshdoqlikni vujudga keltirishga intilmoqdalar. Shu maqsadda "Birlashish cherkovi", "Oq birodarlik", "Iegovo guvohlari", "AUM-Sinrike",



“Saentologik cherkov”, “Adventes” kabi diniy sektalar va missionerlik harakatlari quloq yoymoqda. Bugungi kunda MDH hududida 45 dan ortiq ana shunday sektalar faoliyat ko‘rsatmoqda [5].

4. Texnika va texnologiyalar targ‘iboti. G‘arazli siyosat rahnamolari turli mamlakatlarning e‘tiborini jalb etish, o‘z ta‘sir doirasiga kiritish maqsadida o‘z iqtisodiy, ijtimoiy, informatsion texnika vositalari va texnologiyalarini targ‘ib etishga urinmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki, mamlakatlar fuqarolariga ushbu texnologiyalar haqida ijobiy tasavvurlar shakllantirilsa, ularni joriy etish bozori vujudga keladi. Natijada yangi texnologiyalar bilan birga o‘z taraqqiyot modelini, qadriyatlarini, ehtiyoj va manfaatlarini ham singdirish, eksport qilish imkoni yaratiladi.

5. Informatsion urush. Bizning davrimizga kelib, informatsiya u yoki bu guruhning manfaatlarini ifodalovchi, shu manfaatlarini amalga oshirish uchun real shart-sharoit yaratuvchi kuchga aylandi. Ana shunday shart-sharoitni yaratishga qaratilgan informatsion urush ikki yo‘nalishda olib borilmoqda. Birinchidan, jahonda sodir bo‘lgan har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki ma‘naviy-madaniy voqea ma‘lum siyosiy kuchlarning manfaatlarini kontekstida yoritilmoqda. Ikkinchidan, negativ axborotlarni tarqatish kuchayib bormoqda.

6. Axloqiy degradatsiya. Yoshlarning intellektual salohiyatiga, axloqiy fazilatlariga ta‘sir o‘tkazishga qaratilgan tadbirlar ko‘paymoqda. Masalan, G‘arb olamida katta-katta kompaniyalar yigit va qizlarning intellektual salohiyatini yemiruvchi, axloqsizlik sari undovchi realiti-shoular, tok-shoular, kamedikliklar, o‘yinlar, reklamalarning ssenariylarini tuzish va eksport qilish, pornografik saytlar tashkil qilish bilan mashg‘ullar. Bunday realiti-shoular va pornosaytlar G‘arb jamiyatini ich-ichidan yemirib borayotgan illatlarni targ‘ib va tashviq etmoqda, yoshlarni axloqsizlik sari undamoqda.

7. Ruhiy agressiya. O‘zbekiston fuqarolarining ruhiy kechinmalarini nazorat ostiga olishga urinilmoqda. O‘zbekistonga qarshi qaratilgan ruhiy agressiyaning to‘rt asosiy maqsadi mavjud: birinchidan, ruhiy ta‘sir ko‘rsatish yo‘li bilan xalq jipsligini yemirish; ikkinchidan, o‘zbek xalqini tanlagan yo‘lidan qaytarish va unga o‘z taraqqiyot modelini singdirish; uchinchidan, milliy-ma‘naviy qadriyatlar sistemasini yemirish va ular o‘rnini g‘arbonsa qadriyatlar yoxud g‘ayriqadriyatlar bilan to‘ldirish; to‘rtinchidan, o‘zbek kishilari ko‘ngliga vahima solish, ertangi kunga bo‘lgan ishonchni so‘ndirish.

Albatta, ma‘naviy tahdidning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud. Biroq bayon etilganlarining o‘ziyoq hozirgi zamon sivilizatsiyasi sharoitida shaxsga ma‘naviy tahdid ko‘rsatuvchi omillar va vositalar naqadar murakkablashib ketganligini yorqin ifodalab bera oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, Qurolli Kuchlar tizimida kursantlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish bo‘yicha bir qator huquqiy xujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosida hozirgi kundalik faoliyatda keng foydalanib kelmoqda va ta‘lim jarayoni shu asosda tashkillashtirilmoqda. Bu esa kursantlarni tarbiyalashning bugungi holatini baholashda asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida ofitserlarni tayyorlashning ma‘naviy-axloqiy asoslarini o‘rganish bilan bir qatorda, mazkur yo‘nalishni yagona tizim sifatida tadqiq etish hamda tizimga qo‘yilgan talablarni, shuningdek, tizim elementlari, tag tizimlarni va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni va tizimning bugungi kundagi holati, uni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omil va muammolarni tahlil etish muhim bo‘lib hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 2-jild, T., “O‘zbekiston”, 2019, 88-bet.
2. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. T., “Akademiya”, 2008, 32-bet.
3. Ma‘naviyat: asosiy tushunchalar izoxli lug‘ati/tuzuvchi va mas‘ul muxarrir. Nazarov. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2010, 760-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi F-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
5. <http://pravoslavie.uz/Prosvetit/Apologet/Sekty0205/htm>

#### **Temirov Sheroz To‘rayevich (Buxoro muhandislik-texnologiya instituti) MIR MUHAMMAD MIRSIDDIQ HASHMATNING O‘RTA OSIYO MADANIY-MA‘RIFIY RIVOJIDAGI O‘RNI**

*Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshida O‘rta Osiyo madaniy-ma‘rifiy hayotiga ulkan hissa qo‘shgan buxorolik adib, shoir va olim hamda xushnavis xattot Mir Muhammad Mirsiddiq Hashmat Buxoriy ilmiy va adabiy merosi asl manbalar asosida tadqiq qilinib, Buxoro adabiy muhitida*

tazkiralarning rivoji jarayonida Mirsiddiq Hashmat Buxoriy tazkiralarning ilmiy ahamiyatini aniqlashga harakat qilingan.

**Аннотация.** В статье на основе первоисточников, относящихся к литературной среде Бухары, исследуется научно-литературное наследие писателя, искусного каллиграфа, поэта и ученого из Бухары Мир Мухаммада Мирсиддика Хашимата Бухари, внесшего большой вклад в культурно-просветительскую жизнь Средней Азии конца XIX – начала XX вв. Предпринята попытка определения научного значения антологий Мирсиддика Хашимата Бухари.

**Annotation.** The article deals with the scientific and literary heritage of Mir Muhammad Mirsiddiq Khashmat Bukhari, a writer, poet and scientist from Bukhara, who made a great contribution to the cultural and educational life of Central Asia in the late 19<sup>th</sup>-early 20<sup>th</sup> centuries. An elegant calligrapher is researched on the basis of primary sources, in the literary environment of Bukhara. During the development of tazkir, an attempt was made to determine the scientific significance of the tazkirs of Mirsiddiq Hashmat Bukhari.

**Kalit so‘zlar:** Mir Muhammad Mirsiddiq Hashmat, Mustaqillik, Buxoro, Tazkira, Movarounnahr, Sadr Ziyo, Sadriddin Ayniy, “Tazkirat ush-shuaro”, xattot.

**Ключевые слова:** Мир Мухаммад Мирсиддик Хашиमत, Независимость, Бухара, Антология, Маверауннахр, Садр Зия, Садриддин Айни, «Тазкират уш-шуаро», каллиграф.

**Keywords:** Mir Muhammad Mirsiddiq Hashmat, independence, Bukhara, Tazkira, Movarounnahr, Sadr Zia, Sadriddin Aini, “Tazkirat ush-shuaro”, calligrapher.

Mustaqillik tufayli yorqin istiqbol sari yuz burgan yurtimiz qiyofasida ro‘y berayotgan teran mazmunli va mohiyatli o‘zgarishlar, olg‘a tomon zalvarli siljishlarni nigohimizdan o‘tkazar ekanmiz, ularning zamirida o‘z taqdiri va kelajagining chinakam egalari bo‘lib olgan xalq dahosi va salohiyatining mo‘jizakor kuch-qudrati muhayoligi to‘la ma’noda namoyon bo‘ladi.

Vatanimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayoti tarixida davlat arbobi, ma’rifatparvar ziyoli, olim, adib, shoir va xushnavis xattot sifatida o‘chmas iz qoldirgan Mir Muhammad Mirsiddiq Hashmat Buxoriy ismi dunyo ilmiy doiralari, jumladan, o‘zbek manbashunos olimlari orasida yaxshi ma’lum bo‘lsa-da, bu allomaning hayoti va ijodi keng o‘zbek kitobxonlari ommasiga haligacha tanishtirilmagan.

Ha mustaqillik obihayot yanglig‘ ozodlik, hurlik va erkka tashna, unga talpinib yashab kelgan jafokash xalqimiz, uning farzandlariga ruhiy quvvat, ma’naviy kuch bag‘ishlab, ularni ulkan yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlariga ruhlantirib, qanoatlantirib yubordi. Uzoq mingyilliklar qa’riga borib tutashuvchi teran tarixiy tomirlarimizdan, bebaho, betimsol ma’naviy qadriyatlarimizdan, barhayot an’analarimiz va umrboqiy udumlarimizdan oziqlanish, ulardan ruhiy quvvatlanish barobarida jamiyat fuqarolarining g‘ayrat-shijoati, tashabbusi faolligi jo‘sh urib, bundan mustaqil yurt shakl-u shamoyili, fayz-u tarovati o‘zgarib, uning qiyofasi o‘zgacha chiroy va manzara kasb etib bormoqda.

Xususan, oila, mahalla va ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, jamiyatdagi uyushmagan yoshlar bilan maqsadli, go‘yaviy-tarbiyaviy hamda mafkuraviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, radikal ruhdagi harakatlarda adshib qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarda e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajrimlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish har doim gidan ham muhim vazifaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi g‘oyaviy-mafkuraviy xavf-xatarlar tobora ortib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi O‘zbekiston rahbariyatining buyuk xizmatlaridan biri shundaki, uchinchi Renessans sari borish taraddudida respublika butun ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotining barcha sohasini qamrab olayotgan bir paytda mislsiz bu o‘zgarishlarga hamohang yurt odamlarining dili, qalbiga yo‘l topib, boshini qovushtirib, ularni bugungi kundanda yorug‘ va shukuhli kunlar kelishiga chuqur e’tiqod va ishonch ruhini tug‘dira bildi.

XIX asr oxiri–XX asr boshida O‘rta Osiyo madaniy-ma’rifiy hayotiga ulkan hissa qo‘shgan buxorolik adib, shoir va olim hamda xushnavis hattot Mir Muhammad Mirsiddiq Hashmat Buxoriy o‘zidan turli mavzulardagi ilmiy, badiiy asarlar yodgor qoldirgan ziyoli vatandoshimiz sanaladi. Maqolada ilmiy va adabiy hujjatlarni asl manbalar asosida tadqiq qilinib, Buxoro adabiy muhitida tazkiralarning rivoji jarayonida Mirsiddiq Hashmat Buxoriy tazkiralarning ilmiy ahamiyatini aniqlashga harakat qilingan.

Movarounnahrning qadim zamonlardan to bizgacha bo‘lgan adabiyoti tarixida fan va adabiyotning turli sohalarida qimmatli asarlar yaratilgan bo‘lib, ular orasida tazkiralalar ham alohida o‘rin tutadi. O‘tmish adiblarimiz o‘nlab tazkiralalar yaratib, she’riyat va adabiyot taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar, ularsiz adabiyot tarixining kengligi va teranligini o‘rganish mumkin emas. Sho‘ro hayoti va ijodini qayta

ko'rib chiqish, adabiy doiralarning yuksalishi, tazkiralarda so'zlovchilarga qarash uslubi o'ziga xos ni-shona va muhim ilmiy manba sifatida katta tadqiqot ahamiyatiga ega.

Zamonaviy davr ilmiy tadqiqotlari o'zbek adabiyotida XIX–XX asrlar adabiy-madaniy hayoti va namoyandalari hamda adabiy markazlarning (Buxoro, Samarqand, Xo'qon, Istaravshan, Xo'jand va bosh-qalar adabiy mintaqalari) noaniq tomonlari va o'ziga xosliklariga oid qimmatli ilmiy tadqiqot ishlari chop etilgan bo'lsa-da, lekin haligacha ijodining o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi alohida o'rganilmagan. Shular jumlasidan mutaffakir shoir Mir Muhammad Siddiq Hashmat ijodi va faoliyati alohida o'rganish va tahlil etish bugungi kun dolzar talabiga aylandi.

Movarounnahrda tazkirachilik an'anasining qisqacha tarixi XIX–XX asrlar o'zbek adabiyoti tazkirachilarining o'rni va mavqeyini ko'rsatish maqsadidagina keltirilgan. Bu nuqtayi nazardan, ijodiga kam e'tibor qaratilayotgan Mirsiddiqxon Hashmat Buxoroiy ijodining uslub va she'rlarning o'ziga xos ji-hatlari, uslub va tasnifi va qiyoslash usullarini tan olish bizning tadqiqotchilarimizning asosiy muloha-zalari diqqat markazida bo'ladi.

